

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI QARSHI FILIALI

UO‘K 821.111.091-21+821.512.133.091-21
YAXSHIYEVA ZEBO RASHIDOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AMIR TEMUR
OBRAZI TALQINLARI: TARIXIY HAQIQAT VA
BADIY VOQELIK UYG‘UNLIGI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini
olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Jizzax– 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR OBRAZI: GENEZIS VA TADRIJ	
I.1. Ingliz va o‘zbek badiiy, ilmiy adabiyotida temurshunoslik tadriji.....	14
I.2. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida Temur va temuriylar obrazi talqinlari.....	32
I.3. Ijodkor ijtimoiy-estetik ideali va tarixiy shaxs konsepsiysi.....	51
Bob bo‘yicha xulosalar.....	69
II BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TARIXIY ROMANLARINING SPETSIFIKASI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	
II.1. G‘arb, rus va o‘zbek tarixiy romanlari genezisi va taraqqiyoti.....	72
II.2. Amir Temur va temuriylar obrazi asosida yaratilgan romanlar konsepsiysi, arxitektonikasi: retrospektiv syujet.....	90
II.3. Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan romanlarda tarixiy jarayonning badiiy voqelikka aylanish prinsiplari.....	104
Bob bo‘yicha xulosalar.....	122
III BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR OBRAZINING DRAMATIK TALQINLARI	
III.1. Ingliz Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davri adabiyotida Sohibqiron obrazi.....	124
III.2. O‘zbek va inglizzabon dramaturgiyada Amir Temur va temuriylar obrazi talqinlari.....	143
III.3. Dramada nutq va sintaksis.....	164
Bob bo‘yicha xulosalar.....	185
IV BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK LIRIKASIDA SOHIBQIRON SIYOSI: INDIVIDUAL USLUB VA BADIYAT	
IV.1. She’riyatda shaxs va erk muammosi.....	187
IV.2. Liro-epik janrda Sohibqiron obrazi: shaxs va taraqqiyot.....	202
IV.3. Amir Temurga bag‘ishlangan she’rlarda til, uslub va obrazlar tizimi	218
Bob bo‘yicha xulosa.....	231
UMUMIY XULOSALAR.....	234
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	239

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida tarixda chuqur iz qoldirgan ulug‘ davlat arboblarining hayoti va faoliyati aks ettirilgan ko‘plab asarlar mavjud. Jumladan, Amir Temur obrazi badiiy talqin etilgan epik, lirik, dramatik va liro-epik turga mansub janrlarda yaratilgan ijod namunalari jahon adabiyotida ham, milliy adabiyotimizda ham ko‘plab uchraydi. XV asr boshlaridanoq, Temuriylar davlatining Fransiya, Angliya, Ispaniya kabi g‘arb davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yanligi, Yevropa olimlarida Sohibqironning kuchli shaxsiyatiga, mohir sarkardalik faoliyatiga nisbatan hayrati va qiziqliki kuchaygani bu xalqlar adabiyotidagi umumiyligi mavzular ko‘lamiga ma’lum darajada ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. K. Marlo, E. Allan Po, N. Rou, Ch. Sanderz singari ijodkorlar turli janrlarga mansub asarlarda Amir Temur obrazining badiiy talqinlarini ulkan muvaffaqiyat bilan yarata oldilar. Bu asarlarda sohibqiron Amir Temur ko‘plab o‘lkalarda qat’iy tartib vaadolat o‘rnatishni o‘zining eng muhim vazifasi deb bilgan buyuk davlat arbobi, ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san’at homiysi sifatida tasvirlandi.

Dunyo adabiyotida muhim tarixiy voqealarni badiiy talqin etish jarayonida ijtimoiy-siyosiy hayotda ulkan o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan mashhur shaxslarning hayotiy faoliyatini mavzu qilib olishga katta e’tibor qaratiladi. Jahon adabiyoti tarixida Makedoniyalik Aleksandr, Buyuk Karl, Napoleon, Amir Temur singari fotihlarning obrazlarini asosiy personaj sifatida gavdalantirish orqali ular yashagan davr hayotini qalamga olish, dunyo o‘tmishining eng murakkab davrlarida yashagan kishilar hayotini atroficha badiiy talqin qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ingliz, fransuz, ispan, o‘zbek va boshqa millatlarga mansub bo‘lgan yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar o‘rta asrlar so‘ngida Osiyo hamda Yevropa davlatlari o‘tmishini, ulardagi ijtimoiy vaziyatni keng ko‘lamda o‘z asarlarida qalamga olish jarayonida bevosita Amir Temur obrazini yaratishga intilganlar. Ayni mana shu jihat dunyo ijodkorlarining Amir Temur haqida yaratilgan turli janrlardagi asarlarini qiyosiy-

tipologik tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga chiqaradi, bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda milliy davlatchiligidan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shtan sohibqiron Amir Temur va boshqa ko‘plab tarixiy siymlarning hayoti hamda, faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekiston elining ma’naviy kamolotida davlat rahbari ta’kidlaganidek, “Ushbu zaminda dunyo sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shtan buyuk gumanist olimlar, mutafakkir va shoirlar yashab ijod qilgan. Tarixga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona-Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek oljanob maqsad mujassam ekanini ko‘ramiz”¹. Shuning o‘ziyoq, tarixiy davr va buyuk siymlarning badiiy talqiniga bag‘ishlangan asarlar, jumladan, jahon tarixiy va badiiy romanlarini nazariy jihatdan tadqiq qilish, ulardagi yutuq va kamchiliklarni xolis o‘rganish zaruratini paydo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmonlari, 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni, shuningdek, ushbu faoliyat doirasida boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni va topshiriqlarni bajarishda mazkur dissertatsiya ham ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy va ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 37 б.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi:

Jahon adabiyotshunosligida nasr, she’riyat va dramaturgiyada o‘tmishda yashab o‘tgan mashhur tarixiy shaxslar obrazini badiiy obraz sifatida talqin qilish masalalari keng ilm ahli tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Jumladan, Ataturk universiteti (Atatürk Üniversitesi, Turkiya), Kolumbiya universiteti (Columbia University, AQSH), Seged universiteti (University of Szeged), (Vengriya), Markaziy Yevropa universiteti (Central European University), (Vengriya), Bishkek davlat universiteti (Qirg‘iziston), Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) kabi ilmiy markazlarni keltirish mumkin.

Jahon va rus adabiyotshunosligida Edgar Allan Po, Kristofer Marlo, Nikolas Rou, Charlz Sanderzlarning Amir Temur haqida yaratgan turli janrdagi asarlari atroflicha tadqiq etilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida Abdurauf Fitrat, Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali, Nurali Qobul, Ma'ruf Jalil, Asror Samad, Isroil Subhoniy singari ijodkorlarning Sohibqiron haqidagi lirik, epik, dramatik va liro-epik turga mansub asarlari ma'lum darajada o‘rganilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi poetikasini o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ingliz Uyg‘onish davri adabiyotining ulug‘ namoyondasi, dramaturg Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasi S.Grinblat, L.Xopkinz, E.Bartels, M.Barnet, T.Pirs, Ch.Nikol, P.Koxer, T.Xeyli, S.Sheferd, U.Zunder, R.Uilson, R.Seyls, J.Marozzi singari olimlar tomonidan o‘rganilgan². Ammo, bu tadqiqotlarning aksariyatida

² Greenblatt St. Marlowe and the Will to Absolute Play. – Chicago U of Chicago P, 1980. –268 p; Shepherd S. Marlowe and the Politics of Elizabethan Theatre. –Brighton: 1986. – 187 p; Bartels E. C. Spectacles of Strangeness: Imperialism, Alienation and Marlowe. – Philadelphia: University of Pennsylvania P, 1993. – 324 p; Burnett M. Tamburlaine: An Elizabethan Vagabond // Studies in Philology, 1987. №94. – P. 34-47; Hopkins L. Dead shepherd, now I find they saw of might: “Tamburlaine” and the uses of Pastoral // Research Opportunities in Renaissance Drama. 1996. №35. – P.1-16; Pearce T. Tamburlaine’s “Discipline to his Three Sonnes”: An Interpretation of “Tamburlaine, Part II // Modern Language Quarterly. 1954. №15. – P.18-27; R. Christopher Marlowe. – Basingstoke: 1991. – 241 p; Zunder W. Elizabethan Marlowe. – Hull: Unity P, 1994. – 146 p; Wilson R. Visible Bullets: Tamburlaine the Great and Ivan the Terrible // English Literary History. 1995. №62. – P.34-47; Sales;

K.Marlo ijodiga nisbatan qarashlarning umumiyligi hamda, yevrosentrizm(yevropa xalqlari madaniyati, adabiyoti, tarixi va boshqa xususiyatlarni boshqa xalqlardan ustun qo'yish³) g'oyalarining ta'siri ma'lum darajada sezilib turadi.

Dunyo adabiyotshunosligida yirik epik janrga mansub asarlarda tarixiy voqelikni badiiy talqin qilishning ilmiy-nazariy asoslari, shuningdek tarixiy shaxslarni asar bosh qahramoniga aylantirishda muallif e'tiborga olishi lozim bo'lgan jihatlar atroflicha tadqiq qilingan⁴.

O'zbek adabiyotida Amir Temur va boshqa tarixiy shaxslarning obrazlarini yaratish borasida to'plangan ijodiy tajribalar, mualliflarning individual mahorati, ular yaratgan asarlar poetikasi adabiyotshunoslар tomonidan o'r ganilgan. Bu borada B.Ahmedov, G.A.Pugachenko, R.G.Mukminova, B.Lunin, B.Qosimov, I.Noyazov, B.Mannopov, M.Zikrullayev, Y.Muhammedov, M.Qo'shjonov, A.Saidov, A.O'r inboyev, E.Rtveladze, O.Bo'riyev, T.Fayziyev, A.O'r inboyev, G.Murodov, A.Qosimov, D.Turayev, H.Umurov, F.Hojiyeva, D.Abidjanova, A.Nosirov, G.Ashurova, B.Ermatov, S.Mirvaliev, U.Normatov, A.Kattabekov, A.Rahimov, H.Karimov, Y.Solijonov, D.Quronov, B.Karimov, Z.Pardaeva, Sh.Doniyorova, I.Yoqubov, A.Nosirov, X.Xamroqulova, S.Meliev, B.To'raeva, M.Mirqosimova, A.Xolmurodov, I.Samandarov, A.Ergashev, O.Iskandarova, Z.Rahimov, Sh.Isaeva, O.Dadaboyev, S.Komilova, F.Ikromxonova, T.Alimardonov singari olimlarning faoliyatini e'tirof etish joiz⁵.

Nicholl Ch. The Reckoning: The Murder of Christopher Marlowe. – London: Jonathan Cape., 1992. – 126 p; Kocher P. H. Marlowe's Art of War // Studies in Philology. 1942. № 39. – P. 24-37; Healy T. Christopher Marlowe. – Plymouth: Northcote House, 1994. – 251 p.

³ Xallyeva G.Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020. – B.50.

⁴ Nield J. A Guide to the Best Historical Novels and Tales. – L., 1929; Matthews B. Historical Novel and Other Essays. – Freeport, 1968. Cam H. M. Historical Novel. – L., 1961; Dickinson A. T. American Historical Fiction. – New York., 1958;

⁵ Мирвалиев С. Ўзбек романни. –Тошкент: Фан, 1969. – 313 б.; Кўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари// Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент.: Фан, 1991. – 299-382 б; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90. йиллари ўзбек насрода бадиий нутқ поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Т., 2002. – Б. 50; Раҳимов А. Ўзбек романни поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс. автореф.. – Тошкент., 1993. –52 б.; Муродов Ф. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. –Т.: Фан, 2005. – 172 б, Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигига талқин муаммоси (Қодирийшунослик мисолида): Филол.фан.д-ри...дисс. – Т., 2002. – 304 б.; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар): Филол.фан.д-ри...дисс. – Т., 1994. – 314 б.; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Т., 2003. –

Zamonaviy va yaqin o‘tmish ijodkorlaridan o‘zbek temurshunoslarining Amir Temur tarixiy siymosini va badiiy obrazga ko‘chgan shaxsiyatini talqin va tadqiq etgan qator ilmiy izlanishlar doirasida Pirimqul Qodirovning “Amir Temur siymosi”⁶, G.A.Yusupovaning “Hozirgi o‘zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqini”⁷, B.Ermatov ilmiy talqinidagi “Amir Temur g‘arbiy Yevropa adiblari nigohida”⁸, A.R. Raxmatullayevaning “O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi”⁹, Salohiddin Toshkandiyining “Temuriynoma”¹⁰, P.Ravshanovning “Amir Temur sulolası”¹¹, D.Rasulmuhammedovaning “Istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari”¹², shuningdek, adabiyotshunos olim Damin To‘rayevning “O‘zbek tetralogiyasi” nomli risolasi, M.K.Yakubovning “Inglizzabon adabiyotda Amir Temur siymosi”¹³ nomli ilmiy tadqiqoti, A.Nosirovning “Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini”, B.A.Usmonovning “Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunoslida yoritilishi”, Sh.M.O‘ljayeva “XX asrning 50-60 yillarida Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi”, Д.Абиджанова “Маверауннахр эпохи правления Амира Тимура в англоязычной историографии”, R.ATursunovning “G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi”, T.Alimardonovning “Amir Temur imperiyasi”,

265 б.; Якубов И. Мустакиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент., 2018. – 287 б.; Дониярова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., – 2012. – 257 б.; Эрматов Б. С. Фарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар) филология фан. доктори дис. – Т., 2019.; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуслари: Филол.фган.номз....дисс. – Т., 2001. – 129 б; Насиров А. О.Ёкубов романлари поэтикаси: Филол.фган. д-ри...дисс. – Самарқанд., 2018. – 243 б.; Қосимов А. Адабиётда типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсир. – Т.: Фан, 2004. – 134 б.

⁶ Pirimqul Qodirov. “Amir Temur siymosi” – Т.:“O‘zbekiston” NMIU, 2007. – 247 b.

⁷ Yusupova G. “Hozirgi o‘zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqini. Fil.fan.nom.avtoref. – Т., 2005. – 26 b.

⁸ Ermatov B. “Amir Temur g‘arbiy Yevropa adiblari nigohida”. Risola, – Т.: Universitet, 2017. – В 148 .

⁹Raxmatullayeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi. Tarix fan.nomz.ilm.daraj.olish diss. Т., 2010.-B.31.

¹⁰ Toshkandiy S. Temurnoma. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi va lug‘at muallifi P. Ravshanov – Т.: 1990. –351 b.

¹¹ Ravshanov P. Amir Temur sulolası. – Т.: Yangi asr avlodı, 2014. – 651 b.

¹² Rasulmuhammedova D. “Istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari”. f.f.n.diss.avtoref. – Т., 2000. – B. 21.

¹³ Yakubov M. “Inglizzabon adabiyotda Amir Temur siymosi”. f.f.d.avtoref.. – Buxoro., 2021.– 46 b.

Z.R.Yaxshiyevaning “Muhammad Alining “Ulug‘ sultanat” tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning badiiy ifodasi”¹⁴ nomli ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining “Adabiyotshunoslikda tarixiy shaxs va badiiy obraz yaratish muammolari” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazi badiiy talqin etilgan asarlardagi tarixiy haqiqat hamda badiiy voqelik uyg‘unligini tadqiq etish, shu asosda jahon va o‘zbek adabiyotining tadrijiy taraqqiyot tendensiyalarini tayin etish hamda ularning milliy adabiyotimizdagi istiqbolli tamoyillarini aniq belgilashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbek va ingliz adabiyotida Amir Temur obrazi talqinining tadrijini o‘rganish, bu obrazning mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi talqinlarini har tomonlama tadqiq qilish;

Tarixiy va badiiy asarlarda ijodkor ijtimoiy-estetik ideali hamda, tarixiy shaxs konsepsiyasini o‘rganish; ingliz va o‘zbek tarixiy romanlari genezisi va taraqqiyot tamoyillarini aniqlash;

Sohibqiron Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan asarlarning kompozitsiyasini o‘rganish, ularda mavjud bo‘lgan retrospektiv syujetning badiiy-estetik funksiyasini ilmiy asosda baholash, mualliflarning adabiy-estetik idealini e’tiborga olish;

Amir Temur obrazining o‘zbek va ingliz dramaturgiyasidagi badiiy talqinlarining farqli hamda mushtarak jihatlarini o‘rganish, ingliz Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davri dramaturgiyasida Sohibqiron haqida yaratilgan dramalar poetikasiga ilmiy baho berish hamda, dramalarning badiiy til xususiyatlarini aniqlash;

¹⁴ Yaxshiyeva Z. “Muhammad Alining “Ulug‘ sultanat” tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning badiiy ifodasi. f.f.diss. Qarshi., 2021. – 126 b.

ingliz va o‘zbek she’riyatida Amir Temur obrazini yaratishda ijodkorlarning individual uslubi va real tarixiy voqelik uyg‘unligini o‘rganish, shu mavzudagi lirk asarlarning til xususiyatlarini tadqiq qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida K.Marlo, N.Rou, Ch.Sanderz, E.Allan Po va H.Jovid, A.Fitrat, S.Toshkandiy, M.Ali, A.Oripov, Ma’ruf Jalil, Asror Samad, Nurali Qobul, Isroil Subhoniy kabi ijodkorlarning nasriy, she’riy va dramatik asarlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazining talqinlari, tarixiy haqiqat va badiiy voqelikning mushtarakligi epik, lirk, hamda dramatik asarlarda Sohibqiron obrazini yaratishda ijodkorlarning individual uslubi va badiiy mahoratining o‘rni masalalarini o‘rganish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishining maqsadi – muddaolaridan kelib chiqqan holda, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixoanalitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ingliz va o‘zbek ilmiy va badiiy adabiyotida Amir Temur obrazi talqinlari ilmiy izlanishlar doirasida hamda davriy jihatdan xronologik tadrijiylikka keltirilgan va bu obrazning mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi talqinlari har tomonlama ochib berilgan;

turli janrlardagi asarlarda ijodkor ijtimoiy-estetik ideali, tarixiy shaxs konsepsiysi va Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan romanlarda tarixiy haqiqatning badiiy voqelikka aylanish prinsiplari aniqlandi;

ingliz, rus va o‘zbek tarixiy romanlari o‘zaro qiyoslanib, Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan asarlar konsepsiysi, arxitektonikasi ingliz va o‘zbek tilida yaratilgan asarlari tahlilida inkishof etildi;

Amir Temur obrazining dramatik talqinlari tadqiqi amalga oshirilib, ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida Temur obrazini badiiy talqin qilishdagi o‘ziga xosliklar dalillangan;

ingliz va o‘zbek lirikasida Sohibqiron Amir Temur siymosi talqinida individual ijodiy uslub hamda badiiy mahorati, Amir Temurga bag‘ishlangan she’rlarning poetik xususiyatlari ochib berilgan.

Dissertatsiyaning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tadqiqot ishi natijasida qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalar adabiyotshunoslikni ilmiy-nazariy tushunchalar bilan boyitadi va yangi nazariy tamoyillarning maydonga kelishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;

tadqiqotda ingliz va o‘zbek adabiyotida Sohibqiron Amir Temur obrazi talqinlarini o‘rganish asnosida tarixiy haqiqat hamda, badiiy voqelikning uyg‘unligi tadqiq etilgan bo‘lib, qo‘lga kiritilgan ilmiy yangiliklar ushbu mavzuni yetarli darajada o‘rganish uchun manba sifatida xizmat qiladi;

mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi Temur obrazi talqinlarining tadqiq etilganligi, mavzu yuzasidan zaruriy xulosalar chiqarilganligi yosh avlod ilmiy va badiiy tafakkuri takomilida zarur amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi;

ilmiy ishning amaliy natijalari hozirgi davr adabiyotshunoslik fanining rivoji uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixoanalitik va germenevtik metodlar yordamida asoslanganligi, ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazi talqinlarining o‘ziga xosligi, Sohibqiron haqidagi romanlar spetsifikatsiyasining ko‘rsatilganligi, shu mavzudagi dramatik va lirik asarlarning uslubi va badiyati ilmiy asosda o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek adabiyotida Temur obrazi talqinlarini tadqiq etish, shu mavzudagi romanlar strukturasini, dramatik asarlar badiiy g‘oyasidagi umumiyligini, lirik turga mansub ijod namunalaridagi individual uslub va badiiyat muammolarini o‘rganishdan iborat ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim tizimidagi “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Tarixiy

va nazariy poetika”, “Tarjima nazariyasi” kabi fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda yordamchi manba sifatida hamda ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ingliz va o‘zbek adabiyotshunosligida Amir Temurga bag‘ishlangan asarlar tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek ilmiy va badiiy adabiyotida Amir Temur obrazi talqinining tadrijiy taraqqiyoti kuzatilib, bu obrazning mumtoz va zamonaviy adabiyotdagি talqinlari haqidagi xulosalardan AP08855741 “Рукописное наследие Казахстана как парадигма “Духовного возрождения” нации: сбор, хранение, цифровизация, систематизация, создание электронного каталога, публикация и исследование” fundamental loyiha ishini amalga oshirishda foydalanilgan (Qozog‘iston Respublikasi M.O.Ауэзов nomidagi nomidagi Adabiyot va san’at institutining 2024-yil 8 iyuldagи №056/258-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyihaning nazariy qismining muhim ilmiy yangiliklar bilan boyitilishiga erishilgan;

turli janrlardagi asarlarda ijodkor ijtimoiy-estetik ideali hamda, tarixiy shaxs konsepsiysi aniqlanib, Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan romanlarda tarixiy haqiqatning badiiy voqelikka aylanish prinsiplariga oid xulosalardan 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli loyiha ishini amalga oshirishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 22-avgustdagи № 04/1-2146-son ma’lumotnomasi) Natijada, loyihaning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda muhim manba vazifasini o‘tagan.

ingliz va o‘zbek tarixiy romanlari genezisi tadqiq etilib, Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan asarlar konsepsiysi, arxitektonikasi borasidagi qarashlaridan “Mitti yulduz” jilolari yoxud Abdulla Oripov izdoshlari huzurida” mavzusidagi 54-10/104 raqamli loyiha ishini amalga oshirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo viloyat bo‘limining 2023-yil

23-dekabrdagi № 37/6-son ma'lumotnomasi) Natijada, loyihaning nazariy asoslarini Amir Temurga oid qarashlar bilan boyitishda va amalga joriy qilishda yozuvchining ijtimoiy-estetik qarashlarini takomillashtirish va mahoratini oshirish uchun ingliz va o'zbek adabiyoti namunalari tahlillaridan foydalanishda muhim manba sifatida foydalanilgan.

Amir Temur obrazining dramatik talqinlari tadqiqi amalga oshirilib, ingliz va o'zbek dramaturgiyasida Temur obrazini badiiy talqin qilishdagi o'ziga xosliklar to'g'risidagi xulosalardan 2020-2023-yillarga mo'ljallangan FZ-201912099 "O'zbek folklorining o'zbek va ingliz tillaridagi veb sayti va multimedya mahsulotlarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Namangan davlat universitetining 2024-yil 29-avgustdagи №1003/4-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha ishining an'anaviylik va retrospektivlikni yuzaga chiqarishdagi badiiy mahoratga xos ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan.

ingliz va o'zbek lirkasida Sohibqiron Amir Temur siymosi talqinida individual ijodiy uslub hamda badiiy mahorati, Amir Temurga bag'ishlangan she'rlarning poetik xususiyatlari xususidagi mulohazalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Ta'lim va islohot" turkum ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 23-oktabrdagi № 17-05/208-son ma'lumotnomasi) Natijada, ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi izchil boyitilib, jahon va o'zbek adabiyotida Amir Temur obrazini yaratish, tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini masalalarini yoritish vazifasi amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishi natjalari jami 15 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 10 ta xalqaro, 5 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish

uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola (13 tasi respublika hamda 5tasi xorijiy jurnallarda) hamda ikkita monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiyligi hajmi 253 sahifani tashkil etadi.

I BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR OBRAZI: GENEZIS VA TADRIJ

I.1 Ingliz va o‘zbek badiiy, ilmiy adabiyotida temurshunoslik tadriji

Dunyo adabiyotshunosligida turli xil mavzudagi ilmiy muammolarni ingliz va o‘zbek adabiyotiga mansub asarlar misolida qiyosiy shaklda o‘rganish masalasiga o‘zbek adabiyotishunos olimlari tomonidan alohida e’tibor qaratilgan¹⁵.

Adabiyotshunos Muzaffar Yakubovning “Inglizzabon adabiyotda Amir Temur siymosi” nomli dissertatsiyasida ushbu tilda yaratilgan nasriy, she’riy va dramatik asarlardagi Amir Temur obrazi talqinlari tadqiq qilingan. Dissertatsiya Kristofer Marloning “Buyuk Temur”, Samuel Klarkning “Buyuk Temurning hayoti”, Garold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda”, Beatres Forbes Manzning “Temurning taxtga o‘tirishi va hukmronligi” kabi badiiy va tarixiy asarlarida sohibqiron Amir Temur Ko‘ragon obrazini talqin qilishdagi o‘ziga xosliklar ko‘rsatilgan. “Tarixshunoslik hamda adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada yuzaga kelgan temurshunoslikni inglizzabon ilmiy va badiiy adabiyot chegarasida tadqiq qilish Amir Temur shaxsiga bag‘ishlangan asarlarning vujudga kelishi genezisi va tadriji singari murakkab ijodiy jarayonning diaxron zanjirini tiklash, shuningdek, temurnomalardagi Sohibqiron obrazini badiiy talqin qilish, mazkur silsilaga mansub asarlar badiiyatini, ilmiyligini xronologik formatda idrok etish imkonini beradi”¹⁶. Darhaqiqat, tadqiqotchi yuqorida ko‘zda tutgan ilmiy natijalarni yuzaga chiqarishga erishgan. Demak, ingliz adabiyotida Amir Temur obrazi talqinlarining tadqiqi muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqot ingliz adabiyoti doirasida amalga oshirilgani bois, unda ingliz va o‘zbek adabiyotida ushbu buyuk ajdodimiz obrazi talqinlarini qiyosiy-tipologik tadqiqiga

¹⁵ Якубов М. Инглиззабон адабиётда Амир Темур сиймоси. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD). дисс. автореф. – Бухоро., 2021. – Б.45.; Қиличева М. Инглиз ва ўзбек адабиётида психологик ҳолатлар талқинида адабий таъсир муаммоси (ёлғизлик мотиви мисолида) Филол. фан.бўйича фалс. докт. (PhD). дисс. автореф. – Бухоро., 2020. – В.52; Очилова Н. Инглиззабон ғарб ва ўзбек насрода от образи талқини (Сетон-Томпсон, Анна Сювель, Тоғай Мурод, Туроб Тўла асарлари асосида) Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD). дисс. автореф. – Бухоро., 2022. – Б.46.

¹⁶ Якубов М. Инглиззабон адабиётда Амир Темур сиймоси. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD).Автореф. – Бухоро., 2021. – Б.5.

o‘rin berilmagan. Bizning dissertatsiyamizda ayni mana shu jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Ingliz adabiyotida Amir Temur obrazini yaratish an’anasi XVI asrdan boshlandi. Samuel Klarkning “Buyuk Tamerlanning hayoti” kitobi 1664-yilda London shahrida “Ilk ingliz tilidagi kitoblar, 1641-1700” seriyasida chop etilgan. Ushbu asar Amir Temurning Xitoy podshosi mosolik Diyuk, turklar sultonı Boyazid, Misr podshosi, Eron shahanshohi va boshqa yurtlar hukmdorlari bilan olib borgan jang tafsilotlari ta’riflariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosiy personajning mulohazakorlik, oliyhimmatlilik, mehribonlik, ozodlik, adolatpeshalik, itoatkorlik, shijoatda tengsizligi haqida so‘z boradi. Muallif Amir Temurni “turk” deb yozarkan, uning (turk) tartib-intizomini, faoliyatini namuna sifatida keltiradi.

Vill Durant “Viklifdan Kalvingacha davom etgan davrda Yevropa madaniyatining tarixi” IX bobning (Chapter IX: The Ottoman Tide: 1300-1516.) uchinichi qismida (III. The last years of Constantinople: 1373-1453) Amir Temurning Usmonli turklar sultoniga qarshi Anqara jangi va Yeldirim Boyazid ustidan qozonilgan g‘alaba haqida mulohaza yuritadi: “Tamerlane the Great had determined to check the growth and insolence of Ottoman power. As the Tatar hordes rolled west, Bajazet abandoned the siege of Constantinople and hurried to regroup his forces in Anatolia. Turks met Tatars at Ankara (1402); Bajazet was defeated and captured”¹⁷.

Ushbu asarning XXX bob, birinchi qismi “Temur” deb nomlanib, (Chapter XXX: The Genius of Islam: 1258-1520. III. Timur: 1336-1405) Sohibqiron biografiyasi Yevropaning ba’zi olimlari qarashlariga mos ravishda aks ettirilgan. U barcha g‘alabalari orasida Yevropaliklar nazarida kuch-qudrat timsoli hisoblangan turk sultonı Boyazid ustidan erishgan zafari hamda, bu g‘alaba Yevropaliklarni yarim asrga turklar zulmidan ozod qilgani haqida fikrlar bildirilgan: “The two ablest generals of the age joined battle at Ankara (1402). Timur’s strategy

¹⁷ Clarke S. The life of Tamerlane the Great. – London., 1664. – P. 157.

compelled the Turks to fight when exhausted by a long march. They were routed. Bajazet was taken prisoner, Constantinople rejoiced, Christendom was for half a century saved by the Tatars from the Turks”¹⁸. Muallif o‘z asarida Amir Temurni tatar xalqi farzandi deya izoh berishini u tayangan manbalar shu jihatdan noto‘g‘ri talqin etilganidan deb hisoblash mumkin.

Beatris Forbes Manz (Beatrice Forbes Manz) inglizzabon tarixchi, Tufts universitetining professori, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq ko‘chmanchilari hamda Temuriylar sulolasiga bo‘yicha mutaxassis, uning “Temurning taxtga o‘tirishi va hukmronligi”¹⁹ kitobi “Islom tamadduni bo‘yicha Kembrij tadqiqotlari” ruknida 1999-yilda bosib chiqarildi. B. Manzning butun dunyoga mashhur bu asari Temurning tarjimai holi yoki uning yurishlari va muvaffaqiyatlari haqida emas, balki ulug‘ jahongirning hokimiyat tepasiga kelgan paytdagi siyosiy vaziyatni o‘rganishga bag‘ishlangan edi. B. Forbes Manz “Amir Temur va fotihning meros masalasi” nomli maqolasida Amir Temurning ulkan martaba va nufuzga ega bo‘lgani, ko‘chmanchilarga sardor bo‘lib, katta-katta bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani, turkiy va forsiy xalqlar madaniyatining targ‘ibotchisi sifatida tan olinganligi, mo‘g‘ullar istilosini bartaraf etishni ulkan zafarlar bilan uddalay olganini e’tirof etadi. Darhaqiqat, u ulug‘ fotih, tarqoq xalqlarni birlashtirgan va markazlashgan kuchli davlatni bunyod etgan siyosatchi sifatida dunyo fotihlari, jang san’atining bilimdonlari orasida o‘chmas nom qoldirdi. Ingliz temurshunos olimlari orasida Beatris Forbes Manzning temuriylar davlati boshqaruvi tizimini o‘rganishga qo‘sghan hissasini ham alohida e’tirof etish zarurdir. U Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan oldin Chig‘atoy ulusida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnik o‘zgarishlar haqida ko‘plab mulohazalarni bildirib o‘tgan. Bu borada g‘arb dunyosida salmoqli izlanishlar olib borgan olimlardan yana biri Hilda Hukhemdir. U Amir Temurning shaxsi va siyosiy

¹⁸ Clarke Samuel. The life of Tamerlane the Great. – London., 1664. – P. 57.

¹⁹ Manz B. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge., 1990. – P. 312.

faoliyatini xolis tadqiq etishga harakat qilgan²⁰. Tadqiqotchi, asosan, Amir Temur faoliyatini umumiy shaklda yoritish bilan cheklanib, uning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarini bayon qilmagan.

Daniel Burgxart va Sabonis Xelf tahriri ostida chiqqan “Temur izidan” kitobida O’rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahvoli borasida ko‘plab olimlarning maqolalari keltirilgan. Mazkur izlanishda aynan Amir Temur hayoti va faoliyatiga aloqador hech qanday ma’lumot berilmagan. Bizningcha, Sohibqironni Osiyo qit’asidan bo‘lganligi va shu hudud hukmdori ekanligi va hozirda bu shaxs hukmdorlik qilgan hudud ahvoli qay tarzda rivoj topayotganini ko‘rsatish maqsadida shu sarlavha berilgan.

2006-yil De Kapo nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan Jastin Marotzining “Temur: Islom shamshiri, dunyo fotihi” (asliyatda: Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World) romanida Sohibqironning hayoti, erishgan zafarlari hamda, temuriylar davrida mavjud bo‘lgan davlatchilik an’analari tasvirlangan.

Ingliz tarixchilari yaratgan asarlar sirasida tarixchi Edvard Gibbonning “The History of the decline and fall of the Roman Empire”, Vol. VII “Gibbon Edward” (1787) – “Rim imperiyasining tanazzuli va qulash tarixi”da butun bir bob (Chapter LXV: Elevation of Timour or Tamerlane and his Death) Amir Temurga bag‘ishlangan. Muallif Amir Temurning o’ttiz besh yil davom etgan zafarli yurishlari haqida batafsil to‘xtalmay, balki uning Fors o‘lkasi va Hindistonga qilgan yurishlari haqida so‘z yuritadi²¹.

Yozuvchi Robert Xovardning “Samarqand hukmdori” asarida Sohibqiron obrazi ulkan mahorat bilan badiiy talqin etilgan. Robert Irvin Xovard fantastik janrda ijod qilgan Amerika yozuvchisidir. Uning “Sharq hikoyalari” ruknidagi to‘qqiz bobdan iborat bo‘lgan “Lord of Samarkand” (Oriental Stories, Spring 1932) – “Samarqand hukmdori” deb nomlangan asari alohida e’tirofga sazovordir.

²⁰ Hookham H. Timurlaine the conqueror. – London, 1962; Хуқхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Г.Хидоятова. – Ташкент.: Адолат, 1995. – С. 320.

²¹ Gibbon E., The History of the Decline and fall of the Roman Empire, Vol. VII, ed. by J.B. Bury, Methuen, – London, 1914.

Asarda Sohibqiron qo‘l ostidagi shahar va qishloqlardagi hayot, xususan, sultanat poytaxti Samarqand hayrat bilan vasp qilingan, mamlakatda va hukmdor saroyida o‘rnatilgan qat’iy tartib intizom, yo‘l-yo‘riqlar, yozilgan va yozilmagan qoidalar e’tibor bilan tasvirlangan. Shuningdek, turk sultonni Boyazid bilan olib borilgan jang va Xitoya tomon mo‘ljallangan urush bayonlari ham keltirilgan. Yuqorida nomlari qayd etilgan asarlarni ilmiy asosda o‘rganish asnosida, ularda mualliflarning yuksak badiiy mahorati, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda ijodiy individuali yuqori ekaniga guvoh bo‘lish mumkin.

Ingliz tarixchilari tomonidan yaratilgan asarlarida ko‘plab g‘arb olimlarining Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburga nisbatan “mongol” tushunchasini ko‘p ishlatishi hech kimga sir emas. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari 1722-yilda Parij shahrida “Mo‘g‘ullar va tatarlar imperatori buyuk Tamerlan, ya’ni Temurbekning tarixi” nomi bilan nashr etilgan. Xolbuki, asliyatda bunday so‘zlar mavjud emas. Amir Temurning melodiy 1391-yilda To‘xtamish va qo‘shtiniga qarshi jangga borayotib, Ulutov hududida bitiktoshga o‘ydirib yozdirgan so‘zlar ichida “Turon sulton” jumlasini uchratamiz, unda “mo‘g‘ul” yoki “tatar” degan tushunchalar mavjud emas.

1404-1405-yillarda Samarqandga kelib, Amir Temur qabuliga kirishga musharraf bo‘lgan, yurtimizda izzat-u e’zoz ko‘rgan Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixo ham Sohibqironning “Temurlang” laqabi masalasiga alohida so‘z yuritgan. U o‘z kundaligida shunday yozadi: “...Temurbekning asl ismi biz ataganimizdek, Tamorlan emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek ularning o‘z tilida “Temur podsho” degani, podsho esa ularning tilida “bek”. Tamorlan yuqoridagilarga batamom teskari ma’noni anglatadi. Uni tahqirlash ma’nosida Tamorlan, ya’ni oqsoq Temur, deb ataydilar... “Mana, Yevropa fuqarosining Amir Temurga xolis bahosi! Sohibqiron Amir Temur milliy davlatchiligidizning asoschilaridan biri, xalqimizning faxr-iftixori bo‘lgan buyuk tarixiy siymo hisoblanadi. Ul zotning beba ho shaxsiyati haqida fikr yuritganda hushyor

bo‘lmog‘imiz, bu masalaga nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan yondashmog‘imiz va unga doimo hurmat-ehtirom ko‘rsatmog‘imiz shart²².

Yuqoridagi ma’lumotlarga qo‘sishimcha sifatida A.Abduaazizovning “Sohibqiron yulduzi” maqolasi²³da Yevropada, jumladan, inglizzabon adabiyotda Amir Temurga bag‘ishlab yozilgan badiiy va ilmiy asarlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. 1590-yilda birinchi qismi, 1606-yilda ikkinchi qismi nashr etilgan Kristofer Marloning “Buyuk Temur” tragediyasi Yevropada yaratilgan asarlar avvalida qayd etiladi, bu asar E.Lisenkaya va Y.Palonskaya tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, uni o‘zbek tilida Ma’ruf Jalil 1989-yilda tarjima qilib, bu drama asosida 1990-yilda Hamidulla Karomatov professor G‘aybullha as-Salom ilmiy rahbarligida nomzodlik ishini himoya qilgani, Kristofer Marloning ushbu sahna asaridan ilhomlangan Lius Veles Gievara 1642-yilda Rimda “Buyuk Temurlan Eronda”, Valladolid, Jan Mangyon “Buyuk Temurlan yoxud Boyazidning o‘limi” Parijda 1647-yilda, Ser Uotersining “Buyuk Temurning turk sultoni Boyazid bilan kurashi” Amsterdamda 1657-yilda, Charlz Sanderz “Buyuk Temur” Londonda 1981-yilda, Fransis Feyn “Fidokor” Londonda 1686-yilda, Nikolas Rou “Temurlan” Londonda 1702-yilda, L.Smit “Temurlan” Amsterdamda 1710-yilda, Uilyam Poll “Saxovatli Temur” Londonda 1732-yilda, M.G.Levs ikki qismli “Temur” dramasi Londonda 1811-yilda yozilgani ma’lum.

Bunday ma’lumotlar biz yuqorida keltirishni o‘rinli deb topgan yana ko‘plab manbalarda shuningdek, A.Yakubovskiy, L.Zimin, I.O.Shiltberger, Foma Mekeopskiy, L.Lyangle, M.Gerasimov, T.Granovskiy, M.Ivanin, V.Bartold, kabi olimlarning salmoqli tadqiqotlarida ham u haqida shunday qaydlar mavjudligini ham ta’kidlash joiz²⁴.

O‘tmish adiblarimizdan mutafakkir va davlat arbobi A. Navoiy Temurbek shaxsiyatiga alohida hurmat bilan “Hayrat ul abror” dostonida “Jahon xoni Temur Ko‘ragon”, “To‘rt ulus xoni Ko‘ragon”, “Farhod va Shirin”da “Temurxon”,

²² Muhammad Ali. Jadid gazetasi. 2024-yil 5-aprel № 15(15).

²³ A.Abduaazizov. Sohibqiron yulduzi. O‘zAS. 2006. 23 -may.

²⁴ Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния. Сост., обр. Р.Рахманалиева. – М., 1992. – С. 544.

“Muhokamat ul lug‘atayn” da “Temur Ko‘ragon”, “Munshaot” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlarida “Temurbek” degan nom va unvonlar bilan ataydi hamda, uning mehri, qahri haqida so‘z yuritadi. Mironshohning uch nadimi bilan maishat va ichkilikka berilishi voqeasidir. Uni bu holga tushishi sababchilaridan va o‘limga hukm qilinganlardan biri Xoja Abdulqodir qo‘lga tushganida Qur’on karim oyatlaridan o‘qib, Sohibqironning qahridan qutulib qoladi, hatto Amir Temurning marhamatiga sazovor bo‘ladi. Navoiy ushbu voqeani barcha murakkabliklari va dramatizmi bilan bayon qilar ekan, Amir Temurning qahri va mehri yonma-yon ekanligini ishonarli shaklda tasvirlaydi. Buyuk shoirning Amir Temur tomonidan aytilgan misra borasidagi fikri diqqatga sazovordir: “Idrok va fahm ahli bilurlarkim, yillar balki asrlarda mundoq latif so‘z voqe bo‘lmas”²⁵. Hazrat Navoiy Amir Temurda mavjud fazilatlarni Husayn Boyqaroda ko‘radi: “To olam ahli bilgaylarkim, Sulton Sohibqirongakim, majolisda paydar-pay xo‘b abyot va yaxshi so‘zlar darmahal voqe’ bo‘lur, – dag‘i mavrusiydurkim, nisbati ul jaddi buzruk vor Amir (Temur)g‘a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va biri bu jahon mulkida jovidon bo‘lsun!”²⁶ Navoiyning hayoti faoliyati temuriylar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu haqida Mirxondning “Ravzat us-safo”, Xondamirning “Habib us-siyar” asarlarida atroflicha ma’lumot berilgan. Jumladan, tarixiy davrning turli bosqichlarida, turli janrlarda Sohibqiron Amir Temur haqida turfa xil asarlar yaratildi. Shu jihatdan, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abro‘, Abdurazzoq Samarqandiy, Ahmad Fosihiy, B.Mignanelli, Rui Gonsales de Klavixo, G.Gudrini, M.Rossati, R. Grusse, K.Enoki, L.Keren, Le Ru, E.Ross, X.Hukxem, L.Komarov, F.Manq, A.Derg , G.Golombek, M.Rossati, Zakiy Validiy To‘g‘on, M.Sharmua, S.Solovev, T.Granovskiy, V.Furnyu, M.Ivanin, V.Bartold, A.Yakubovskiy, A.Snesarov, I.Petrushevskiy, N.Konrad, M.Monten, I.Shildberg, J.Boden, G.Postel, P.Djiovio, P.Petro, P.Brachchiolini, Kambini, B.Fregazo, T.Spandujino, I.Mo‘minov²⁷, A.O‘rinboev, A.Axmedov,

²⁵ Навоий А. Асарлар. 12-жилд. – Т., 1966. – Б.168-169.

²⁶ Бобур З.М. Бобурнома. –Т., 1960. – Б. 169.

²⁷ Тамурлан. –Москва.: Гураш, 1992. – С. 542.

B.Ahmedov, T.Fayziyev, H. Ziyoev, G‘.Karim, O.Bo‘riev, H.Sattoriy, I.Yoqubov, G‘.Murodov, D.Rasulmuhammadova, M.Hamrayeva, I.To‘xliyev, F.Qosimov, A.Hayitmetov, A.Arslonov, B.Mannonov, G.Ostonova, Sh.Kamoliddin, A.G‘anieva va D.Turayevlar tarixiy-ilmiy jihatdan o‘rganishgan, Hotifiy, A.Navoiy, Fitrat, Oybek, P.Qodirov, B.Ahmedov, O.Yoqubov, A.Orifov, E.Vohidov, Muhammad Ali, Xurshid Davron, G‘ulom Karim Jonibek Subhon kabi ko‘plab tarixchilar va olimlar Amir Temur haqida turli janrlardagi tarixiy, badiiy asarlarini yaratgan.

Mustaqillikkacha bo‘lgan XX asrning 80-yillaridan keyingi davrlarida bir qator olimlar tomonidan yangi temurshunoslik ilmiga tamal toshi qo‘yilganligini ham ta’kidlash joiz. Bu xatarli va ulkan vazifani bajarishda A.O‘rinboyev, D.Yusupova, O.Bo‘riyev, G.Pugachenkova, R.Mukminova kabi oimlarning xizmatlari katta. Istiqlol sharofati bilan esa Akmal Saidov hamda, E.V.Rtveladzelar tomonidan tayyorlangan “Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida” nomli bibliografik nashrda jahon temurshunoslige ilmiy yo‘nalishlarini yetti guruhga ajratadilar: 1) Arab, fors, turk, Kavkaz xalqlari, ispan, nemis, lotin tillaridagi yozma tarixiy manbalar; 2) Amir Temurning Yevropa xalqlari hukmdorlari bilan yozishmalari; 3) Numizmatik manbalarning nashri; 4) Epigrafik manbalarning nashri; 5) Umumlashtiruvchi va alohida yirik muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar; 6) Ayrim muhim masalalarga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar; 7) Ilmiy- ommabop tadqiqotlar²⁸.

Mustaqillik davri temurshunoslige rivojida “Amir Temur jahon tarixida” adabiy nashrida o‘zbek va dunyo tadqiqotchilarining bu mavzudagi ilmiy izlanishlari tahlil qilinib, natijada, “Amir Temur shaxsini bir yoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko‘nikmalardan uni chuqr, keng va turfa nazarlarda idrok etishga asta-sekin o‘tish tadriji sodir bo‘ldi”²⁹ degan ilmiy xulosa berildi.

²⁸ Ртвеладзе Э.В, Сайдов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. – Ташкент., 1999. – С.8.

²⁹ Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent.: Sharq, 2001. – В. 214-216.

1990-yillarda temurshunoslardan A.Ahmedov, B.Ahmedov, B.Lunin kabi olimlar Amir Temur davri, faoliyatini qayta va xolis o‘rganish sari qadam tashlashdi. Ammo 130 yil davom etgan mustabid tuzumning g‘oyaviy unsurlari 1992-1994-yillarda nashr etilgan adabiyotlarda hamon sezilib turardi. G.Hidoyatov, M.Ishoqova, B.Kostetskiylar Amir Temurni savodsiz, bosqinchi, harbiy yurishlarini oqlash uchun Islom dinidan foydalanganligi³⁰ni shu davrda chop etilgan maktab va Oliy ta’lim tizimiga mo‘ljallangan tarix darsliklariga kiritishgani ham o‘sha davrlarda ham Sohibqiron shaxsiga nisbatan noxolis yondashuvlarning mavjudligidan dalolat edi. Yurtimizda Amir Temurga mana shunday munosabatda bo‘linayotgan bir davrda rossiyalik tarixchi P.Vorobyov Amir Temurni “savodsiz”ga chiqarib qo‘ygan tarixchilarni keskin tanqid qildi. Sharq va G‘arb manbalarini solishtirgan holda Sohibqironning tarixshunoslikdagi ilmi Ibn Haldun kabi buyuk tarixchini lol etgani, uning bosh suyaklardan minora qilganligi haqidagi afsonalar asossizligini biror arxeologik qazishmalarda ularni tasdiqlovchi dalillar topilmaganligini³¹ qayd etadi.

1995- yilda Amir Temur hayot yo‘lini xolis o‘rganish ishlari avvalo, uning to‘g‘ri va haqqoniy bibliografiyasini tuzishdan boshlandi. Bu boradagi ishlar 2003-yilga kelib, qo‘lyozmalar va yozishmalar, MDH davlatlari, Yevropa va Sharq tillariga kitoblar chop etish faoliyati³² bilan takomillashdi. Bu sohada esa B.Ahmedov, B.Qosimov, I.Noyazov, B.Mannopov, M.Zikrullayev, Y.Muhammedovlarning xizmatlari beqiyos.

1996-yildan boshlab, an’anaviy tarzda Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid xalqaro konferensiylar o‘tkazish bo‘yicha amaliy ishlar olib borildi. Dunyoning turli davlatlarida xalqaro ilmiy konferensiylar, tarixiy madaniyat kunlari yo‘lga qo‘yildi, Jumladan, YUNESKO tomonidan Parijda “Temuriylar davrida ilm fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” xalqaro konferensiyasi³³ tashkil etildi

³⁰ Hidoyatov G, Is’hoqova M, Kostetskiy B. O‘zbekiston xalqlari tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1995. – B. 28.

³¹ Воробёв П. Тимур велоколеопний. <http://www.peoples.ru>.

³² Amir Temur bibliografiysi. Marzaziy Osiyoni tadqiq etish Fransuz instituti.– T., 2003. – 114 b.

³³ Расцвет науки, культуры, и образования в эпоху Тимуридов. Международной конф. – Тошкент- Париж. 1996.

va unda butun dunyo temurshunoslari jamlandi. Bundan tashqari, Amir Temur shaxsi va faoliyatining o‘z zamondoshlari tomonidan baholanishi, uning markazlashgan davlat tuzishdagi buyuk xizmatlari, temuriylar davriga oid manbalarning o‘rganilishi, temuriylar davlatchiligi va renessansi dunyo olimlari tomonidan bugun ham keng o‘rganilmoqda³⁴. Ayniqsa, olimlar bilan bir qatorda adabiyot vakillari, yozuvchi va shoirlar, dramaturglar va san’atkorlar ushbu ulug‘ shaxsni yosh avlod qalbiga ta’sirchan shaklda singdirish maqsadida ijod qilib kelmoqdalar.

“Temur shaxsiga bir yoqlama noxolis munosabatda bo‘lish uzoq yillar davom etdi. Olamshumul shuhrat egasi bo‘lgan nodir iste’dodli davlat arbobining nomi mustabid sho‘rolar davrida deyarli unutilayozdi. Parijdagi taraqqiy parvar va ziyorilar tomonidan ta’sis etilgan “Temuriylar davri san’ati va tarixini o‘rganish assotsiatsiyasi” prezidenti Lyusen Keren “Chingiziy shahzoda bilan tanishuv” maqolasida shunday yozadi: “Men O‘zbekiston fuqarolari bilan Amir Temur haqida ko‘p gaplashdim. Biroq Temur ular uchun qandaydir bir afsonaviy shaxsga aylangan, chunki Sovet zamonida o‘zbekcha chiqqan darslik va kitoblarda Temurning nomi deyarli uchramaydi”³⁵. Buning zamirida o‘zbek xalqini ongu-shuuridan milliy g‘ururidan mahrum qilish, millatning o‘zlikni anglash g‘oyalarini tag-tomiri bilan sug‘urib tashlashdek yovuz maqsad yotar edi. O‘zbekistonning mustaqillikni qo‘lga kiritishi bu kabi harakatlarni bartaraf etishga xizmat qildi. Aynan istiqlol tufayli Sohibqironning xalqimiz o‘tmishidagi, umuman, insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlari munosib baholana boshlandi. Sovet davrida temurshunoslik ilmiga³⁶ salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri Fridrix Shlosserning (1776 - 1861) “Butun dunyo tarixi” asaridir. Shlosser Amir Temurga: “...baxtli jangchi, jahonning yangi istilochisi... shu bilan birga, olisdagi Sharqning qonun chiqaruvchisi edi. Osiyodagi kamyob bo‘lgan taktik hamda, strategik

³⁴ Raxmatullayeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi. Tarix fan.nomz.ilm.daraj.olish diss. –T., 2010. – B.31.

³⁵ Муродов Ф. Амир Темур абадияти. – Т.: “Фан”, 1994. – В.4.

³⁶ Лунин Б.В. История культуры и искусства времени тимуридов в советской литературе. Библиографический указатель // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент., 1969. № 8 -9. С.101 – 145.

bilimlarni o‘zlashtirib, u yerdagi to‘dalarni o‘ziga jalb qildi”, – deya tavsif beradi. Shuningdek, u Sohibqironningadolatli qonunlarga asoslangan davlat barpo qilganligini yetarlicha baholay olmaydi, uni vahshiy va zolim hukmdor sifatida e’tirof etadi.

1970-yillarga kelib, garchi tarixiy janrda ijod qiluvchilar uchun tahlikali davrlar bo‘lsada, so‘z maydonida yangi bir to‘lqin, yangi ijodiy jonlanish paydo bo‘lgan edi. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Me’mor” romanlarida temuriylar davri voqealari qalamga olindi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta. Millatning uyg‘oq fikrli qatlami o‘z tarixini o‘rganishga ehtiyoj sezaboshlagandi.

Keyingi yillarda Amir Temur faoliyatini ilmiy tadqiq etishni maqsad qilgan izlanishlar orasida To‘lqin Alimardonovning “Amir Temur imperiyasi”³⁷ siyosiy falsafiy talqindagi monografiyasi bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra o‘zining ilmiy ko‘لامi kengligi va ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu ilmiy asarda muallif Amir Temur yuritgan siyosatning falsafiy ahamiyati va negizlari chuqur tahlil etilib, unda turkiy imperiyalar madaniyatining siyosiy tabiatini, bu siyosatda diniy tamoyillar uyg‘unligi ilmiy asoslab beriladi. Asarda Sohibqiron siyosatining konsepsiysi turli qarashlar tahlili ostida muallifning xolisona munosabati bildirib o‘tiladi. Ayniqsa, siyosiy tizimning o‘n ikki tamoyili, saltanat boshqaruvining o‘n ikki toifasi, saltanat kengashining ushbu mamlakatning siyosiy muvozanat tarozusisi sifatida baholanishi muallif qarashlari o‘z shaxsiy qarashlaricha emas, “Temur tuzuklari” tahlilidan kelib chiqqan xulosa asosida berilganligi oydinlashadi. Amir Temur imperiyasida boshqaruv tizimi chuqur ilmiy tahlilga tortilar ekan, unda vazir tutish maqomi, sipohlarga munosabat va saltanatda voris tanlash masalalariga oid bir qator nazariy qarashlar o‘rtaga tashlanadi. Shuningdek, millatning bir vakili bo‘lgan muallif va buyuk ajdodidan faxr tuyg‘ulari ushbu asarda Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatidan lavhalar keltirishda, uning Yevroosiyo mintaqasidagi geosiyosiy amaliyotini o‘rganishda, harbiy strategiyasini izchil tadqiq etishda,

³⁷ Alimardonov T. Amir Temur imperiyasi. – T.: “Yangi asr avlod”, 2021. – 320 b.

ushbu hukmdorning buyuk siyosiga chizgilar asosida yoritiladi va haqli ravishda dunyo olimlari tez-tez tilga oladigan “dasht hukmdori” haqli ravishda bizning o‘tmishdoshlarimiz orasida eng buyuk sultanat egasi bo‘la olganligini faxr bilan tadqiq etadi.

Adabiyotga o‘z ovozi, o‘z uslubi bilan kirib kelgan taniqli shoir va mahoratlari yozuvchi Muhammad Alining Amir temur faoliyatiga oid ijodiga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, u 1966-yildayoq tarixiy mavzuga qo‘l urdi va o‘zining “Mashrab” nomli dostonini yozdi. Muallif dostonda tarix haqiqatini bezab-bo‘yamasdan ko‘rsata olish vazifasini uddaladi. Uning nazarida Mashrab mutaassib din peshvosi ham, isyonkor dahriy ham emas, balki o‘zini, o‘zligini anglagan komil va ma’rifatli shaxsdir. Shoir yuksak nazokat bilan Mashrabning ruhiy dunyosini tasvirlay oldi, qizil imperiya gullab-yashnagan, bir tahlikali davrda ilohiy haqiqatlar haqida yozdi. 1967-yilda esa yozuvchi Muhammad Alining “Gumbazdagi nur” dostoni yozildi. Tarixni yozish juda xatarli yillarda shoir hech ikkilanmasdan yuragi buyurganini – o‘zbekka o‘zini, o‘zligini eslatuvchi, uning ruhiga uyg‘onish hissini soluvchi doston yaratdi.

Amir Temurga buyuk tarixiy shaxs sifatida baho berishda o‘sha davrdagi vaziyat, sharoitdan kelib chiqib fikr yuritish kerak. Bunda podshoh va sarkarda Amir Temurdan avval yashagan yoki o‘sha davrda boshqa hududlarda davlatni boshqargan hukmdorlar bilan qiyoslab ko‘rilsa, ularning qilgan ishlari bir-bir bilan taqqoslansa,adolatli hukm yuzaga chiqqan bo‘lar edi. Movarounnahr hududida yashab o‘tgan shohlar orasida Amir Temurdek shuhrat topganlari deyarli uchramaydi. Shuningdek, uning nomini tarixning qora sahifalarida bitib kelishlari sababini olimlar va tarixchilarning fikrlariga asoslanib tahlil etib ko‘rdik va Temurbekning nomini salbiy sifatlar bilan sifatlanishining sabablarini quyidagicha baholadik:

Birinchidan, Amir Temur o‘zi yashagan davrning taomiliga, tartib-qoidalariga ko‘ra ish ko‘rgan podshodir. U o‘z hukmronligida zamonasining boshqa podshohlaridan ustun bo‘lganligi sababli, ko‘proq g‘alabaga erishganligi ayniqsa, yigirma yeti davlatni ishg‘ol etishda mag‘lubiyatga uchramaganligi tufayli

ko‘pchilik zamondosh hukmdorlar tomonidan mana shunday sifatlarga loyiq ko‘rilgandir. U ham boshqa davlat arboblari singari o‘ziga qarshi ko‘tarilgan isyonlarni bostirish jarayonida boshqalardan ko‘ra shafqatsizroq, qattiqqo‘lroq bo‘lgandir. Tarixchi olim B. Ahmedov ushbu savollarga javobni o‘zining “Amir Temurni yod etib” kitobida batafsil tahlil qilgan. Asar sarkardaning davlatni idora qilish siyosati, tarixning yozilmagan va bahsli sahifalari haqida yozilgan ilmiy ommabop maqolalaridan iborat. Ushbu kitobda Temurning siyosat olamiga kirib kelish sabablarini aniqlashtirishda u yashagan davr muhitini teran anglamoq zarurligi ta’kidlanadi. “Chig‘atoy avlodidan Tormoshirinxon” o‘ldirilgandan keyin yigirma besh yil mobaynida mamlakat taxtiga o‘ndan ortiq xon saltanat qurib ulturdi, lekin birontasi ham tobora kuchayib borayotgan feodal tarqoqlikka barham berishga qodir bo‘lmadi. Oqibatda, mamlakat o‘nga yaqin mustaqil xonliklarga bo‘linib ketdi. Bu parchalanish ulusni urush-talash girdobiga uloqtirdi. Mo‘g‘ullar 1369-yilgacha Movarounnahrda xo‘jayinlik va hukmfarmomonlik qilishdi. Urushlar va to‘qnashuvlar fuqaro tinkasini quritdi, shahar va qishloqlar vayronaga aylandi, yurt tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday ayanchli damda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi qilich ko‘targan, vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jonini tikkan birdan bir odam Temurbek bo‘ldi. U Movarounnahr xalqining bosqinchilarga qarshi kurashiga boshchilik qildi va mamlakatni mo‘g‘ul istibdodidan ozod qilib, el-yurtga tinchlik va omonlik olib keldi. U qurgan davlat qadimgi Turkiston zaminida dong taratgan Grek Baqtriya, Kushon imperiyasi, Eftaliylar, Turk xoqonligi va Somoniylar sulolasi, Xorazmshohlar imperiyasi kabi o‘zidan buyuk shon qoldirdi³⁸.

Ikkinchidan: Amir Temurning Usmonli turk sultonii Yildirim Boyazidni yengib, asir olishi o‘sha davrdagi arab va usmonli turk manbalarida u to‘g‘risida salbiy fikrlar qayd etilishiga sabab bo‘ldi. Amir Temur haqidagi shunday tasavvurlardan oziqlangan G‘arb manbalarida ham bu kabi fikrlar ko‘p uchraydi. Aynan mana shu omil Yevropa tragediyasining otasi bo‘lgan Kristofer Marloning

³⁸ Ахмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1996. – Б.128.

“The great Tamburlaine” asariga katta turtki bo‘la oldi. Teatr sahnalarida yuz yillar davomida minglab marotaba sahnalashtirilgan bu mashhur asar ta’sirida g‘arb davlatlari Temur shaxsiga muntazam ravishda mana shunday salbiy “Xudoning jazosi”³⁹ qabilida munosabatda bo‘ldilar.

Amir Temur haqidagi mana qarashlarni xolis va adolatli olib borish maqsadida tarixiy manbalar orasida bizning solishtirishlarimizga ko‘ra eng ishonchli “Temur tuzuklari”dir. Chunki, undagi ma’lumotlar Amir Temurning o‘ziga va saroydagi olimlarga bir necha marotaba o‘qib berilgan, qayta-qayta tahrir qilingan. Alixonto‘ra Sog‘uniy uzoq muddat davomida tazyiq va ta’qib ostida yashagan bo‘lsa ham, “Temur tuzuklari”ni fors-tojik tilidan ona tilimizga mahorat bilan o‘girgan edi. Demak, “Temur tuzuklari” Amir Temurning aslida qanday hukmdor bo‘lganligini anglatishga qodir bo‘lgan manbadir. Sohibqiron davlatni boshqarishda aholining barcha tabaqalariga suyandi: 1)Sayyidlar, fozillar va ziyyolilar, 2)ish ko‘zini biluvchi fozil kishilar, 3)xudojo‘y darvesh, qalandarlar, 4)xonzodalar, mingboshilar va harbiylar, 5)sipoh va askarlar, 6)maxsus ishonchli kishilar, 7)vazir va sarkotiblar, 8)hakim, tabib, munajjim va muhandislar, 9) tafsir va hadis olimlari 10)hunarmandlar, kosiblar 11)so‘fiylar, 12)savdogar va sayyoohlар. Amir Temur “Temur tuzuklari”da “Saltanatim qonun qoidalarini shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim, shu o‘n ikki toifani saltanatim osmonining burji, davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”⁴⁰ - deydi. U el-yurtni o‘z tasarrufida va itoatida tutish uchun o‘n ikki tuzuk tutdi: 1) podshoh bir so‘zlik bo‘lishi, har bir so‘zida turishi, belgilangan ishni bilib qilishi, 2) har ishdaadolatpesha bo‘lishi va atrofida ham shunday kishilarni tutishi, 3) har ishda o‘zi hukm chiqarsin, 4)biror ishda qilingan azmu qaroriga qattiq tursin, 5) uning amru farmoni hamma uchun vojib bo‘lsin, 6) podshohlik ishlarini biron boshqa kimsaga ishonib qo‘ymasin, 7) ne ish qilmoqchi bo‘lsa boshqalar bilan kengashsin, maslahatning foydasini olsin, 8) saltanat, raiyyat va sipoh ishlarida yaxshi yomon

³⁹ Дадабоев О. Интерпретация личности Амира Тимура в западном и восточном литературном контексте. Филол.фан.фал.док.дисс. – Т., 2019. – С.16.

⁴⁰ Temur tuzuklari. – Т.: “O‘zbekiston”. Mas’ul muharrir. Ashraf Ahmedov. 2019. – B.81.

gap eshitsa, haqiqat qilib, shoshmasdan, mulohaza bilan hukm chiqarsin, 9) sipoh va raiyyat oldida o‘zini haybatli tutsinkim, hech kim bo‘yin tovlash va gap qaytarishga jur’at qilolmasin, 10) raiyyat, xazina, lashkar va sultanat podshohning hukmi ostidadir, u buni doimo esda tutsin, 11) sultanatni idora qilishda boshqalarni sherik qilmasin, 12) ahli kengashda ogoh va hushyor bo‘lishi zarur, chunki ular ko‘pincha ayb axtaradi va buni tashqariga tashiydi. Ushbu o‘n ikki narsani o‘zimga shior qilib olganligim uchun, to‘la mustaqillik bilan sultanat taxtida o‘tirdim⁴¹.

Amir Temur safdoshlari orasida o‘ziga sadoqatli va sodiq hamrohlarini kengashish uchun muntazam to‘plab turgan. Ular fuqarolarni rozi qiladigan shakldagi boshqaruvni amalga oshirish maqsadida ommaning dunyoqarashiga, ruhiy holatiga, e’tiqodiga, ayniqsa, maxfiy xabarlar yetkazib beruvchi oddiy xalq vakillaridan tashkil topgan hufiya va joslardan guruhlari vakillarining ma’lumotlari asosida hokimlar va amaldorlarni baholashga, qo‘yilgan talablarga javob beradigan shaxslarni saralashga alohida e’tibor qaratgan. Buning uchun esa Sohibqironga o‘zi islomiy ilmlarning puxta egasi ekanligi yordam bergan. “Temur tuzuklari”da ko‘rsatilishicha, davlatni boshqarish jarayonida maslakdosh bo‘lgan vazirlar to‘rt sifatga ega bo‘lishlari lozim edi: asillik, toza nasllik; aql farosatlilik, sipohu raiyyat ahlidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalik; sabr, chidamlilik va tinchliksevarlik. Temur va temuriylarga bag‘ishlangan qator asarlar yaratgan Alisher Navoiy ham Husayn Bayqaro saroyida mana shu to‘rt xislatni o‘ziga mujassam etgan dono vazir edi. Xondamir va boshqa tarixchilarining ma’lumotlariga qaraganda, Alisher Navoiy o‘z hisobidan madrasalar, masjidlar, shifoxonalar va hammomlar qurdirgan. U o‘zining xususiy mablag‘ini xalq manfaati yo‘lida sarflash imkoniga ega bo‘lish bilan birgalikda, ayni zamonda aql zakovati bilan ham xalqqa katta xizmat qilgan. Ammo, tan olish kerakki, Navoiyni yuksaltirgan zamon, sharoit va muhit aynan temuriylar davri edi.

Uchinchidan, sovet davri tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga imkon qadar salbiy ko‘z bilan qaragan tarixchilarni olqishlashga alohida e’tibor qaratildi.

⁴¹ Temur tuzuklari. Mas’ul muharrir. Ashraf Ahmedov. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – B.24.

Sobiq Sho‘rolar davrida Ibrohim Mo‘minovning Sohibqiron haqidagi risolasi qattiq tanqid ostida olingan bo‘lib, 1970-yilda Amir Temur shaxsi rasmiy qoralandi. Olimning risolasi esa, o‘tmishni ideallashtirish deya baholandi. Amir Temur shaxsi va faoliyatini qora sahifalarga kiritishda M.Abduraimov va M.Vahobovlar o‘z zamonasi g‘oyalarini olqishlagan holda A.Novoselsev bilan birgalikda nashr ettirgan qator maqolalarining ta’siri katta. 1970-1980 yillarda bu tarixiy shaxs xususida bironta ham maqola chop qilingani yo‘q⁴². Ibrohim Mo‘minovning risolasiga mustaqillikka erishgandan so‘ngina, M.M.Xayrullayev tomonidan Amir Temur haqida yozilgan bu asar katta ilmiy jasorat ekanligi, tarixni haqqoniy yoritish, milliy tariximizga ilmiy yondashish, madaniy merosni tiklash, mustaqil fikr yuritish uchun kurashning qurboni bo‘lganini⁴³ e’tirof etgandi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatini to‘laligicha o‘rganish, tahlil qilish yurtimiz tarixidagi eng muhim bosqichlaridan birini o‘rganish va tahlil qilish demakdir. U qurgan davlat Movarounnahr tarixidagi eng katta va rivojlangan sultanat sanaladi.

Tarixdan ma’lumki, Amir Temur o‘zi qurgan ulkan va qudratli mamlakatni boshqarishda quyidagi islomiy omillarga asoslangan: Har qanday mamlakatning asosini rahbar va fuqaro orasidagi aloqa tashkil qiladi. O‘z fuqarolarning mehru muhabbatini qozongan, ularning hurmatiga sazovor bo‘lgan davlat rahbarigina har tomonlama sharaflanishi, e’zozlanishi mumkin.

Amir Temurning bunyodkorlik ishlari haqida so‘z ketganda, uning har ishga shijoat bilan kirishganligini e’tirof etish zarur. Sharafuddin Ali Yazdiy ham: “Hazrat Sohibqironning buyuk himmati – har ishning oxirigacha yetkurmaguncha o‘lturmas erdi”, deya bejiz yozmagan edi. Hali oddiy amirlardan biri maqomida, qaysar, o‘zboshimcha va izzattalab amirlar boshini goh qovushtirishga erishib, goh qovushtira olmay, Turkiston cho‘llarida ot choptirib yurgan pallalardayoq – 1365-66-yillar qishida Sohibqiron Qarshi qal’asi qo‘rg‘onini qurishga kirishdi va

⁴² Raxmatullayeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi. Tarix fan.nomz.diss. – T., 2010. – B. 23.

⁴³ Xayrullayev M. Ibrohim Mo‘minovning katta ilmiy jasorati (So‘zboshi o‘rnida) / I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyoda tutgan o‘rni va roli. – T., 1992. – B.11

poyoniga yetkazdi. Yosh amir o'shandayoq ko'ngliga ulug' orzu-umidlar joylaganini, uzoq maqsadlarni ko'zlaganini, garchi o'sha payt oddiy bir amir bo'lgan esa-da, o'zini butun mamlakat uchun mas'ul deb hisoblaganini ko'rsatadi. Chunki uning keljakka ishonchi yuksak va sobit edi.

Ma'lumki, o'sha paytda Samarcand ham mustahkam devorlar bilan o'ralmagan edi. Shahar sultanat markazi qilib belgilangandan keyin, Amir Temur unga poytaxt ko'rk-u salobatini berish, obod maskanga aylantirish yo'lida katta harakatlar boshladi. Bu ishlar Sohibqironning butun umri davomida bir lahma ham to'xtagani yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Dastavval ko'chalar orasta qilindi, Ko'ksaroy bunyod etildi. "Samarcand arkida Temurbek ulug' bir ko'shk solibdur, to'rt oshyonliq⁴⁴, – deb keltiradi Bobur Mirzo "Boburnoma" asarida. – Ko'ksaroya mavsum va mashhur va oliy imoratduri". Samarcandi firdavsmonand atrofida bunyod etilgan bog'lar, bag'oyat mahobatli va go'zal edi. Ularning ta'rifi turli muarrixlar asarlarida keltirilgan. Bog'i Chinor (Saroymulkxonim bog'i), Bog'i naqshi jahon (Jahongir Mirzo bog'i), Bog'i Behisht (Tuman oqa bog'i), Bog'i Dilkusho, Bog'i Baland, Bog'i Davlatobod, Bog'i Nav va boshqa bog'lar poytaxt ko'rkinga ko'rk bo'lib qo'shildi. Ularning har birida muhtasham saroy, ko'shk va naqshinkor ayvonlar qurildi, ulkan xiyobonlar barpo etildi. Bu bog'larda bo'lgan, ushbu go'zal maskanlarga tashrif buyurgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixo ko'rganlari haqida o'z kundaliklarida zavq-shavq bilan yozgan. Chunonchi, ispan elchisi Sohibqironning suyukli xotini Tuman oqaga atab bunyod etilgan Bog'i Behisht haqida uning naqshin, g'ishtin va lojuvard, hamda oltin bilan bezatilgan go'zal va baland darvozasi borligini, bog'ning juda katta ekanligini, unda mevali va sersoya daraxtlar ko'pligini, yog'och panjaralar bilan ihotalangan shinam xiyobon va yo'laklardan odamlar o'tib turishini ta'kidlaydi.

Iste'dodli yozuvchi Muhammad Ali "Jadid" gazetasida e'lon qilingan maqolasida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi. "O'z-o'zidan ulug' muarrix Sharafuddin Ali Yazdiyning quyidagi so'zlari xayolimga keladi: "(Sohibqiron) har yerdakim,

⁴⁴ Бобур. Бобурнома. – Тошкент.: Юлдузча, 1989. – Б.68.

imoratqa qobil yer ko'rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi..." Bu qutlug' so'zlar Amir Temurga ham, qo'li gul o'zbek xalqiga ham tegishlidir⁴⁵.

Shu vaqtga qadar, Sohibqiron Amir Temur faoliyati, hayotiga doir minglab badiiy asarlar yaratildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. O'tgan qisqa davr mobaynida dunyo adabiyoti va temurshunosligida son va sifat jihatidan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Sohibqiron Temur shaxsiyati ingliz adabiyotida badiiy obraz sifatida mardonavor g'oliblik sururi va taxt egasi va dushmanlar halokati ramzi sifatida talqin etildi. Muhammad Ali, Nurali Qobul singari o'zbek yozuvchilari o'z romanlarida bu personajning ichki dunyosini tasvirlashga alohida e'tibor qaratdilar. Amir Temurning to'rt o'g'li ota qurgan davlatning ustunlari majozida keltirilgan "Ulug' saltanat" tetralogiyasida Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo hamda, Shohrux Mirzolarning taqdir kechinmalari ko'rsatib beriladi. Tuyg'ular dunyosi orqali shaxslarni o'ziga xos idrok qilish tarzi – manfaatparastlikka bo'ysundirilgan voqeliklar badiiy ifodaga ko'chiradi. Adib tasvirlagan shaxslar ijtimoiy davr tiplari hisoblanar ekan, ularning fe'l atvoriga daxldor bo'lgan turli sifatlarni yagona asosga tartib asosida keltirish lozim bo'ladi. Bunda turg'un shaklda takrorlanuvchi juz'iy jihatlar biz uchun muayyan tipga mansub umumiylikni anglash yo'lida mantiqiy asos vazifasini o'taydi. Zotan, takrorlanib turuvchi barqaror holatlarda sabab va zaruratni ifodalaydigan umumiylik mujassam bo'ladi.

Shunday asarlar sirasida Turg'un Fayziyevning "Temuriylar shajarasi", "Temuriy malikalar", Shohista O'ljayevaning "Amir Temur davlati boshqaruvi", Hamdam Sodiqovning "Amir Temur davlatida havfsizlik masalalari", Azim Qayumovning "Amir Temur haqida xalq qissalari", Hakim Sattoriyoning "Amir Temur sevgan yurt" hamda, Xurshid Davron kabi olim va adiblarning qator asarlarini keltirish mumkin. Ulardan biri Nurali Qobulning "Temuriylar epopeyasi" turkumida yozuvchining xohish irodasiga muvofiq tarzda, siyosiy hayot va ijtimoiy tiplar aks ettirilgan. Muallifning shu nomdagi tarixiy badiiy epopiyasiga mansub

⁴⁵ Muhammad Ali. Jadid gazetasi. 2024-yil 19-aprel № 17(17).

“Jon va Shon talvasasi” romanida asosiy qahramonlarning taqdiri va hayotiy kurashlari qalamga olinadi. Romanda 1402-yilda Turon hukmdori sohibqiron Amir Temur va turk sultonii Yildirim Boyazidning Anqara to‘qnashuvidan so‘ng ro‘y bergen olamshumul tarixiy voqealar tasvirlangan. Bu to‘qnashuvning Yevropa, arab, ajam, slavyan kabi ko‘plab xalqlar tarixiga ta’siri, o‘sha davr kishilari taqdiri zamon va makon tarozusida ko‘rsatib beriladi. Asarda insonning hayoti, ongi va ruhiy holatlari tasviriga alohida e’tibor qaratiladi. Roman syujeti markazida ikkita qahramon – Jon va Shon turadi. Ular orasidagi o‘zaro munosabatlar, qaramaqarshiliklar va hayotiy sinovlar romanning asosiy mavzularidan birini tashkil qiladi. Jon – irodali, qat’iyatlari va o‘z orzu-istiklari uchun kurashayotgan insondir. Shon esa – murakkab ichki dunyo egasi bo‘lgan, hayotning ko‘plab sinovlari va qiyinchiliklari bilan yuzlashayotgan personaj. Roman voqealarini rivojida bu ikki qahramon turli-tuman sinovlardan o‘tadi, hayotning murakkab davrlarida o‘zlarining orzu-maqsadlariga erishishga intiladi.

Amir Temur hayoti, faoliyati, davlat boshqaruvi va harbiy yurishlariga bag‘ishlangan o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalarining asarlarini xronologik tartibda quyidagicha tasniflash mumkin.

I. Amir Temur hayot bo‘lgan davrda uning zamondoshlari bo‘lgan muarrixlar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar.

II. Uning vafotidan so‘ng yaratilgan asarlar:

- a) XIX asrga qadar yaratilgan asarlar;
- b) 1920-1990-yillarda yaratilgan asarlar;
- c) mustaqillikdan keyin yaratilgan asarlar.

III. Xorijda yaratilgan ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar.

I.2 O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida Temur va temuriylar obrazi

talqinlari

Buyuk tarixiy siymo, minglab tadqiqotlar manbayi, badiiy asarlar bosh qahramoni Amir Temur faoliyati va hayot yo‘llari haqida ma’lumot beruvchi manbalarni o‘rganish tarix, adabiyot, iqtisod va san’at, huquq va siyosat kabi ko‘plab soha vakillarini qiziqtirishi shubhasiz. Temurshunoslik ilmiga oid og‘zaki

va yozma tarixiy va badiiy manbalar orasida “Temur tuzuklari” I.Mo‘minov tashabbusi bo‘lgan N.Ostroumov tomonidan rus tilida, A.Sog‘uniy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganligini⁴⁶ yuqorida ta’kidlagan edik. XX asrning 60-yillaridan boshlangan yozma manbalarni o‘rganish uning shaxsiga bo‘lgan munosabatlarning bir qadar ijobiylashuviga asos bo‘ldi. Ammo afsuski, 1970 yilda Amir Temur shaxsining rasmiy qoralanishi, I.Mo‘minov faoliyati esa o‘tmishni ideallashtirish deya baholanishi bu boradagi faoliyatlarini bir qadar “muzlashi”ga sabab bo‘ldi. Amir Temur shaxsi va faoliyatini qora sahifalarga kiritishda M.Abduraimov va M.Vahobov kabi mafkura qullarining A.P.Novoselsev bilan birgalikdagi chiqishlari ta’siri sezildi. Buning oqibatida keyingi o‘n yillikda biror maqola chop etilmadi⁴⁷. Fasix Hafoviyning “Mujmali Fasixiy”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Mat’la as-sadayin”, “Temur tuzuklari” (fors tilidan Alixonto‘ra Sog‘uniy va H.Karomatovlar tarjimasi), S.Toshkandiyning “Temurnoma yoxud Amir Temur ko‘ragon jangnomasi”, X.Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarlari nashr etishga muvaffaq bo‘lindi. 1967-yilda “Tuzuku Temuriy”ning xatoliklari tuzatilib, nashr etildi. H.Karomatov o‘z tadqiqotlarida “Temur tuzuklari”ning O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘yozmalar fondida saqlanayotgan Kalkutta, 1785 Tehron, 1968 Bombey, 1890 nashrlarini Alixonto‘ra Sog‘uniy tarjimasi bilan qiyosiy tadqiq etdi⁴⁸. “Tuzuklar” qayta o‘rganilib, tabdil qilinib, 1991-yil B. Ahmedov ilmiy izohlari bilan nashr etildi. 1996-yilda esa ushbu nashr asosidagi asar o‘zbek, ingliz va fransuz tillariga tarjimalari bilan nashr etildi. 1999-yilda rus tilida Forsiy asl matni bilan, 2005-yilda esa to‘liq holatda chop etildi. Keyinchalik, esa ushbu asarning Sank Peterburg qo‘lyozmasi asosida, o‘zbekcha matni tayyorlanib, Yazdiyning “Zafarnoma” asari tanqidiy matnidan foydalangan holda, H.Karomatov tomonidan “Zafar yo‘li” nomi bilan qayta nashr etildi.

⁴⁶ Yaxshiyeva Z.R. Alisher Navoiy va ingliz adiblari ijodida Amir Temur obrazi talqinlari. Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. ISSN. 2181-9904. Doi Jurnal. 10.26739/8121-9904. 2023.3-jild, 2 son. – B. 25-30.

⁴⁷ Raxmatullayeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi. Tarix fan.nomz.ilm.daraj.olish diss. – Toshkent., 2010. – B.23.

⁴⁸ Karomatov H. “Temur tuzuklari”ni O‘zbekistonda o‘rganish muammolari// Temuriylar davri madaniy yodgorliklari. Konf.mater. – Toshkent,. 2003. – B.57-58.

Ushbu asarni shuningdek, ilmiy tadqiq etish masalasida uning asl turkiy matni topilmagani, asar yozilish yillari to‘g‘risidagi turli qarashlarning ilgari surilishiga olib keldi. Xatto, ushbu asar muallifiga nisbatan ham ikkilanishlar kuzatilgani, B.Ahmedov tomonidan “asar muallifi ma’lum emas, asarda Amir Temur shaxsi ko‘p jihatdan ideallashtiriladi”⁴⁹ deya ilk munosabatlar bildirilgan edi. Ammo, besh yildan so‘nggina olim ushbu asarni Sh.Yazdiy, N.Shomiy asarlaridagi ma’lumotlarga tayanib, bu asar Amir Temur qalamiga mansub asar ekanligini dalillar bilan keltirib, uning muallifi mubolag‘asiz Sohibqiron ekanligini⁵⁰ yozadi. Bu ma’lumot esa keyinchalik, D.Yusupova hamda, R.Jalilova tomonidan, B.Ahmedov va H.Bobobekovlar tomonidan kotiblarga aytib yozdirilgan deya to‘ldirilsa, O.Bo‘riyev asardagi atamalarning kelib chiqishi XVI-XVII asrlarga to‘g‘ri kelishini, asarning yozilishi esa Amir Temur davridan ancha keyin yozilishi haqidagi mulohazalarini ilgari suradi. H.Bobobekov va A.Quranboyevlar ushbu asar K.Xorazmiy to‘ldirgan “Qissayi Temur” asarining to‘liq nusxasi sanaladi deya tahmin qilishdi⁵¹.

Ushbu asar fanda “Tuzuku Temuriy”, “Temur tuzuklari”, “Malfuzoti Temuriy” (Temurning aytganlari), “Voqeoti Temuriy”, (Temur haqidagi voqealar) kabi o‘nlab nomlar bilan taniqli. Bizga ma’lum qo‘lyozmalarning eng avvali XV asrlarda yaratilgan degan xulosalar berilgan Boburiy hukmdor Shohjahon davriga oid. Adabiyotshunos olim U.Uvatov bu asar haqida livanlik olim Mazhar Shihob ma’lumotlariga tayangan holda, 1616-yilda hajga kelgan Abu Tolib al-Xusayniy “Tuzuklar”ning asl turkiy nusxasini qo‘lga kiritganini yozadi. Bu asar davrlar osha Komil Xorazmiy tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan⁵². “Tuzuklar” muallifi bahsida H.Karomatovning qarashlari ham mavjud: Olim ushbu asarni mustaqil bitik deya hisoblab, u Darvesh Ali Buxoriyning Sh. Ali Yazdiy “Zafarnoma”si asosida yaratilganini, “Malfuzoti Temuriy” nomli asarning nusxasi ekanligini ilgari suradi.

⁴⁹ Temur tuzuklari. (so‘zboshi va nashrga tayyorlovchi B.Ahmedov). – T., 1991. – B.7.

⁵⁰ O‘sha manba. – B. 8

⁵¹ Amir Temur Ko‘ragon. Zafarnoma. Tuzuki Temuriy. so‘zboshi va tabdil mualliflari H.Bobobekov, H.Boboyev va A.Quranboyev. – Toshkent.: “Nur”. 2000. – 136 b.

⁵² Uvatov. U. “Temur tuzuklari” Makkadamikina?// Amir Temur saboqlari. – T., 2005. – B.75-100.

Demak, olim fikricha bu asar muallifi Afzal Buxoriy ismli olim. Bu ma'lumotlarni O.Bo'riyev ham tasdiqlaydi⁵³. Bu olimlarning fikri xulosasida, ushbu asarning asl turkiy nusxasini izlab topish, mukammal tanqidiy matnni yaratish va qiyoslash orqali ushbu masalaga oydinlik kiritish taklifi bilan cheklanadi.

Amir Temur haqida bitilgan manbalar avvalida Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarini ham qimmatli ma'lumotlar jamlanmasi deya e'tirof etish joiz. Uni "Zafarnomayi Temuriy", "Tarixi shahonkushoyi Temuriy", "Fatxnomayi Temuriy" nomlari mashhur bo'lsa, muallifni Alisher Navoiy "sharaf ul millat va din" edi deya ta'rif keltiradi. Asarni o'zbekchalahtirgan olim Darvesh Ali al Buxoriy, turkiylashtirgan esa Ahmad al-Ajamiy edi. O'zbek tilida qayta tarjima ishi shuningdek, XIX asarda Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad tomonidan Xivada amalga oshirilgan. Shuningdek, asar fransuz tiliga 1722-yilda Parijda, 1723-yilda Londonda ingliz tiliga, 1929-yilda Istanbulda turk tiliga tarjima qilinib, 1885-yilda Hindistonda, 1957-yilda Eronda eski o'zbek tilida nashr etilgan. Ushbu asar yuzasidan mustaqillik yillarida o'nlab tadqiqotlar amalga oshirilib, A.O'rinboyev tomonidan ushbu asar "Amir Temur haqida yozilgan yozma manbalar orasida aniq hujjatlarga asoslangan eng haqiqiy ishonchli manbadir"⁵⁴, deya ta'riflanadi. Ushbu asar Amir Temurning barcha tarjimayi hollari uchun asos bo'lganligi bilan bir qatorda, Sohibqiron yashagan davr muhitini yoritishdagi ilmiy qimmati bilan ham ajralib turadi. Uning o'zbekcha tarjimalariga asosan, T.Fayziyev, A.Muhammadjonov, B.Ahmedov, R.Mukminova, G.Pugachenkovalarning ilmiy tadqiqotlari uchun ham muhim tarixiy dalil bo'lib xizmat qildi. Ingliz sharqshunosi E.Braun "Zafarnoma" asarini "ko'tarinkilik va maqtov ruhida yozilgan bo'lishiga qaramay, u boshqa manbalarda uchramaydigan ajoyib faktlar, aniq sanalar, shajara va etnografik, toponimik ma'lumotlarga boy"⁵⁵ ekanligini ta'kidlaydi. Asar Sharafuddin Ali Yazdiy bergen ma'lumotlarga ko'ra, temuriy shahzodalardan

⁵³ Bo'riyev O. Sh.Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari va "Temur tuzuklari"/ Temuriylar davri madaniy yodgorliklari. Konf.mater. – Toshkent., 2003 – B.86.

⁵⁴ O'rinboyev A. Sh.Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida Temuriylar bunyodkorligi davr manbalari. – T., 1996. – B.85-97.

⁵⁵ Абиджанова. Д. Маверауннахр эпохи правления Амира Тимура в англоязычной историографии. Автореф. дисс. канд.ист.наук. – Т., 1999. – С.27.

Ibrohim Sultonning buyurtmasiga binoan Sheroz shahrida yozilgan. Sohibqirondan keyin va Hirotning 1507-yili Shayboniylar tomonidan bosib olingunigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining miniatyuralarga boy bo‘lgan uch qo‘lyozma nusxasi kotiblar tomonidan ko‘chirilgani tarixiy manbalardan ma’lumdir. “Zafarnoma”ning bir nechta qo‘lyozma nusxalari dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan kutubxonalarida saqlanadi. Asarning nodir nusxalari u qadar ko‘p emas. Shulardan biri “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si”dir. Mazkur nomlanish “Zafarnoma”ning noyob va yozilganidan ko‘p vaqt o‘tmay ko‘chirilgan nusxalaridan biri temuriy hukmdor Husayn Boyqaroga tegishli bo‘lgani sababli kelib chiqqan. Qo‘lyozma asar 1467-1468-yili ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning avvalida aynan Husayn Boyqaro madh qilingani uchun ham, shu nusxa “Husayn Boyqaro Zafarnoma”si nomi bilan nom qozongan. Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” solnomasi Temuriylar xonodonida nihoyatda mashhur bo‘lgan tarixiy asarlardan hisoblangan. Ularning miniatyuralar bilan boyitilishi, Movarounnahr va Xurosonda shuhrat topishi Amir Temur shaxsiyatiga bo‘lgan obro‘-e’tiborning yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Qo‘lyozmadagi Amir Temurning yurishlari manzaralari tasvirlangan miniatyuralar adabiyotshunoslik bilan birgalikda tarixshunoslik va san’atshunoslik sohalari nuqtai nazaridan yuksak ahamiyatga egadir. “Husayn Boyqaro “Zafarnoma”si” ko‘proq g‘arb adabiyotshunos va tarixchi olimlari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda⁵⁶.

Amir Temur va Temuriylar davri tasavvurlarini beruvchi, qimmatli manbalardan yana biri Ibn Arabshohning “Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur” asari bo‘lib, ushbu ijod mahsuli U.Uvatov tomonidan arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va so‘zboshi asosida izohlar bilan ikki nashrda bosmadan chiqdi⁵⁷. 1436-yilda yozilgan ushbu asar garchi bir qadar salbiy qarashlar asosida bitilgani aksar adabiyotshunoslarga ma’lumki, Amir Temurning Shom o‘lkasiga yurishi chog‘ida oilasi bilan Samarqandga olib kelinishi vajidan edi. Ibn Arabshoh o‘z vataniga

⁵⁶ Erkinov A. Jadid gazetasi, 2024-yil 5-aprel, № 15(15).

⁵⁷ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur.1-2 kitob.

1408-yilda qaytguniga qadar o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar haqida, eshitganlari va afsonalar borasidagi tasavvurlari va xalq og‘zaki ijod namunalari asosida ushbu asarini tugallaydi. Garchi muallifning shaxsiy adovati va badiiy bo‘rttirish holatlarini hisobga olgan holda, manbani tahliliy tanqidiy mushohada asosida o‘rganish, shu bilan birgalikda, uni boshqa asarlarda uchramaydigan madaniy hayot namoyondalari va hunarmandlar to‘g‘risidagi manba sifatida qabul qilish o‘rinli. Adabiyotshunos U.Uvatov bu asarda keltirilgan ko‘pgina ma’lumotlar, nodir va noyobligi bilan ahamiyatli ekanligini, lekin shunga qaramay chalkashliklar, tahminiy tahlil qilingan hollar ko‘plab uchrashini aytib o‘tgan⁵⁸. Ta’kidlash joizki, ushbu asar rus va g‘arb davlatlari tarixchilari uchun asosiylar manba sifatida foydalanilgani asarning jahon temurshunosligida o‘rni katta ekanligidan dalolatdir.

Amir Temur davlati, sultanat yuritish va hukmronlik faoliyatiga bag‘ishlangan yana bir qimmatli manba G‘iyosiddin Alining “Hindistonga yurish kundaligi” sanaladi. U Temurbek buyrug‘iga binoan, 1399-yilda yozib nihoyalangan. Asar nomidan ko‘rinib turibdiki, buyuk fotihning Hindistonga qilgan zafarli yurishi tafsilotlariga bag‘ishlanadi. Asarning A.Simyonov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasiga asoslanib olib borilgan tadqiqotlar talaygina. R.Rahmonaliyev ham ushbu tarjimaga asoslanib, “Tamerlan”⁵⁹ nomli to‘plamiga parchalar kiritgan.

Mana shunday manbalardan yana biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari bo‘lib, bu asar ham Amir Temur topshirig‘iga ko‘ra yozilgani aytib o‘tiladi. Asar voqealari 1404-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu asar tadqiqi 1937, 1956-yillarda birinchi va ikkinchi jild shaklida nashr etiladi. Ammo, sobiq sho‘rolar davrida Temur shaxsini ideallashtirish foni ostida u haqida yozilgan barcha asarlarni o‘rganishga taqiq ham qo‘yildi. Istiqlol yillarida esa marhum tarjimon Y.Hakimjonov ishi davom ettirilib, A.O‘rinboyev, H.Karomatov, O.Bo‘riyevlar tomonidan asar ilmiy izohlar bilan ushbu asar o‘zbek tiliga tarjima

⁵⁸ Uvatov U.Ibn Arabshoh. Temur va Temuriylar davri madaniy hayoti. – T., 2008. – B.158-165.

⁵⁹ Тамерлан. Эпохи. Личност. Деяния. // обработка текста Р.Рахмоналиева. – М.: “Тураш”, 1992. – С.122.

qilindi va chop etildi. Hofizi Abro‘ning ushbu asarga yozgan ilovasi “Zayli Zafarnomayi Shomiy” asari ham u birgalikda nashr etildi. Olim B. Ahmedov tarixiy manbani “soda til va ravon usulda yozilgan, daliliy ma’lumotlarga boy, lekin Sharaffuddin Ali Yazdiy asariga qaraganda bir qadar ozroq ideallashtirilgan” ekanligini aytib o‘tadi⁶⁰. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlab yozilgan kitoblar orasida keng tarqalgan manbalardan biridir. Asar o‘z davridayoq ko‘pchilikka manzur bo‘lganligi ma’lum. “Zafarnoma”ga dongdor tarixshunos olim Hofizi Abro‘ ilova sifatida asar yozgan va uni “Zayli Zafarnomai Shomiy” deb atagan. Yetuk tarixchi olim bo‘lgan Hofizi Abro‘ bevosita Amir Temur va Shohruh Mirzoning xizmatida bo‘lganligini inobatga oladigan bo‘lsak, u keltirgan tarixiy ma’lumotlarning juda muhim ahamiyatga ega ekanligi yanada oydinlashadi.

Hofizi Abro‘ning “Zayli Zafarnomayi Shomiy” asari Shomiy o‘z asariga kiritmay qolgan Temur hayotining so‘ngi yillari haqida muhim ma’lumotlarni ulashuvchi manba. Ushbu muallifning, “Hafizi Abro‘ geografiyasi” asari ham Temuriylar davri, xususan, Amir Temur va Shohrux Mirzo davrida amalga oshirilgan buniyodkorlik ishlariga bag‘ishlangan. Uning shuningdek, to‘rt jilddan iborat “Majmuai Tavorixi sultoniy” asarida Amir Temur va Shoxrux Mirzo sultanati tarixini, yurt obodligi yo‘lida qilingan ishlar qalamga olinadi. Ushbu tarixshunosning bu asarlaridan O.Bo‘riyev o‘z tadqiqotlarida⁶¹ keng foydalanganligi ma’lum.

Temuriy shaxzodalar haqida bitilgan ko‘plab asarlar ham Amir Temur tuzgan sultanatning hukmronlik yillari haqida tasavvur uyg‘otishda muhim manba sifatida e’tirof etiladi. Mana shunday asarlardan biri Umarshayx Mirzoning o‘gli Mirzo Iskandarga bag‘ishlab yozilgan Muiniddin Nazantiyning “Muntaxab ut taxorix Muiniy”dir⁶². Asar Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarining eng

⁶⁰ Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbaları. (Qadimgi zamон va о‘rta asrlar). – T.: “O‘qituvchi”, 2001. – B.167.

⁶¹ O.Bo‘riyev. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T., 1998. – B.168.

⁶² Muiniddin Nazantiy.Muntaxab ut tavorix.G’.Gulom tarjimasi. T.: “Moziydan sado”, 2000. – B.14-17.

qadimgi davrlaridan to Amir Temur vafotigacha bo‘lgan tarixi vasfidan iborat⁶³. Ushbu asarning ilmiy tadqiqi mustaqillik yillarida Sharqshunoslik instituda alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida keng o‘rganilgan. G‘.Karimov tomonidan Sohibqironning sultanat boshiga kelish tarixi, undan keyingi voqealar haqida o‘z izlanishlarini olib borgan bo‘lsa, B.Ahmedov ushbu asarda uchraydigan xatoliklar xususida, ularning to‘g‘ri shakllarini esa birlamchi manbalar asosidagi ma’lumotlarni keltiradi⁶⁴.

Sohibqiron davriga oid yana bir muhim manba Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlayi Sadayin va majmayi bahrayin”⁶⁵ asari hisoblanadi. Muallif Temuriy shaxzoda Shohrux Mirzo saroyida elchi vazifasida Hindistonga safarlarga bosh bo‘lgan safari taassurotlarini ushbu asariga kiritadi. Ushbu manba temuriylar va sharq mamlakatlari tarixini XIV va XV asr tarixini yoritishga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatli. Ushbu manbani o‘rganilishi yuzasidan ishlar rus tiliga tarjima qilinishi bilan boshlanadi. Temuriyshunos olim B.Ahmedov ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, asarning rus va boshqa tillariga tarjimalari, xorij olimlar tomonidan yuqori baholanganligi, chet davlatlarida ham bir necha bor nashr etilganligi, maxsus ilmiy kataloglarda tavsiflanganligi oydinlashadi.

Manbashunoslarning e’tiroficha, Temuriylar xronologiyasi, umumiylar tarix, muhim voqealar va sanalar haqida muhim va takrorlanmas ma’lumotlar majmui bo‘lgan Fasix Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasixiy” asarida madaniy hayot batafsil bayon etilgan. Amir Temur davrida keng ko‘lamda olib borilgan obodonchilik, bunyod etilgan madrasa va masjidlarining kim tomonidan va qay maqsadda bunyod etilganligi haqidagi tarixiy qaydlar bugungi kun temurshunoslari va adabiyotshunoslari suyanadigan muhim manbalardan hisoblanadi. Asarni rus tiliga tarixshunos olma D.Yusupova mahorat bilan tarjima qilganligi, keyinchalik undan o‘zbek tiliga lavhalar olinganligi va bu borada amaliy ishlar olib

⁶³Raxmatullayeva A.R. O‘zbekistonda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixshunosligi. Tarix fan.nomz.ilm.daraj.olish diss. T., 2010. – B.23.

⁶⁴Ahmedov B. Muqaddima o‘rnida//Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. – T., 2000. – B. 3-4.

⁶⁵Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi Sadayin va majmayi baxrayin. Fors tilidan A.O‘rinboyev tarjimasi. – T., 2000. – B. 182.

borilayotganligi ma'lum⁶⁶. Mana shunday asarlardan yana biri Chingizzon bilan zamondosh bo'lgan taxt egalari hamda, Temuriylar sulolasiga atab yozilgan ularning siyosiy ahvoloti haqida ma'lumotlar uzatgan o'nga yaqin mana shunday asarlari bilan mashhur bo'lgan tarixchi olim G'iyosiddin Xondamir hisoblanadi. Muallif Osiyo, Eron, Hindistonning o'rta asrlardagi madaniy, siyosiy, ijtimoiy va ilm fan muhiti haqida ma'lumotlarning eng saralarini kitob holiga keltirgan. Xondamirning asarlari nafaqat keyingi davr Sharq olim va adiblari balki, istiqlol davri temurshunoslari, Yevropa va Amerika sharqshunoslari orasida ham mashhur sanaladi.

Yuqorida keltirilgan asarlar ro'yhatini hali uzoq davom ettirish mumkin, ammo biz mualliflar orasida Amir Temur zamoniga yaqin davrda yashab ijod etgan, manbalarning ishonchligi jihatdan eng avvalgi ro'yhatdagilarini o'rganish bilan cheklandik. Bu asarlarning aksariyati Amir Temurni ko'zi bilan ko'rgan u yashagan davrni va yaqin yuz yillikda yashab ijod etganligi bilan asoslidir. Keyingi davr tarixchi va adiblari manbalari esa biz yuqorida keltirgan tarixiy asarlarga tayanib, solnomalar va xalq og'zaki ijod namunalari, afsona va rivoyatlar, baxshilar termalarida uchraydigan badiiy to'qimalarga ko'proq tayanganligi bois, Amir Temur haqidagi ma'lumotlarning turli tumanlikka, haqiqatdan uzoqlashuviga, bu o'rinda ijodkorlarning o'z ichki tasavvurlarini qo'shib hisoblaganda, yangi afsonalar yuzaga kelishiga sabab bo'lganligini ta'kidlash zarur.

Sohibqironning hayot tarzini o'rganish, manbalarni ma'lum bir xronologik tadrijiylikka keltirish ushbu doiradagi ishlar haqida aniq tasavvurlarni uyg'otishga yordam beradi:

- 1) Amir Temurni shaxsan ko'rgan, u bilan bir zamonda yashagan mahalliy va chet ellik adib va tarixchilar manbalari, obidalar;
- 2) Amir Temur va temuriylar haqida tasavvurlarga asoslangan badiiy bo'rttirma, ular shaxsi ideallashtirilgan, qisman haqiqat sanaladigan badiiy va

⁶⁶ Yusupova D. "Mujmali Fasixiy" dan Temuriylar bunyodkorligi davri manbalari. – T., 2001 – B. 194-224.

xalq ijodi namunalari;

3) Tarixiy manbalarga asoslangan va turli qarashlarni ilgari surgan ikkilamchi manbalar, arxeologik qazishma namunalari va solnomalar⁶⁷.

Mana shu tadrijiylikda temuriylar davri haqida yanada aniq va xolis ma'lumotlarni o'rganishda elchilar tomonidan yozilgan kundaliklar, sayohatnomalarda bitilganlar ham muhim manbalar sanaladi. Rui Gonzales De Klavihoning "Samarqanddagi Temur saroyiga sayohat kundaligi"⁶⁸da keltirilgan ma'lumotlar ham qimmathi manbalar sirasiga kiradi. Ushbu manbaning ahamiyatlilik darajasidan uni ispan tilidan rus tiliga 1881-yilda tarjimaga kirishgan N.Sreznevskiyning bu boradagi xizmatlarini I.Mirokova, istiqlol yillarida O.Tog'ayev kabi olimlar davom ettirishgan. Dunyoning ko'plab tillariga mahorat bilan qilingan tajimalari va asl manbani solishtirish asnosida temuriyshunos olim B.Ahmedov ushbu "Kundaliklar"da A.Temur saroyidagi malikalarga bergen ta'riflarini noo'rin ekanligini Ioann Grinloning Amir Temur haqidagi xotiralariga solishtirgan holda asoslab berishga intilgan. Mana shunday qiyoslanishi lozim bo'lgan manbalarga Bavariyalik Ioxannes Sheltbergerning "Sayohatnoma"⁶⁹, Sultoniya Yepiskopning Amir Temur haqidagi xotiralari, Arab tarixchisi Ibn Xaldunning "Tarjimayi hol"i, "At ta'rif bi Ibn Xaldun" yodnomasi⁷⁰ kabi tarixiy ma'lumotlarni tarjima qilish, maqola, risola va to'plam holiga keltirish ishlari olib borilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlar "Amir Temur jahon tarixida", "Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida", "Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida" kabi to'plamlarda jamlandi. Aslida ham Amir Temurnig o'z ko'zi bian ko'rgan uning yurti yoki saroyida mehmon bo'lgan xorijiy elchilar va tashrif buyuruvchilarining xotira va kundaliklari, sayohatnoma va solnomalarini

⁶⁷ Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. Jahon adabiyotshunosligida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi. Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. Volume1. Issue 3. www.uzresearchers.com. 18-25.

⁶⁸ Klavixo Rui Gonsales de. "Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi". (1403-1406).Ruschadan tarjima.// O'Bo'riyev. – Toshkent.: Adolat, 1989. 2004. – B 44.

⁶⁹ Шильтбергер И.О.Тамерлане. Тамерлан. Путешествие Иогана Шильтбергера по Европе, Азии и Африке. – Т.: Шарқ. 1999. – 420 с.

⁷⁰ Habibullayev A. Ibn Haldun. Tarjimayi hol. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshalri xotirasida. – T., 2004. – B.35-37.

solishtirish va asliyatga yaqin fikrlarni qiyoslash orqali aniqlab olish ilmiy tadqiqotchilar oldiga qo‘yiladigan muhim vazifalardan biridir.

Sohibqiron hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma’lumot keltiruvchi dastlabki manba G‘iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning “Ro‘znomai g‘azavoti Hindiston” (“Hindistonga yurish kundaliklari”) risolasi bo‘lib, bu asar Amir Temurning shaxsiy ko‘rsatmasi bilan 1399-1403-yillarda yozilgan. Biroq, bu asar Amir Temurga “g‘ayritabiiy iboralarsiz va kitobxon uchun tushunarli uslubda” emas, aksincha, dabdabali ruhda ekanligi, jimjimadorligi, asosiy mavzuga uncha aloqador bo‘lmagan mavzular qalamga olinganligi sababli, unga u qadar ma’qul bo‘lmagan⁷¹.

Sohibqiron vafot etganidan so‘ng u haqida yozilgan M. Natanziyning Xoja Tojiddin as-Salmoniyning “Tarixnama”, I.Shiltbergerning “Sayohatnama”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuar” (“Shoirlar zikrida”), Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi”), Jaloliddin Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” Ibn Xaldunning “Kitob al-ibor” (“Nasihatomuz misollar kitobi”), Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat”, Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Jannat bog‘i”), Rashididdinning “Mu’iz ul-ansob” va boshqa asarlarda Temur va temuriylar haqida bir-biridan qiziqarli tarixiy ma’lumotlar jamlangan.

O‘zbek adabiyoti tarixida Nizomidin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” G‘iyosiddin Alining “Hindiston g‘azovoti kundaligi”, “Temur tuzuklari”, Fasih Xafoviyning “Mujmali Fasihiy” asarlari eng qimmatli manbalardir.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyingi yillarda tariximizni, tarix sahifalaridagi buyuk siymolarning hayoti, faoliyati, tarix sahifalarini bezab turgan insonlar faoliyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Ayni shu davrdan Amir

⁷¹ Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент.: Шарқ НМИУ, 2006. – Б. 214-227.

Temur haqidagi tarixiy asarlarni yangicha me’zonlar asosida o‘rganish jarayoni boshlandi.

O‘tgan davr mobaynida tarixiy mavzularda ko‘plab ilmiy, ilmiy-ommabop, tarixiy, badiiy asarlar nashr etildi. Ular orasida Amir Temurga bag‘ishlangan tadqiqotlar son jihatdan katta ustunlikka ega ekanini qayd etish joiz. Sohibqiron faoliyati xolis, tarixiy haqiqatga mos tarzda o‘rganilishi natijasida, Amir Temurningadolatsizlik bilan qoralanib kelingan nomi oqlanganini, uning xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan bir qator olamshumul ishlar amalga oshirilganligini ham ta’kid etmoq lozim.

Amir Temur tomonidan yuritilgan oqilona vaadolatli siyosat, dinlararo bag‘rikenglikning ta’minlanishi, markazlashgan yirik davlatning barpo etilishi o‘sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy taraqqiyotida, shuningdek, dunyo tamaddunining yanada yuqoriga yuksalishi yo‘lida alohida ahamiyatga egadir. Bu tarixiy haqiqatni e’tirof etmay, Temurbek yashagan zamonni, uning keyingi davrlar rivojida ta’sirini va umumbashariy ahamiyatini xolis baholab bo‘lmaydi. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asari muqaddimasida Chingizzon bilan Amir Temur o‘rtasidagi farqlarga to‘xtalib shunday yozadi: “Chingizzon qaysi shahar va viloyatnikim bosib olgan bo‘lsa, na ul joydan asar qoldi-yu, na ulusidan xabar oldi... Hazrat Sohibqironning baxtiyor zamonida fath etilgan joylar esa, nizochilar va dushmanlarning ixtiyoridan butunlay chiqdi va ahvoli oldingisidan ham ancha yaxshiroq va obodroq, xalqi esa tinch va xursand bo‘ldi”⁷². Darhaqiqat, ustunlik va istilodan maqsadi faqatgina dunyoviy havasga va bu olam o‘tkinchi lazzatlariga erishishdan iborat shaxslar bilan dindor, ishlari maqtovga sazovor hamda, olam nishonli bayroqni o‘rnatishdan maqsadi islom (dini)ni yuksaltirishni hayotiy burchi deb bilgan kishilar o‘rtasida farq katta...

Olim Bo‘riboy Ahmedov bu buyuk fotih va u yuritgan siyosat ham uzoq mulohaza va mushohadalardan keyin “Amir Temurni yod etib” kitobida shunday yozgandi: “Tuzukoti Temur”ning haqiqiy tarixiy asar ekanligini Nizomiddin

⁷² Yazdiy Sh. “Zafarnoma”. – T., 1996. – B. 200.

Shomiy va Sharafuddin Yazdiy “Zafarnoma”laridagi ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash orqali bilish mumkin. Xullas, uning Amir Temur tomonidan yozilganligi shubhasizdir”. Bu boradagi fikrlar yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Temuriylar davridagi til muammolari”, “Til va el” kabi ilmiy badialari orqali yanada oydinlashadi. Yozuvchining so'nggi badiasi “Temur tuzuklari” asariga bag'ishlangan. Badiada “Tuzuklar”ning Amir Temur tomonidan yaratilgan noyob bir tarixiy, lisoniy va adabiy yodgorlik ekan”⁷³ ta'kidlanadi. Modomiki, badiiy adabiyot haqida so‘z borarkan, Amir Temurning yuritgan oqilona siyosati tufayli turkiy tilli adabiyot yaxshiroq rivojiana boshlaganligini qayd etish shart. Ovro‘pacha ibora bilan aytganda, Temur “Renessans” deb ataladigan mislsiz madaniyat konini barpo qildi⁷⁴.

Shoir Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un nafois” asarida Amir Temur va temuriylarlar haqida o‘z firklarini bayon qilar ekan, zamona hukmdori Husayn Boyqaroni Navoiy ogohlikka chorlaydi, o‘zi ta’kidlamoqchi bo‘lgan asosiy fikrlardan avval tarixdan qator misollar keltiradi. Dunyo o‘tkinchi ekanligi, umr va boylik esa bevafoligi, yaratilgan inson zoti borki, barchasining yo‘qlikka mahkumligini ta’kidlab, Qayumars, Jamshid, Hushang, Faridun, Iskandar, Som, Chingizzon, O‘qtoy, Ashkoniy, Rustam, Yazdijurd Bahrom singari dunyoni zir titratgan zotlar qaro yer bag‘riga yo‘l olishdi. Navoiy fikrni ehtiyotkorlik bilan o‘z g‘oyaviy maqsadi tomonga buradi va sultonga bobosi Sohibqiron Temurni eslatadi:

Qani Temur –shahi islompanoh
Ki, jahon oldi, chekib xayli sipoh.
Jaddu abo sanga avlodi qani,
Oqa-ini sanga ahfodi qani⁷⁵.

Navoiy shu tarzda Husayn Boyqaroni Yaratganni yoddan chiqarmaslikka, adolatli va insofli hukmdor bo‘lishga undaydi. Ulug‘ shoir o‘zining yaqin do‘sti bo‘lgan podshohning xuddi bobosi singari el-ulus uchun g‘amxo‘r va fidoyi

⁷³ Muhammad Ali. “Amir Temur chamani”. – Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 2006. – B.32.

⁷⁴ Кўшжонов М. Мели С. “Абдулла Орипов”. – Т.: “Маънавият”, 2000. – Б.124.

⁷⁵ Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. Фавойид ул-кибар. – Т.: “Фан”, 1990. – Б. 472-473.

bo‘lishini istaydi va bunga astoydil intiladi. Sohibqiron Amir Temurning ushbu asarda eslatilishi bejiz emas, albatta. Husayn Boyqaro qalbida o‘z bobosiga nisbatan chuqur ehtirom va hurmat, ixlos va muhabbat borligini shoir yaxshi biladi. Hazrat Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasing yettinchi va sakkizinchi majlislari bevosita Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan bo‘lib, bu tasodif emas. Buyuk mutafakkirning butun hayoti ushbu sulola vakillari bilan bevosita bog‘liq. Navoiyning Amir Temurga va temuriylar xonadoniga bo‘lgan hurmati nihoyatda cheksiz edi. “Muluk shajaralarining bo‘stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongir Sohibqiron, ya’ni Temur Ko‘ragon” haqida yettinchi majlisning boshlanishida: “agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq mahal va mavqedo o‘qubdurlarkim, aningdek, bir bayt o‘qigani ming yaxshi bayt aytqoncha bor”⁷⁶, deya ta’kidlaydi.

Ma’lumki, hazrat Navoiy nihoyatda to‘g‘riso‘z, yolg‘ondan nafrat etuvchi “mijozi nozuk” ijodkor bo‘lgan. Uning Amir Temur haqidagi fikrlari ham to‘laligicha tarixiy haqiqatga mos bo‘lib, jahongirning mardligi, tantiligi va shuning barobarida shariatga xilof, odob-axloqqa zid amallarga qarshi keskin chora ko‘rganligi, gunohkorlarni qilmishiga yarasha jazoga tortgani ma’lum qilinadi. Bu yo‘lda u hech kimni, hatto o‘z farzandlarini ham ayab o‘tirmagan. Mironshoh Tabriz hududida hukmronlik qilgan paytida ixtiyori o‘zida edi va u mayxo‘rlikka beriladi. Uning bu qilmishlarini eshitgan Amir Temur uni bu yo‘lga boshlagan uch nadimini zudlik bilan huzuriga keltirishlarini buyuradi aybdorlarni qatl ettiradi.

Alisher Navoiy qalamiga mansub she’riyatimiz boshida toj bo‘lgan “Xamsa” adabiyotimizning ko‘rki va faxridir. U inson ruhini poklashga xizmat qiladigan, kishi tafakkurini yuksaltiradigan, olam va tiriklikning mohiyatini to‘g‘ri anglashda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladigan, insonni o‘z o‘tmishiga, bugungi kuniga hamda kelajagiga teranroq nazar tashlashga chorlaydigan ma’rifiy-irfoniy asardir. “Xamsa”da keltirilgan rivoyat, afsona, turli davrlarda yuz bergan tarixiy voqealar va yashagan mashhur tarixiy shaxslarga oid ma’lumotlar kitobxonni o‘zligini

⁷⁶ Навоий А. асарлар. 15 томлик. 12-тум. – Т., 1966, – Б.168.

tanish, hayotda yaxshi nom qoldirish uchun nimalarga amal qilish kerakligini anglashida muhim ahamiyat kasb etadigan ma’naviy xazina hisoblanadi.

Ilk doston “Hayrat ul abror”ning sakkizinchi maqolotida vafo haqida so‘z yuritiladi. “Ikki vafoli yor” hikoyatida Hindni fath etgan Sohibqiron bilan bog‘liq bir voqeа keltirilgan, unda o‘limga hukm qilingan ikki sevishgan jallodga avval meni o‘ldir deb o‘limni talashadilar. Ular shu tariqa sevgilisining bir lahma bo‘lsada ko‘proq yashashishini istashadi. Bu xabarni eshitgan Amir Temur ularning sadoqat, mehr, vafodorligiga qoyil qolib, ham ikki sevishganga, ham ulusga omonlik beradi.

“Saddi Iskandariy” dostonida shu hikoyatning biroz boshqacha talqini berilgan. Dostonning yigima to‘rtinchi bobida muxolifat mazammati xususida fikr yuritilib, saltanat egalari o‘rtasidagi o‘zaro nifoq, kelishmovchilik mamlakatga vayronagarchikka, fuqarolarni balolarga giriftor etilishi bayon qilingan:

Bu go‘yo jahon ichra to‘fon erur,
Ki andin jahon ahli vayron erur.
Ne to‘fon, balo bahri chayqalg‘oni,
Jahon ahli suv ostida qolg‘oni...
Ne to‘fon, bedodu seloyi g‘am,
Erur onchakim dahr elig‘a alam⁷⁷.

Hazrat Navoiy shundan so‘ng, Chingizzon va Xorazmshoh o‘rtasidagi jang haqida to‘xtaladi, g‘olib chiqqan Chingizzon aholini qatli om qilishni buyuradi. Dushmanlar qo‘liga tushgan ikki bechora rafiq: “Ki avval mening boshima tig‘ sur, chu men o‘ldum ul dam aning bo‘ynin ur!”, - deya yalinadi. Shu hodisa yuz berayotgan vaqtida Chingizzxonning tushiga bir-biriga vafodor ikki habib kirib, xonga murojaat qiladi: “Senga kiynavor bo‘lsa Xorazmshoh, Ul ishtin jahon ahlina ne gunoh?” Uyqudan uyg‘ongan shoh o‘zi va Xorazmshoh orasidagi nizo tufayli begunoh kishilarning qoni to‘kilayotgani haqida o‘ylaydi va elga omonlik beradi.

⁷⁷ Навоий А. Садди Искандарий. – Тошкент., 1991. – Б.135-136.

Navoiy Amir Temur haqida ijobiy fikr bildiradi, ammo Chingizzonni e’tirof etsa-da, u haqida biror yaxshi so‘z aytmaydi, jim qolishni ma’qul deb topadi. Bu holatning sababi, Chingizzon qo‘l ostida bo‘lgan mo‘g‘ul lashkarlarining shafqatsizligi, zulmkorligi bilan bog‘liqligida bo‘lsa kerak. Amir Temur obrazining vafo, Chingizzonni ixtilof to‘g‘risidagi hikoyat uchun tanlanishida ham shunga tayanilgan. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonidagi bosh qahramonning umumlashma talqindagi obraz ekanligiga tayangan holda, adabiyotshunos olim G‘ayrat Murodov buni quyidagicha izohlaydi: “Ma’lumki, Chingizzon, Aleksandr Makedonskiy, Sezar, Napaleon kabi harbiy salohiyati zo‘r, katta janglarda zafar qozonishga o‘rgangan sarkarda edi. Shuning uchun, Alisher Navoiy Chingizzon shaxsi haqida gap ketganda ma’lum ma’nodagi ehtiromni saqlaydi, fotihni “qahramon” deb ataydi. Shu bilan birga, mo‘g‘ul qo‘sishinlariga xos bo‘lgan omonsizlik va bag‘ritoshlik tufayli shoir Chingizzon urushlari haqida biror-bir ijobiy fikr aytishdan ham saqlanadi. Binobarin, vafo haqida gap ketganda, Amir Temur, ixtilof xususida mulohazalar asnosida Chingizzon haqidagi rivoyatning berilishi bejiz emas”⁷⁸. Muallif Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” dostonida keltirilgan hikoyatlardan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun jiddu jahd qilish lozimligi, sabr, matonat, jasorat va jur’at bilan eng qiyin muammoni ham bartaraf etish mumkinligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Hikoyaning qisqacha mazmuniga ko‘ra, Amir Temur janglarning birida yaralanadi, bir qo‘li va oyog‘i majolsiz, ularni harakatlantira olmaydi. Sohibqiron kimdir kelib yordam berishini kutib turganida, tanasi ezilgan, oyog‘i yo‘q chumolining yuqoriga tirmashayotganini ko‘rib qoladi. Chumoli har safar pastga qular, lekin baribir qayta-qayta yuqoriga intilardi, va nihoyat u maqsadiga erishadi. Bundan qattiq ta’sirlangan Amir Temur qiynalib bo‘lsa ham, odamlar bor joyga yo‘l oladi. Oradan yillar o‘tib, ulug‘ jahongirga aylanadi. Haydar Xorazmiy o‘z hikoyatini Amir Temurni madh etish va tinchlik o‘rnatganini e’tirof etish bilan yakunlaydi:

Tutti jahon mulkatini yakqalam,

⁷⁸ Муродов Ф. Амир Темур абадияти. – Тошкент.: “Фан”. 1994. – Б.10.

Urdi etti kishvar ichinda alam.

Tindi aning davrida ro‘yi zamin,

Bo‘ldi bir elu bir ulus Rumu Chin.

Xoja Ismatullo Buxoriy Amir Temurning vafoti munosabati bilan turkiy tilda marsiya yozganligi to‘g‘risida Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida ma’lumot berilgan:

Buz chodiring, falakkim, Sulton o‘ldi g‘oyib,

Tun ichra erdi chun mohi tobon bo‘ldi g‘oyib.

Yoruq jahon quyoshi, islom elini boshi,

Din erdi ko‘p taloshi, dayyon o‘ldi g‘oyib

No‘shgiravondek odil, ham olim erdi, fozil.,

Har ishga aqli komil, farzon o‘ldi g‘oyib....⁷⁹

Shoir Amir Temurni “g‘ayratda misli arslon, bahra nahangu sa’bon, shu’ jobon” deb sifatlaydi va mukammal podshoh darajasiga ko‘taradi. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” tazkirasida Lutfiyning Amir Temur haqida doston yozganligi va unda Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga asoslanganligini qayd etadi. Ammo, bu asar hozirga qadar topilgan emas. Asar Amir Temur va temuriylar haqida batafsil zaruriy ma’lumotlar beradigan mumtoz adabiyot namunalari qatoriga kiradi va unda Sohibqiron va Amir Husayn o‘rtasidagi kelishmovchilik, o‘zaro jangda Amir Husaynning yengilishi va Amir Temurning taxtga o‘tirishi,adolatli hukmdor sifatida davlatni boshqarishi katta mahorat bilan tasvirlangan. Ayniqsa, Sohibqironning harbiy yurishlari, jang lavhalariga keng o‘rin berilgan. Amir Temurning Xorazm diyoriga qilgan yurishlari, valiahd Jahongir Mirzoning Xorazm malikasiga uylanishi, Xuroson va Eronning fath etilishi, Dashti Qipchoqqa qilingan yurish va To‘xtamishxon bilan to‘qnashuvlar, turk sultoni Boyazid Yildirim bilan bo‘lgan ulkan muhoraba va uning asir olinishi singari voqealar jangnoma dostonlarga xos shiddatkor, jo‘shqin, o‘quvchilarни to‘lqinlantiradigan ko‘taringki ohanglarda bayon qilingan. Dostonda

⁷⁹ Тошкандий С. Темурнома. – Тошкент., Чўлпон, 1990. – Б.327.

tarixiy haqiqatlar va badiiy to‘qimaning o‘zaro muvofiqlik kasb etishi tufayli voqelik kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqol kechayotgandek taassurot uyg‘otadi. Asar samimiy va ishonarli, ilhom va ishtiyoq bilan yozilgan holda o‘quvchi qalbini to‘lqinlantiradi.

Asarda, shuningdek, Amir Temurning har qanday muammoni tinchlik va o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilishga harakat qilishi To‘xtamishxon va turk sultoni Boyazid Yildirim bilan bo‘lgan murakkab munosabatlar aksini topgan. Sohibqironning ularniadolat va insofga chaqirib, o‘zaro kelishuv – sulhga chorlab maktublar yozishi uning tinchlikparvar, el-u yurt osoyishtaligini birinchi o‘ringa qo‘yadigan zakiy hukmdor ekanligini ko‘rsatadi. Asirga tushgan Boyazid Yildirimga munosib izzat-ikrom ko‘rsatilishida esa Sohibqiron Amir Temurga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, oqillik, uzoqni ko‘zlab ish yuritish, siyosiy vaziyatni teran tushunadigan mulohazakorlik kabi olivjanob xislatlar namoyon bo‘ladi.

Doston Amir Temurning vafoti tasvirlangan bobdan keyingi xotima bilan yakunlanadi. Xotimada shoir Firdavsiy Eron shohlari, xamsanavis ijodkorlar Iskandar Zulqarnayn haqida yozgan bo‘lsa, o‘zining podshohlar ichida eng ulug‘i to‘g‘risida doston yozganidan faxrlanadi, ijodidan iftixor qiladi.

Amir Temur va temuriylar davridagi hayot borasidagi qimmatli tarixiy ma’lumotlarni yetkazish bilan badiiy adabiyotda temuriylar obrazini yaratuvchi ko‘plab ijodkorlarga ustoz bo‘lishga qodir bo‘lgan kishilar bo‘lgan. Ulardan biri Hofizi Abru, Shahobuddin Abdullox ibn Lutfilloh ibn Abdurashid al-Havofiy - tarixchi va geograf, Amir Temur va Shohruh saroylarida tarixnavis bo‘lgan. “Zayli Zafarnomai Shomiy”, “Zubdat ut-tavorixi Boysunquriy” “Zayli Jomi’ ut-tavorix”, “Majmua at-tavorixi sultoniy”, “Tarixi Hofizi Abru” kabi temuriyzodalar davrini yoritishga bag‘ishlangan bir qator tarixiy asarlar muallifi. “Zayli Zafarnomai Shomiy” Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”siga ilova asar bo‘lib, muallif undagi tarixiy voqealar bayonini 1405-yilgacha davom ettirgan⁸⁰.

⁸⁰ Ўз МӘ. 11-тوم. – Б.382.

Yozuvchi Maqsud Qoriyevning ijodida tarixiy o‘tmish mavzusi ustuvorlik qiladi: Uning Amir Temur haqidagi ko‘plab hikoyalari yuqorida biz nomlarini qayd etgan tarixchilarning asarlariga tayanib yozilgan badiiy saviyasi yuqori bo‘lgan ijod namunalaridir.

Umuman olganda, XX asrdan Amir Temur haqida nafaqat badiiy asar, balki opera, miniatyura, portret, haykallar yaratishda, ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda yangi bosqich boshlandi. XX asrning birinchi yarmida yaratilgan adabiyotlar va temuriylar doirasidagi tadqiqotlar xulosasida qo‘yidagi fikrlarni ilgari surish o’rinli:

- 1) Sohibqironning harbiy yurishlari va Movarounnahrda markazlashgan davlatni barpo etishini o‘rgangan tadqiqotlar;
- 2) Amir Temurning Oltin O‘rda, xususan To‘xtamishga qarshi qaratilgan harakatlari, Movarounnahrda savdo sotiqni rivojlantirish bo‘yicha uzoq Sharq va Yevropa mamlakatlari qirollari bilan munosabatlari to‘g‘risidagi qarashlar;
- 3) Amir Temurning harbiy yurishlari natijalari, barpo etilgan sultanatni boshqarish va kengashlar. “Temur tuzuklari” va davlatni iqtisodiy va madaniy yuksaltirish, obodonchilik va memorchilik harakatlari xususidagi ilmiy izlanishlar;
- 4) Amir Temur sultanati tanazzullari, Shohrux, Ulug‘bek va M.Bobur boshqargan mamlakatlar siyosiy ahvoloti, temuriylarning tarixda qoldirgan xizmatiga bag‘ishlangan ilmiy chiqishlar⁸¹.

Bu yo‘nalishdagi jamiki tadqiqotlarni o‘rgangan holda qiyosiy tahlil etish va xolis ilmiy qarashlar bera olish hamda, bu qarashlar asosida zamonamiz qahramonlari obrazini yaratishda buyuk siymolarning o‘rnak oladigan jihatlarini kelajak avlodga yetkazish vazifasi bugungi kun ilmiy tadqiqotchilari oldida turgan masalalardan hisoblanadi. Chunki, turli qarashlar har bir zamon talablaridan kelib chiqqan holda, o‘sha yurt manfaatlariga moslashgan tarzda shakllanadi. Masalan, Atilla, Sezar, Iskandar Zulqarnayn, Doro I, Chingizzon, Botuxon kabi yirik istilochi hukmdorlarning turli yurishlarining sabablari va oqibatlari turli

⁸¹ З.Яхшиева. Изучение произведений, основанных на прототипе Амира. UZMU milliy axborotnomasi. 2024, [6/5/1] ISSN 2181-7324.

hududlarda turfa aytiganidek, ularga baho berishda esa, tarixiy va siyosiy qiyoslar muhim sanaladi. “Harbiy tarix Temurni O’rta Osiyoda eng buyuk lashkarboshi deb hisoblashini, uning harbiy mahorati askariy qismatini qayta tiklash va lashkarboshilik va qo‘mondonlikda namoyon bo‘lishini” Yakubovskiy ijobiy, N.Leonov “A.Temurning harbiy talonchiliklari stixiyali tarzda kechganligini, bosib olingan hududlarni Temur lashkarlari vayron etganini” salbiy baholagan. L.Stroyeva butun umri davomida Amir Temurni faqat “qaroqchi va bosqinchi” deb ta’riflagan bo‘lsa, H.Vamberri Temurni Chingizzon bilan solishtirib,adolati va mardligini, o‘z zamonasi talablari doirasidagi ilohiy shaxs ekanligini, qasoskor ekanligini ijobiy qabul qilish kerak deya fikr bildirgan. I.Mo‘minov va A.Yakubovskiylar Amir Temurning olamshumul xizmatlarini e’tirof etishgan bo‘lsa, A.Roslyakov Amir Temur lashkarining harbiy salohiyati Yevropanikidan qolishmaganini, B.Grekov, A.Ahmedov buyuk davlat arbobi qurgan markazlashgan davlatning dunyo tarixida, Afrika, Misr davlatlariga ijobiy ta’sirini faxr bilan o‘rganishgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘z yurtini mo‘g‘ullar istilosidan xalos etish va markazlashdan davlat barpo etish orzusi bilan harakatlangan buyuk Amir Temur siymosi barcha davrlar o‘zbek adabiyotida ijodkorlar uchun erk, ozodlik, adolat, kuch-qudrat, millat timsoli bo‘lib kelgan.

I.3. Ijodkor ijtimoiy-estetik ideali va tarixiy shaxs konsepsiysi

Yozuvchi, dramaturg yoki shoir o‘z e’tiqodi, orzu-istiklari, maqsad-muddaosini yozgan asarida turli darajada aks ettiradi.

Ba’zi xalqlarning uydirma tasavvurlari, tijoratchi va harbiylarning mushohadalari va xalqlararo urchigan rivoyat va afsonalardagi bo‘rttirishlarning ta’sir kuchi yuqoriligi sabab, ijodkorlar uchun ular manba bo‘lib, o‘z tasavvurlari bilan qo‘shilganda haqiqatdan anchayin uzoqlashgan badiiy to‘qimalarga aylanib bordi.

XVI-XX asr jahon teatr va musiqa asarlarining bosh mavzusi shubhasiz, Temur va Boyazid munosabatlari, g‘olib va mag‘lub rishtalari bag‘ishlangan edi. XVI asrda bir qator manbalar bergen dalillarga asosan, Shekspir salafi, qirolicha

Elizavetta saroyi dramaturgi Kristofer Marlo tomonidan 1587-1588 yillarda yaratilgan “Buyuk Temur” dramasi bu mavzudagi ilk va o‘z davrining eng shovshuvli sahna asari edi. Olima Hilda Hukhemning ma’lumotlariga ko‘ra, dramaturg o‘z asarini yozishdan avval o‘rgangan ma’lumotlari tarixiy haqiqatdan olis, romantik hikoyalardan iborat edi. Asarning zamona tomoshabini uchun eng ta’sir qilgan jihatni XVI asr oddiy xalq vakillari o‘z qirollarini ilohiyashtirib, Xudoning marhamati orqaligina ularning qirollik taqdiri belgilab berilishiga oid qarashlariga cherkov tomonidan ishontirilgan, qirollar esa o‘zlariga berilgan bunday ulug‘ta’riflar uchun monarxlar izmidan chiqolmas davrlarda, oddiy xalq bolasi, tadqirini o‘z qo‘liga olgan Temur obrazi orqali ularning bu ishonchlari chil-parchin bo‘ldi deyish mumkin. K. Marlo qahramoni asar g‘oyasi zamirida bunday ulug‘ zotning irodasiga hurmat ba’jo keltiradi. Ammo, ikkinchi sahnada esa u Xudo g‘azabiga uchragan obraz sifatida ta’qin etiladi. Tadqiqotchi Ravshanoy Tursunova o‘z ilmiy izlanishlarida muallifning bunday yechim berishini, “nafaqat bosh qahramonning ziddiyatli tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatish, balki, Uyg‘onish davrining “taqdir” va “imkoniyat” masalasini ko‘tarib, yechimini “har bir insonning umri o‘tkinchidir”⁸² degan qarashlarda topishga yo‘naltirgan” deb hisoblaydi. Marloshunos olimlarning fikriga ko‘ra, ushbu asar bosh qahramonini bu zaylda obrazga aylantirish masalasi K. Marloning substansional qarashlar ta’siri ostida tushgan tafakkuriga borib taqaladi. Unga ko‘ra har bir shaxs asosida o‘zgartirilmaydigan insoniy tabiat yotadi. U faqat inson faoliyatida yoritilib, transformatsiya qilinmaydi. Demak, muallifning Temur shaxsiga subyektiv munosabati uning ikkilanishlarini ifodalab, bu esa u haqida tomoshabin va o‘quvchini yakuniy xulosaga olib kelmaydi.

Bu asarda Britaniya muzeyida 1720-yilda Ingliz dramaturgi Uilyam Popl tomonidan yaratilgan “Tamerlan the beneficent” (g‘amxo‘r Temur) asarida bosh qahramonning tolerantlik xislatlari madh etilsa, Metyu Gregoriy Lyuis tomonidan yozilgan “Tamerlan tartar” (tatar Temur), daniyalik shoir Ioxannes Karsten Xauxning “Bazaset” (Boyazid) asari “1001 kecha” sharq ertaklariga hamohang

⁸² Tursunova. R.A. G’arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. San’at.fal.falsafa.dok. diss. – T., 2020. – B. 34.

Kalaf va Diloraning ishq sarguzashtiga bag‘ishlangan. Bu asarlarning o‘ziga xosligi esa mistik, g‘ayritabiyy kuchli tarafkashlik asosida qahramonlarga ilohiy tus beriladi.

Demak, XX asrga qadar Yevropa ahlini yangi badiiy va tarixiy ma’lumotlar bilan ta’minlashda, Turon sultonni haqida sahna, yozma va nashriyotlarda bo‘lsa ham keyingi avlodlari uchun mazkur obrazni salbiydan ijobiliylikka tomon transformatsiya qilish, prinsipial qirralarini yoritishga xizmat qilgan. Bular asnosida quyidagi besh yondashuvni ilg‘ash mumkin:

- 1) Amir Temur obrazini dunyo adabiyoti, tarixi, ilmi va sahnalarida talqin etishda salbiy personaj sifatida kirib borishi;
- 2) Ushbu qahramonni salbiydan ijobiylar tomonga o‘zgara borishida Sharq manbalardan xabardorlikning oshganligi;
- 3) Asarlarda “imkon” va “taqdir” masallaridan “yetuk shaxs” masalasi gacha yetib borishi;
- 4) Temurni nafaqat bosh obraz, ba’zan ikkinchi darajali obrazga ko‘chirilishida ham yozuvchining kadr orti orzu umidlari singdirilgan obraz sifatida talqin etish;
- 5) G‘arb va Sharq olamida shunday buyuk siymo, o‘z adolatiga ega, xalqining g‘amxo‘r yo‘lboshchisi yashab o‘tganligi ilm ahli, adib va ijodkorlarni o‘z asarlarida uni bosh qahramon sifatida tanlashida oydinlashadi.

Bu nazariy qarashlarning ingliz adabiyotidagi tahliliga kelsak, 1681-yilda Charlz Sanderzning “Buyuk Temur” dramasi Londonda chop etildi. Dramada asosiy qahramon Tamerlan, uning to‘ng‘ich o‘g‘li, Boyazid va uning qizi kabi qahramonlar asosiy rollarda ko‘rinadi. Bu asarda ham keyingi davr g‘arb asarlari singari Yevropani hayratga solgan o‘sha hodisa Temur va Boyazid to‘qnashuvi qalamga olingan. Sharq adabiyoti namunalari muqaddimasiga monand tarzda asar ruhoniylarning Allohga iltijosi va shukronasi va hamdu sanosi bilan boshlanadi. Asardagi o‘z davrida Yevropaliklar qalbiga katta qo‘rquv sola olgan Boyazidning Temurga tiz cho‘kish sahnasi uning kulminatsion nuqtasi sifatida qaraladi.

Abdulla: Bajaset,

Whose dreadful name so off shook Greece with terror
And struck his Princes dumb with fear, that man
To whom all Asia Bow'd has learned to kneel,
To Tamerlane, more mighty power!

Ma’nosi:

Boyazid...

Uning manfur nomidan Yunoniston dahshatga tushib,

Shaxzodalar qalbiga titroq uyushib,

Majbur etdi senida bosh egmoqlik chun!

Osiyoga tiz cho‘kdi, u Temur kuch qudratidan. (tarjima bizniki Z. Y)

O‘zbek adabiyotshunosligining bilimdonlaridan biri bo‘lgan A. Hayitmetov ta’biri bilan aytganda “Amir Temurda qahr ham bo‘lgan, mehr ham”⁸³. Bu kabi ma’lumotlarni rus sharqshunos olimlari V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, L.V.Stroyeva, A.P.Novoselsev ba’zi o‘rinlarda Temurning qahrli va shafqatsizligi, Chingizzondan ham ortiqroq ekanligini ham aytib o‘tishadi. Bu o‘rinda esa davr talablari, davlat qurish shartlari va bir necha bor qilingan xiyonatlar oqibatlarini ham inobatga olish zarurdek tuyuladi. Tarixiy dalillarga ko‘ra Amir Temur Boyazid bilan bo‘lajak jangning oldini olish maqsadida unga to‘rt marotaba maktub jo‘natadi. Yildirim Boyazid esa ushbu maktublarga masxaralash, haqorat bilan javob qaytaradi. Sohibqironning navbatdagi maktublarida ham unga sulh taklif qilishi, musulmon dunyosining rahnamosi sifatida o‘git va murosa ohanglari ustuvor edi. Boyazidning havas qilishga arzimaydigan xatti-harakatlariga zid ravishda Amir Temur unga do‘slik va birodarlikni taklif qiladi. Charlz Sanderz asarining bosh qahramoni ham o‘zaro ishonch bilan ish ko‘rishni ma’qul ko‘rvuchi obraz. Bu o‘rinda muallif o‘z ijtimoiy idealini Sharqda yashab o‘tgan sharq sarkardasi Temur obrazida ko‘radi:

Tamerlane: Faith is the brightest Jewel of a Crown!

⁸³ Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – T.: “Fan” nashriyoti, 1999. – B.15.

Ma’nosi: Ishonch – tojning nur sochib turguvchi lojuvard javohiri! (tarjima bizniki Z.Y)

Sharq adabiyotida Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun” dostoni syujeti ham ushbu asar voqeliklariga hamohang. Unda Temur va Boyazid emas, Temur va To‘xtamish deya o‘zgartirgan bo‘lsa ham, aslida asar syujeti real tarixiy voqealarga asoslanganini ta’kidlaydi.

“Emas afsona, chin ushbu bitilmish

Bu chin, afsonadek ishqda etilmish!”⁸⁴

Ingliz adibi o‘z dramasida ijobiy va salbiy xislat egalari tarzida Tamerlan va Boyazid obrazlarini bir-biriga qarshi qo‘yadi. U Temur obrazi orqali kechirimli, bag‘rikeng qirol siy whole to‘zining qavdalantirishni maqsad qiladi. Zero, Temur o‘zining asosiy raqibiga shafqat va kechirimlilik bilan munosabatda bo‘ladi.

Bu mavzu doirasida zamonaviy o‘zbek romanlarida esa ta’kidlash joizki, tarix falsafasi, o‘tmishni yangicha qarashlarda idrok etish, reallik va g‘ayritabiylilik uyg‘unligi o‘zaro mushtaraklik kasb etmoqda. Muhammad Ali qalamiga mansub “Ulug‘ saltanat”da syujetning ko‘ptarmoqliligi, xalqning qahramonlik eposlariga, buyuk tarixiy shaxslar, ko‘plab mamlakat va xalqlar taqdiri, o‘zaro nizoli urushlar tarixi, davrning madaniy hayoti manzaralarida markazlashgan saltanat bunyod etish umidi sari intilgan Amir Temur shaxsiyati orqali gavdalantirishi jihatidan tarixiy memuarlar uslubiga yaqin turadi. Amir Temur haqida bitilgan asarlar orasida epopeya darajasidagi tetralogiya yoza olgan ijodkor Muhammad Ali bo‘ldi. U to‘rt tomli romanlarida ramziy ma’noda Sohibqironning to‘rt o‘g‘lini – zabardast to‘rt ustun ramzi sifatida tasvirlagan asar zamonaviy o‘zbek adabiyotining faxri bo‘la oldi. Tetralogiya g‘oyasi va mazmuni bir xil bo‘lgan to‘rtta adabiy yoki musiqiy asar sifatida e’tirof etilmoqda. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi tarkibidagi ilk kitoblar birma-bir nashr etila boshlaganidan buyon o‘tgan o‘n yildan ortiq qisqa davrda bir qator adabiyotshunoslar tomonidan ushbu tarixiy asar roman-epopeyaning barcha asosiy talablariga javob beradigan va

⁸⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfi_Saroyi.

o‘zbek adabiyoti tarixidagi tom ma’nodagi birinchi tetralogiya sifatida baholandi. Tabiiyki, bunday baho - ushbu asar adib ijodidagi juda katta yutuq, milliy adabiyotimizda esa g‘oyat muhim yangilik ekanidan dalolatdir. Haqiqatan ham, “Ulug‘ saltanat” epopeyasi markazida sohibqiron Amir Temur hamda, Jahongir, Umarshayx, Mironshoh, Shohrux Mirzolar kabi yigirmadan ortiq yetakchi qahramonlarni, yuzdan ziyod personajlarni, uch yuzga yaqin turli darajadagi epizodik obrazlarni qamrab olgan, mazmuni ham, g‘oyasi ham bir xil to‘rt romandan iborat yaxlit tarixiy-badiiy asardir. Bu behad ko‘p sonli obrazlarni Sohibqiron shaxsi va saltanatining o‘ttiz besh yillik davridagi muammolar va dardlar, quvonch va anduxlarni o‘zida mujassam etgan yagona tarix birlashtirib turadi. Ularning barchasini ko‘zga ko‘rinmas yana bir qahramon - adib Muhammad Ali dunyosi harakatga keltiradi. “Ulug‘ saltanat” epopeyasi nainki juda ko‘p sonli obrazlar talqinidan iborat ekani, ayni paytda, katta bir tarixiy davrni, ya’ni jahon tarixshunoslari e’tirof etgan Temuriylar Uyg‘onish davrini qamrab olgani bilan qimmatlidir. Asarda Amir Temur saltanat boshiga kelgan 1370-yildan boshlab, to o‘n besh yoshli Mirzo Ulug‘bek Turon taxtiga chiqqan 1409-yilga qadar bo‘lgan salkam 40 yillik shon-shavkatga yo‘g‘rilgan va tashvish-u g‘alayonlar⁸⁵ aks etgan.

Tarixiy shaxslarni bosh qahramon sifatida tanlab olgan romanlar badiiy saviyasini belgilovchi muhim omillardan yana biri, uning inson hamda jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ma’naviyat negizlari, insonlar qalbi va ongiga badiiy estetik jihatdan ta’sir qilishi bilan namoyon bo‘ladi. Zotan, ushbu maqsadlarga yo‘naltirilgan milliy romanlar bizning orzu-istiklarimizni, ideallarimizni obrazli ko‘rinishda ifoda etadi. Bunday asarlarda real tarixiy jarayonning inson ongi, uning tafakkuri, ma’naviy, ruhiy olamiga ta’siri ifoda etiladi.

Tarixdan ma’lumki, Turon, Turkiston nomlari bilan yuritilgan yurtimiz bir necha bosqinlarni boshdan kechirgan. Miloddan avvalgi asrlarda Ahmoniylarning 200 yil, grek-makedonlarning 180 yil, arab xalifaligi qariyb 200 yil, mo‘g‘ullar 150 yil, Chor Rossiyasi va sho‘ro davlati 130 yil o‘z qo‘l ostida saqladi. IX asrga

⁸⁵ Saidov A. Ulug‘ saltanat va ulug‘vor ajdodlarimiz tarannum etilgan asar. – T.: Mashhur Press, 2017. – B.82.

yaqin hukm surgan mustamlakachilik siyosati, o‘z-o‘zidan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayotga ham beqiyos ta’sir etgan. Lekin shunga qaramay, xalqimiz har doim olg‘a intilgan. Sohibqiron o‘z davrning ko‘zga ko‘ringan shaxslari bilan birgalikda mamlakat taraqqiyoti, xalq baxt-saodati yo‘lida bor umrini sarflagan shunday tarixiy shaxslarning eng peshqadami edi.

Milliy ma’naviyatimiz tarixida temuriylar davri o‘ziga xos o‘ringa ega ekanini qayd etish joiz. Chunki, aynan Sohibqiron Amir Temur rahnamoligida vujudga kelgan temuriylar sultanati va Movarounnahrning mo‘g‘ullardan ozod etilishi, yaxlit davlatga aylanishi hamda, mamlakatda ilm-fan, madaniyat kabi sohalarning boshqa davrlarga qaraganda gurkirab rivojlanishi ham temuriy sulola vakillari tomonidan amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning natijasidir. Lekin, Amir Temur barpo etgan ulkan sultanat uning vafotidan keyingi toj-u taxt uchun temuriy shahzodalarining o‘zaro qonli kurashlari va bu yo‘lda ularning bir-biriga g‘anim bo‘lib qolishi, shu asnoda ular o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikning yo‘qolishi bu ulkan davlatning asta-sekinlik bilan parchalanishiga olib keldi. Tarixiy ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, o‘zbek davlatchiligi tarixida toj-u taxt uchun kurashda temuriy shahzodalar anchagina qonli fojialar boshida turgan va avlodlarga salbiy xotiralarni qoldirgan sulola vakillari hisoblanadi. Misol tariqasida, Amir Temurning vafotidan keyin uning suyukli xotini va ma’rifatli ayoli Bibixonimning sirli vafot etishi, taxt vorisi etib tayinlangan Pirmuhammadning Xalil Sulton xufyalari tomonidan o‘ldirilishi, Abusaid tomonidan Gavharshod beginning qatl etilishi va boshqa holatlar bu sulola vakillarining ulkan fojiasi edi. Ayniqsa, ma’rifatli shaxs Mirzo Ulug‘bekning o‘z farzandi Abdulatif va uning tarafдорлари tomonidan o‘ldirilishi temuriylar o’tmishining eng qonli sahifasi sifatida tarixda qoldi.

Milliy mustaqillik qadriyatlarni qayta tiklash davrini boshlab berdi. Shu ma’noda, Amir Temur shaxsiyati va uning millat tarixida tutgan o‘rnini ham qayta ko‘rib chiqish masalasi ilm-fan va madaniyat oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘ldi. Bu borada o‘tkazilgan yirik ilmiy anjumanlar va tantanalar mazkur mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishga tashlangan muhim qadamlar bo‘ldi. Badiiy

tafakkurdan ko‘ra ilmiy tafsilotlarga ko‘proq boy bo‘lgan Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” asari, P. Ravshanovning Amir Temur davri, temuriy shaxzodalar va malikalar borasidagi tadqiqotlari, Temur va temuriylar davrini qayta kashf etish nuqtai nazaridan jiddiy ilmiy izlanish sifatida yaratildi. Bundan tashqari, Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, To‘ra Mirzolarning dramalari, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sultonov, Xurshid Davronlarning nasriy asarlari bu mavzuni yoritishga katta hissa bo‘ldi. Bu harakatlar natijasida Amir Temur shaxsiyatining qaydarajada ulug‘vor ekanligi yaqqol ko‘rina boshlandi. U haqida ulkan ijodiy mehnat samarasi bo‘lgan epopeya shaklidagi yirik asarning yaratilishi hayot talabi bo‘lib qoldi. Bu muhim vazifani bajarish iste’dodli yozuvchi Muhammad Alining zimmasiga tushdi.

Muhammad Ali mana shu turkum ijodkorlarimizning peshqadamlaridan hisoblanadi, – deb yozadi B.Qosimov,— U 1968-yilda o‘z dostonlaridan birini “Gumbazdagi nur” deb atadi. Gumbaz Go‘ri Amir edi. Rasmiy mafkura va uning murvatiga aylantirilgan sobiq sho‘rolarning tarix fani Temur va temuriylar zamonasidan zulmat izlaganida, shoir buyuk xalqning o‘tmishidan inson qalbini sehrlovchi nur topganligini alohida qayd etish lozim. So‘ng bu yirikroq ko‘lamda shoirning ilk romani “Sarbadorlar”da izchillik bilan davom etdi. Muallif tarixiy haqiqat izidan borib, Temurni mo‘g‘ul zulmiga qarshi erk yo‘lida boshlarini dorga tikkan sarbadorlarning dushmani emas, bu boradagi maslakdoshi, izdoshi sifatida talqin qildi⁸⁶. “Lekin adabiyotda shunday usullar borki,— deb yozadi Muhammad Ali, temurshunoslik ilmini, Temur shaxsiyatini badiiy adabiyotga olib kirish mashaqqatlarini xotirlab,—u yozuvchining topqirligi tufayli dunyoga keladi. Asarni yozishimdan maqsad – Amir Temurning amalga oshirgan ishlarini iloji boricha ulug‘lash. Lekin buni ochiq gapirib bo‘lmaydi. Men dastavval tariximizga, Amir Temurga bag‘ishlangan bir-ikkita she’rlar yozdim. Shu tariqa “Qadimgi qo‘shiqlar” turkumim dunyoga keldi. Keyin, doston yozmoqchi bo‘ldim. Amir Temur maqbarasini asar obyekti qilib oldim, chunki uning ichida biz

⁸⁶ Қосимов Б. Улуг‘ салтанат сирлари. – Т.: “Mashhur Press”, 2017. – Б.24.

ko‘rsatmoqchi bo‘lgan Sohibqiron yotardi. Shoir so‘zning yetmish ikki ma’nosibor degan aqidaga suyanib, baribir ko‘nglida kechayotgan fikrni, tomirlarini qizdirayotgan tuyg‘uni qog‘ozga tushirdim, o‘zining maqsadini, xalqqa baralla aytmoqchi bo‘lgan so‘zini yashirib o‘tirmadi:- “men o‘zimizning me’morlarimizni - o‘n ikki me’morni qahramon qilib oldim”. Bunda chuqur ma’no bor. Bu me’morlar qayerdan keldi, masalan, Xorazmdan, Andijondan Buxorodan, Toshkentdan, Farg‘onadan va hokazo. Lekin tarix bularning nomlarini saqlamagan. Gap Amir Temur yoki maqbara haqida emas, go‘yoki, me’morlar haqida. Aslida esa unda boshqa yuk bor edi...⁸⁷

Demak, haqiqatni kuylash uchun, haq so‘zni yozish uchun ijodkor astoydil istasa, imkon topa olishi mumkinligini isbotlay oldi. Aksariyat shoirlar partiyani madh etayotgan bir paytda tili, dini, qadriyatlari oyoq osti bo‘layotgan xalq dardini kuylash mumkinligini ham asoslay oladi. Faqat buning uchun ijodkor onaxalqining qalbini va qadrini his qilsa, shuning o‘zi yetarli. Chunki, haqiqiy ijodkor eng avvalo, jasoratli bo‘lishi shart. Ma’naviy jasoratli shaxslargina haqiqatni ko‘ra oladi va har doim haqiqat tomonida turishni o‘zlarining hayotiy pozitsiyasiga aylantiradi. Muhammad Alining “Gumbazdagi nur”, “Sarbadorlar”, “Amir Temur kelini”, “Amir Temur” operasi uchun librettolarini yozishi bejiz emas edi. Chunki, ijodiy g‘oya san’atkorning qalbida tug‘iladi, o‘sadi. Amir Temur haqidagi barcha tarixiy manbalarda Sohibqiron va boshqa temuriyzodalar to‘g‘risida rasmiy ma’lumotlar mavjud. Biroq ularning tashqi qiyofasi, fe'l-sajiyasi, kiyim-kechaklari, o‘ziga xos xarakter, ruhiyatları to‘g‘risida ma’lumotlar deyarli saqlanib qolmagan. Shu boisdan, temuriylar davriga oid badiiy asar yozayotgan ijodkorlarga oson bo‘lmasligi aniq.

Mazkur tetralogiyani yaratish uchun adib Muhammad Ali salkam yigirma besh yil tinmay izlandi, o‘rgandi, tinimsiz zahmat chekdi, jasorat va kuch topib, o‘zi tanlagan mashaqqatli manzilga yetib kela oldi. Mustaqillik sharofati tufayli Amir Temur shaxsi xalqimiz uchun yana Vatan va millat timsoliga aylandi.

⁸⁷ Улуг‘ салтанат васфи. – Т.: Mashhur Press, 2017. – Б.337.

Tarixiy haqiqatlardan shu jihat ma'lumki, buyuk insonlar boylik, martaba yoki amal bilan buyuklikka boshqalar qatorida erishmaydi. Balki, ularning o'zi buyuk inson bo'lganliklari uchun yuksak sharaf, boylik, hokimiyat ularga nasib qilingan. Bunday qarashlar xatto, shovinistik ruhda bo'lgan rus tarixchilari iqrorlarida ham ko'rinadi. Harbiy tarixchi olim M.Ivanin Amir Temurning harbiy jang taktikalaridan tortib, askarlarning tartib intizomi, taom va salomatlik, pul siyosati va narx navo, boshqa davlatlar haqida ma'lumotlar to'plashda josuslar-darveshlar xizmati, mehribon sarkarda, jasur yo'lboshchi kabi jihatlarni ham sinchkovlik bilan o'rganib chiqadi va u sohibqironni o'z davri saltanat hukmdorlariga nisbatan harbiy taktikada ulardan ancha ilgarilab ketganligini, shu bilan birgalikda ularning ilohiy qo'llab quvvatlangan shaxs ekanligini ham qayd etadi: “Go'yoki urush xudosining o'zi Amir Temurga jang olib borishning bu usulini o'rgatgandek tuyuladi. Bu usullar shunchalik puxta o'ylanganki, olib borgan janglarning deyarli hammasi hal qiluvchi bo'lib, dushman qo'shinlarining tor mor bo'lishiga olib keladi”⁸⁸. Bunday aniq natijada erishishda avvaldan chuqur o'rganilgan ma'lumotlar, har bir davlatning tuzilishi afzal va noqulay iqlim sharoitlari, hatto xazina xaritalarigacha o'rganilgan edi. Ibn Arabshohning “Temur Ibn Haldundan Mag'rib shaharlari va yerlari vasfini istab,, uning mavzelariyu, yo'llari, qishloqlariyu, so'qmoqlari, qabilayu xalqlarini aniq bayonlab berishini so'ragan. Bundan maqsad, Ibn Haldunni imtihon qilish bo'lib, Temur bu narsalarga muhtoj emas erdi. Chunki uning tasavvuri xazinalarida butun mamlakat suratlari mavjud edi”⁸⁹. Borajak manzillarini mukammal o'rganib chiqqach, ishonch bilan odimlagan sohibqiron va uning lashkarlari harakatiga o'z hayratini yashirmagan muallif, turk davlatining markaziga katta tezlik bilan 150 km masofani 3 kunda lak-lak lashkar bilan bosib o'tgan Temurni “Shunchalik katta qo'shin bilan qilgan bu harakatini o'z o'ljasini ko'rib, unga tashlangan yo'lbars harakati bilan tenglashtirsa bo'ladi”⁹⁰deya ta'riflagan. Shuningdek, u “Temur tuzuklari”ning

⁸⁸ Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur. – T.: “Fan”, 1994. – B.138.

⁸⁹ Ibn Arabshoh. “Amir Temur tarixi”. 2-kitob. – T., 1992. – B.68.

⁹⁰ Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur. – T.: “Fan”, 1994. – B.190.

bilimdoni sifatida o‘z asari xulosasini shunday nihoyalaydi: “Amir Temur ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan, dushmanlar ofati, fuqarolari otasi, jangchilar sajda qilsa arziydigان birdan bir shaxs, u O‘rta Osiyo xalqlari uchun buyuk hukmdorlar namunasi edi”⁹¹. Millatning ma’naviy darajasi undagi buyuk zotlarning soni bilan o‘lchanganidek, insonning kimligi uning xatti-harakatlari vositasida belgilanadi. M.Alining “Ulug“ saltanat” tetralogiyasida Amir Temur shunday obrazki, u har qanday og‘ir vaziyatlarda ham o‘zini, o‘zligini yo‘qotmaydi, behudaga yoki nohaq qon to‘kilishini aslo istamaydi, sulh bilan ish bitishi mumkin bo‘lgan holatlarda qilich yalang‘ochlamaydi. Uning o‘z dushmanlarini bir necha marta kechirishi, ularga muruvvat qilishi ayniqsa, To‘xtamish misolida ayon bo‘ladi. Amir Temur qayta-qayta xiyonat qilgan, ochiq jangda yengilib qo‘lga tushgan zolim xonni o‘limga hukm etmaydi. Lekin endi shafqat qilish ham befoyda ekanligini anglagan Sohibqiron uni xuntalab kishilarga topshiradi.

Asar bosh qahramoni Temur osmonu falakda tolebaxsh soatda Mushtariy va Mirrix sayyoralari baqamti kelmish” pallada tug‘ilgan qiron sohibi umr bo‘yi piridan eshitgan sirli bir sandiq— “Gulshani xazoyin”ni izlaydi. Uni Hind, Misr, Shom, Iroq, Rum xazinalaridan ham topa olmagach, Shayx Shamsiddin Kulolning so‘zlarini eslaydi: “U baayni dunyo yanglig‘ xazinadur”. Faqat umr poyoniga yaqinlashgandagina bu sirni angab yetadi. Saroymulkxonimga o‘zi izlagan narsani topganligini aytadi: -“Topdim, topdim Gulshani xazoyin deganimiz, bu chayon-u ilonlarga to‘la o‘tkinchi dunyo ekan, Bibi! Adashibdurbiz, gulshani xazoyinmas, asli gulshani xazon” Tetralogiyaning yetakchi qahramoniga tegishli mana shu fikrda uning inson va hukmdor sifatidagi konsepsiysi sifatida o‘z ifodasini topgan. Uning yashashdan maqsadi nima ekanligi Saroymulkxonimning so‘zlarida o‘z aks-tasdig‘ini topgan: “Hazratim,! Sira o‘kinmasunlar, o‘zları o‘sha gulshani xazonga qadam qo‘yib, uni xayr-u ehson ila obod qilayotg‘on, o‘sha ilon-u chayonlarni yo‘qotishga bel bog‘lagan zotdurlar! Olam obodlikka yuz burmakdadur!

⁹¹ O‘sha asar. – B.165.

Yodlaridamu: “Yaxshi amallar boqiy qolguvsidir”, deyilg‘on Qur’oni karimda. Gulshani xazonni chinakam obod gulshani xazoyinga aylantirdilar axir!”⁹²

Amir Temur umri jang-u jadallarda kechgan zot, ammo uning maqsadi birovlarga zulm qilish, boshqa xalqlarni qul qilish, boshqalarning haqlarini tortib olish, shahar va qishloqlarni xarob qilish bo‘lmagan. Aksincha, ko‘plab shaharlarni obod qilgan, yuzlab muhtasham binolarning qad rostlashiga boshchilik qilgan, ilmfan, san’at kishilariga homiylik qilgan. Sohibqiron Amir Temur hayotning ma’nosini yaratish, bunyod etishda deb bilgan va shu me’zonga amal qilgan insondir. Amir Temurning bozor maydoniga xos navkari va do’sti bo‘lgan Muhammad Churog‘a dodxoh bilan darvesh kiyimida chiqib hayotni kuzatishi, yoki Samarqanddagi masjidning qurilishini nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan ikki kishining kirdikorlarini fosh qilishi, gunohkor kishilarni ayovsiz jazolashi, Isfahon shahrini yer bilan yakson qilib, xalqni qilichdan o‘tkazishi – barchasining o‘ziga xos sababi roman epopeyada ishonarli va tarixiy ma’lumotlarni inkor etmagan tarzda dalillangan. Uning “Ammo men sarkarda emas, Turon sultonimen, sulton! Maydon sohibi emas, mamlakat sohibimen! Vayron qilguvchi emas, obod etguvchimen!” degan so‘zlari zamirida Amir Temurning haqiqiy insoniy qiyofasi yashirin. Yurt sultoni bo‘la turib, erki o‘z qo‘lida bo‘lmaganligidan nihoyatda afsuslangan, farzandlari bilan birga o‘tirishni orzu qilgan ota qiyofasidagi sohibqiron qalbi zardobga to‘la. “Keyingi paytlarda Sohibqiron, negadir o‘g‘li Jahongir Mirzo, qizi Oqa begin va nabirasi Muhammad Sultonni tez-tez eslar, esladi deguncha, ko‘zlariga yosh olib: “Erta ketgan chechaklarim” deb yig‘lar, ko‘nglini bo‘shatardi. Bu tasvirda dunyo tashvishlaridan charchagan, oddiy bir inson ko‘z o‘ngimizda paydo bo‘ladi. Yozuvchi Amir Temurni ideallashtirmagan, uni xudoning hamma qatori yaratilgan, ammo favqulodda iste’dodli, dovyurak, oqko‘ngil, saxovatli, bunyodkor inson timsoli tarzida o‘quvchiga yuzma-yuz qilgan. Asarning eng katta yutug‘i ham ana shunda.

⁹² Мухаммад А. “Шоҳруҳ Мирзо”. – Т.: “Наврӯз”, 2019. – Б. 473.

Shunisi e'tiborga sazovorki, Muhammad Ali bunga qadar "Sarbadorlar" romanini yozib, tarixiy asarni qanday yozish kerakligini his qilgan edi. Muallif "Ulug' saltanat"ni yozishga kirishar ekan, o'ziga yaqin davrdagi zamondosh olimlar ma'lumotlarini ham nazardan chetga qoldirmaydi. V.Bartoldning rus tarixchi olimlaridan farqlanib turuvchi yana bir jihat shundaki, U "Sarbadorlar" masalasiga alohida to'xtalib, Temur va Sarbadorlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlilga oladi. Yana bir rus tarixchi olimasi L.Striyeva ham bu mavzuga atroflicha to'xtalib, Amir Husayn tomonidan Sarbadorlar yetakchilarining qatl etilishi va shu asnoda Temur ijozat so'rav, Mavlonzodani o'limdan omon saqlab qolganligi va buning asnosida el orasida katta obro'ga ega bo'lib, savdogar, hunarmand va dehqonlar keyinchalik ham Amir Temurni qo'llab-quvvatlaganini ta'kidlagan⁹³. V.V.Bartold Amir Temur davri haqidagi voqealarni tahlil etishda nihoyatda sinchkovlik va ehtiyyotkorlik bilan yondashadi. Jumladan, muzokaralarga sabab bo'lib kelgan Sarbadorlar harakati yetakchilarining fojiali o'lim topishida, Yazdiy va boshqa tarixchilar ma'lumotlarini keltirish bilan cheklanadi. Ularning ilmiy xulosalaridan foydalangan yozuvchi "Sarbadorlar" ning bir necha boblari bevosita Sohibqiron Amir Temurga bag'ishlangan bo'lib, bu obrazni yaratish yuzasidan ilk chizgilar sifatida o'rtaga tashlangan edi. Muhammad Ali bu ulug' jahongir haqidagi asarini "Ulug' saltanat" deb atadi. Adib uzoq yillar davomida bu mislsiz sarkarda haqidagi ilmiy va adabiy ma'lumotlarni qunt bilan chuqur o'rgandi. Ularniadolat me'zonlari asosida qayta baholadi. Aniq ilmiy va badiiy xulosalarga keldi. Shu yo'sinda "Ulug' saltanat" romani dunyo yuzini ko'rdi.

Muhammad Ali tanlagan o'z murakkab ijodiy yo'lida ulug' sarkardani ko'proq kundalik maishiy hayot, oila, qarindosh-urug' va do'st-yorlar muhitida ko'rsatishni ma'qul deb topdi. Farzandlarining tarbiyasi, kattaroq bo'lganda ularning qismati, har xil yo'sinda paydo bo'lgan tashvishlari, o'zlariga munosib kelin topib uylantirish, farzandlarining boshiga biror ish tushadigan bo'lsa, ularga hamnafas bo'lib, dardiga sherik bo'lish voqealari kabilar syujetda muhim o'rin

⁹³ Строева Л.В. Возникновение государства Темура// Ученое записки ЛГУ серия востковедческих наук. - Л., 1952. Вып. 3 № 128, - С. 75-76.

tutadi. Adib bu ulug‘ sarkardani ko‘pincha oddiy odamlar qatorida ko‘radi. Oddiy odamlarning boshiga qanday quvonchli, maroqli kunlar yoxud qayg‘uli, alamli tashvishlar tushadigan bo‘lsa, uning boshiga ham aynan shu xildagi hodisalar tushadi. Oddiy odam singari u o‘zida yo‘q darajada quvona oladi. Boshiga tashvishlar tushganda, oilaviy muammolarga uchraganida g‘am-g‘ussalar alamida yonib kuyadi. So‘zsiz katta umidlar bag‘ishlangan balki valiahdlikka munosib bo‘lgan o‘g‘li Jahongir Mirzoning yigitlik chog‘ida vafot etishi uning belini bukadi. Bu ulug‘ zotning romanda tasvirlangan og‘ir alam va iztiroblarini kitobxon xuddi o‘zinikidek his qiladi. Ne-ne umidlar bilan turmush qurban aqli raso kelini – Xonzodaning erta beva qolishi, sarkardaning alam va tashvishlarini yana bir necha bor oshiradi.

Ushbu tetralogiyada shunday bir chizgi borki, bu ulug‘ zotning odamiylik xislatlari bu nuqtada alohida ta’kidlanadi. To‘ydan keyingi kunlar Xonzoda xonimni kelinim emas, qizim, deb ataydi... Bu so‘zlarda ulkan ma’no bor edi. Jahongir Mirzo vafot etganda azoblangan Amir Temur Xonzoda xonimga shunday deydi: “Sizni kelinim emas, qizim, degandim...Endi...qizim emas, o‘g‘lim deymen. O‘g‘lim o‘rnida o‘g‘lim!”. Umuman, Sohibqiron ayol zotini kamsitishni o‘ziga ep ko‘rmaydi. Ayollarning jamiyatdagi o‘rni erkaklarga nisbatan ma’lum darajada past bo‘lishi kerak, degan fikrni xayoliga ham keltirmaydi. Aksincha, ayol, xususan, uning oilasini mustahkam saqlab, tinch-totuvlikda asragan oqila Saroymulkxonimni Sohibqiron o‘ta qadrlaydi. Saroymulkxonim uning uchun oila mashvaratidagi birinchi va dono maslahatchi edi. Umuman, roman sahifalarida bu ulug‘ sarkardaning biror ayol zotini kamsitganini, unga qo‘pol munosabatda bo‘lganini aslo ko‘rmaymiz. Bu jihatdan Amir Temur faqat o‘z zamondoshlarigagina emas, balki barcha zamonlarda ayollarga nisbatan past nazar bilan qarovchi kishilarga ham ibratdir. Bu xislatlar unga xos bo‘lgan yuqori madaniyat belgisidir. Biroq Amir Temur doim me’yorni saqlagan holda ish tutardi. Nazarimizda, har qanday dushman ham uning uchun avvalo inson farzandi edi.

Temuriylar mavzusida so‘ngi yillarda salmoqli ijodiy ishlarga bel bog‘lagan yana bir yozuvchi Nurali Qobul romanlarida tasvirlanishicha, Amir Temur

sho‘rolar davridagi asarlarda ko‘rsatilganidek, doim qilichidan qon tomib turadigan zolim sarkarda emas. Uning faoliyatida boshqa ko‘plab amirlar, mulozimlar, har xil darajadagi xizmatchilarga ham insonlik sha’niga yarashmaydigan shafqatsizlikni ko‘rmaymiz. Adib bunga alohida urg‘u beradi. Biroq u dushmanga nisbatan qat’iyatsiz ham emas edi. Tarqoq Turkiston elini birlashtirish oson bo‘lman, albatta. Bu ishni amalga oshirish uchun birinchi navbatda qat’iyat zarur edi. Shunday ekan, xalqni birlashtirishda, raqiblarga qarshi kurashda begunoh odamlarning ham jabrlanish hodisalari bo‘lgani, tabiiy. Boshqacha shaklda aytganda, ho‘l-u quruq qo‘shilib yongan paytlari ham oz bo‘lman. Oilada, jamoat orasida qat’iyatlilikdan ko‘ra ko‘proq rahmdillikni kasb qilib olgan sarkarda gunohkorlar bilan bir qatorda gunohsizlarning ham aziyat chekishiga achingani tabiiydir. Sarkardaga xos bu xislat iste’dodli ijodkor Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida ham ta’kidlanadi. Nurali Qobulning romanlarida aynan shu mantiqni har tomonlama tasdiqlaydigan bir qator epizodlar mavjud. Ishonchli manbalardan olingan bu epizodlar shuni ko‘rsatadiki, kerak paytda qahr-u g‘azabni ishga solgan amir ko‘pincha o‘zining rahmdilligini ham ko‘rsata olgan. Romanda tasvirlanganidek, Shibirgon hokimi Zindachashm Opardiy Amir Temurga nisbatan sotqinlik yo‘liga kirib, bir necha bor fitna uyushtiradi. Amir Temur esa uni bir necha bor kechiradi, ayrim hollarda jazo beradi. Yana o‘z lavozimiga tiklaydi. Bu hol to‘rt-besh marta takrorlangani ma’lum. M.Ali epopeyasida riyokor amir to‘g‘ri yo‘lga kelavermaganidan keyin, Amir Temur uni og‘ir jazoga munosib ko‘radi. Shunda ham, uni qanday jazolash haqida o‘z mulozimlariga biror yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmaydi.- Uni mening ko‘zimga ko‘rsatmanglar, - deydi xolos. Romanda tasvirlangan boshqa bir holga nazar tashlaylik. Bu voqeа Temurning yaqinlaridan biri amir Muso bilan bog‘liqdir. Amir Muso ancha vaqtlar davomida Amir Temurning xizmatida yurgan, sodiq mulozimlaridan biri hisoblanadi. Amir Husaynga qarshi jang davom etayotganda amir Muso Temurbek qo‘shinidan ajralib chiqib ketadi. Keyinchalik, fitnachi Zindachashm Opardiy guruhiга borib qo‘shiladi. Shunga qaramasdan, Amir Temur uni topib, gunohlaridan kechadi va yana unga ishonch bildirib saroy xizmatiga jalb qiladi. Romanda tasvirlanishicha,

shunday hollar bo‘ladiki, o‘limga hukm qilingan ba’zi bir amir, mulozimlar jazodan to‘xtatilib yana o‘z xizmatlariga tiklanadilar. Amirning bu xildagi xislatlari uning zaifligidan emas, balki uning ulug‘vorligi va qudratidan dalolatdir. U odamlarga yetarli darajada ishonadi. Ma’lum bir paytlarda qing‘ir yo‘lga kirgan kimsalarning keyinchalik sadoqat bilan xizmat qilishini sezish qobiliyati unda bor bo‘lgan. Romanda ko‘p mashaqqatlar bilan bo‘lsa ham, Amir Temur g‘alabadan g‘alabaga o‘tib, kamol topayotgan sarkarda sifatida ko‘rsatiladi. Romanni o‘qib, bu kamolotning ikkita asosi bor ekanini anglaymiz. Birinchisi shuki, qariyb ikki asr davomida Turkiston xalqi Chingizzon bosqinchilari oyoqlari ostida, ularning zulm va zahmatlaridan yetarli darajada bezib ulgurgan edi. Endilikda undan qutulishning yo‘li topilgandek ko‘rindi xalqqa. Shu boisdan, xalq Amir Temurni ko‘proq qo‘llab-quvvatladi. Masalaning ikkinchi tomoni yana ham muhimroqdir. Chingiziylar siyosatining negizi adolatsizlik, diyonatsizlik edi. Amir Temur o‘zining birinchi yurishidan boshlabadolat va diyonat bayrog‘ini yuqoriga ko‘tardi. Shu boisdan, xalq bu bayroq sari intildi. Natijada, Amir Temurning qo‘singa qo‘singa qo‘silib, qudratli kuchga aylandi. Shunday qilib, Muhammad Alining yangi romani ko‘p jihatdan ulug‘ sarkarda Amir Temurning hali kitobxonga ko‘p ham ma’lum bo‘lmagan, barchaga ibratli bo‘ladigan yangi-yangi xislatlarini ochib beradi⁹⁴.

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasini Amir Temur haqida bitilgan asarlar orasida uslub jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan asar deya baholash o‘rinli. Muallif voqealarni aniq tanlab, ko‘proq tanlangan qahramonlarning ichki olamiga nazar tashlaydi. Roman-epopeya yozishda mualliflar amal qilishlari zarur bo‘lgan bir nechta qonun-qoidalar mavjud. Xususan, tarixiy mavzudagi roman epopeya deb e’tirof etilishi uchun unda ulkan tarixiy muammolar, buyuk tarixiy shaxslar, davr qiyofasi, millat taqdiriga ta’sir etgan katta masalalar, hamda ularga munosib shakldagi yirik epik badiiy ko‘lam, mohirona tasvir va talqin mavjud bo‘lishi talab etiladi. Shu ma’noda, Muhammad

⁹⁴ Кўшжонов М. Ёзувчи камолотидан дарак. “Ўзбекистон овози” газетаси, 2002 йил, 15 июнь.

Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi tarixiy roman-epopeyaning barcha asosiy talablariga javob beradi deb hisoblash mumkin. Bu asar o‘zbek adabiyoti tarixidagi tom ma’nodagi ilk tetralogiyadir. “Ulug‘ saltanat” romani zamonaviy o‘zbek adabiyoti tarixida yangi hodisa ekanini ta’kidladek. Bu asarda Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Odil Yoqubov, S.Toshkandiy, Pirimqul Qodirov singari adiblarning ijodiy tajribalari hamda, jahon adabiyotidagi ko‘plab roman-epopeyalar, shuningdek, Sohibqiron haqida asarlar yozgan adiblarning hamda, keyingi chorak asr mobaynida Amir Temur siymosiga murojaat etgan o‘zbek yozuvchi, shoir, dramaturglarining tajribalari yotadi. Muhammad Ali ana shu ulug‘ maktab saboqlarini o‘rganib, Amir Temurning davlat arbobi sifatida oyoqqa turishidan tortib, so‘nggi kunlarigacha kechgan buyuk tarixiy qiyofasini va uning hukmidagi ulug‘ saltanatning insoniyat tamaddunida o‘ynagan ulkan rolini badiiy gavdalantirishga bag‘ishlangan roman-epopeya yaratib, o‘zbek adabiyotida epik janrning tom ma’nodagi tetralogiya tipiga asos solib, temuriylarni tarixiy shaxs va badiiy obrazga aylantirish masalalarida o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga ko‘tardi. Shu jihatdan qaraganimizda, yana bir iste’dodli o‘zbek yozuvchisi N.Qobul ham M.Ali an’analarini o’z yo’sinida davom ettirib, “Temuriylar epopeyasi” romanlar silsilasida Amir Temur davriga, uning shaxsi yo’lida ijodkor nuqtai nazardan yondashib, Temurning buyuk xalq qahramoni, adolatli yo‘lboshchi, jahon miqyosidagi ulug‘ qo‘mondon ekanligini mahorat bilan badiiy aks ettira olgan⁹⁵.

N.Qobulning “Temuriylar epopeyasi” romanlar turkumi o‘zbek adabiyotida vujudga kelgan yangi realistik tarixiy romanlarning silsilasidandir. Shu o‘rinda “Temuriylar epopeyasi”ning yuqori badiiy qimmatini belgilaydigan bir jihatni alohida qayd qilish kerak. Zотан, yozuvchilik san’atining siri ham shunda bo‘lsa kerak. Boshqacharoq aytganda, iste’dodli adib voqealar tarixiyimi, yo to‘qimami bundan qat’i nazar ularni qalab tashlayvermaydi. U tasvirda me’yorga, muvofiqlik talabiga yetarli darajada rioya qiladi. Shu boisdan, qaysidir manbalardan ma’lum

⁹⁵ Қаххор Т. Эътироф. // Қобул Нурали. Жон ва шон талвасаси. Тарихий роман VI. – Т.: “Ijod press”, 2016. – Б.410.

bo‘lgan voqealar ham yangicha jilolanadi. Biz ularni yangi voqealar sifatida qabul qilamiz. Natijada roman zo‘r hayajon bilan o‘qiladi va yengil qabul qilinadi. Bu xislatlar yozuvchi qalamining kamolotidan dalolat beradi.

Chunki, biz katta davrni o‘zida mujassam etgan “Go‘ro‘g‘li” tipidagi yirik dostonlarga, Alisher Navoiyning “Xamsa”si kabi mahobatli epik asarlarga egamiz. Ularning yuksak ma’naviy va badiiy qadr-qimmati bor. Bu adabiy merosimizdan oziqlangan ushbu ikki adibimiz ijod namunalari bilan elimiz kitobxonlariga manzur bo‘ldi. N.Qobulning ushbu epopiyasiga solishtirganda M.Alining “Ulug‘ saltanat” asari esa millatimiz va O‘rta Osiyo xalqlari tarixidagi ulkan davr va buyuk tarixiy shaxs hamda, siymolar qiyofasini jahon adabiyoti talablari asosida realistik aks ettirgan roman-epopeya sifatida qimmatli⁹⁶. “Ulug‘ saltanat”da Amir Temurning suyukli o‘g‘li Jahongir Mirzo bilan qissaxon Mavlono Ubayddan Iskandar Zulqarnayn haqida hikoyat tinglab o‘tirganda chopar kelib, Husayn So‘fi ukasining “durri yakto qizi Xonzoda xonimni so‘rab” sovchi yuborish bahonasida katta soliqlar solishi haqidagi xabarni aytadi. Yozuvchi bu xabardan Jahongir Mirzodagi hayajonlanish epizodi orqali asosiy mavzuga o‘tadi. U romanda o‘n besh yoshli, ko‘pgina janglarda jasurlik ko‘rsatgan Jahongir Mirzoning Xorazm malikasi husn-jamoli va aqlu odobi haqida shuhrati tarqalganidan g‘oyibona oshiq bo‘lib, unga yetishuv orzuga aylanishini va shahzodaning muhabbat tarixini romantik qahramon sifatida tasvirlaydi.

Nurali Qobul esa tarixni bu asardan farqli o‘laroq buyuk shaxslar, ularning buyuk qarash va e’tiqodlari harakatga keltirishni ulug‘ amir shaxsi, hayoti va saltanati timsolida badiiy jihatdan yana bir bor dalillashni afzal biladi. Shu tarzda romanlarda davlat va umumxalq ahamiyatiga ega muammolarning qo‘yilishi, unda millat hayotining katta va muhim hal qiluvchi davrining o‘z aksini topishi xalqaro ahamiyatiga molik bo‘lgan tarixiy jarayonlarning qamrab olinishi; millatning buyuk qahramonlari syujetning markaziy o‘rinda turishi, epik qamrov va voqealar tasvirdagi o‘ziga xosliklar, kompozitsiyaning sertarmoqliligi, yuksak ideal, pafos,

⁹⁶ Назаров Б. Ўоксак тарихий эътиқодга муносиб бадиий самара. “Улуг‘ салтанат васфи” номли тўплам. – Тошкент: Машхур Пресс, 2017. – Б.56.

ko‘tarinkilik, milliy va boshqa xususiyatlar “Temuriylar epopeyasi”ni tom ma’nodagi yuksak tarixiy asar, deyishga asos beradi.

Ushbu tahlillarimizni nazariy asosda davom ettirganda va tarixiy romanlar borasida so‘z yuritganda, ko‘plab tarixiy romanlar muallifi Volter Skottning “Ivanoe” (asliyatda, ingliz tilida “Ayvengo”) romani haqida adabiy tanqid dahosi V.G. Belinskiy aytgan so‘zlar yodimizga tushadi: “Ba’zi odamlar, Volter Skottning ko‘p romanlaridagi qahramonlar, butun bir asarning voqealarini o‘zida to‘plab, ayni zamonda shunday rangsiz xarakterga egadirlarki, ular diqqatimizni o‘zlariga butunlay bog‘lab olmaydilar, bizning maroqimizni ko‘proq original va xarakterli bo‘lgan ikkinchi darajali shaxslarga bag‘ishlaydilar”, deb yozuvchidan gina qiladilar.⁹⁷ “Jahongir Mirzo” romanida ham xuddi shunga o‘xhash bosh qahramon juda kam harakat qiladi. Amir Muso, Amir Xusayn, Kayxusrav kabi ikkinchi darajali qahramonlar asarda faol harakatlanadi. Buning sababi, shahzodani voqealar rivojiga tabiiy bir yo‘sinda aralashtirish orqali uning xarakterini ochib berish bilan bog‘liq. Jahongir Mirzo mahbubasi Sevin bika uchun otasi Temurbek yetakchiligidagi amirlarning Balxga, Amir Husayn qal’asini fath qilish janglarida faol qatnashgan. Romanda Jahongir Mirzoni yosh darvesh, javonmardlikni qabul qilgan oqko‘ngil Axiy Jabbor fidoyilarcha himoya qiladi. U yarador shahzodani jang maydonidan olib chiqadi. Asarda boylik, mansab, shuhrat uchun emas, yaxshilik, ezgulik uchun kurashuvchi oddiy jangchi Axiy Jabbor obrazi o‘zida xalq ruhiyati, zakovati va ma’naviy yuksakligi mujassamlashgan timsol darajasiga ko‘tarilgan.

Bob bo‘yicha xulosalar:

1. Ingliz tarixchilari va ijodkorlari Amir Temur shaxsini o‘rganishga katta qiziqish bilan qaraganlar. Bunga asosiy sabab sifatida Sohibqironning Yevropa qit’asini Usmonlilarning muqarrar bosqinidan qutqargani edi. Shuningdek, ko‘plab g‘arb mamlakatlarining Temuriylar davlati bilan faol diplomatik aloqalarni olib borgani ham adabiyot, san’at, tarix, musiqa, me’morchilik va boshqa sohalarning

⁹⁷ Тўраев Д. Улуг‘ салтанатнинг ёркин сахифалари. “Улуг‘ салтанат васфи” номли тўплам. – Тошкент: Машхур Пресс, 2017. – Б.125.

rivojiga katta hissa qo'shdi. XVI asrdan boshlab ingliz ilm-fani va adabiyotida Amir Temur siy whole qiziqishning kuchayishi bevosita dramaturg Kristofer Marlo nomi bilan bog'liqdir.

2. Ingliz adabiyotida Amir Temur obrazining badiiy talqini yaratishda o'ziga xosliklar va farqli jihatlarning mavjud bo'lganini e'tirof etish zarur. Ular tomonidan shu mavzuda yaratilgan ko'plab badiiy asarlarda badiiy mantiqning hayotiy mantiq bilan nomuvofiqligi yuzaga kelgani ayni haqiqatdir. Kristofer Marloning "Buyuk Temur" dramasidagi Temur obrazining qiyofasi va mavqeい biz bilgan Sohibqirondan jiddiy farq qiladi. Muallif voqealar bayonida ham real tarixiy hodisalardan chekinadi. Bu jihat tarixiy manbalardagi bir tomonlama va noxolis bo'lgan yondashuvlarning ta'sirida yuzaga kelgani, shubhasiz.

3. Jahon va o'zbek adabiyotida buyuk tarixiy shaxslar hayoti va ijodini aks ettirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu jihatdan, ingliz va o'zbek adabiyotining tadrijiy taraqqiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratishga ham keng o'rin berilgan. Mualliflarning ijodiy niyatları turlicha ekanligi, ularni yozishda asoslangan ma'lumotlarning ba'zilarida noxolisliklar mavjudligi Amir Temur haqida mazmunan bir-biriga o'xshamagan asarlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Yevropa tarixchilari Amir Temurni o'zlarining muqarrar istilodan saqlab qolgan xaloskor sifatida e'tirof etganlar.

4. Ingliz va o'zbek adabiyotida Amir Temur obrazini badiiy talqin qilishga ijodkorlar tomonidan alohida e'tibor qaratilganligi bu mavzuning xalqlarning tarixiga bevosita aloqador ekanligi bilan bog'liqdir. G'arb adabiyotida dramaturgiya va sahna madaniyatining yuksak darajada rivojlangani Sohibqiron Amir Temur mavzusi bu o'lkalarda ko'proq dramatik asarlarning yozilishiga imkon yaratdi. Shuningdek, har ikki yurt adabiyotida yaratilgan Amir Temur haqidagi tarixiy va badiiy romanlar o'zining yuqori badiiy saviyasi bilan ajralib turadi.

5. Ushbu bobda mumtoz adabiyotning asosiy xususiyati tarix va hayot haqiqatini uzviylikda badiylashtirish jarayonini yuksalishiga xizmat qilinganligi alohida qayd etildi. Sharafuddin Ali Yazdiy, Mir Alisher Navoiy asarlaridagi Amir

Temur va temuriylar obrazining yaralishiga asos bo‘lgan poetik talqinlar tahlillar misolida oolib berildi.

6. Adabiyotning tadrijiy taraqqiyotida Amir Temur va temuriylar obrazini yaratish an’anasining taraqqiy etish sabablari asoslandi. Badiiy asarlar tarkibiy qismini tashkil etuvchi dramatik asarlardayoq ularning badiiy siymosi haqqoniy talqin etilganligiga diqqat qilindi. Shuningdek, Maqsud Shayxzoda, Oybek P.Qodirov, O.Yoqubov, Mirmuhsin, S.Toshkandiy kabi ijodkorlarning Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqiniga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, sobiq sho‘rolalar adabiyotida buyuk siymolarga bir yoqlama munosabatda bo‘lish holatlari misollar asosida dalillandi.

7. Jamiyatdagi o‘zgarishlarning maydonga kelishi bilan bir qatorda, badiiyat mezonlaridagi ziddiyatlar, talqinlar, biryoqlama qarashlarning yuzaga chiqish imkonini bergenligi alohida qayd etildi. Yuksak didli ijodkorlar boshlagan an’analarning izchillik bilan davom ettirilishi, ma’lum ma’noda, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Yovdat Ilyosovlarning murakkab davr bo‘lishiga qaramasdan, tarixiy shaxslar obraziga asosli yondashganligi isbotlandi.

8. Badiiy adabiyotdagi inson konsepsiyasining asosli talqin etilishidagi harakatlar alohida qayd etildi. Insoniyat tarixidan shu holat ma’lumki, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy fikrlarning o‘zgarishi va tarixiy sharoitning qaytadan yangilanishi tarixiy voqelikka ham ijodkorning estetik idealidagi o‘zgarishlarning vujudga kelish sabablari ko‘rsatib berildi. Bu o‘rinda, Chor Rossiyasining zulmlarini kuchayishi tarixiy shaxslar obrazining yuzaga chiqishiga ma’lum ma’noda buyuk tarixga nazar solish va tarixiy shaxs konsepsiyasining yuzaga chiqishiga sabab bo‘lganligi va Abdulla Oripov hamda, Muhammad Ali kabi ijodkorlarning asarlari misolida ijtimoiy - estetik idealning yuzaga kelish sabablari asoslandi.

II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARINING SPETSIFIKASI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

II.1. G‘arb rus va o‘zbek tarixiy romanlari genezisi va taraqqiyoti

Amir Temur shaxsi, faoliyatiga doir tarixiy kitoblar, badiiy asarlar jahon mamlakatlarida XVI asrlardan buyon nashr etilmoqda. Forest Perondino (1553), Pero Meksika(1564)ning “Buyuk Temur” kitoblari, Silvestr de Sasi, Sharmua, Feridunbey, Elayss-Femor, Mignapelli va boshqa olimlarning ishlarini misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Taniqli sharqshunos olim Marsel Brionning 1963-yili nashr etilgan “Men kim Sohibqiron, jahongir Temur” asari ko‘p jihatlari bilan tadqiq etish uchun ahamiyatlidir. Asarga Amir Temurning bolaligi va yoshligi, Amir Temurning Ibn Xaldun bilan uchrashuvi (87-98 betlar), Sultoniya arxiyepiskopining “Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralari” (102-131 betlar), Volterning “Amir Temur hayoti” (139-143 betlar) L.Kayunning “Amir Temur tengi yo‘q adib”(144-148 betlar) E.Berlning “Amir Temur sultanasi” (149-152 betlar) E.Berlning “Amir Temur-Osiyo muzaffari” (153-160 betlar) R.Grussenning “Amir Temur va To‘xtamish”(161-170 betlar) A.Shandorning Amir Temur (171-189 betlar) va “Gerasimov uslubi ”(191-204 betlar) kabi bo‘limlari ilova sifatida kiritilgan.

Ammo Yevropa adabiyoti namunalari orasida o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq etilmagan asarlar talaygina. Shular jumladan Manuel II Palelog qalamiga mansub “Temur mag‘lub bo‘lgan Boyazid haqida so‘zlaganlarim” asari diqqatga sazovor. Ushbu asarning yozilishida Vizantiya va Yunon tarixchilari Laonikos Xalkokondiley, Jorjos Frantes va Dukas solnomalarida qayd etilgan ma’lumotlarga tayanilgan. Ushbu manbalarda, xususan, Dukas asarlarida Amir Temurning insoniy fazilatlari yoritilganligi, Jorjos Frantes esa Temur va Boyazid munosabatlarini solnomasini yaratganligini, Vizanyiya olimi asarida Amir Temur Boyazidga nisbatan munosabatlarida uning naqadar tanti va saxiyligi bayon etilganligi aytib o‘tiladi. Yana bir ilk solnoma asarlar sirasiga Filippus Lonekirus tarixiy solnomasi misol bo‘la oladi. “Turk xronikasi”da Amir Temur va turk sultonining o‘zaro munosabatlari asosiy o‘rin egallaydi. O‘rta asrlar Yevropa

tarixchisi Petros Perondinosning “Skif imperatori buyuk Temur hayoti” (1553) asarida Boyazid ismini Orzobelus tarzida qo‘llaganini muallif talaffuz talablari deb qabul qilish joiz. XVI sarda yashab ijod etgan tarixchi Pedro Meksika ijod namunasi bo‘lgan “Dars saboqlari” asarini yozishda turklar tarixiga oid ungacha ma’lum bo‘lgan Fugos, B.Nono, M.Palmerio singari qator tarixchilar asarlaridan manba sifatida foydalanganini qayd etadi. Shuningdek, Sharqlik jahongirning harbiy faoliyatiga oid Paolo Jiovioning tavsifnomasida buyuk sarkardaning harbiy, tarixiy, diplomatiya masalalari o‘rtaga tashlanadi. 1531-yilda Venetsiyada “Turklar haqida sharhlar” kitobi nashr etiladi. 1590-yilda Frankfurtda “Turkiy millatning yangi xronikasi, turkiylar izohida” asari muallifi XVI asr nemis tarixchisi Ioxann Levenklou Amir Temurning dunyo bo‘ylab amalga oshirgan faoliyatini yoritadi. 1597-yilda esa Germaniyada Jan Jak Buassar qalamiga mansub “Turk sulton ramzlari” romanida boshqa asarlarda uchramagan jihatlar talaygina, asar qadimgi yunon tilida bo‘lib, u o‘zidan avval bu mavzuda qalam tebratgan I.Livenklou asari syujetiga hamohang tarzda, ba’zi manbalarni o‘zgartirishlar bilan bayon etadi. XVIII asrda esa “Temur tuzuklari”ni ilk bor fransuz tiliga tarjima qilgan akademik Langle Lui Mat’ening “Temur hayoti” asari bizgacha yetib keldi⁹⁸. Ushbu asarning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘ziga qadar bo‘lgan mualliflarning g‘arbona Yevrosentrizmiga asoslanmagan tarzda, Amir Temurning Sharqona qiyofasini yaratgan asarlarga tayanishni ma’qul ko‘rdi. Asar xulosasida muallif Amir Temurni fazilatli inson sifatida baholash xulosasini bayon etib, “Temur do‘stlik rishtalarini nihoyatda yuqori baholagan. Uningcha, boylikka lashkarlar va tilyog‘lamachilarni sotib olish mumkin bo‘lsa, do‘stlik faqat do‘stona ishlar bilan o‘lchanib hisob qilinadi”⁹⁹. Shunga qaramasdan, unga tanqidiy baho berishni o‘ziga munosib ko‘rmagan muallif uning harbiy yurishlarini oqlamasligini bayon etadi. U o‘z izlanishlari tizginini Temurning dunyonи zabit etish yo‘lidagi maqsadini: hukumati zulmidan iztirob chekkan xalqlarni mushkul ahvoldan qutqarish, urush va muttasil talon tarojliklar ostida qolgan Osiyoning mayda

⁹⁸ Tursunova. R.A. G’arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. San’at.fal.falsafa.dok. diss. – T., 2020. – B. 21.

⁹⁹ Тамерлан. Эпоха. Личност. Деяния. М.: “Тураш”, 1992. – С. 455.

hokimliklarini yagona davlatga aylantirish uning fikricha odamlarni baxtli qilishning yagona yo‘li edi, deb baholaydi. Bunday turfa qarashlar va yondashuvlar, Temur shaxsi tahlilida adabiy hodisalarning mushtarak va o‘ziga xos jihatlarini o’rganishga, ular uchun umumiy bo’lgan qonuniyatlarni yuzaga keltirishda, ya’ni adabiy komparativistika¹⁰⁰ ilmida xolis yondashuvlarni keltirib chiqarishga xizmat qiladi.

Tarixiy romanlarda Temur siy wholeining o’rganilishi masalasiiga to‘xtalar ekanmiz, tarixiy romanning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va uning turlari haqida G. Lenoblning “История и литература”, L. Aleksandrovaniн “Советский исторический роман и вопросы историзма”, S. Petorning “Русский исторический роман XIX века”, A. Pautkinnig “Советский исторический роман”, “Советский исторический роман (типология и поэтика)”, Yu. Andreevning “Русский советский исторический роман”, A. Anikstning “Два пути развития исторический роман” tadqiqotlarida o‘ta muhim xarakterdagи fikr-mulohazalar bayon etilgan. B. Ahmedovning bu boradagi xizmatlari ulkan bo‘lib, olim ensklopedik ahamiyatga molik tadqiqotlarga bosh bo‘ldi. Olimning bu boradagi faoliyatini to‘rt yo‘nalish doirasida o’rganish maqsadga muvofiq: 1)manbalarni nashrga tayyorlash va ilmiy tahrir; 2)maxsus tadqiqotlar; 3)o‘quv uslubiy tadqiqotlar; 4)ilmiy ommabop va badiiy asarlar. Shu bilan birgalikda, tarixchining temuriylar davriga oid manbalar tarjimalari, to‘plamlarning ilmiy tahrir, munozarali ma’lumotlarga oydinlik kiritganligi bu sohaning chuqr bilimdoni ekanligini¹⁰¹ ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos rus olimi S.Petrov XX asr dunyo tarixiy romanchiligidagi tarixiy shaxs siy wholeini asarlarda yoritish muammolarini va ularning yechimlarini alohida tadqiq etgan. U tarix va so‘z san’ati o‘rtasida robita-bog‘lanish bo‘lishi, tarixning eng muhim burilish pallasi, ulkan ahamiyatga ega bosqichini ko‘rsatib bera olishi, tanlab olingan qahramonning hayoti bevosita u mansub bo‘lgan xalqning taqdiri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan arzirli tarixiy shaxslar hayoti va

¹⁰⁰ Xalliyeva G.Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akkadernashr, 2020. – B.6.

¹⁰¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘ME davlat nashriyoti. 200. Jild.1– B.560.

faoliyatini badiiy aks ettirish lozim deb hisoblaydi. Uning izlanishlari negizida tarixiy qahramon sifatida mard, jasoratli, matonatli, ijtimoiy-siyosiy hayotda o‘ta faol bo‘lgan shaxslarni tanlash, xalq harakatlarini tarixiy jihatdan asoslangan shakllarda badiiy in’ikos ettirish, turli davrlarda yashagan ko‘plab kishilarning maishiy hayoti, turmush tarzi, ichki dunyosini yoritish, obrazlar xoh u tarixiy yoxud to‘qima bo‘lsin, tarixiy jarayonlarning hal qiluvchi kuchi sifatida ko‘rsatish tarixiy shaxs konsepsiyasini akslantirishning asosiy yechimlari sifatida o‘rtaga tashlanadi. Bu nazariy qarashlar tahlilini Amir Temur haqida tarixiy asarlar bitgan rus sharqshunos olimi V.Cherevanskiy o‘z ilmiy tadqiqotlarini yozishda De Klavixoning, Ibn Arabshohning manbalariga, sharq manbalaridan “Temur tuzuklari” va “Hasbi hol”ga tayanganini ma’lum qiladi. Muallif bu ikki sharq manbasi A.Temur qalamga mansub ekanligini¹⁰² alohida urg‘ulaydi. Shuningdek, muallif Amir Temurning me’morchilik, obodonchilik ishlarini yuqori baholab, uning harbiy yurishlardagi faoliyati doirasida Ivanin keltirgan ma’lumotlar bilan cheklandi. Shunga qaramasdan, bu tarixchi ilmiy ma’lumotlarida ham Amir Temurning yurishlari yili va sarkarda yoshi, qabila boshliqlarining ismlari yuzasidan xatoliklar uchraydi. U ham o‘zi hurmat keltirgan bu buyuk sarkarda haqidagi asarini shunday yakunlaydi: “Asrlar o‘tadi, ammo Temur tarix sahifalaridan aslo tushmaydi. Markaziy O‘rta Osiyo afsona va dostonlarida ko‘ylanaveradi. Uning o‘limidan so‘ng oradan besh asr o‘tdi. Sahroyi baxshilar esa hamon u haqida kuylaydi”¹⁰³.

XX asr boshlarida Rossiya tarixshunoslari orasida V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, L.V.Stroyeva, A.P.Novoselsev kabi rus sharqshunoslaring Amir Temur haqidagi izlanishlarini o‘rganish va bundan oldingi asrlar tarixshunoslari bilan solishtirish asnosida ilmiy xulosalar berish juda ahamiyatli.

XX asrning 30-40 yillariga kelib, qator ilmiy izlanuvchilar Ermitajda saqlanayotgan Amir Temur davriga oid tarixiy manbalar va arxivlarga tayanib,

¹⁰² Cherevanskiy V. Amir Temur. – T.: “Yozuvchi”. 1993. – B.196.

¹⁰³ O‘scha asar. – B.197.

temuriylar davri memorchiligin o‘rgangan bo‘lsa, tarixchi B.Zaxoder Amir Temur hayoti va davlat qurish faoliyati haqida¹⁰⁴ bir yoqlama baho berishga intilgan.

Ushbu davr sharqshunoslari orasida Temur va temuriylar davri voqeliklarini siyosiy tahlilga tortgan Vlademir Vasiliy Bartoldning izlanishlari va ilmiy xulosalari bir qadar obyektiv sanaladi. U Amir Temurni markazlashgan davlat qurish sari harakatlarini shunday izohlaydi: “Temur doimo davlat tartibi g‘oyasi tarafdori edi. Bir biriga qarshi turgan mayda hokimlar mavjudligida bu tartibni amalga oshirib bo‘lmas edi”¹⁰⁵. Shuningdek, muallif Temur shaxsiyati haqida ijobiy fikrlarni keltirarkan, u turk va fors tillarini bilishini, olimlar bilan suhbatlar qurishini, erishgan bilimlari natijasida tarixchi Ibn Xaldunni hayratga solganini, mohir shatranj ustasi ekanligini, diniy ulamolarga hurmati baland ekanligi ta’kidlaydi. U shuningdek, Sohibqironning me’morchilik, bunyodkorlik, bog‘dorchilik faoliyatini hayrat bilan tilga oladi. Shu bois, tom ma’noda aytish joizki, V.Bartold rus sharqshunoslari orasida birinchilardan bo‘lib, o‘tmish rus tarixchilarining Amir Temur haqidagi qarashlarini bирyoqlama, noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib berdi¹⁰⁶. Shu bilan birgalikda, V.Bartold Chingizzon va Amir Temurni o‘zaro solishtirgan holda, ular o‘rtasidagi farqlanish va tafovutni, Temurning ilm fan rivojiga qo‘sghan hissasini, din va madaniyat ahliga bo‘lgan rahnamoligini ta’kidlab o‘tadi. Darhaqiqat, o‘rta asrlar turk dunyosi ilm fanining Uyg‘onish davri Renessansining bunyodkori edi Temur.

Amir Temurni tarixda qattol va bosqinchi, vaxshiy hamda, qonxo‘r qahramon sifatida asarlarda tasvirlanishi mualliflarning Sohibqiron shaxsiga va siyosatiga munosabatiga, qolaversa, Amir Temur bosib olgan hudud vakili bo‘lishiga ham bog‘liq. Ammo davr talabi va ota makonini bosqinchilardan holi yurtni orzulagan, “Musulmon musulmonni ranjitishi, mollarini xarob qilishi joiz bo‘lмаган ishdир”, degan gapidan a’moli va insoniy fazilatlari ko‘rinib turgan ushbu siymoga nisbatan ichki hissiy munosabat bilan yozilgan asarlardagi to‘qima

¹⁰⁴ Заходер Б. Империя Тамерлана. – М., 1941. – С.78-88.

¹⁰⁵ Бартолд В.В. Сочинения. – Т.2.М., 1963. – С.232.

¹⁰⁶ Usmonov A. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunoslida yoritilishi. (XVIII –XX asrlar). Tarix fan. Nomz.diss. – Farg‘ona., 2003. – B.86.

bo‘rttirilishlar bilan bezatilgan sahnalar ham talaygina. Mana shunday shaxslardan biri Ibn Arabshoh bo‘lib, u Amir Temurni xatti-harakatlariga izoh tarzida u tug‘ilganidanoq qo‘llari qonga bo‘yagan ekan, degan afsonani keltiradi. Bu mazmundagi afsona esa Stenli Len Pulning “Мусулманский династии” asarida Chingizzonga oid voqeа sifatida keltiriladi.

Shu bilan birgalikda, tarixiy manbalarga asoslanmagan va Sharqdan G‘arbgan qaytgan savdogarlardan tarqalgan deya taxmin qilinadigan manbalarni solishtirar ekanmiz, Temur haqida dunyo ommasida noto‘g’ri talqinlarni keltirib chiqargan bir misolga ahamiyat qarataylik, bu Temurning o‘z o‘g‘lini qatl ettirishi voqeasi bo‘lib, bu farazlar ehtimol Mironshoh Mirzoning Amir Temur tomonidan jazolanishi voqeasiga asoslangan bo‘lishi mumkin. Alisher Navoiy ham “Majolis un nafois” asarida Mironshoh Mirzoning chog‘irga berilib ketgani va buning oqibatida nomaqbul amrlar qilgani haqida aytib o‘tadi. Faqat tabiblar qo‘ygan tashxislar hamda, a’yonlarning iltimoslari bilan jazo bekor qilinishi nazarimizda ushbu afsonalardagi otaning o‘g‘lini o‘ldirishi voqealari e’tiborsiz qoldirilib, voqeа turli talqinlarda tarixiy haqiqatdan uzoqlashtirilib G‘arbgacha yetib borgan. Otaning o‘z farzandini o‘ldirishi voqeasi biz qiyosiy o‘rganishni maqsad qilgan Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida ham bor. Asarning yigirma oltinchi dostonida Jahongir va Umarshayx Mirzoning bir qizga ko‘ngil berishi, natijada aka-uka o‘rtasida nizo chiqishi, oxir oqibatda Jahongir Mirzoning qizni o‘ldirib qo‘yishi ortidan otasi tomonidan zindonga tashlanishi, Mirzo esa tog‘asining oldiga Balxga qochgan mahalda o‘z tog‘asining hiylasi orqali nobud bo‘lishi keltiriladi. Ushbu afsonalar ham Temurga nisbat berilgan bo‘lishi mumkin. Ushbu voqeа esa o‘zbek adabiyotida Nurali Qobulning “Sultonning so‘ngi kuni yoxud Amir Shohibqiron va To‘xtamish” tarixiy romanida o‘z aksini topgan. Demak, yuqoridagi barcha tahlillar komparavistikaning ikki tur yondashuvini ya’ni, Sohibqiron shaxsini markaziy tahlilga qo‘yadigan adabiy jarayonlarga qiyosiy tipologik yondashuvni keltirib chiqaradi. Bizning tahlillarimiz esa qiyosiy adabiyotshunoslikning makrokomparativistik (genetik jihatdan bog’lanmagan, turli

millat doirasidagi adabiy hodisalarining qiyosiy tahlili)¹⁰⁷ guruhi doirasida olib borilmoqda.

Olim B.Usmonovning ilmiy qarashlariga asoslanib, Sharq va G‘arb tarixiy manbalarini chuqur o‘rganib, davriy talablardan kelib chiqqan holda, tahlil etgan sovet davri o‘zbek tarixchi olimlarining faoliyatini uch guruh doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq:

- 1) Amir Temur va temuriylar davri tarixi hamda, rus muarrixlarining hayoti va faoliyatiga oid asarlarda ilmiy tadqiqotchilarining qarashlariga munosabat bildirilgan o‘zbek tarixchilari: I.Mo‘minov, B.Axmedov, A.Axmedov va boshqalarning risola va ilmiy maqolalari.
- 2) Temurshunoslik mavzusining ma’lum jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar: M.Jabborov, E.Hojiyev, T.Fayziyev va boshqalar.
- 3) Temurshunoslik ilmining keng doirada tadqiq etgan tadqiqotlar.

A.Muhammadjonov, Sh.O‘ljayevaning “XX asrning 50-60 yillarda Amir Temur va Temuriylar tarixshunosligi” nomli ilmiy tadqiqoti bunga misol bo‘la oladi¹⁰⁸.

Temuriy shahzodalar orasida “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql idroki, ma’naviy jasorati va diniy ilmi va dunyoqarashi, qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etganligi bilan ajralib turadigan buyuk arbob” shubhasiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning mashhurligi Amir Temurning o‘z farzandlari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshox va Shohrux Mirzolardan-da mashhur. Sohibqiron sultanati davomchisi sifatida u bobosiga izdosh, ajdodlaridan-da fidoyi. U Temur sultanatining o‘z yurtidan quvg‘in, Hind diyorida qo‘nim topa olgan Tangri yorlaqagan podshosi. U jaholat olamidagi jamiyat aqidalarini musulmon birodarlikka, insoniylikka bo‘ysundirganadolatpesha shahanshoh bo‘la olgan zot. Uning tavsifu-ta’riflari bisyor bo‘lganidek, uni o‘z asarlarida bosh qahramon sifatida olgan adiblar nazdida uning jozibasi ham insoniyligida.

¹⁰⁷ Xalliyeva G.Qiyosiy adabiyotshunoslilik. – T.: Akademnashr, 2020. – B.9.

¹⁰⁸ Usmonov B.A. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi. (XVIII – XX asrlar). Tarix fan. nomzod.diss. Farg‘ona. 2003. – B.9.

Z.M.Bobur haqida Amir Temurdan so‘ng eng ho‘p va ko‘p asarlar bitildi, tadqiqotlar olib borildi. Z.M.Bobur haqida yozilgan birgina “Yulduzli tunlar” asariga bag‘ishlab I.Sulton, G‘.Karimov, M.Qo‘shjonov, O.Yoqubov, G‘aybulla as-Salom, S.Mirvaliyev, A.Kattabekov, U.Normatov, I.G‘afurov kabi zabardast olimlar, adabiyotshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishdi, munosabat bildirishdi¹⁰⁹. Bu asar yaratilishiga qadar ham Z.M.Bobur hayoti va harbiy faoliyati haqida yuzlab manbalar yaratilgani ma’lum. Xususan, “Boburnoma”, “Shayboniynoma”, “Muzakkiri ahbob”, “Habib us siyar”, “Tavorixi Guzida Nusratnama”, “Humoyunnomma”, “Abdullanoma-Sharafnomayi shohiy”, “Samariya” va boshqa ko‘plab ilmiy va badiiy manbalar yaratilgan. Shuningdek, Z.M.Bobur xususida N.G.Chernishevskiy, B.G.Belinskiy, N.Rimar, S.Petrov, A.Fitrat, Oybek, H.Yoqubov, I.Sulton, M.Qo‘shjonov, N.Xudoyberganov, O.Sharafiddinov, B.Nazarov, H.Umurov kabi ko‘plam adabiyotshunos olimlar, tarixshunoslar ilmiy izlanishlar olib borishdi¹¹⁰.

Temuriy shahzodalarga bag‘ishlab bitilgan tarixiy va badiiy asarlarda tarixiylik va badiiylik masalasiga to‘xtalar ekanmiz, temuriyzodalardan Z.M.Bobur barpo etgan sultanat, yurishlar va quvg‘inlik davri tarixiy haqiqat bo‘lgani kabi u yashagan muhitning bunga sababkorligi, o‘scha davr muhitini so‘zlar vositasida anglatmoq adabiyotning badiiy vazifasidir. M.Gorkiy ta’biri bilan aytganda “Muhit bu inson, muhit bu bir- biriga ta’sir etuvchi psixik birliklarning muayyan miqdori” ekan, badiiy asarda tarixiy muhit inson bilan bog‘liqlikda ochib beriladi. Z.M.Bobur va uning avlodlari haqidagi romanlari bilan elga taniqli Pirimkul Qodirov ham o‘z asarida Bobur yashagan davr muhitini ishonarli, kitobxon tasavvurlariga singib ketadigan tarzga keltirguniga qadar ham, o‘zi bitganidek, “talabalik yillaridan beri Boburnomani qo‘ldan bermay o‘qidi, Boburning qadamjolarini borib ko‘rishga intildi. Hindiston, Pokiston bo‘ylab sayr qildi, hammasidan chiqargan xulosa shu bo‘ldiki, hali hanuz Boburni bizga jozibali qilib

¹⁰⁹ Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss. – Toshkent.: 1999. – 127 b.

¹¹⁰ Yaxshiyeva Zebo Rashidovna. Jahon adabiyotshunoslida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tadqiqi.

Нововведения современного научного развития в эпоху глобализации: Проблемы и решения. Volume1. Issue 3. www.uzresearchers.com. 18-25.

ko‘rsatayotgan tomoni uning oljanob insoniy fazilatlari va noyob iste’dodidir”¹¹¹. Muallif romanida tarixiy sharoitning real tasviri asosiy o‘rinlarni egallagan bo‘lsa, ushbu tarixiy voqealarning Boburning xarakteri, qarashlari, hayot yo‘liga ta’siri asarda badiiyatni belgilovchi mezon sifatida baholanadi. Aynan tarixiy sharoitni badiiy talqinga hamohang va o‘zaro uyg‘unlikda ochib bera olingani asarning eng katta yutug‘i sifatida baholangan. Demak, tarixiy muhit ta’siri ostida asardagi obrazlar ruhiyati, ularning o‘y xayollari, oilaga munosabatlari, bizga ma’lum tarixiy faktlarni asarda badiiy jonlantirgan holda, o‘sha zamon ruhi asliyatini badiiy inkishof etishda yozuvchi mahoratini ishga soladi. Ushbu Temuriy sulola vakili haqida bitilgan deyarli barcha badiiy asarlarda Bobur o‘zi yashagan davr taqozosiga ko‘ra, o‘z istagiga zid harakat qilishga, vatanini tashlab qochishga, ota bobolaridan unga meros qolgan podshohlik, oila a’zolari taqdiriga mas’uliyati o‘laroq harakat qilishga majbur ekanligi, bu muhitdagi uning botiniy iztiroblari, rang-barang va murakkab ichki dunyosi, iqror va taskinlari, tasalli va afsus nadomatlari tarixiylik faktlarini inkor etmagan holda uning insoniylik tuyg‘ulari bilan hamohang tarzda ifodalangan. P.Qodirov ham yozuvchi sifatida Boburdek buyuk siymo xarakteri va ichki tug‘yonlarini, qalbidagi savol-javoblarni o‘sha tarixiy davr ruhidan, muhit taqozosidan kelib chiqib, badiiy inkishof etadi. Adabiyotshunos H.Umurov ta’kidicha, “adabiyotda tarixiy sharoit ijtimoiy munosabatlar tasviriga bog‘liqligi bilan xarakterni aks ettiruvchi obraz, sharoitni ham yaqqol gavdalantiradi. Xarakter va sharoit vaqtning dialektik aloqasida rivojlanadi. Mana shu dialektikaga izchil amal qilgandagina xarakterni yorqin, tipik xususiyatlarini ham davrning mohiyatini ham haqqoniy ifodalay oladilar. Badiiy asarning g‘oyaviy va badiiy sifati ham asardagi harakter bilan sharoitning bog‘lanish darajasiga va poetik tahlilning chuqurligiga bog‘liqdir”¹¹². Temuriylarning bu zabardast vakilining badiiy siy whole into the ground. The author of the book, H. Umurov, has also mentioned this in his article. He has described the character of the book as follows: “In the book, the author has tried to show the relationship between the historical events and the people of the time, the way they lived and their way of thinking. The book is written in a simple language, using everyday language and colloquial expressions. The author has tried to make the book accessible to a wide audience, including children and teenagers. The book is a good example of how history can be presented in a simple and interesting way, without losing its historical accuracy. The book is a valuable addition to the literature on the history of Uzbekistan and the life of its people.”

¹¹¹ Qodirov P. Til, tarix, muhabbat//Yoshlik, 1989. №5. – B.2.

¹¹² Umurov H.Tahlil san’ati. – T., Adabiyot va san’at. 1978. – B.144.

Mirzoning o'limi tufayli shohlikni qabul qilgan Z.M.Boburning bu tarixiy sharoitdagi holati badiiy asarda bolalik davrini undan yulib oladi, og'ir sharoitlarda uni toblaydi. Mana shu o'rinda muallif bosh qahramon qalbidagi alam va qayg'ularni ruhshunos olimdek badiiy chizgilarda ifodalashi, tarixiy sharoitdan, davrning achchiq haqiqatidan kelib chiqib, qahramonning yoshlik yillaridagi og'riqli tashvishlariyu, fikrlarini, to'la ziddiyatli hayot yo'llarini yorita olganki, asar bir so'z bilan aytganda "o'qimishli" chiqqan. Roman sahifalarini o'qigan kitobxon muallifning o'zi ham o'z qahramoniga achinish hissi bilan yondashganini sezib turadi: "Boburning o'n ikki yoshida taxtga o'tirishi bir tomondan unga taqdir siylovi bo'lsa, ikkinchi tomondan fojiasi edi. O'n ikki yoshli shahzoda hali taxtga tayyor emas, uzlusiz davom etayotgan urushlar mamlakatni boshqarishni yanada qiyinlashtirgandi. Shunday og'ir sharoitda Boburning atrofidagi beklar birlashish, tinchlikni saqlash o'rniga, tinimsiz kurash yo'liga o'tdilar"¹¹³.

G'arbda Temuriylar davri, buyuk Sohibqiron shaxsiyati va fazilatlari, uning sultanati ahli va mansabdorlari, me'moriy va amaliy san'ati yodgorliklari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi Venger olimi, Sharq adabiyoti va tillari universiteti professori Arminiy Herman (German) Vamberi o'z ilmiy izlanishlarini "Buxoro tarixi" asariga tayanib olib borganligi seziladi. Yevropa tarixchilar orasida aynan Herman Vamberidan boshqa ko'pgina tarixchilar Chingizzonning vaxshiyliklari va bosqinlari, talon-tarajliklari va ularning g'anim haramiga munosabatini Amir Temur bilan o'xshashlikda deb ko'rsatishgan. Lekin H.Vamberigina shu kabi noto'g'ri farazlarni inkor etib, "U eng avvalo, Osiyo sarkardasi bo'lib, uning o'z shuhrat qurolini an'anasiga ko'ra qo'llagan; daxshatomuz, vahshiy harakatlari, aybli ishlari uchun ayblangan barcha dushmanlariga nisbatan u jazo o'rnida, goho qat'iy bo'lishiga qaramay, hamisha adolatli bo'lgan, deya ta'kidlagan. Muallif Yevropalik tarixchilar orasida har tomonlama Amir Temur shaxsiyatini o'rgangan holda, uning barcha qo'lga kiritgan boyliklarini yurti markaziga, o'z yurtini ilm fan, san'at markaziga aylantirish uchun sarflaganini, uning O'rta Osiyo xalqi

¹¹³ Qodirov P.Yulduzli tunlar. Bobur. – T.: "O'zbekiston", 1990. – 443 b.

orasidagi xizmatlarini va yurti tarixida tutgan mavqeini yuqori baholab, yangi yuksak madaniyat (Renessans) davri ochilishida hissasi ulkan ekanligini ulug‘laydi. Shuningdek, Temur o‘z ahli saroyi ilm ahllarining rahnamosi ekanligini shoirlardan Ahmad Hirmaniy bilan bo‘lgan samimiy suhbatni misolida ko‘rsatishga intiladi. Ushbu tarixiy asarda Sohibqironning saroy ahli, oilasi, mansabdor zodagonlar, din egalariga munosabati baholanib, bularning barchasi uning tarixiy xizmatlari sifatida uning Osiyo va Yevropada katta shuhrat topishiga sabab edi deya e’tirof etiladi¹¹⁴.

Dunyo adabiyotshunoslari orasida esa mashhur nemis shoiri Ioxann Wolfgang Gyotening “Mag‘rib Mashriq devoni” (G‘arbu Sharq devoni)da yaratilgan “Temurnoma” qismi Ibn Arabshoh tomonidan bitilgan Amir Temur vafoti xronikasining so‘zma so‘z tarjima shakli hisoblanadi. Demak, shoir arab tarixshunosi asaridan yaxshigina xabardor bo‘lib, unga qo‘srimcha ravishda Gyote Amir Temur va Napoleonning jahon yurtlariga keltirgan talafotlarini taqqoslaydi. Unda qish chillasi ilohiy kuchga ega ekanligi ramziy ma’no kasb etib, u Napoleonning fojiali jangi bilan idrok etiladi. Asarning ikkinchi qismida Sharq sarkardasining mahbuba Zulayhoga mashaqqatlar bilan qo‘lga kiritgan atir gullarini baxshida etmoqqa shaylanishi ko‘rsatiladi. Ushbu asarni o’rganishning ilmiy xulosasida san’atshunos Ravshanoy Tursunova Gyoteshunos Annemari Shimmel xulosalariga tayangan holda “ma’lum mukammallikni yaratish uchun behisob mavjudotlarni nobud etish lozim, qahramonlar taqdiri va hayoti Alloh tomonidan belgilab berilgan”¹¹⁵ ekanligi haqidagi xulosalarini bayon etadi. Gyotening “Temurnoma”si Yevropaning buyuk yana ikki adibi Jan Rasin va Volter asarlariga ham kiritilgan.

Yevropa sahnalarida Amir Temur siymosiga bag‘ishlangan sahna asalarining yaratilishi “Ingliz tragediyasining otasi” Kristofer Marloning “Buyuk Temur” (The great Tamburlaine) tragediyasi bilan boshlanganligi aytib o‘tilsa, fransiya

¹¹⁴ Тамерлан. Эпоха. Личност. Деяния. – М.: “Гураш”, 1992. – С.397.

¹¹⁵ Tursunova. R.A. G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obraz. San’at.fal.falsafa.dok. diss. – Toshkent., 2020. – B. 24.

dramaturglari Kornel, Molyer va boshqalar orasida Jan Batist Rasin Temur bilan bog‘liq sahna asarlarini yaratishda peshqadam sanaladi. Uning 1672-yilda yaratilgan “Bajaset”(Boyazid) sahna asari fransuz klassik fofia janrini rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Aynan mana shu asari muvaffaqiyatidan u Fransuz akademiyasiga a’zolikka qabul qilingan bo‘lib, uning dramasi Sharq ellari hayot tadrjini tomoshabin tasavvurlarida ishonarli va haqqoniy chiqishini ta’minalash uchun aktyorlarning asliy turk liboslarida chiqishini talab etadi. Chunki unga qadar Yevropa rassomlari Amir Temur shaxsini g‘arbona liboslarda tasvirlar, Amir Temur ko‘rinishini o‘z milliy qiyofalarida gavdalantirar, she’rlar, badiiy asarlarda ham Yevropa aholisi tafakkurida o‘z zamonasi qiollariga xos sarkardalik kayfiyati ufurib turuvchi ko‘rinishlarda berilar edi¹¹⁶.

Ingliz adabiyotida badiiy asarlar tadrijini boshlab berguvchi Kristofer Marloning “Buyuk Temur” sahna asari ingliz adabiyotida Amir Temurni tarixiy shaxs ekanligidan ko‘ra badiiy obraz sifatida kirganligi bilan ahamiyatlidir. K.Marlo o‘z yurti Angliyaning mutloq monarxiya davridagi ba’zi bir tabaqa vakillarining kirdikorlarini oshkor qilish uchun majoziy nomlardan foydalanishga majbur edi. Shu bois ham, Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasida tarixiylik omilidan ko‘ra rivoyat va afsonalarga asoslangan badiiylik tamoyili atroflicha ko‘zga tashlanadi. Dramada Damashqda yosh qizlarning o‘ldirilishi, Boyazidning qafasga solinish epizodlari aslida muallif qarashlarining mahsuli bo‘lgan afsonalardir.

Amir Temur haqida yozilgan ko‘plab badiiy asarlarni sinchiklab o‘rganish asnosida bir biriga o‘shash bo‘lgan ma’lumotlar ba’zan Kristofer Marloning sahna asarida tubdan zid ma’no kasb etganining sababini oydinlashtirish ushbu shaxsga g‘anim va do‘s’t elatlar tilidan aytilganini aniqlashga ko‘maklashadi. Masalan. K Marloning “Buyuk Temur” dramasining beshinchi pardasi birinchi ko‘rinishida Damashqda yosh norasida qizlarning Temur huzuriga elchi sifatida jo‘natilishi va o‘limga ro‘baro qilinishi sahnasi, Pedro Meksiya asarida Damashqda bolalar va

¹¹⁶ Shomiy N. Zafarnoma. – T., 1997. – B. 86.

ayollarining qo'llarida zaytun novdalari bilan shahardan chiqib, Temurning ko'nglida rahm shafqat uyg'otishi epizodi, Ibn Arabshoh va Shiltbergerning esa Isfaxonda yosh go'daklarning elchi bo'lib kelishi voqealari Shomiyda quyidagicha tasvirlangan: "U norasida olti yoshda bo'lib, g'oyat xushro'y va shirinso'z edi... Amir Sohibqiron unga rahm qilib, sarpo kiygizdi, bo'yniga oltin hamoyil solib otasi oldiga yubordi."¹¹⁷

Sahna asarlari qahramonlarini ssenariy mualliflari o'z asarlarini to'ldirish maqsadida musavvirlar ham obrazlar tashqi ko'rinishlari ustida tasavvur uyg'otishi lozim edi. Yevropaning buyuk musavvirlaridan biri Rembrandt Harmens Van Reyn ham o'z rassomchilik faoliyatida ko'p bora Amir Temur shaxsiyatiga murojaat qilib, u Hindiston nomli miniatyurasida Amir Temurni o'z sulolasini vakillari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Bobur Mirzo, Humoyun va Akbarlar qurshovida aks ettirgani ham, buyuk musavvirning Temuriylar sulola vakillaridan xabardor ekanligini dalillaydi.

O'rta asrlar Yevropaliklar ijtimoiy hayotidagi keskin o'zgarishlar yuz berishiga katta ehtiyoj tug'ilgan davrlarni boshlab berdi. Ungacha ingliz gumanizmi o'z o'rnida renessans davri mafkuraviy qarashlarini o'zlashtirdi, cherkovning g'oyaviy zo'ravonligiga qarshi kurashish yo'llarini o'rgandi. Shu sababdan, yozma adabiyotda ma'naviy va jismoniy komil inson ideali, tashqi olam go'zalligining va inson kechinmalari dunyosining san'atkorlar tomonidan talqin etilishi, antik dunyo madaniyati turli qirralarining chuqur o'zlashtirilganidan darak beradi. Angliya adabiyoti badiiy tafakkuridagi o'zgarishlar ham mazkur voqeliklarga ta'sir etuvchi asosiy mezonlarda¹¹⁸ sinalgan Kristofer Marlo hamda, Charlz Sanderz tamoyillarini davom ettirdi.

1701-yilda Nikolas Rou (Nicholas Rowe) ham Amir Temurga bag'ishlangan "Tamerlan" dramasi bilan adabiyot maydoniga kirib keldi. Ushbu drama boshqalari singari Nikolas Rou uchun katta shuhrat va obro' keltirdi. Birinchi bor ushbu asar Inn Fild teatrida sahnalashtirilib, nashrga tayyorlandi va chop etildi.

¹¹⁸ Shomiy. N. Zafarnoma. – T., 1997. – B.100

Asarning mashhurlik darajasidan uni nashr etish huquqini Londonning eng yirik noshiri Jakob Tonson sotib oldi va bir asr davomida uni to‘xtovsiz ravishda chop etdi. Ushbu asarning shuhrati shu darajada oshib ketadiki, yetmish yil ichida ushbu drama sahnalarda 325 marta qo‘yilib, teatrning asosiy repertuarlaridan biriga aylanib ulguradi. XVIII asr davomida ushbu sahna asari birligina Londonda 348 marotaba namoyish etildi. Muallif zamondoshlarining guvohlik berishicha, N. Rouning ushbu dramasi o‘zining eng sevimli asari bo‘lib qolgan¹¹⁹.

Asrlar davomida ingliz adabiyotida Amir Temurning hayot yo‘li va shaxsi prototip qilib olingen asarlar bosh qahramoni Tamerlan, Temburleyn, Taymur obrazi ko‘proq ijobjiy xarakter kasb etib bordi. Buni esa Yevropaliklarning ushbu sarkardaga nisbatan munosabati va fikri endilikda afsona-yu rivoyatlarga, Greklar va Turklarning davrdan davrga oshgan tasavvur va mish-mishlariga emas, balki tarixiy solnomalarga, asl manbalarga tayanilganini sezish mumkin. Shu bois, N.Rou Osiyolik hukmdorni o‘z asarida Kristofer Marlo dramasidagi jangchi va salbiy xarakterdagi obrazdan tubdan zid xislatlarga ega tarzida talqin etadi. Bunday hislatlarga ega asar bosh qahramonini yaratishda muallif Amir Temurning “Temur tuzuklarida” keltirilgan “Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim, har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”¹²⁰ degan hikmatomuz so‘zlaridan xabardor ko‘rinadi. Shuningdek, ushbu asar bo‘yicha o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borgan adabiyotshunos O. Dadaboyev ta’kidlashicha: “Pyesaning mavzusi, syujeti, Temurning ojiz va mazlum xalqlarning oliyhimmat, mard himoyachisi obrazida namoyon bo‘lishi, oliy nasabli personajlar va ekzotik bo‘yoqdorlik kabi omillar tomoshabinni o‘ziga rom etadi”¹²¹.

Yozuvchi o‘z davri qirollarida ko‘rishni orzulagan kechirimlilik, oljanoblik va tantilik hislatlarini o‘z obrazida ko‘rar ekan, u dramasi qahramoni asfonaviy

¹¹⁹ Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. – Dublin., 1750. – P.5.

¹²⁰ Temur Tuzuklari. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. – B.24.

¹²¹ Dadaboyev O. G‘arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss. – T., 2019. – B.69.

to‘qima shaxs siy়mosi emas, Osiyo qit’asida yashab o‘tgan ulug‘ sarkarda Amir Temur ekanligiga o‘z zamondoshlarini ishontiradi. Kristofer Marlo asarida Boyazidning asir tushish tafsilotlari greklar va turklarning o‘z g‘animiga bo‘lgan nafrat va qo‘rquvga to‘la bo‘lgan uydirma afsonalari bilan sifatlangan bo‘lsa, bu voqealar tafsiloti oradan bir asr o‘tib, Charlz Sanderz asarida Boyazidning Yevropaga kutilajak janglaridan xaloskor Temur obraziga almashdi. Bu jangda va Turkiya sultonining asir tushish sahnalarida Temurlan Boyaziddan anchayin tanti va oljanob siymo sifatida talqin etiladi; u garchi dushmanini asir olgan bo‘lsa-da, unga nafaqat hayotini, balki haramini ham qaytarib berishga buyruq beradi.

XVII-XVIII asr mualliflarining Amir Temur obrazini badiiy talqin qilishda, bosh qahramonni afsonaviy ruhda tasvirlashda muayyan poetik maqsad ko‘zda tutilganligi temurshunos olim O. Dadaboyev qarashlarida yanada oydinlashadi: “Ular dramatik turga nasriy asarlarning roman, qissa va boshqa janrlarning qonuniyatlarini mahorat bilan singdirishga harakat qilishgan¹²².

Bu davrda Yevropa adabiyoti eydetik poetika bosqichining so‘ngi davrini boshdan kechirayotgan edi. Eydetik poetikada tamomila yangi poetik tamoyillar emas, balki an’anaviy “qurilmalar” muhimdir¹²³. Shu ma’noda, Amir Temur obrazining afsonaviy- epik ruhda tasvirlanishi, ayni “zohiriyy obraz”ga yuklatilgan shu qonuniyat bilan belgilanadi. Asar ikki xarakterli, ikki qutbli obrazlarning dunyoqarashini ochib berishda ularning suhbatlari g‘oyaviy kurash maydoniga aylanib boradi. Dimog‘i osmon, o‘zidan o‘zgasini inson hisoblamaydigan, shuhratparast Boyazidni oliyhimmat, bag‘rikeng, insonparvar hukmdor Tamerlanga qarshi qo‘yiladi. Bu orqali Nikolas Rou ustoz yozuvchilaridek, bosh qahramonga singdirilgan o‘z insonparvarlik g‘oyalari oxir-oqibat g‘alaba qozonishiga ishonadi. Asar xulosasida:

“Great minds, like Heaven are pleased in doing well” ya’ni “Buyuk zikrlar, Jannatiy amallardek ko‘ngilni to‘ldirur” (tarjima bizniki, Z.Y) qabilida

¹²² Dadaboyev O. G‘arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss. – T., 2019. – B.73.

¹²³ Тамарченко Н. Тюпа В. Теория литературы в двух томах. Том 2. – Москва., 2002. – С.118.

nihoyalanadi. Muallif asarda o‘tmish qahramonlarining shon-sharafi haqida hikoya qilar ekan, o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritib berishni maqsad qiladi. Bu orqali teatrning kibor va oddiy tomoshabinlari saxovatli Temur obrazi timsolida o‘zlarining sevimli qirollarini, tuban Boyazid misolida o‘z g‘animlari bo‘lmish Fransiya qirolini ko‘rishardi¹²⁴.

Asarda Tamerlan va Boyazid janglari natijalariga asoslangan sahnalarda Temur o‘zining oddiy inson ekanligini, qirol sifatida esa jangchilarining g‘alabalaridan sarmast bo‘lib, shon-shuhratga burkanishni, Boyazid ustidan qozonilgan g‘alabalarda esa faqatgina o‘zini sharaflashlarini istamaydi:

It is too much you dress me,
As an usurper, in the borrowed attributes
Of injured heaven,
Can we call conquest ours?
Shall maan this pigmy, with giant’s pride
Vaunt of himself and say thus have I done this,
Oh, vain pretense to greatness¹²⁵ (Act II, Sc.I)
Ma’nosi: Meni haddan ortiq, demang hukmron,
Vayronkor gulshanlar sababchisi ham,
Shunday tamg‘alarga dohiy bo‘lurmu,
Dashnomlarga loyiq! Menmi amaldor,
Behuda, besamar maqtovlar talay! (tarjima bizniki, Z.Y)

“Tamerlan” dramasida asosiy bosh qahramonlar Temur va Boyazid garchi tarixiy shaxslar bo‘lsa-da, qolgan ishtirokchilar to‘qima obrazlardir. Shu bilan birgalikda, asarda keltirilgan voqealarning barchasi tarixda ro‘y bergen voqealarga asoslanmagan. Bu to‘qima sarguzashtlarda avvalgi ikki asarda kuzatilganidek, xalq og‘zaki afsonalarining ta’sir kuchi seziladi.

¹²⁴ Nicholas Rowe. Tamerlane. Dublin Introductory remarks by Mrs. – Inchbald. William Savage print. 1750. – P.10.

¹²⁵ O’sha manba. – B. 10.

Muallifning o‘zi asar muqaddimasida shunday yozadi: “Shunisi haqiqatki, bu buyuk Inson (Amir Temur) hayotida Oliy Hazratlari kabi (Uilyam III) ko‘plab sifatlar mavjud: jasurligi, xudojo‘yligi, o‘zini qo‘lga ola bilishi, odilligi, o‘z xalqini otalarcha sevishi, razolat va jaholatga qarshiligi, oddiy xalqqa g‘amxo‘rligi unga o‘xshab ketadi”¹²⁶.

Demak, XVIII asrda yashagan ingliz adabiyoti vakillarining insoniyat tamadduni haqidagi tushunchalari cheksiz va sinalmagan imkoniyat va kuch qudrati ila tengsiz bo‘lgan alohida shaxs bilan bog‘liq edi. Nikolas Rouning yuqorida nomi keltirilgan asariga qiyoslashda zamonaviy o‘zbek adabiyotiga mansub bo‘lgan Nurali Qobulning “Temuriylar” nomli epopeyasi tarkibidagi “Jon va Shon Talvasasi” romanida asosiy qahramonlarning taqdiri va hayotiy kurashlari qalamga olinadi. Ushbu ikki asarda garchi personajlarning nomi bir-biridan farqlansa-da, asar voqealari Amir Temur hayotidagi aynan bir xil davrni qamrab oladi. Romanda 1402-yil Turon xoqoni sohibqiron Amir Temur va turk sultonii Yildirim Boyazidning Anqara to‘qnashuvidan so‘ngi olamshumul voqealar tilga olinadi. Bu to‘qnashuvning Yevropa, arabu ajam, slavyan kabi ko‘plab xalqlar tarixiga ta’siri, o‘sha davr kishilari taqdirini makon va zamon tarozisida ko‘rsatib beradi. Asarda insonning hayoti, ongi va ruhiy holatlari tasvirlanadi.

Asar markazida ikki personaj – Jon va Shon turadi. Ular orasidagi o‘zaro munosabatlar, konflikt va mashaqqatli sinovlar romanning asosiy mavzusini tashkil etadi. Jon – o‘z orzu-istiklari uchun kurashayotgan, irodali va qat’iyatli inson. Shon esa–murakkab ichki dunyoga ega bo‘lgan, hayotning turli qiyinchiliklari va sinovlari bilan yuzlashayotgan qahramon. Roman davomida bu ikki qahramon turli sinovlardan o‘tadi, hayotning og‘ir damlarida o‘z orzu va maqsadlariga erishishga intiladi. Ularning har biri o‘z ichki dunyosi talvasasiga tushib, turli hayotiy muammolar bilan yuzma-yuz keladi.

XX asrda esa albatta tarix va manbashunoslik, adabiyot va dramaturgiya sohasida qimmatli ma’lumotlari bilan tanilgan olima Hilda Hukhem ijodi katta bir

¹²⁶ Rowe N. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. – Inchbald. William Savage print. Dublin, 1750. – P.2.

ilmiy izlanishga mavzu bo'la oladi Barcha temuriyshunos va sharqshunoslari orasida "Yetti iqlim sultoni"¹²⁷ tarixiy hujjatli qissasining muallifi sanaladi. Shuningdek, Britaniya ensiklopediyasining Amir Temurga bag'ishlangan barcha qismlari shu muallifga tegishli. U o'ziga qadar dunyo ilm ahli tomonidan Amir Temur shaxsiga nisbatan streetip qarashlardan chekinib, dunyo ahlini uning hayotiy maqsadlarini tushunishga chorlaydi, uni buyuk insoniy shaxs edi deb hisoblaydi. Olimaning ushbu asarida Osiyo jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan ijodkorlar, olimu-fuzalolar, faylasuf va hunarmandlar makoni edi deya e'tirof etiladi.

XX asrda shuningdek, Amir Temur haqidagi Yevropa sharqshunoslarining jamlanma asarlari ro'yxati 1913-yilda nemis olimi Maks Degenxard tomonidan bibliografiya shaklida nashr etildi. "Amir Temur g'arbiy Yevropa adabiyotida" nomli ushbu tadqiqotda ilk bor ilmiy nuqtai nazardan Amir Temurga bag'ishlangan asarlar, shuningdek, ilk bor nashr etilgan manbalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'z asarida ilmiy tadqiqotchi sharq mavzularini Amir Temur va Boyazid timsolida Yevropa sahnalariga kirib kelishini ilmiy asoslab bergen. Chunki Yevropa sahna asarlari orasida mashhurlari shubhasiz, Amir Temurga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari bo'lib, K.Marlo, Charlz Sanderz, Nikolas Roularning "Buyuk Temur" dramatik asarlari asrlar davomida qayta-qayta namoyishtalabligi bilan qolgan barcha sahna asarlaridan ilgarilab ketgan edi. Bunga sabab, tomoshabinlar bu bosh qahramon sharqlik Temur obrazi timsolida o'z orzu umidlari, zamona qirollarida kamyob botirlik vaadolatni izlashsa, yurtning kiborlari esa bu sahna asarlarida o'z nuqsonlarini ko'ra olardi.

XX asrda Amir Temur haqida shu davrga qadar yozilgan asarlar mualliflaridan biri Ottokar Intzenning ilmiy tadqiqoti "Amir Temur va Boyazid g'arb adabiyotida" deb nomlangan edi. Ushbu tadqiqoti Amir Temur haqidagi tarixiy manbalar, shuningdek, Eduard Bin hamda, Maks Degenxardlarning undan avvalgi faoliyatiga tayanilgan. Bu ilmiy tadqiqotda she'riy matnlari, sahna lavhalari

¹²⁷ Hukhem X. Yetti iqlim sultoni. Xujjatli tarixiy qissa. Rus tilidan tarjima. – T.: "Adolat", 1999. – B. 320.

va mualliflarning ushbu manbalarga ilmiy sharhlari Yevropaning olim va ijodkorlari uchun mazkur obrazni yanada teranroq anglab yetishiga muhim manba bo‘ldi.

Amir Temurning olamshumul shaxsi va hayot yo‘lini o‘rganish dunyo sharqshunoslarini, tarixchi va olimlarini qiziqtirgan mavzulardan biri bo‘lib, ular faoliyati esa maxsus temurshunos va sharqshunoslarni shakllanishiga turtki bo‘lgan. Fransuz san’at tarixchi olimi Rene Grusse, Lyusen Keren fransuz olimlari orasida Osiyoning bu buyuk fotixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarga salmoqli hissa qo‘shib kelishgan. Lyusen Kerenning “Temur yoxud Sohibqiron sultanati”, Rene Grussenning “Atilla, Chingizzon, Temur (1938)” asarlari yozilishiga ko‘ra Yevropa, xitoy, fors va boshqa manbalarga tayanilgan. L.Keren Amir Temurni mansabdorlarni tayinlashda ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, qobiliyatiga ahamiyat qaratganini, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan sarkardasi sifatida, uning harbiy tashkilotchiligi, davlatida boshchilik qilishida uning insoniylik omili bosh o‘rinda bo‘lganligi alohida ta’kidlanadi. Ayniqsa, uning murakkab shaxs sifatida o‘rganishda tarozining ikki pallasiga masalaning turfa talqinlarini qo‘yadi: “Bir tomonda qattiqqo‘l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qo’llab, himoyasiga oladigan Temur turardi; bir tomonda katta-katta shaharlarni zabit qiluvchi Temur tursa, ikkinchi tomonda obida, madrasa va anhorlar quruvchi va bog‘lar barpo etuvchi Temur turardi”¹²⁸. Yana bir taniqli fransuz olimi Jan Pol Ro o‘zining “Temur” asarida u haqida bitilgan yuzdan ortiq asarlar ro‘yhatini keltiradi. Shuningdek, ingliz olimasi, tarixchi va jurnalist Jastin Marozzi qalamiga mansub “Temurlan, Islom qilichi, dunyo fotixi” asarining badiiy qiymati yuqori baholanib, u yilning eng yaxshi kitoblari ro‘yhatiga kiritilgan.

II.2 Amir Temur va temuriylar obrazi asosida yaratilgan romanlar konsepsiysi, arxitektonikasi: retrospektiv syujet

Davrlar o‘tishi bilan badiiy adabiyotning ham o‘ziga xos tadrijiy taraqqiyoti hamda rivojlanish qonuniyatlari yuzaga chiqadi. Jahon adabiyotidagi Sohibqiron

¹²⁸ Keren L. Temur yoxud Sohibqiron sultanati. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 1999. – B.224

Amir Temur obrazi badiiy talqin qilingan, turli janrlarda bitilgan asarlar ham turli davrlarda turlicha inkishof etildi. Badiiylik konsepsiyasining ifoda shakllarida shakl va mazmunning dialektik birligi bilan bir qatorda, uning arxitektonikasida o‘zgarishlar ham badiiy mukammallik sari intilishlar samarasi ekanligini qayd etish lozim. Shu jihatdan qaralganda, inson obrazini, ya’ni tarixiy shaxsning turli xususiyatlarini badiiy ifoda etish jarayonida, tarix haqiqatiga turli aspektda yondashish an’anasini kuzatamiz.

Tarixiy romanlarda davr va inson taqdiri, yutuqlari yoki fojiasi badiiy syujetda qayta mujassamlashgan bo‘lib, aynan mana shu birlik Amir Temur kabi tarixiy siymoni badiiylikka ko‘chirilishi uchun bosh mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, har bir davrning yetakchi qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxs, o‘z navbatida, oila, jamiyat, muhit va ijtimoiy voqelik ta’sirida shakllanadi, harakat qiladi. Davrining yetuk shaxslari har bir voqe-a-hodisa, muhit va sharoitga bevosita ta’sirini o‘tkazadi. Yozuvchi hayotiy voqealarini tasvirlar ekan, badiiy xarakterlarni yaratib, shu orqali mahoratini namoyon qiladi. Chunki, ana shu hayot tasvirlari natijasida odamlarning yashash tarzi, xulqi, psixologiyasi, o‘y-mushohadalari, orzu-intilishlari ko‘rsatib beriladi. Bu esa badiiy asar syujetidan o‘rin olgan barcha voqealar silsilasida harakat qiluvchi xarakterlarni yuzaga chiqaradi.

Amir Temur haqida bitilgan “Ulug‘ saltanat”, N.Qobulning “Temuriylar” epopiyasida yozuvchini birgina Temurbek taqdiri o‘ylantirmaydi, uning buyukligi sarkarda, fotih vaadolatpesha inson ekanligida emas, uning qudrati u tashkil eta olgan salobatli, o‘lmas tarixiy merosida aks etganligi asar yozishning bosh maqsadiga aylanadi. Tarixiy janrning bosh talablaridan biri, ijodkor mutolaa egalarining ko‘zi o‘ngida nazarga tutilayotgan davr ruhiyatini tiriltira olishi, kitobxonni o‘sha zamon ruhiyatiga yetaklay olishi, o‘sha makonda uni yashata olishi kerak. Bu uchun esa, u e’tiborni tarixiy shaxslarning asardagi taqdiriga e’tibor qaratadimi, davrning suronli, shonli kurashlari manzarasini asarda xronotoplар silsilasida chizadimi yoki e’tiborni ko‘proq to‘qima obrazlar, qahramonlar lahjasiga, shevasiga, adabiy tiliga qaratadimi, bu harakatlar yuqoridagi asosiy maqsadga yo‘naltirilishi lozim.

Bu makon va zamonga aloqador ma’naviy muammolarga ham yechim berishi yoxud munosabat bildirilishi kerakki, ana shundagina tarixiy asar xalq ma’naviyati xazinasidan joy oladi”¹²⁹.

Haqiqatan ham, O.Yoqubov kabi temuriy shaxzodalar haqida qalab tebratgan yozuvchilar tarixda yashab o’tgan buyuk shaxslar siymosini badiiy talqin etar ekan, davr shart sharoiti, muhiti murakkab va ziddiyatli qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib berdi. Saltanat uchun kurashlarining avj pallaga kirishi oqibatida Ulug‘bek Mirzoning izardobi hayoti o’ta ziddiyatli va murakkab tarixiy davr fonida o’z aksini topdi. Tarixiy voqelik asarning badiiy mukammalligini ta’minalashi natijasida xarakterlarning voqealar rivojidagi shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada, romanda xarakterga hamohang bo’lgan voqelik asos qilib olinganligi uchun ham qahramon ruhiy-ma’naviy dunyoqarashini yoritishga xizmat qilgan aynan shu voqelik syujet badiiy mukammalligini ta’milagan. Chunki, akademik M. Qo’shjonov ta’kidlaganidek: “Hayotiy voqealar va xarakterlar birikmasidan badiiy syujet chiqishi uchun o’zaro uzviy bog‘liq va tugal bir asos bo‘lishi lozim. Yozuvchi tanlagen har bir epizod, har bir voqea, uning katta yo kichikligidan qat’iy nazar, shu badiiy hikoyada bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan xarakterning biror tomonini, yozuvchi niyatiga binoan, albatta, zarur jihatini ochib berishga xizmat qilishi kerak”¹³⁰. Chunki voqealar mantig‘i asardagi har bir qahramonning o’ziga xosligini yoritishga xizmat qiladi. Romandagi voqealar silsilasini kuchaytirib borish, hayotiylik va tarixiylikka asoslanishi badiiy g‘oyani yuzaga chiqarishi bilan birgalikda syujetning o’rni muhimligini ham ko’rsatadi. Har qanday badiiy asardagi voqealar xarakterlar mantig‘iga uzviy bog‘lanadi, bu esa xarakter yaratilishidagi syujetning ahamiyatini asoslaydi. Shuning uchun syujetda xarakterning dinamikligi va o’ziga xosligi asarning emotsiyonalligini yuzaga chiqaradi.

¹²⁹ Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент.: “Фан”, 1992. – Б.56.

¹³⁰ Кўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 216.

Darhaqiqat, tarixiy shaxslar hayotini yoritishni maqsad etuvchi Salohiddin Toshkandiying “Temurnoma” asariga mos bo‘lgan epik rivoyada fantastik, mifologik elementlar, rivoyat va afsonalar tasvirining syujet tarkibiga singib ketishi uning mazmundorligini hamda badiiy saviyasini oshirmoqda, asarni olamning teran falsafiy-tahliliy manzarasigina emas, u to‘g‘risidagi hissiy mushohadaga aylantiradi. Bu jihat esa XX asr realizmining muhim xususiyatlaridandir.

Romanga xos rivoyaga afsona va miflar, fantastika elementlari va rivoyatlarning jadal ko‘rinishda kirib kelishi bugungi jahon adabiyoti uchun ham naqadar xos ekanligini so‘ngi yillarda dunyoga kelgan ko‘plab asarlar ko‘rsatib turibdi. Bunday jarayonlarni jahon adabiyotining yetuk namoyandalari bo‘lgan J.Joys, F.Kafka, G.Markes kabi ko‘plab yirik adiblar ijodida yaqqol ko‘ramiz. Haqiqatan ham, umumjahon adabiyotida qadimiy mifologiyani asar syujetiga singdirish orqali tarixiy shaxslar hayotiga oid voqelikni badiylashtirishga qiziqish kuchaygan. Zamondoshlarimiz dunyoqarashini, davrning dolzarb muammolarini tasvirlashda bu mavzudagi - afsona va rivoyatlardagi didaktik mazmun, falsafiy-estetik mohiyatga suyanish an’anasi yozma adabiyotning barcha janrlarida qalam tebratuvchi adiblar ijodida mavjuddir. Adabiy janrlar taraqqiyotining bugungi bosqichida folkloarning adabiyotga o‘tkazayotgan ta’siri milliy-badiiy uslubda yangi sifat xususiyatlarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Demak, romanda mifologik va fantastik vositalarga, rivoyat hamda, afsonalarga murojaat qilinar ekan, buning sababi ana shu an’analarning qimmati bugungi kunda ham yo‘qolmaganligida, deb hisoblamoq kerak. Akademik M.Qo‘shtonov yozganidek: “Ba’zi asarlarda voqeа va xarakterlar mantig‘i barobar tasvirlanadi. Ularning biri zaif, biri kuchli ekanini sezmaymiz. Realistik planda yozilgan tarixiy asarlarda syujet ko‘pincha shu tarzda tasvirlanadi”¹³¹. Darhaqiqat, voqealar rivoji va xarakterlar mantig‘ining uzviyligi adibning tarixiy romanlaridagi syujetning badiiy mukammalligini ta’minlashga xizmat qilgan.

¹³¹ Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 227.

Konflikt badiiylikning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Konfliktli syujet va motivlarga boyligi, ularning rang-barang shakl va tiplarining murakkab darajada chatishib ketishi roman janrining spetsifik xususiyatlaridandir. Konflikt faqat syujet bilan, uning elementlari bilan birgalikda o‘zining badiiy imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishi mumkin¹³². Konflikt syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lib, syujetning asosiy bosqichlarini belgilaydi¹³³. Bunga misol, Muhammad Alining Ulug’ saltanat tetralogiyasining ikkinchi kitobi hisoblangan “Umarshayx” asarida Umarshayx To’xtamishxonga otasi tomonidan katta ziyoftlar ila kutib olinib, o‘g’illari qatorida ko‘rilishidan konflikt syjeti yuzaga keladi. Bu esa ikki qahramon o‘rtasidagi musosabatlar asar konflikt syujetni harakatga keltiruvchi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur nuqtai nazardan kelib chiqib, M.Alining Amir Temur haqidagi tarixiy romanlarida hayotiy ziddiyatga asoslangan tarixiy voqealar silsilasida turfa xil konfliktlarning badiiy ifodasini kuzatamiz. Natijada, ijtimoiy sharoit va qahramon, xarakterlararo, ruhiy konfliktlar tarixiy romanlarning badiiy mukammalligini ta’minlashga xizmat qilgan. Nafaqat milliy adabiyotshunoslik ilmida, balki jahon adabiyotining yetuk namoyandalari ham sharoit mantig‘ini xarakter mantig‘i bilan dialektik birlikda talqin qilish va buyuk tarixiy obrazlarni yaratishga intilganligini ko‘ramiz. Chunki, har qanday tarixiy voqelik zamirida inson xarakteri, uning o‘z dunyoqarashi mujassamlashgan bo‘ladi. Xarakter esa sharoit mantig‘idan kelib chiqib, tasvirga olinadi va voqealar rivoji, uning turli qirralarini yoritishga zamin hozirlaydi.

M.Alining “Ulug’ saltanat” tetralogiyasida Amir Temur va temuriylar davridagi qizg‘in ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayot fabula “vazifasi”ni bajarsa, yozuvchining talanti, ijodiy izlanishlari, badiiy tafakkuri syujetni yuzaga keltirishga ilk asosdir. Ya’ni har qanday badiiy matn – muayyan ijtimoiy-ruhiy, falsafiy-estetik mushohadalarni o‘z bag‘rida yaxlitlashtiradi.

¹³² Рахимов А. Ўзбек романни поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил.фун.док...дисс.автореф.Т., 1993. – Б.40.

¹³³ Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик лугати. –Тошкент.: “Akademnashr”, 2010. – Б.144.

“Adabiyotshunoslik” lug‘atida: “Fabula (lot. fabula – hikoya, masala) – syujetshunoslik kategoriyasidir. Adabiyot ilmida fabula terminini qo‘llashda turlicha qarashlar mavjud: u syujet terminiga sinonim sifatida ham, undan farqlanib ham ishlatiladi. Gap shundaki, asarda hikoya qilinayotgan voqealarni Arastu “mif” yoki “tarix”, antik rimliklar esa “fabul” deb yuritgan bo‘lsalar, XVII asrga kelib fransuzcha “syujet” termini bilan atashgan. Syujeti ko‘p tarmoqli bo‘lgan tarixiy mavzudagi asarlarning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, voqelikning mazmuni, namoyon bo‘lish tartibi fabula bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Fabula asarning syujetini ham, kompozitsiyani ham birgina estetik mezonda birlashtira oladigan muhim komponentlardan biridir. Haqiqatdan ham “fabula” va syujet atamalari haqida turlicha qarashlar rus adabiyotshunoslida ko‘plab uchraydi¹³⁴. Bu borada adabiyotshunos D. To‘rayev ancha aniq fikrlarni ilgari surgan: “Fabula hayotiy faktlar zanjiri bo‘lib, badiiy asar syujeti uchun asosdir”¹³⁵. Shu nuqtai nazardan yondashganda, tarixiy-xronikal syujetli asarlarda yozuvchi qarashlaridan holi bo‘lмаган, qahramonlarning o‘zaro munosabatlarida bo‘y ko‘rsatgan voqelik g‘oyaning puxta yaxlitlashuviga zamin yaratadi. Muhammad Ali har bir voqelikni murakkab syujetlilik tarzida tasvirlash yo‘lidan boradi. Unda bobma-bob ifodalananayotgan voqelik negizida ijodiy niyat va tarixiy haqiqat parallel tarzda yorqin bo‘yoqlarda yuzaga chiqa boshlaydi. Hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar yurishlardan kelgach – Samarqand taxtida turib, tadbir va kengash yig‘inlarida yakun yasaladi. “Badiiy jihatdan yuksak hisoblanadigan asarlarning barchasida ham syujet birligi, voqealarning yaxlitligi, boshqacha qilib aytganda, butun bog‘liqlik – obraz, voqealar ma’lum bir badiiy maqsadga bo‘ysundirilgan holda asarga kiritilganini ko‘ramiz”¹³⁶. Tarixiy haqiqatning badiiy asar (syujet)ga aylantirilishiga badiiy to‘qimaning ham o‘rni muhimdir. Badiiy to‘qima obraz va tafsilotlarda yozuvchi liro-romantik bo‘yoqdorlikni asosiy ifoda yo‘sini sifatida

¹³⁴ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М., 1972; А.П. Чудаков. Поэтика Чехова. – М.: “Наука”, 1971. – С. 213; Наровгатов. Необычное литературовидение. – М.: “Молодая Гвардия”, 1970. – С. 291; Колинов В. теория литературы. – М.: “Наука”, 1964. – С. 422.

¹³⁵ Тўраев Д. Ҳаёт ва сюжет. – Т.: Ф.Фулом номидаги нашриёт -матбаа ижодий уйи, 1984. – Б. 11.

¹³⁶ Кўшжонов М. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент.: Шарқ, 2019. – Б. 386.

qaragan. Buni Axiy Jabbor to‘qima obrazida ham ko‘rishimiz mumkin. Oqqiz va Axiy Jabbor asar syujetida alohida ahamiyat kasb etadi. U xaloskorlik va taskin shukuhi bilan yashaydi. Yaxshilik va oljanoblik uning eng muhim insoniy fazilatlaridan biri sanaladi. Ikkinci jilda ham Axiy Jabbor o‘zining sarkardalik mahorati, do‘st ahdiga sadoqati bilan asar voqealarida alohida ko‘zga tashlanib turadi. Bu jihat har bir personajga berilgan chizgilardan farqli o‘laroq Axiy Jabbor dunyoqarashida o‘zgacha ravishda namoyon bo‘ladi. Adib Axiy Jabborni alohida muhabbat bilan idrok qilar ekan, u Jahongir Mirzo va uning atrofidagi yoronlarga bo‘lgan chuqur hurmatini oxirigacha saqlay olgan obraz sifatida talqin etiladi¹³⁷.

O‘zbek romanlari orasida Amir Temurga bag’ishlangan asarlarda retrospektiv syujetning yuzaga chiqishi masalasiga to’xtalar ekanmiz, temuriyshunoslar faoliyati taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, keyingi davrlarda bu yo’nalishdagi asarlarda syujet yoki uning ichki elementlarini joylashtirishning retrospektiv usullaridan foydalanishga intilish kuchaymoqda, retrospeksiyaning shakllari ham rang-baranglashib bormoqda, ular romanbop rivoyaning tarkibiga singdirilmoqda. Nurali Qobul, Muhammad Ali, Pirimqul Qodirov asarlarida mana shu unsurlarni ilg’ash mumkin. Temuriylar haqida bitilgan asarlarning bu nazariy jihatdan tahlili avvalida ilmiy adabiyotlarda badiiy asarlar syujetini tasniflash yuzasidan bir qator nazariy fikrlarni o’rganish lozim. Adabiyotshunos A.Rahimov tomonidan bu boradagi izlanishlar silsilasida “Syujet va konflikt” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi olib borildi. Unda badiiy adabiyotda syujetning 4 turi mavjudligi isbotlangan:¹³⁸ 1) xronikal; 2) konsentrik; 3) retrospektiv; 4) assotsiativ turlari haqida ilmiy xulosalar va tahlillar berib o’tilgan.

Mazkur tasnif boshqa olimlar tomonidan ham qo‘llangan¹³⁹. Hozirgi romanlarda syujet qurilishi qanchalik murakkab, qo‘pqirrali va sintetik bo‘lmisin, baribir har qanday konkret romanda ko‘rsatilgan syujet tiplaridan biri yetakchi

¹³⁷ Яхшиева З. “М.Алининг “Улуг салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг ифодаси”, Фил. фан. фал.док. дисс. Қарши., 2021.– Б.65.

¹³⁸Рахимов А.Ўзбек романни поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил.фан.док...дисс.автореф.– Т., 1993. – Б. 12.

¹³⁹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкет.: Ўзбекистон, 2002. – Б.122-123; Фуломов Д. Ретроспектив сюжет хусусида айрим мулоҳазалар // ФарДУ. Илмий хабарлар. – 2021, 4-сон. – Б.128-133.

mavqeni egallaydi.¹⁴⁰ Shulardan retrospektiv syujet – “qahramonning o‘tmish biografiyasi”ga qaytuvchi¹⁴¹ usul, unda voqealar teskari tartibda boshlanadi, yozuvchi voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yib, masalaning tarixiga qaytadi, sodir bo‘layotgan jarayonlar manbalarini ko‘rsatish qahramon xarakterining shakllanish sabablarini ochishga imkon beradi, voqeani asosiy syujet ichiga joylashtiruvchi, qoliplovchi kompozitsiyaga yaqin turadi¹⁴².

Amir Temur haqida bitilgan tarixiy va badiiy asarlar tahliliga nazar tashlar ekanmiz, retrospektiv syujet asosida ijod etgan XX asrning yana bir taniqli sharqshunosi A.Y.Yakubovskiy asosan, Sohibqironni yoshlik yillari xususida fikr yuritgan. Uning “shaxsiy botirligi, saxiyligi, odamlarni aql bilan saralab, o‘ziga yordamchilar tanlay olishi, unda yo‘lboshchilik sifatini yorqin namoyonligi Qashqadaryo vohasi barloslari orasida, yosh ko‘chmanchi harbiylar orasida yo‘lboshchi sifatida shuxrat keltirdi, degan qarashlarini, voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yib, Temurning yoshlik yillariga qaytib tahlil etishga kirishib ketadi¹⁴³. Muallif, Sohibqironning katta tashkilotchilik iqtidorini, kuchli iroda va hukmdorlik dahosiga ega ekanligini, feodal davlatni qattiqqo‘llik bilan boshqarganligini, amaliy fanlarni, tibbiyat, matematika va astronomiyani qadrlagani va me’morchilikka qiziqishlarini, tarix ilmi bilimdoni ekanligini, turk, arab va eronliklar o‘tmishidan yaxshigina boxabarligini, shaharsozlik faoliyatini o‘tmish voqealarini roviy tilidan maqtaydi. Ayniqsa, Mavarounnahr vohasining turli hududlaridan olimlar, ulamolar, san’atkorlar va hunarmandlarni ko‘chirib keltirganligi, yurtning iqtisodiy va madaniy ravnaqi yo‘lida ularning hamjihatligiga intilganini ta’kidlaydi. Tarixchi Amir Temurni Mahmud G‘aznaviy bilan taqqoslab, Temur barcha o‘ljalarini mamlakati markaziga tashir, uning bu boyliklaridan ko‘ra ilm va hunar egalarini qo‘llashi o‘z davlati ravnaqi yo‘lida yangi-yangi madaniy kuchlarga kuch qo‘shar, bu esa turfa ilmlar rivojiga katta hissa bo‘lishiga xizmat qilardi, deya qayd etadi. Ammo, sharqshunos olimning

¹⁴⁰ Рахимов А. Ўзбек романни поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил.фан.док...дисс.автореф.– Т., 1993. – Б. 13.

¹⁴¹ Коробан В. Современный молдавский роман. –Москва., 1979. – 203 с.

¹⁴² Рахимов А. Ўзбек романни поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил.фан.док...дисс.автореф.– Т., 1993. – Б. 12.

¹⁴³ Якубовский, Опыт краткой политеческой характеристики// Вопросы истории, М.1946. – С. 55

boshqa rus tarixchilarida kuzatilgani kabi, qator ilmiy mulohazalarida bahsli o‘rinlar mavjud. Olim Temurning yoshlik yillari haqida ma’lumotlar uchramasligini ta’kidlab, rus solnomalari va Klavixo va Ibn Arabshohning bu davrga oid bo‘rttirma tasavvurlarini keltirish bilan cheklanadi. Temurshunos olim A.Usmonov A.Y.Yakubovskiyini “geografik jihatdan bir biridan ancha uzoq bo‘lgan shu uch manbadagi ma’lumotlarni qanday bog‘langanligini tahlil etib bergen holda, ularning haqiqatga qanchalik yaqinligi haqida aniq fikr bildirmaydi”. U Temurning yoshligida qaroqchilik va talonchilik, mayda o‘g‘irlilik bilan shug‘ullanganligi haqidagi fikriga raddiya bildiradi¹⁴⁴. Ayniqsa, Amir Temurning Seyistondagi janglardan birida bilagidan yarador bo‘lishini Yazdiy bergen ma’lumotlarga ko‘ra, Mamaqtuv ismi askarboshidan olganligi, Klavixo ma’lumotlarida esa bu voqelik jangda yarador bo‘lganligi deb aytilsa, Ibn Arabshoh ma’lumotlariga tayangan holda A.Yakubovskiy bu voqeani “qo‘y o‘g‘irlagan Temur cho‘pon otgan kamon o‘qidan jarohat olgan” deya bayon etadi. Rus tarixchisining ushbu asari mutolaasidan so‘ng, u yashagan davr talablarini tasavvur qilgan kitobxon sifatida, muallif Temurbekni qanchalik ulug‘ sarkarda, oliyhimmat inson, Tangri yorlaqagan shaxs ekanligini tan olgan holda keltiradi. Shunga qaramay, muallif ko‘pgina jang lavhalarini faqatgina boylik orttirish, o‘ljani qo‘lga kiritish va oilasidagi yo‘qchilik alami va’jidan unda talonchilik kayfiyatining oshib ketishi tarzida keltirishni ma’qul ko‘rganligi borasidagi mulohazalariga sabab esa, Sohibqironni ozodlik kurashchisi sifatida yoritishga o‘z zamonasi talablari yo‘l qo‘ymaganidan deb tushunish mumkin.

Endilikda romanlarda retrospektiv chekinishlar romanbop tasvirning faol va organik vositasiga ma’lum darajada aylanib ulgurdi. Qahramon taqdirining ibtidosiga qaytish usuli shunday badiiy vositalar bilan amalga oshiriladiki, kitobxon buni voqealar rivojidangina anglab olishi mumkin. Hozirgi epik rivoyada retrospektiv chekinishlarning badiiy funksiyasi ham o‘zgardi. Bu usul personajlar o‘tmishini jonlantirishdan tashqari, endi u hamma narsa ag‘dar-to‘ntar bo‘lib

¹⁴⁴ A.Usmonov. Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi. (XVIII –XX asrlar). Tarix fan. Nomz.diss. Farg’ona., 2003. – B. 120.

ketgan, konflikt chigallashib qolgan, biroq uning mohiyati qahramonlarga ham, tomoshabinlarga ham aniq ma'lum bo'limgan hollarda qo'llanadi. Ammo mana shu jarayonda ham bir voqelikning turli olimlar tomonidan turfa talqin etilishi badiiy adabiyotda mana shunday noto'g'ri talqin qilinib kelinishiga sabab bo'lgan holatlar mavjud. Masalan, Amir Temur va Boyazid jangi aksariyat tarixchilar tomonidan turlicha talqin qilingan mavzulardan biri. V.N.Tatishchev Anqara jangidan so'ng, Amir Temur turk sultonini qafasga solib, keyingi janglarda ham olib yurilganligi haqidagi afsonani tarixiy ma'lumot o'rnida keltiradi¹⁴⁵, bu qarash esa Yevropa ilmiy va badiiy adabiyotida keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Shunga o'xshash ma'lumotni o'zbek tarixchi olimi T.Fayziyev ham keltirib, qator rivoyatlar haqida so'z yuritadi.¹⁴⁶ Ammo sharq tarixiy manbalariga e'tibor qaratsak: Sh.Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida bu voqeа aynan keltiriladi: "Yildirim Boyazidni dargohi olampanohga kelturdilarkim, Sohibqiron farmonladikim, ilgini yechib, hurmat bila keltursunlar, Yildirim Boyazid uchun shohona oq uy tikib edilar. Sohibqiron unga inoyat va shavkatlar qilib, har anga o'z qoshida kelturub, suhbat tutib, ko'ngil berur edi"¹⁴⁷. Demak, mana shunday lavhalardan ma'lumki, Amir Temurning bag'rikengligi yuqoridagi afsonalarda noto'g'ri talqin qilingan edi. Ammo, rus sharqshunosi N.Karamzin A.Temurni sulton Boyazidni shohona izzat-ikrom bilan kutib olganligi, unga qimmatli tuhfalar in'om etganligi haqida hikoya qiladi¹⁴⁸.

Tarixiy va badiiy romanda hikoyachi-muallif retrospeksiyasida muallif hikoyachilik vazifasini o'z "zimmasi"ga oladi. Asardagi voqealarni hikoya qilish jarayonida qahramonning o'tmishiga aloqador bo'lgan biror voqeа, uning xarakteridagi biror xususiyatni ochish uchun zarur bo'lib qolsa, yoxud voqealarning biror qirrasi ochilmay qolgan bo'lsa, o'tmishga murojaat qilish zarurati syujetda tug'iladi. Ibn Arabshoh Temur haqida, uning bilimdonligi haqida ma'lumotlarni keltirishda, o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni yodga oladi. "Temur

¹⁴⁵ Татищев В.Н. История Российской. – М., 1968. – С.197.

¹⁴⁶ Fayziyev. T. Temuriylar shajarasi. – Т.: "Yozuvchi", 1995. – B.35.

¹⁴⁷ Sharafuddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma". – Т.: "Sharq", 1997. – B.261.

¹⁴⁸ Карамзин. Н.История государство Российского. – Тула., 1990. – С. 283.

Ibn Haldundan Mag‘rib shaharlari va yerlari vasfini so‘rab, uning mavzelariyu, yo‘llari, qishloqlariyu, so‘qmoqlari, qabilayu xalqlarini aniq bayonlab berishini so‘ragan. Bundan maqsad, Ibn Haldunni imtihon qilish bo‘lib, Temur bu narsalarga muhtoj emas erdi. Chunki uning tasavvuri xazinalarida butun mamlakat suratlari mavjud edi”¹⁴⁹.

Retrospektiv syujetning ko‘rinishlari ilmiy adabiyotlarda deyarli to‘liq ko‘rsatilmagan. Faqatgina tadqiqotchi B.To‘rayeva retrospeksiyaning biografik, psixologik va retrospeksiya-xronika kabi turlari mavjudligini aytib o’tadi¹⁵⁰. Tasnifda tadqiqotchi retrospeksiyaga badiiy zamon nuqtai nazaridan yondashgan. Bizningcha, retrospektiv syujetning kim tomonidan, qay shaklda, qay paytda ko‘rinishiga ko‘ra quyidagi turlari mavjud:

I. Kim tomonidan amalga oshirilishiga ko‘ra:

1. Hikoyachi-muallif retrospeksiyasi.
2. Hikoyachi-personaj retrospeksiyasi.
3. Solnomachi-hikoyachi retrospeksiyasi.

II. Qanday shaklda berilishiga ko‘ra:

1. Muayyan “shaxs” (hikoyachi-muallif, hikoyachi-personaj, solnomachi-hikoyachi)ning bevosita tilidan hikoya qilinadi.
2. Muayyan “shaxs” nigohi orqali beriladi.
3. Muayyan “shaxs” o‘tmishi bilan bog‘liq voqeа-hodisalar uning xayoli vositasida beriladi.
4. Muayyan “shaxs”ning o‘tmishda sodir bo‘lgan yoki o‘sha “shaxs” fantaziysi orqali yaratilgan voqealar uning tushi orqali namoyon bo‘ladi.
5. Muayyan “shaxs” tomonidan kundalik (yozma) tarzida beriladi.

III. Sodir bo‘lgan paytiga ko‘ra:

1. Hozirda sodir bo‘layotgan jarayonlar personajning unsiz nigohi orqali tasvirlanadi.

¹⁴⁹ Ibn Arabshoh. “Amir Temur tarixi”. 2-kitob. T., 1992. – B.68.

¹⁵⁰ Тўраева Б. Тарихий романларда бадиий замон муаммоси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD)... дисс. – Тошкент., 2018. – Б.43.

2.Yaqin o‘tmishning dildan o‘tgan xayol yordamida ifodalanishi tarzida ko‘rsatiladi.

3.Uzoqroq o‘tmish esa xotiralar vositasida beriladi.

Romanda hikoyachi-muallif retrospeksiyasida muallif hikoyachilik vazifasini o‘z “zimmasi”ga oladi. Asardagi voqealarni hikoya qilish jarayonida qahramonning o‘tmishiga aloqador bo‘lgan biror voqea, uning xarakteridagi biror xususiyatni ochish uchun zarur bo‘lib qolsa, yoxud voqealarning biror qirrasi ochilmay qolgan bo‘lsa, o‘tmishga murojaat qilish zaruriyati syujetda tug‘iladi va aynan shu paytda muallif-hikoyachi yordamga keladi.

Hikoyachi-muallif retrospektiv epizodni bayon etish davomida har bir narsa, voqea-hodisalar va personaj xatti-harakatini tashqi tomondan kuzatib, tahlil qiladi. Tasvirlanayotgan voqeaga o‘z munosabatini bildiradi, lekin uning munosabati bilan personaj munosabati orasidagi farqni ham unutmaslik lozim. Chunki voqea-hodisalar bayoni hikoyachi-muallif tomonidan berilganda, qahramon ichki histuyg‘ulari ifodalanmaydi. Bu jarayonda personajlar portretining asosan tashqi ko‘rinishi hikoyachi-muallif bayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Retrospektiv rivoyaning hikoyachi-muallif tomonidan berilishidan hikoyachi bilan muallif bir umumiy degan xulosaga kelmaslik kerak. V.V.Vinogradovning ta’kidlashicha: “Hikoyachi obraqi muallif obraziga qaraganda torroq bo‘lib, u muallif obraqi bilan tasvirlanayotgan voqelik o‘rtasida vositachi, ularni o‘zaro bog’lash vazifasini bajaradi”¹⁵¹.

Asardagi lirik chekinishlarda, peyzaj tasvirlarida muallif obraqi ro‘yobga chiqadi. Katta-katta retrospektiv epizodlarni hikoya qilishda esa muallif rivoyani hikoyachi bilan birgalikda olib boradi va natijada muallif-hikoyachi retrospeksiyasi yuzaga keladi. Nurali Qobulning “Temuriylar” romanlar turkumida retrospektiv epizodlarni hikoya qilishda hikoyachi-muallifning roli unchalik katta emas. Chunki asarlardagi voqealar rivoji davomida asosiy retrospektiv obrazlargina hikoyachi-muallif tomonidan beriladi.

¹⁵¹ Виноградов В. О теории художественной речи. – Москва.: Наука, 1971. – Б.116-117.

Hikoyachi-personaj retrospeksiyasida esa voqealar hikoyachi-personaj tomonidan tasvirlanadi. Retrospektiv epizodlar hikoyachi-personaj tomonidan turli shakllarda berilishi mumkin. Jumladan, voqealar: a) hikoyachi-personaj tilidan; b) hikoyachi-personaj nigohi orqali; v) hikoyachi-personaj xayoli orqali; g) hikoyachi-personajning tushi vositasida kechadi.

Hikoyachi-muallif retrospeksiyasida kitobxon qahramon o‘tmishiga aloqador bo‘lgan voqealar bilangina tanishgan bo’lsa, hikoyachi-personaj tomonidan berilgan retrospektiv rivoyada u hikoyachi-personajning o‘z o‘tmishi bilan, uning tasvirlangan voqealarga munosabati bilan yaqindan tanishish, uning ruhiy olamidagi o‘zgarishlar va qalbining nozik tebranishlariga ham guvoh bo‘ladi.

O‘tmish voqealarini va qahramon his-tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan holda tasvirlash jihatidan hikoyachi-personaj retrospeksiysi muallif-hikoyachi retrospeksiysidan ancha ustun turadi. Chunki hikoya qilinayotgan o‘tmish voqealarida personajning o‘zi ham voqealarda bevosita ishtirok etadi va ko‘z o‘ngida jonlangan voqealardan olgan taassurotlarini kitobxonga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hikoyachi-muallif esa qahramonning his-tuyg‘ularini, ko‘nglidan o‘tkazgan kechinmalarini uning o‘zi ifoda etgan darajada bera olmaydi va bunday imkoniyatga ega ham emas. U voqealarni chetdan turib, kuzatuvchi sifatida tahlil qiladi.

1. Retrospektiv epizod – hikoyachi-personaj tilidan berilganda, voqealar bevosita uning tilidan I shaxs shaklida beriladi.

2. Retrospektiv epizoddagi voqealarni hikoya qilishning navbatdagi shaklida hikoyachi-personajning nigohidan kechgan voqealar tasvirlanadi.

3. Personaj tushida kechgan voqealar retrospektiv rivoya usulida beriladi.

4. Retrospektiv rivoyada o‘tmish voqealari hikoyachi-personaj tomonidan uning xayoli orqali tasvirlanadi.

Mana shunday nazariy qarashlar asnosida XVIII asrda rus tarixchi olimi V.N.Tatishchevdan boshlangan Amir Temur haqida rus tarixchi olimlarining xoh tanqidiy, xoh ijobiy ruhda bo‘lsin ularning ilmiy qarashlari faxrli bobokalonimizning Markaziy Osiyo va dunyo tarixida ulkan sarkardalik faoliyati va markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi sayi harakatlari, Buyuk ipak yo‘li savdo

sohasiga, Movarounnahr obodligi, o‘z davri ilm fanida o’rta asrlar Renessans davriga asos solganligini tasdiqlaydi. Har bir olimning o‘zi yashagan davr talablaridan kelib chiqqan holda, ular bergen ma’lumotlariga suyangan tarzda, xolis yoxud xato munosabat bildirganligi, biryoqlama yoki obyektiv bera olganligi ham biz uchun ahamiyatli. Sharq va G‘arb manbalari shuningdek, rus tarixchi olimlari, sharqshunoslari faoliyatining natijasi o‘laroq berilgan tahlillar biz adabiyotshunoslar uchun qaysi mezonlar asosida badiiy asarlarga Amir Temur obrazining turli talqinda kirib kelganligi haqida izlanishlar olib borib, ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo‘la oladi.

Roman voqealari personajlarning nigohi bilan, ularning xotiralari, o‘y-xayollari, mulohazalari vositasida beriladi. Voqealar muayyan muallif konsepsiysi nuqtai nazaridan tasvirlanadi. Bu kitobxонни insofli vaadolatli bo‘lishga, razolat deb o‘ylangan afsonalarni ham badiiy asarga mavzu qilib qo‘ygan hayot jumboqlarini yechishda ko‘maklashadi. Qahramonlarning o‘tmishi bilan bog‘liq retrospektiv epizodlar ularning o‘y-xayollari orqali beriladi.

Retrospektiv rivoya usulida voqealar birin-ketin, tartib bilan hikoya qilinmaydi. Bir retrospektiv epizodda berilgan voqealar keyingi retrospektiv epizodda davom ettirilishi yoki ettirilmasligi mumkin. Bu rivoya turida voqealar maydalashtirilib, atroflicha hikoya qilinmaydi, balki bo‘lgan hodisa lo‘nda va ixcham beriladi. Voqealarni hikoyachi “xolis” turib hikoya qilmaydi, balki bu voqealarga o‘z munosabatini bildirgan holda, o‘z his-tuyg‘u va hayajonlarini qo‘shib hikoya qiladi. Tasvirlanayotgan voqealar qo‘qqisdan bo‘linib qolishi natijasida muayyan voqea, fikr nihoyasiga yetmay qolishi ko‘proq xayol orqali beriladigan retrospektiv epizodlarda uchraydi. Chunki har qanday xayol uzuqu-yuluq va tarqoq bo‘ladi. Arzimagan sabab bilan xayol bo‘linishi, buning natijasida xayolda kechayotgan voqealar tizgini buzilishi mumkin. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopiyasida Axiy Jabbor obrazi asar voqealari tizginini o‘z o‘y xayollarini bilan bog‘lab, axiylik xarakatlarining o‘tmish voqealarini esga olar ekan, u kunlarni qumsashi va ayni vaqtida sodir bo‘layotgan voqeliklarga daxldorligiga kitobxonga izoh qoldirmaydi. Uning hayollari qo‘qqisdan uzilib

qolar ekan, uning parishon tashqi qiyofasi barchasini oydinlashtirib beradi. Yozuvchilar retrospektiv epizodlarda kichik jumboqli vaziyatlar, tugunlar yaratib, keyingi retrospektiv epizodlarda esa o‘rni bilan ularni yechib boradi. Jumladan, Marsel Brionning Amir Temur haqidagi asari bunga misol bo’la oladi. Amir Temurni har bir qilajak safarlari davomida diniy ulamolar bilan qilgan savol-javoblari, uning bu boradagi ilmsizligini emas, aksincha o’sha yurt din peshvolarining bu boradagi ilmlarini tekshirish yoxud o’zi o’rgangan ilmlarni ular tajribasi va bilimiga asosan mustahkamlash maqsadida, bosh qahrammoning o’z yurishlarining mazmun mohiyatini ochib berishda yozuvchi motivi sifatida tushunish mumkin. Demak, xulosa qilish mumkinki, retrospektiv epizodlar asarda ketma-ket kelishi shart emas, ularning asarning turli o‘rinlaridan joy olishi ham asar o’qimishli chiqishi ta’milnadi.

So‘z san’atkori voqealarni tasvirlashni personajlarning ixtiyoriga beradi. Har bir qahramon voqealarni hikoya qilishi mobaynida o‘z taassurot va munosabatlarini ham berib boradi. Bu holatning ijobjiy tomoni shundaki, qahramonlar voqealar tasvirini ifodalash bilan birga, o‘z tuyg‘u va kechinmalarini ham aks ettiradilar. Natijada, o‘quvchi ko‘z oldida personajning xarakteri, dunyoqarashi va umuman, uning fazilat va illatlari ochiladi. Epizodlarning personaj tomonidan berilishi voqealarning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Voqealar kitobxon qalbiga yanada aniqroq va chuqurroq kirib boradi. A.Temur haqida bitilgan M.Alining “Ulug’ saltanat” asarini o’qigan kitobxon muallif tomonidan berilgan epizodni o‘qigach, bosh qahramon qalb iztiroblari va ruhiy azoblarini birgalikda his qiladi. Bu tabiiy hol bo‘lib, insonning tushiga o‘z hayotida sodir bo‘lmagan voqealar ham kiradi. Asarda berilgan har bir retrospektiv epizoddan yozuvchining ko‘zda tutgan maqsadi voqeaning biror jihatini yoritish, yoki biror g‘oyani ochib berishga xizmat qilishdir.

II.3. Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan romanlarda tarixiy jarayonning badiiy voqelikka aylanish prinsiplari

Badiiy asarning shakliy va mazmuniy jihatdan mukammalligi uning syujet va kompozitsion yaxlitligida namoyon bo‘ladi. Badiiy asar ma’lum bir davrning

asosiy g‘oyasini ifodalaydi, ilgari suradi va o‘z g‘oyasiga singdiradi. Bu xususiyatni mujassamlashtiruvchi shaxslar, ya’ni davr qahramonlari orqali ijodkor yuzaga chiqaradi. Davrning yetakchi xususiyatlarini mujassamlashtirgan shaxs ham o‘z navbatida jamiyat, oila, muhit hamda tarixiy voqelik ta’sirida vujudga keladi, harakatlanadi. Davrning ulug‘ kishilari turli-xil voqe-hodisalar, muhit va sharoitga o‘zlarining sezilarli ta’sirini o‘tkazadilar. Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy xarakterlarni yaratadi, shu orqali shaxsiy mahoratini ham namoyon qiladi. Hayotiy voqealar jarayonida inson xarakteri turli vositalar ta’sirida shakllanib, mukammal iroda ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsga aylanadi: “Shaxs favqulodda murakkab, nodir butunlikdir. U o‘zining ma’naviy olamida insoniyatni ijtimoiy-maishiy, biologik va boshqa jihatlardan muhitga bog‘liqligini mujassam etadi”¹⁵². Jumladan, M.Alining “Ulug‘ sultanat” romanidagi badiiy psixologizm aniq tarixiy davrdagi shaxslar psixologiyasi bo‘lib, davr ruhini to‘laqonli ochishga, badiiy xarakterning yaxlit shakllanishiga xizmat qilgan.

Badiiy asarda xarakterlar yaratilar ekan, asar mukammaligi bilan bir qatorda kompozitsion birlikni namoyon qiladi. Odil Yoqubovning temuriylar sulolası vakillari, jumladan, Sohibqironning sevimli nabirasiga bag‘ishlangan “Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek umrining poyoniga yetar damlari asos qilib olinsa-da, mavjud tarixiy muhit asarda ruhiy-badiiy zamon tarzida o‘z aksini topishi bilan bir qatorda, Ulug‘bek Mirzoning badiiy obraz xarakterini yoritishda tarixiylikka asoslanishda tarixiy fabulaga tayanilgan asar ong oqimi, ichki monolog, tush motivlari, mulohaza yuritish, dialog, tabiat tasviri kabi psixologik vositalardan unumli foydalanilgan. Adabiyotning bu sohasi qiyosiy-tipologik tadqiqotning obyekti bo‘lib, aynan shu yerda u adabiyot nazariyasi bilan birlashadi. Adabiy-tipologik o‘xshashliklar badiiy adabiyot ichki qonunlarining hosilasi bo‘lganligi sababli, bu yerda adabiy jarayonnining ham “yuqori”, ham “quyi” birliklarini kompleks ravishda qamrab olish tamoyiliga rioya qilish kerak. Badiiy

¹⁵² Сариян С. История. Современность. Личность. – Москва.: Наука, 1980. – С 11.

asardagi umumiy va farqli jihatlarni nafaqat adabiy yo‘nalish, janrlar nuqtai nazaridan, balki g‘oyaviy – psixologik yondashuv, qahramonlar tavsifi, kompozitsiya, syujet, motivlar, obrazlar tizimi, tasviri vositalar, she‘r tuzilishi unsurlari singari badiiylikni ta’minlovchi komponentlar nuqtai nazaridan o‘rganish adabiyotshunoslik uchun muhim natijalar beradi¹⁵³.

Adabiyot nazariyasi bilimdoni A.Rahimov ta’biricha: “Kompozitsiya shaklni hosil qiluvchi elementgina emas, asosiy maqsadni ro‘yobga chiqaruvchi, undagi obrazlar, barcha qism va vositalarni garmonik uyushtiruvchi strukturadir, mazmunning namoyon bo‘lish shakli, yashash tarzidir”¹⁵⁴. “Badiiy asar qismlarini yaxlit badiiy niyat ijrosi uchun eng optimal holda joylashtirish, badiiy sistemadagi unsurlarni o‘zaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashiladigan tarzda butunlikka biriktirish” asar poetik mukammallashuviga zamin yaratgan¹⁵⁵. Shu bilan birga, kompositiya “ijod jarayonida hayotni badiiy ifodalashning muhim vositalaridan, san’at asarining zarur unsurlaridan biridir... Kompozitsiya badiiy asarning zarur unsuri ekanligini, dastavval, uning syujet bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘ramiz...Chunki, syujet unsurlarining muayyan maqsadda bir-biri bilan birikuvi kompozitsiya hodisaside. Shuningdek, asar to‘qimasida sarlavha, qistirma epizod, lirk chekinish, epigraf, peyzaj, interyer (uy-joy) kabi syujetdan tashqari unsurlar (kompozitsiya vositalari) ham bo‘ladiki, ularning o‘zaro joylashish tartibi ham kompozitsiya hodisaside”¹⁵⁶. Badiiy asarning yaxlitligini shakl va mazmun, mavzu va g‘oya, syujetni ham ba’zan boshqaradigan badiiy unsur kompozitsiya hisoblanadi.

G‘arbda yaratilgan Amir Temur obrazi bosh qahramon sifatida tanlangan K.Marlo dramasi tarixiy haqiqatdan yiroq bo‘lgan turk va greklarning tasavvur va uydirmalariga asoslanganligini ko‘pgina Marloshunos olimlar ta’kidlab o’tishgan. Ammo shunga qaramay, ingliz tomoshabinlari Temur nutqidagi ko‘tarinkilikni, ushbu qahramonning shaxsiy fazilatlarini zavq-u shavq bilan kutib olishdi.

¹⁵³ A.Qosimov va boshqalar. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Andijon., 2018. –B.109.

¹⁵⁴ Рахимов А.Ўзбек роман поэтикаси (сюжет ва конфликт): Фил.фан.док.дисс...автореф. – Т., 1993. – В.18.

¹⁵⁵ Қуронов Д. Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: “Академнашр”, 2010. – 141 6.

¹⁵⁶ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Дарслик. – Т.: “Ўзбекистон”, 2002. – 137 6.

Yevropa adabiyoti xususan, ingliz dramaturgiyasida insonparvarlik g‘oyalari yetakchi ekanligi, hayotning va asar voqeliklarning realistik xarakterga ega ekanligi, Amir Temur tarixiy shaxsi orqali badiiy obrazning ko‘p qirrali tasviri, bu boradagi an’anaviylik, personajlarning psixologik holatlari, qahramonlar nutqining aniqligi va ta’sirchanligi asarni dunyo kitobxonlariga sevimli eta oldi. Adabiyotshunos olim O. Dadaboyev ta’biri bilan aytganda: “Kristofer Marlo Temur obrazini yaratish orqali insonning yaratuvchilik qudratiga yuksak baho berdi. Temur obrazini Yevropa adabiyotida ideal obraz darajasiga yetkazdi”¹⁵⁷.

O. Dadaboyevning ushbu asar haqidagi qo‘yidagi qarashlari ahamiyatli: “K.Marlo Amir Temurni afsonaviy qahramon tarzida ifodalab, uni baland bo‘yli, tik qomatli deb tasvirlaydi. Uning yelkalari keng bo‘lib, go‘yo butun dunyonи ko‘tarib tura oladiganday. Uning uzun qo‘llari va kuchli mushaklari qudratidan darak berib, ko‘zлari esa o‘tkir va sehrli. Bularning hammasi dunyo hukmdori bo‘lishidan darak beradi. Ushbu asardagi Temurning uch yuz kishilik askarlari bilan mingdan ortiq qo‘shinga “dars” berib qo‘yishi va dushmanni qochishga majbur qilish epizodi Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiy asarlaridagi tarixiy qaydlar bilan mushtarak”¹⁵⁸.

Sharq xalqlari hayotida o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur shaxsi oradan asrlar o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bir qancha bahslarga sabab bo‘lgan. Shu vajdan bo‘lsa kerakki, Temur shaxsiyati va adabiy asarlarga ko‘chgan obrazi to‘g‘risida turli tadqiqotlar yaratilmoqda. L.Keren “Amir Temur sultanati” nomli asarida: “Bizga ma’lum bo‘lgan sharq olamida Sharafuddin Ali Yazdiy hamda Ibn Arabshohning yuqorida nazarda tutilgan asari, Yevropa ilmida esa Volterning “Tarix haqida esse”laridan biri Amir Temurga bag‘ishlanganligini alohida ta’kidlaydi. Volterdan andoza olgan italyan va ingliz dramaturglari Sohibqiron xususida pyesalar yaratganlar.

¹⁵⁷ Dadaboyev O. G‘arb va sharq adabiy kontekstida Amir Temur shaxsi talqini. Filol.fan.fal.dok.diss. T., 2019. – B.57 .

¹⁵⁸ O’sha manba. – B.16 .

Gyote “G‘arb-u Sharq devoni”ga kiritilgan poemalarida Amir Temurni ko‘p bora tilga oladi, qiziqarli tavsiflarida hatto kun kelib, Sohibqiron haqida asar yozish maqsadida ekanligini ham bildiradi. O‘zidan avval yashab o‘tgan tadqiqotchilarining haqiqatdan uzoq tahlillaridan ko‘ra, ishonchli manbalardan foydalangan adib Jan Oben aniq dalillarga tayanib yozgan ikki maqolasida bu buyuk zotning kuchli va murakkab obrazini yaratishga intilgan, lekin “Amir Temur shaxsi va faoliyatining sir-u asrori ochib berilmaganiga amin bo‘lamiz”,- deb yozgan edi¹⁵⁹.

Tarixiy voqeilik badiiy asarning syujeti bilan uzviy bog’liqlikdagi kompozitsiyaga aylantirgan asarlar sirasiga kiradigan G‘arb adabiyotshunosligida Vashington universiteti kutubxonasida saqlanayotgan Amir Temur haqida yana bir Angliya tuprog‘ida yaratilgan, hali bizga ma’lum bo‘lman yangi tragediya saqlanmoqda. Asar dastavval, “Dramaning uch asri. Angliya. 1642-1700”, keyinroq “Angliya va Amerika sahma asarlarining uch asri. 1500-1830” seriyalarida nashr qilingan. Besh pardalik, oltmis besh sahifadan iborat bu tragediyada Tartariya imperatori Tamerlan, turklar imperatori Boyazid, Amir Temur o‘g‘illari Arzanes bilan Mandrikard, shuningdek, Odmar, Abdalla, Aksalla, Zanches (bu ismlar, albatta, to‘qima) kabi a’yonlar ishtirok etadi. Asarda ayollar obrazlari ham bor, bular Boyazidning qizi Asteriya, Mandrikardning xotini Ispatiya va Asteriya kanizagi Zaidalardir. Qizig‘i shundaki, muallif o‘z asariga: “Bu tragediya g‘oyasi haqida “I drew the design of this play, from a late novell, call’d Tamerlane and Asteria”, “Tamerlan bilan Asteriya” deb ataladigan so‘nggi romanimdan olib yaratdim”, degan so‘zlarni ilova qiladi. Demak, uning yuqoridagi kabi nomlangan romani ham bo‘lgan. Edgar Allan Po esa (1809-1849) Okean orti yurt she’riyat dunyosiga Amir Temur obrazini olib kirgan shoir hisoblanadi. Adibning ilk ijod namunasi “Tamerlan va boshqa she’rlar” nomi ostida 1827-yili bosmadan chiqqan bo‘lib, bu kichik to‘plamidagi boshqa she’rlar orasida yirik hajmli “Buyuk Temur” dostoni Sharqlik sarkarda Sohibqiron siymosiga

¹⁵⁹ Amir Temur o‘gitlari. – Toshkent., “O‘zbekiston” nashriyoti, 2007. – B.6.

bag‘ishlangan. Dostonda Amir Temur kuch-qudrati beqiyos, g‘ayratga to‘lgan qahramon, shon-shuhratga intiladi, hukmron bo‘lishni istaydi, bo‘lganda ham dunyoga hukmronlik qilishni xohlaydi, mahbubasini esa malika qiyofasida tasavvur qiladi. Dostonda sevgi-muhabbat mavzusi bosh mavzuga aylanadi. Ma’shuqasidan ayrilgan Temur qattiq iztirob chekadi, ammo shu qurbanlik o‘laroq jangu jadallar uchun yaratilgan bu sarkarda Samarqandda nafosat va go‘zallikni ulashmoq niyatida bunyodkorlikka shahd etadi. Bu tufayli “ro‘yi zamin sayqali”ning turkiy xalqlarni birlashtiruvchi jannatiy maskan sifatida barpo etilgani aytilib o‘tiladi. Shoir “Samo kentlariaro eng yorug‘ yulduz” deb ta’rif etayotgan bu maskan naqshlarida Sohibqironning yurt obodonchiligiga oid orzulari jamuljam etilganligi ta’kidlanadi.

Amir Temur haqidagi lavhalar XX asrning boshlarida turkiy tilda yozilgan Salohiddin Toshkandiyyining “Temurnoma” (yoki Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi) asarida xalqona afsonalarga hamohang tarzda tasvirlangan: Temur dunyoga kelgandan keyin Zanjir Sara qudug‘idan qirqta qul suv tortadigan qovg‘ani yolg‘iz o‘zi tortib odamlarga suv ulashadi. Mana shunday tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, Temur ertak yoki epos qahramonlari singari, xalq orzusidagi va idealidagi qahramon va hukmdor sifatida tasavvur qoldiradi. Ayniqsa, uning tug‘ilish sahnasining o‘ziyoq ya’ni Zuhal va Mushtariy sayyoralarining yaqinlashuvi davrida tug‘ilgan o‘g‘il Sohibqiron-uning toleyi umri oxirigacha iqboli mas’ud bo‘lishi aytilgan. Chunki, “Shul soatda tangri taborok va taolo olamni yaratibdur, har farzand shul soatda tavallud topsa, oning toleyi oxir umrigacha doimo iqboli ma’suddir”¹⁶⁰. Asarda shuningdek, Qaysari Rum g‘orining ichida Aristotelus yozib qoldirgan lavhada bu g‘orda Iskandar uning tavalludidan sakkiz yuz yil o‘tib, Rasuli Akram uning tug‘ilishidan shuncha vaqt o‘tib, Iskandari Soniy dunyoga kelgani bashorat qilinadi.

M.Brion Sohibqiron haqida muallif tilidan muallif-qahramon tarzida asar yozishga kirishar ekan, uning nafaqat kuchli diniy bilimga ega davlat

¹⁶⁰ Toshkandi S. “Temurnoma”. Nashrga tay. va so‘zboshi muallifi P. Ravshanov.T., 1990. – 351 b.

boshqaruvchisi ekanligini, balki xalqaro aloqalari va ichki siyosatini ham yuksak baholaydi. Mohir diplomat o'tkir siyosatchi va qattiqqo'l hukmdor Amir Temur o'z nutqlarida, arab muarrixlari-yu ajnabiy elchilar bilan qurban suhbatlarida hamda, Yevropa hukmdorlari bilan yozishmalarida Fransiya qirollariga xos donoligi-yu fikr va tuyg'ularining saraligini namoyish etardi... Temur qurban sultanatning huquqiy asoslari samaradorligini Napoleon joriy qilgan Kodeks tamoyillari keltirgan foydalilik darajasiga taqqoslash mumkin. M.Brionning e'tiroficha, Temur ilm ahllari bo'lmish olimlar, diniy ulamolar, nazmiy shoirlar va barcha san'atkorlarni o'z himoyasiga olar, ularga davlat rahbari sifatida g'amxo'rlik qilardi. Uning jamiki harakatlari taktik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, unga din va sipoh ahli posboni yuksak darajada madaniyatli sarkarda, rahnamo deya shon-u shuhrat keltiradi. Bolaligida bir nechta shayxlardan tarbiya olgan, ulg'aygach esa harbiy yurishlari asnosida turfa mamlakatlarning eng bilimdon insonlari bilan suhbatdosh bo'lgan Amir Temur shubhasiz madaniyatni chuqur hurmat qilgan, ilm-fan muammolariga e'tibor bilan yondashgan. M.Brionning "Temur tuzuklari" haqida uning o'z farzandlariga bergan o'gitlari haqida shunday yozadi "Janglar siyosat va diplomatiya unga quyidagi oddiy haqiqatni o'rgatgan edi. "Nodon do'stdan dono dushman afzal", O'n ming kishi bilan uzoqdan yurgandan qo'ra, "o'n kishi bilan zarur joyda bo'lgan ma'qul" kabi. O'z muhriga "Kuch adolatda" deb yozdirganida u haq edi. U o'z farzandlariga davlatni boshqarish haqidagi quyidagi o'gitlarni bergan edi: "Saltanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan bo'lg'ay, yana bir qismi esa o'zingni bilib-bilmasikka, ko'rib-ko'rmaslikka solish ila bitur"¹⁶¹. Temur o'g'li Mironshohga Xalokuxon uluslarini topshirar ekan, shunday nasihat qilgan: "Sen o'z nomingni abadiylashtirish zaruriyatini ko'rmog'ingda va bu fony dunyo voqeа-hodisalaridan yiroq turmoq chorasini topmog'ing lozim. Yuksak madaniyatli Yevropa qirollari ham shunday degan bo'lardilar". Marsel Brion Amir Temurning ismi tarixda abadiy qolajakligiga ishonadi. Jasur jangchilarni taqdirlashdagi saxovat

¹⁶¹ Temur tuzuklari. – T.: "O'zbekiston". – B.130.

bahodirlarga iltifoti janggohlarda ko'rsatgan shaxsiy jasoratlari el orasida uning obro'sini oshirib, o'z nomini afsonalarga joylay oldi. Uning Yaratgan tomonidan ilohiy qo'llanganligi va jangda beqiyosligi haqidagi ko'plab asarlar, tarannum etuvchi madhiyalar balki, Markaziy Osiyoda ayni davrda ham jaranglamoqda. U ilohiy qudrat sohibi bo'lган buyuk sarkarda, mohir siyosatchi, bunyodkor sifatida, barlos urug'i vakillari orasida ularning oddiy xislatlarini ulkan madaniyatga daxldorliklarini mushtarak etgan inson sifatida tarixda qoldi. Ana shu paytda Osiyo markazidan otilib chiqqan Amir Temur o'zining tarixiy vazifasini muvaffaqiyatli o'tadi. Biroq uning shaxsi naqadar buyuk bo'lishiga qaramay, u qandaydir ma'noda o'z xalqlari va mamlakatining milliy orzu-o'ylarini ro'yobga chiqarishiga otlangan o'z zamondoshlari va ajdodlarining xotiralarini o'chira olmaydi.

Shuningdek, 1916-yili "Ingliz adabiyoti tarixi" asari Elizaveta davrining dastlabki dramalari ruknida (The earlier Elizabethan drama), Robert Fletcher nomli tadqiqotchi Amir Temur siymosini Kristofer Marloning "Buyuk Temur" dramasi asosida talqin etish yuzisidan ilmiy tahlillar olib borgan. Uning qarashlariga ko'ra, Temur aslida skif xalqining sardori ekanligi, XIV asrda G'arbiy Osiyo va Sharqiy Yevropada katta hududlarni zabit etgani, bu haqida esa K.Marlo o'z dramasida va XVI asrga oid lotin manbalarida ko'p bora tilga olingani hamda dramadagi ishqiy voqealar muallifning ijodiy to'qimasi ekanligi ham qayd etilgan.

Amir Temur haqida G'arb va Sharqda turli rivoyatlarning, tarixiy manbalarning vujudga kelishi, uning bu hududlardagi badiiy adabiyotda "tug'ilishi"ni ham tarixiy zarurat taqozo qilgan edi. O'z taqdirini xalqi va davri taqdiri bilan bog'lash- mualliflardan tanlab olingan tarixiy shaxs taqdirini millat tadqidiga monand badiiylikka olib kirishi ham muhim prisip sanalib bu tanlab olingan shaxslarning arzirli hayot yo'llari bilan asoslanadi. Ayni shu taqdir faqat Sohibqiron Amir Temurgagina xos emas, balki Aleksandr Makedonskiy, Doro I, Yuliy Sezar, Chingizzon, Yildirim Boyazid, Ivan Grozniy kabi buyuk sarkardalar, davlat arboblari, o'z siyosiy faoliyat va shaxsiy salohiyatiga ko'ra butunjahon e'tiboriga molik bo'lган titanlarga ham daxldor.

Amir Temurning XVI asr ingliz adabiyotida badiiy obraz sifatida paydo bo‘lishi ham aynan shunday tarixiy-madaniy zarurat sababli sodir bo‘ldi, deyish mumkin. Nega? Chunki, uzoq davr qariyb 150 yil antik adabiyotga taqliddan hayot kechirgan ingliz adabiyoti Uyg‘onish davriga qadam qo‘yar ekan, endilikda shu zaylda ish ko‘radigan bo‘lsa, Angliya madaniy muhitida ommalasha boshlagan gumanizmning g‘oyaviy tashviqotchisi sifatida o‘rta asrlarning ba’zi qarashlariga barham beruvchi kuch bo‘lib shakllanishga qodir bo‘lmay qolgan edi.

Adabiy meros va adabiy jarayon shundan dalolat berib turardiki, bu vazifani uddalash uchun, antik adabiyot qahramonlariga (an’anaviy shaklda) qayta-qayta murojaat etaverishning o‘zi hech nima bermasligini gumanist san’atkorlar adabiy tajribalar mundarijasidan to‘la anglab yetgan edilar. Negaki, dastlabki ingliz gumanist adiblari Beyl, Sekvil, Norton, Nikolas Yndl, Tomas Kid, Frensis Bekon va boshqalarning antik adabiyot mavzulariga sajda qilib, an’anaviy asnoda, ular yaratgan dramalari sahnada uzoq yashay olmasdan, tez muvaffaqiyatsizlikka uchragani buning yaqqol dalili edi. Bu achchiq tajriba ingliz gumanistlari oldiga o‘zida gumanistik g‘oyalarni mujassam etajak siymoni endilikda antik davrdagi afsonaviy qahramonlar qavmidan emas, balki real hayotdan, yaqin tarixdan, aniqrog‘i o‘z faoliyati bilan gumanistik g‘oyalarning targ‘iboti silsilasida siyosiy arbob, sarkarda va bunyodkor tarixiy shaxs sifatida namuna bo‘la oladigan siymolar qavmidan qidirish vazifasini qo‘ydi.

Kristofer Marlo (Christopher Marlowe) (1564-1593) ingliz dramaturglari orasida yorqin vakillaridan biri. Yelizaveta davri ingliz shoiri, aktyor va tarjimoni, Shekspirdan oldin ijod qilgan buyuk adiblardan biri edi. Shekspir zamondoshlari orasida Marlodek fojiaviy shaxs yo‘q, Temur va Faust haqidagi buyuk afsonaviy asarlarni yaratib, o‘zi ham vafotidan keyin afsonaga aylandi. Aynan u “Universitet donolari” nomi bilan mashhur bo‘lgan guruh a’zosi sifatida XVI asr ingliz teatri rivojiga sermahsul ta’sir ko‘rsatdi. Bu dramaturg asarlarida ikki madaniyat an’analari qo‘shilishi sodir bo‘ldi, uning asarlari o‘rta asr xalq teatri va ilmli gumanistik dramalari namunalari edi. Ayni shu davrda Marloning ilk o‘n pardalik katta tragediyasi “Buyuk Temur” sahna yuzini ko‘rdi. Ma’lumotlarga ko‘ra

dramaturg sifatida faoliyat boshlamasidan oldin, Marlo aktyor bo‘lgan, biroq oyog‘i singani bois, aktyorlik faoliyatidan voz kechishiga majbur bo‘lgan. Uning “Buyuk Temur” asari unga ingliz zamondosh dramaturglari orasida eng yuqori pog‘onadan joy ajratdi, bu pyesa shov-shuvli va davomli muvaffaqiyatga ega bo‘ldi. Drama prologida muallifning drama san’atiga yangi uslublarni kiritish niyati ko‘zga tashlanadi: tomoshabinni tarixiy voqealar tafsiloti, qirolliklar va xalqlarning vayronagarchilikka duchor bo‘lish sahnalari ila tomoshabin e’tiborini jalg etdi.

Yana bir Marloshunos tadqiqotchi-Tomoko Vakasa ingliz sahna asarlarida qilichbozlik ko’rinishlaridan foydalanish mavzusiga bag‘ishlangan tezisida ham o‘z navbatida “Buyuk Temur” tragediyasini eng ahamiyatli asarlaridan biri deb, hisoblab, shunday fikr bildiradi: “Tamburlaine the Great, one of the most influential works written by Christopher Marlowe and first performed in 1587”. Ya’ni, “1587-yilda sahnalashtirilgan Kristofer Marloning “Buyuk Temur” nomli ilk asari uning eng sermahsul ishidir”¹⁶². Kristofer Marloning Amir Temur haqidagi dramasi ingliz adabiyotida Sohibqiron haqida yaratilgan eng mashhur va yuqori saviyaga ega bo‘lgan asarlardan biridir. Muallifning shu va boshqa asarlari (“Matalik yahudiy”, “Edvart II”, “Parijdagi qirg‘in”) qirolicha Yelizaveta hukmronligi davrida gullab-yashnagan ingliz adabiy muhitida katta o‘ringa ega bo‘lgan. Ingliz adabiyotshunoslari Kristofer Marloning asarlari jahon dramaturgiyasining eng sara namunalarini yaratgan ulug‘ ijodkor – Uilyam Shekspir ijodining kamolga yetishida katta ta’sir ko‘rsatganini alohida e’tirof etadilar.

K.Marlo ingliz dramasiga katta o‘zgarishlarni kiritdi, ilgari ommalashgan qonli janglar, masxarabozlik va qo‘pol hazilomuz sahnalariga boy bo‘lgan tragediyalardan voz kechib, u birinchi bo‘lib, dramada voqealar rivojini ketma-ketligini va yaxlit bir psixologik yo‘nalishni shakllantirishga harakat qilgan.

¹⁶²T.Vakasa. The great Temburlaine by Christopher Marlowe. – Turin., 1989.

Tarixiy davr voqeligin tasvirlash va talqin etish tarixnavis yozuvchi oldidagi murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki, bo‘lib o‘tgan voqealarni tarixiy manbalarga qiyosan o‘rganish, ulardagি turfa xil qarashlarni mantiqan umumlashtirib, xolisona baho berish yozuvchidan kuchli iste’dod va ijodiy salohiyatni talab etadi.

Yevropalik va osiyolik muarixlarning solnomalarini o‘rganar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda Temurning boshqa fotihlar va sultanatlar asoschilaridan ancha murakkab, ziddiyatlarga to‘la qiyofasi namoyon bo‘ladi. U Otilaxon kabi o‘z yurishlarining ayrim lahzalarida kuch ishlatadi, Chingizxon kabi shafqatsizlik ham ko‘rsatadi, Aleksandr Makedonskiy kabi o‘zi zabt etgan o‘lkalar fani, madaniyati va san’atining shaydosi sifatida ko‘rinadi. Kitobxon yashayotgan davr nuqson yoki ehtiyojlarini tarixiy fabula asosida yaratilgan badiiy asarga olib kirish orqali nafaqat kitobxonda o’sha davr ruhiyatini bera oladi balki ayni zamon muammolariga yechimlarni ham yozuvchi o‘z ijodiy orzulari kabi gavdalantiradi. O‘zi yuritgan mohir siyosati tufayli uni Ispaniya qiroli Filipp II ga va Fransiya qiroli Karl V ga taqqoslash mumkin. U Pyotr I va Lyudovik XIV kabi uzoqni ko‘ra biladigan davlat arbobi bo‘lgan va sultanati poytaxtini yuksak did va nafosat bilan bunyod etgan. Uning qilgan ishlari, uy-fikrlari, his-tuygularini oddiygina va jiddiy aks sadolar tizimiga solish bu savlatli shaxsni barcha ko‘lankalardan, o‘ziga maftun qiluvchi, ham chalg‘ituvchi taxminlarning barcha ko‘rinishlaridan xalos etadi.

Amir Temur o‘ta mohirona yuritgan tashqi siyosati qat’iy talablar va makr-hiylalarga shunchalar boyki, bu siyosatning bosh yo‘nalishi va asosiy omillarini ajratib olish juda mushkul. Yashindek zarba berishga qodir bu qiziqqon inson sabr-bardoshli ham bo‘lib, biror nodon raqibni chalg‘itish (yo‘ldan ozdirish) uchun, kezi kelganda o‘zini ko‘r va kar ham qilib ko‘rsata olardi. Aynan mana shu nomdag‘i ma’lumotlar Ibn Arabshoh asarida ham keltirgan. Amir Temur eng og‘ir holatlardan ham ustalik bilan oqilona chiqib keta olgan. U o‘z faoliyati boshida, Osiyoni zabt etishga shaylanganida, Yevropaga keyingi yurishlar uchun mo‘ljallangan maqsadlarda, uning yonida tom ma’noda bir xovuch, lekin uning

uchun jonini ham berishga tayyor hamrohlari bor edi, xolos. Keyinchalik, Osiyoning barcha xalqlari vakillaridan tashkil topgan behisob lashkarlari ham uni sevib, ardoqlab, ortidan ergashib yurishardi. Shunday tasvirlarni berishda mualliflar badiiy xronotop tasvirlariga, joy, makon, davr tafsilotlariga tasvir berish orqali badiylikka tarixiylikni olib kirgan. O‘tmish insonlarning makonlari tasvirlari orqali o‘sha davr obodligi yoxud vayronalar haqida tasavvur uyg‘otilishi kitobxonni o‘sha davr ruhiga yaqinlashtiradi.

Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temurning tarix zarvaraqlaridan, bevosita jahon adabiyotidan asosli o‘rin olishi ham bejiz emas. Uning harbiy yurishlarida ham, xalqning manfaati hisobga olinar, ularning turmush darajasiga ham e’tibor berishi uning insoniy fazilatlaridan dalolat berardi. Shunday bir holatda tarixiy mavzuda asar yozadigan ijodkor teran ijodiy qobiliyat, uzoq vaqt mobaynida talab etiladigan ilmiy izlanish bilan siz-u bizga qorong‘u bo‘lgan murakkab o‘tmish voqelagini va chigal insoniy taqdirlarni bugungi kunning dolzarb masalalariga bog‘liq bo‘lgan umumbashariy munosabatlar bilan uyg‘unlashtira olgan holda talqin qilsagina, tom ma’nodagi tarixiy roman yaratiladi. Amir Temur haqida uning avlodlari xususida yaratilgan asarlarining umrboqiyligini ham ana shu fazilatlar belgilab turadi. Tarix voqelagini qayta hikoyalash bilangina tarixiy roman yaratish bu ijodkor shaxsini tarixchi olimga yaqinlashtiradi, xolos.

Tarixiy romanchilikda yozuvchi estetik ideali birmuncha cheklangan bo‘ladi. Negaki, ijodkor o‘z ijodiy maqsadini amalga oshirish uchun tarix voqelagini noto‘g‘ri talqin etishi mumkin emas. Aksincha, tarixiy jarayonlar, ulardagi insoniy taqdirlar va davr voqeliklarini butun borligicha mahorat bilan bugungi kun kishisiga yetkazib berish ular oldidagi muhim vazifa. Lekin yuqoridagi kabi romanchilik talablarini ayrim hollarda tarixiy romannavislar istisno etgan holatlar ham ko‘plab uchrab turadi. Bu tarixiy shaxslarning chizgilarini berishda tarix haqiqatini chetlab o‘tish hodisasiadir. Shu holatda ko‘pincha tarixiy shaxslarning millat tarixida amalga oshirgan ijobiy ishlariga asosan katta e’tibor qaratiladi, urg‘u beriladi. Ammo, inson sifatidagi ular yo‘l qo‘ygan xatolar, adashishlar, kamchiliklar haqida lom-lim deyilmaydi yoki noxolis

talqin etish holatlari ko'zga tashlanadi. Shunga o'xshash vaziyatlarni sho'ro davri tarixiy romanchiligidagi ko'proq uchratamiz. Bugungi avlod o'zining buyuk ajdodlari amalga oshirgan ezgu amallarini bilishi bilan bir qatorda, ular yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini ham anglab yetishi, xulosa chiqarishi zarur. Ayrim hollarda bir tarixiy davr voqeligini yoki tarixiy shaxslar obrazini gavdalantirishda yozuvchilar o'z dunyoqarashlari, ijodiy niyatlariga ko'ra turfa rakurslardan yondashganligini ko'rishimiz mumkin. Komparavistikada qiyoslanishi mumkin bo'lган tipik vaziyatlardan biri bir makon lekin turli zamondagi adabiy hodisalar qiyosida¹⁶³ tarixiy manbalarda keltirilgan voqealarning adabiy asarlarga qay tarzda ko'chilishi oydinlashadi, Jumladan, Shohrux Mirzo o'z davrida sodir bo'lган bir isyонни bostirgandan keyin poytaxtga qaytayotganida vafot etgan. Ana endi yuqoridagi tarixiy voqelik va badiiy asarda keltirilgan manbani o'zaro qiyoslasak: Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida din niqobi ostidagi buzg'unchi aqidaparast xo'jalar shahzodani isyonga chorlagani aytildi va uni Shohrux Mirzo qatl qilgani ta'kidlansa, bu tarixiy ma'lumotlarni Davlatshoh Samarqandiyning keltirishicha, esa sayyidlar Gavharshod begin ta'siri ostida Shohrux Mirzo qo'li bilan qatl ettiriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Amir Temur davrida ham Ulug'bek davri xo'jalar, sayyidlar va boshqa diniy toifa vakillariga zug'um qilinmagan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnomasidan" o'qiyimiz, "Amir Temur Toshkent..dan o'tib, Yassiga bordi va Xoja Ahmad Yassaviy mozorini ziyorat qildi, buyurdikim, ul mozor ustiga imorati oliy soldilar va bir ulug' toq (gumbaz) bog'ladilarkim, ko'k bilan so'zlashuv erdi". Demak, Temurbek Ko'ragon o'tgan aziz avliyolarning mangu yotgan maskanlariga hurmat ko'rsatur, din peshvolarini e'zozlar, doimo Mir Said Barakadek pirlarining maslahatlariga qulqoq tutar edilar. Xatto, o'g'li Mironshoxni otasi qahridan qutqarib qolgan ham mana shu pir edi. Aynan shu masalada Temuriy shaxzodalardan Shohrux Mirzoning shaxsiyatiga nazar soladigan bo'lsak, taqvodor din peshvosi sifatida bunday ishni amalga oshirgani, endi bu uning ham bir inson sifatidagi xatosi yoxud saltanat tinchligini

¹⁶³ G. Xalliyeva. Qiyoziy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020. – B.20.

o‘ylab qilingan hukmdorlarga xos harakati sifatida baholash joiz. Lekin keyinchalik, Shohrux Mirzoning vafot etishi undan keyin uning avlodlari Ulug‘bek Mirzo va uning o‘g‘li Abdulaziz Mirzolarning o‘z inisi Abdulatif Mirzo tomonidan qatl etilishi, ma’lum vaqtidan keyin esa Abdulatif Mirzoning ham o‘ldirilishi-yu Abusaid Mirzo tomonidan keksayib qolgan Gavharshod beginning qatl etilishidan tortib, Shohrux Mirzo avlodlarining butunlay qirg‘inga uchragani qaysidir ma’noda Davlatshoh Samarcandiyning qarashlarini tasdiqlaydi. O‘z o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz kerakki, yuqorida tahlillar bizning qarashlarimiz xolos. Ayni Rey yurishi voqealari haqida Pirimqul Qodirov boshqa tarixiy manbani asos qilib olgan bo‘lishi ham mumkin. Keyingi masala ham Shohrux Mirzo shajarasini bilan bog‘liq tarixiy murakkab jarayon hisoblanib, bu ham bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek va uning o‘g‘li Abdulatif o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlar va ularning fojiaviy yakuni masalasida bo‘lib, tarixiy manbalar va adabiy talqin masalasidagi turfa xillik halihanuz davom etmoqda va yakdil fikr bildirilmagan, fikrimizcha, bu murakkab tarixiy jarayon xususidagi rang-baranglik bundan keyin ham davom etadi. Bu fojianing sababchisi o‘laroq, Abdulatifning shuhratparastligi, toj-u taxtga o‘chlik ishtiyoqi hamda, ruhan sog‘lom emasligi ro‘kach qilinadi va faqat Abdulatif Mirzo asosiy aybdor sifatida talqin qilinadi.

Mustaqillik davri o‘tmish shaxslarining badiiy asarlarga jumladan, Temuriy shaxzodalar haqida ijod etgan adiblardan soni oshdi. Tarixiy shaxslar va davrni yoritishni maqsad etgan yozuvchilar o‘z uslubida tarixiy to‘qnashivlarni keltirib chiqargan tarixiy –siyosiy vaziyatlarga o‘z munosabati va o‘ziga xos tasvir yo‘slnlari ham muhim prinsip sanaladi. Jumladan, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” (to‘rtinchi kitob “Shohrux Mirzo”) va Nurali Qobulning “Jahon mulkining sultonasi, yoxud Fotih Temur va Yildirim Boyazid” nomli milliy tarixiy romanlari misolida qiyosiy tahlil qilish va ushbu tarixiy to‘qnashuvni keltirib chiqargan tarixiy-siyosiy vaziyat va unga ijodkorlarning munosabati va o‘ziga xos tasvir yo‘slnini tadqiq etamiz. Xususan, Nurali Qobulning “Jahon mulkining sultonasi, yoxud Fotih Temur va Yildirim Boyazid” asari to‘lig‘icha Anqara jangi talqiniga bag‘ishlanadi. Ushbu tarixiy romanda turkning ikki buyuk o‘g‘loni

o‘rtasida bo‘lib o‘tgan, jahonni larzaga keltirgan Anqara jangining kelib chiqish sabablari va uning shu paytgacha yoritilmagan jihatlariga keng e’tibor berilgan va bu jangning dunyo tarixidagi ahamiyati haqida keng va batafsil badiiy tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Muhammad Alining “Ulug‘ sultanat”ning yakunlovchi to‘rtinchi kitobi 1400–1409-yillar voqealariga bag‘ishlangan. Unda Amir Temurning ushbu yillardagi harbiy-siyosiy faoliyatiga keng o‘rin berilgan. Shu jumladan, Amir Temur va sulton Yildirim Boyazid o‘rtasida bo‘lib o‘tgan tarixiy muhoraba va uning dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni xususidagi tasvirlar ham batafsil talqin etilgan.

Haqiqatan, ushbu ikki buyuk hukmdor bir tarixiy sharoitda hukmronlik qilgan, davlatchilik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bir-birining kuch qudrati, siyosiy ta’sir doirasi bir-biridan qolishmas edi. Amir Temur va Yildirim Boyazid o‘rtasida bir muddat elchilik aloqalari yo‘lga qo‘yilib, o‘zlarining maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladi, bu yo‘lda ma’lum muddat o‘zaro diplomatik aloqalar ham o‘rnataladi.

Alovida qayd etish kerakki, o‘zbek adabiyotshunosligida Amir Temur va Temuriy shahzodlarga bag‘ishlab, uch yirik epik polotno yaratilgan: Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Muhammad Alining “Ulug‘ sultanat”. Ularning barchasi uchun umumiylilik kasb etgan xususiyat bu polotno asarlarda XV-XVI asr boshlaridagi temuriylar davri tarixiy muhiti, sharoiti to‘liq va haqqoniylashtirishga olingan bo‘lib, murakkab tarixiy sharoitda yashagan bu tarixiy shaxslarning murakkab, ruhiy kechinmalariga, dramatik voqealarga boy hayot yo‘llari tasvirga olingan. Aynan mana shu fikr barcha adabiyotshunos olimlar mulohazalarining asosiy pafosi, o‘zak nuqtasi¹⁶⁴ bo‘sada har bir ijodkor o‘z uslubida va o‘z ijodiy niyatiga qarab bu davrlarni turlichalashtirishga etgan.

Asar voqealarini Z.M.Bobur haqida bitilgan tarixiy manbalar bilan solishtirish asnosida ishonch hosil mumkinki, P.Qodirov eng ishonchli manbalarni taqqoslab,

¹⁶⁴ Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini. Fil.fan.nomz.diss. – Toshkent., 1999. – B.17.

tarix haqiqatiga yaqin, tarix fantaziyasini inkor etmagan ma'lumotlarga gagina badiiy tus berishga intiladi. Jumladan, Gulbadanbeginning "Humoyun nomasi" asarida keltirilgan voqealardan xabardor kitobxon "Yulduzli tunlar" da o'qiganlari bilan tafovut sezmaydi, aksincha, bu voqeliklar yanada badiiy tahrirlanganiga, o'quvchining qalbiga kirib borishga qadar harakat qilinganiga amin bo'ladi. Tarixiy faktlar, hujjatlar bilan badiiy kashfiyotni qiyoslashgina yozuvchini qanchalik xayolotlarga berilib ketganligini asoslab beradi. Ammo, har bir asarda bosh qahramon bilan parallel yashaydigan, u bilan yonma-yon bo'lsa-da, begona muhitdan yulib olingan to'qima obrazga ehtiyoj sezadi. "Yulduzli tunlar" da Tohir, "Ulug' saltanat"da Axiy Jabbor obrazlari mana shunday qahramonlardir. Ular, ijodkor bu badiiy obrazlariga o'zgacha bir muhabbat bilan, o'zining aksariyat ideallarini mana shu ikkinchi darajali obrazga singdirgan holda asarni yanada o'qimishli qilishga erishadi. Ko'zda tutilgan sharoit, zamon va makoniylablar, bosh qahramonni olisdan boshqa bir voqelikka bog'lab ketish uchun ham ular zarur. "Ulug' saltanat" tetralogiyasidagi Axiy Jabbor obrazi orqali muallif Amir Temur haqida unut bo'lib ketayozgan "Sarbadorlar" harakatini eslab o'tishni asar voqeliklariga ulab ketadi. Bu ikki qahramon xalq tantiligi, oljanobligi, sodiqlik va yozuvchi qalbidagi orzularini o'zida tashiydi. Haqiqatdan ham adabiyotshunos olim P.Shermuhammedov ta'kidlaganidek, "Bu obrazlar bo'Imaganida bosh qahramonlar obrazi xira chiqqan bo'larmidi?"¹⁶⁵

Temuriylar sulolasining faxrli vakili Z.M.Bobur haqida bitilgan ushbu asar bir necha marotaba o'zbek va rus, shuningdek, dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilindi. Asarni o'qigan har bir kitobxonning ijodiy jasoratiga ushbu asar bosh qahramoni yanada jasorat qo'shdi, har qalbda "tarix haqiqatiga sadoqat"ni (U.Normatov) saqlab qola oldi. Ammo shunga qaramasdan, ushbu asar qator tanqidlarga ham uchradi. Ko'p orinlarda Bobur ichki dunyosini izchil ifodalash o'rni, voqealar silsilasini faktlarga ko'mib, harbiy yurishlar izohiga berilib ketishda, romanning syujet-kompozitsiyasi e'tirozlar uyg'otishi aytib o'tildi.

¹⁶⁵ Shermuhammedov P. Ruhiy dunyo ko'zgusi. –T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1971. – B.165.

“Pravda Vostoka” gazetasida “Tarix haqiqatiga zid” nomli maqola e’lon qilindi. Bu asarga yonma-yon Aziz Qayumovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasi tanqid ostiga olindi. M.Vahobov tomonidan esa muallif tarixiy haqiqatni noto‘g’ri badiiy talqin etgan deb izohlandi¹⁶⁶. Bobur obrazi ideallashtirilganligi, asarda jangovar hayot targ‘iboti kuchli ekanligi, lekin shunga qaramasdan, Boburning lashkarboshilik iste’dodi sust yoritilganligi borasida munosabatlar bildirildi. Bizningcha esa, Z.M.Bobur yashagan zamon shart-sharoiti, ushbu tarixiy siyemoni olib berishdan, badiiy inkishof etish maqsadidan kelib chiqqan holda, shoh va shoirning badiiyatdagi obraz sifatidagi talqini muvaffaqiyatli chiqqan. Chunki, inkor etib bo‘lmas haqiqat bor – Boburning to‘liq umri jangu jadallarda, yurtini qaytarib olish, sargardonlik, o‘zga yurtlarda ildiz otish harakatlarida o‘tdi. Shunga qaramasdan, asarda tarixiy shaxs bo‘lgan Z.M.Bobur olib borgan asl janglarning yarmi ham tasvirlangani yo‘q, aks holda, asar tarixiy jangnomma tusiga kirib qolgan bo‘lardi. Ammo berilgan janglar lavhalaridan “Laho‘r, Panipat, Dehli” bo‘limida Boburning bobosi Temurbek singari harbiy sarkardalik salohiyati, harbiy siyosat va zarb berish borasidagi mohirligi yetarlicha badiiy yetkazib berishga harakat qilingan. Yuz minglab askar, bir yarim ming harbiy filga ega Dehli sultonni Ibrohim Lodiga qarshi o‘n ikki ming askar bilan jangga kirishi¹⁶⁷ jasorati, harbiy taktikasi asarni yetarlicha ta’sirchan bo‘lishiga hissa qo‘shgan.

Z.M.Bobur singari temuriyzoda shahzodalar haqida bitilgan Muhammad Alining ko’plab asarlari ham tarixiy haqiqatni badiiy adabiyotga olib kirgan asarlardan sanaladi. Adibning “Ona tarix kamoli”, “Xalq yaratgan daho”, “Sohibqiron farzandlari”, “Amir Temur chamani”, “Buyuk obida”, “Odamiylikning buyuk timsoli”, “Qutlug‘ xonadonning ulug‘ sohibi”, “Amir Temur haqida so‘z”¹⁶⁸ kabi yuzga yaqin maqolalari chop etilgan bo‘lib, bu borada

¹⁶⁶ Ваҳабов М. Правда истории вопреке. // Правда востока. 1986. 4 дек.

¹⁶⁷ Qodirov P.Yulduzli tunlar. Bobur. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 1990. – №3; 378 b.

¹⁶⁸ Муҳаммад Али. Амир Темур ҳакида сўз.// “Central Asia monitoring” журнали, 1996. – №3; Муҳаммад Али. Она тарих камоли. // “Халқ сўзи” газетаси, 1997 йил, 9-апрель; Муҳаммад Али. Халқ яратган даҳо. // “Инсон ва қонун” газетаси, 2003 йил, 9 апрель; Муҳаммад Али. Соҳибқирон фарзандлари. // “Тошкент оқшоми” газетаси, 2003 йил, 9 апрель; Муҳаммад Али. Амир Темур чамани. Эссе. // “Халқ сўзи” газетаси, 2004 йил, 11-12 март; Муҳаммад Али. Буюк обида. // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 2005 йил, 11 март;

u to‘plagan tajriba ham P.Qodirovning singari boy ekanligini ko‘rsatadi. Har bir yozuvchining badiiy kashfiyoti tufayli tanlab olingan tarixiy shaxslarning ma’lum bir xarakter jihatlari badiiy asarda ta’sirli tarzda badiiy inkishof etiladi. Jumladan, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Nurali Qobul, Isroil Subhoniy, Muso Jalil hamda ingliz adiblari Amir Temur va temuriylar tarixiy shaxsining o’zi tomonidan tanlab olingan jihatlarinigina urg’ulaydi. Yozuvchining “Ulug‘ saltanat” epopeyasi yaratilgach, u haqda juda ko‘plab ilmiy kuzatishlar yuzaga keldi. Bular orasida adabiy tanqidning deyarli barcha janrlarini o‘zida jamlagan “Ulug‘ saltanat vasfi”¹⁶⁹ nomli to‘plam o‘zining ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi. To‘plamdan joy olgan Matyoqub Qo‘shtonov, Begali Qosimov, Baxtiyor Nazarov, Akmal Saidov, Pirimqul Qodirov, Ubaydulla Uvatov, Damin To‘rayev, Islomjon Yoqubov, Nusratullo Jumaxo‘ja kabi taniqli adabiyotshunoslarning maqolalarida tarixiy voqelikning badiiy talqini, mazkur tetralogiyani yaratishdagi adib izlanishlari borasida so‘z yuritilgan. Xususan, “Sohibqiron tashrifi” hikoyasi, ikki jiddan iborat “Sarbadorlar” romani “Ulug‘ saltanat” epopeyasining yuzaga kelishida muhim rol o‘ynagani ta’kidlanib, temuriyzodalar hayoti va faoliyatini yaratishda adibning badiiy kashfiyotlari tahlil etiladi. Adabiyotshunos olim Damin To‘rayevning “O‘zbek tetralogiyasi”¹⁷⁰ nomli kitobida Muhammad Alining mazkur roman epopeyasi tarixiy-qiyosiy metod asosida o‘rganilib, asosiy e’tibor tarixiylik va xronotop tasviri tahliliga qaratiladi. Yozuvchi tarixiy mavzuga qo‘l urar ekan, ko‘z o‘ngida buyuk fotih va sarkardaning shaxs va saltanat tuzish borasida qilgan mehnatlari turganligini diqqat markazida ushlab tura olishi bilan o‘z mahoratini ko‘rsatib bera oladi.

Amir Temur haqida u hayotlik chog‘idayoq ko‘plab muarrixlar, shoirlar, yozuvchilar bir qator asarlar yaratishga qo‘l urganlar. Shunday bo‘lsa-da, Sohibqiron Amir Temur bu yozilganlardan ko‘ngli to‘lmagan paytlari ham bo‘lgan. Ana shu “ko‘ngildagi bo‘shliq”ni to‘ldirish uchun u fors yozuvchisi,

Муҳаммад Али. Одамийликнинг буюк тимсоли. // “Инсон ва қонун” газетаси, 2005 йил, 5 апрель; Муҳаммад Али. Кутлуг хонадоннинг буюк сохиби.// “Тошкент оқшоми” газетаси, 2005 йил, 8 апрель.

¹⁶⁹ “Улуг‘ салтанат васфи”. – Тошкент.: Mashhur Press. 2017. – Б. 352.

¹⁷⁰ Тўраев Д. Ўзбек тетралогияси. – Тошкент.: Akademnashr. 2017. – Б. 212.

muarrix va husni malohatli kotib deya ulug‘langan Nizomiddin Shomiyni o‘z huzuriga chaqirib, “avom xalqqa tushunarli, sodda shaklda, ravon tilda va ayni paytda ma’rifatli kishilar e’tiboriga loyiq tarzda bir asar yozishini uqtirgan”¹⁷¹. Shu bois ham, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur shaxsi va uning harb yurishlari, tashqi va ichki siyosiy irodasi mufassal, go‘zal tarzda talqin qilingan. Yozuvchilar o‘zidan avval yashab ijod etgan tarixiy shaxslar haqida badiiy asar yaratishga kirishar ekan, o’tmish zamon tili va urf odatlari, dunyoqarashi, yozilgan va yozilmagan qonuniyatlarini o‘z zamondosh kitobxoniga ishonarli va ravon yetkazishi ham muhim jihatlardan sanaladi. Maqsud Shayxzoda ta’biri bilan aytganda yozuvchi o’sha zamon kishining yurish-turishi, uy-fikrlari bilan yashay boshlaydi. Muhammad Ali “Zafarnoma” singari qator tarixiy asarlardan ilhomlanib, o‘z poetik mahorati, iste’dodi, talanti va tajribasini yanada charxlagani sir emas. Ushbu asarda esa yozuvchining mahorati temuriy shaxzodalarni badiiy asarda inkishof etgan “Jahongir Mirzo”, “Umarshayx Mirzo”, “Mironshoh Mirzo”, “Shohrux Mirzo” jildlari orasidagi mantiqiy bog‘lamda asar syujet chiziqlarini o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlay olganida ko‘rinadi.

Xulosa qilganda, ayrim lavhalarni hisobga olmaganda, adiblar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha olgan deyish mumkin. Biroq, shunday bo‘lsa-da, asarlar vaqt o‘tishi bilan tahrirga ehtiyoj sezishi mumkin.

Bob bo‘yicha xulosalar:

1. O‘zbek adabiyotida Sohibqiron Amir Temurga bag‘ishlangan romanlar yaratish borasida katta ijodiy tajribalar to‘plandi. Muhammad Ali, Nurali Qobulning Temuriylar epopeyasi ruknidagi romanlarini so‘nggi yillarda Amir Temur haqida yaratilgan eng sara asarlar sifatida e’tirof etish mumkin.

2. Ingliz va o‘zbek tarixiy va badiiy romanlarining spetsifikasini, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish, qiyoslash, tahlil etish davomida ulardagi o‘zaro bog‘liqliklarning, ijodiy an’analarning izchilligi nazariy jihatdan tahlil qilindi. Bu esa adabiy aloqalarning bardavomligini ko‘rsatish bilan bir qatorda an’analarning

¹⁷¹ Ўринбоев А. Низомиддин Шомий ва унинг “Зафарнома” асари. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 5.

davomiyligini ham namoyon qilganligiga alohida e'tibor berildi. Bunda K.Marloning badiiy asari qahramoni sharqlik sarkarda prototipiga asoslanish sabablari yozuvchi badiiy estetik maqsadlariga hamohang tarzda tahlilga tortildi.

3. Ingliz va o'zbek tarixiy va badiiy romanlarining taraqqiyotidagi poetik ifoda shakllarining o'ziga xos tamoyillarining badiiy evolyutsiyasi, uning zamiridagi talqinlarning turli-tuman poetik qirralarini kashf etish yo'lidan borganligi ilmiy asoslandi. Bunda yozuvchi M.Alining "Ulug" saltanat" tetralogiyasining poetik jihatlari tahlil etildi.

4. Amir Temur va temuriylar obrazining badiiyatdan o'rin olgan qarashlarning, talqinlarning shakllanishiga nazar tashlanar ekan, ularning poetik ifodadagi qarashlarga asoslanishiga zamin bo'lganligi ko'rib chiqildi. Chunki, tarixiy romanlardagi shaxs konsepsiyasining badiiy ifodasi bu tushunchalarga tayanilishiga xizmat qilganligi ikki til adabiyoti namunalari asosida yoritildi.

5. Ingliz va o'zbek tarixiy va badiiy romanlaridagi Amir Temur va temuriylar obrazini yaratishga asos bo'lgan davr voqeligining turlicha ifodalanishiga nazar solindi. Bu jarayonda tarixiy roman arxitektonikasidagi o'zgarishlarni badiiy adabiyotga ko'chish sabalarini o'rganish imkonini berdi. Bu jarayonda tarixiy roman syujetining asosini tashkil etgan retrospektiv syujetning badiiy funksiyalari, uning qonuniyatları asosida obraz yaratish an'anasing shakllanish xususiyatlari tahliliy misollar asosida ochib berildi.

6. Amir Temur va temuriylar obrazi haqida yozilgan romanlarda tarixiy voqealarning badiiy talqini adabiy mezonlar va ijodkorlarning asarlari tahlili asosida baholanishi mumkin:

a) ingliz va o'zbek asarlarida Amir Temur va temuriy shaxzodalar obrazi badiiy talqin qilingan tarixiy-ijtimoiy davr manzarasini yaratishda ijodkorlar Temurbek shaxsiyati va hayot yo'lini xolis yoritgan asl tarixiy manbalardan foydalanilganligi;

b) Temurbek hayotlik davrida yozilgan badiiy asarlardan foydalanilganligi;

7. Ijodkor ijtimoiy-estetik ideali va falsafiy konsepsiyasini Amir Temur va temuriyzodalar obrazi va ularning xarakterlarini badiiy asarlarga singdirish

jarayonidagi tarixiy konsepsiyaga asoslanishining poetik ifodadagi o‘ziga xos tamoyillari va uning asl kelib chiqish omillari asoslandi.

8. Tarixiy voqelikni badiiy adabiyotda asoslash jarayonida ijodkor badiiy mahoratining mahsuli bo‘lgan asardagi hayot voqeligiga yondashishdagi an’ana va novatorlik, o‘zaro ijodiy mushtaraklikning yuzaga chiqish sabablari ingliz va o‘zbek adabiyotidagi asarlar misolida tahlil qilindi va o chib berildi. Bu jarayonda tarixiy voqelikning ijodkor tomonidan ilgari surilishi, uning ijodiy mahoratiga uzviy bog‘liqligi badiiyat mezonlari asosida yoritildi.

III BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR OBRAZINING DRAMATIK TALQINLARI

III.1 Ingliz Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davri adabiyotida Sohibqiron obrazi

Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, Yevropa Uyg‘onish davri adabiyotining o‘ziga xos tamoyillarini, tadrijiy taraqqiyotini kuzatish mumkin. Feodalizm muhitida ommalasha boshlagan kapitalistik munosabatlar G‘arbiy Yevropada Renessans (Uyg‘onish) harakatlariga zamin yaratdi.

Tarixda Renessans deya nomlanadigan bu jarayonlar dastlab Italiyada (XIV asr) va keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham kuzatildi.

XVI asr ingliz adabiyoti Uyg‘onish davri umumyevropa gumanistik madaniyati ta’siridagi uning sermahsul bo‘laklaridan biri edi. Bu davrning o‘ziga xosligi ham ingliz gumanizmi o‘z o‘rnida Uyg‘onish davri g‘oyaviy qarashlarini o‘zlashtirdi, cherkovning g‘oyaviy zo‘ravonligiga qarshi kurashish yo‘llarini o‘rgandi. Shu asnoda, yozma adabiyotda ma’naviy va jismoniy komil inson ideali, tashqi olam go‘zalligining va inson tuyg‘ulari murakkab dunyosining so‘z san’atkorlari tomonidan kashf etilishi, antik dunyo madaniyatidan yetarlicha boxabar bo‘lish ustuvorlik kasb etdi.

Bu davrning buyuk siymolaridan biri Shekspir bo‘lib, u haqida ko‘plab kitoblar yozilgan, ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, ko‘plab shekspirshunoslik maktablari vujudga kelgan. Uning ijod yo‘li turfa ammo, o‘ta ziddiyatli fikr – mulohazalar paydo qilgan. Eng ahamiyatlisi, Shekspirdek Uyg‘onish davri vakili

ijodida Sharqning buyuk sarkardasi Amir Temur haqida namunalar uchrashidir. Bu Uyg'onish davri Yevropa adabiyoti vakillari o'zlarining g'oya va maslaklari ro'yobida Sohibqironning faoliyati va hayot yo'liga qiziqish bilan qaraganini ko'rsatadi. To'rt yuz yil avval yashab ijod etgan Angliyaning ushbu daho dramaturgining o'z sohasida egallagan cho'qqisi boshqalar tomonidan hanuz zabit etilganicha yo'q. Mana shunday daho vakilning sharqlik sarkarda Amir Temur haqida bitgan sonetlari mavjudligining o'ziyoq, bu davrda Sharqning buyuk sarkardasi nomi va shuhrati G'arb ijodkorlari diqqatini torta olganligining tasdig'idir.

Amir Temur obrazi badiiy talqin qilingan ijod namunalari haqida fikr yuritganda ingliz Uyg'onish davri tragediyasining asoschisi Kristofer Marloning qalamiga mansub "Buyuk Temur" asari badiiyatini yana bir bor e'tirof etish joiz. Amir Temur qiyofasini o'ziga xos talqin qilgan ingliz shoiri, Shekspirning zamondoshi Kristofer Marloning "Buyuk Temur" tragediyasining 1590-yildayoq nashr qilinishi, Yevropada Sohibqiron shaxsining mashhur bo'lganligidan dalolat beradi. Tragediyada Amir Temur shaxsi va faoliyati erkin talqin qilingan va afsonaviy qahramon Sohibqiron turklarning qudratli armiyasini mag'lubiyatga uchratishiga bag'ishlangan. Tragediya o'n pardadan iborat bo'lib, voqealar turli mamlakatlarda bo'lib o'tadi. Asarning "ikkinci qismda muallif to'qimasi ko'proq o'rin egallagan"¹⁷². "Tamburlaine the Great" – "Buyuk Temur" tragediyasida Sohibqiron, XVI asr, Uyg'onish davri kishilarining orzu umidlari timsoli sifatida tasvirlangan. Adabiyotshunos H. Karomotov "Kristofer Marloning "Buyuk Temur" fojiasi manbalari, asliyati va o'zbekcha o'girmasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Rus adabiyotida ham K.Marlo tragediyasining qayta ishlangan varianti asosida "Temurlang va Boyazid to'g'risida" yoki "Temurlangning yoshligi" deb nomlangan pyesa yaratilgan.

Shu tarzda buyuk kashfiyotlar davom etayotgan, Angliya xalqi sharq o'lkalari bilan yanada yaqindan tanishayotgan yangi davrga kelib, bu xalq

¹⁷² Парфенев А.Кристофер Марло // К.Марло. Сочинения. – М., 1961. – 615 с.

adabiyotida, shu jumladan, g’arb dramaturgiyasida ham sharq xalqlari hayotini aks ettirishga alohida e’tibor qaratila boshlangan. N. Rou va K. Marlo, Ch.Sanderzlar yaratgan pyesalarida sharqning ulug‘ hukmdori, Konstantinopolni Usmonlilar istilosidan ma’lum muddatga asrab qolgan Sohibqiron Amir Temur obrazi asosiy qahramon sifatida tanlandi. Bu uch ijodkor tomonidan yozilgan pyesalarda bir shaxs prototip asos qilib olingan. Biroq ularning kompozitsion tuzilishi va g‘oyaviy mazmunida jiddiy farqlar mavjud. N. Rouning “Buyuk Temur” dramasida Amir Temur va Boyazid qo’shini o‘rtasidagi Anqara jangi va shu jang atrofidagi hodisalar tasvirlangan. Interyerning kichik ekanligi pyesadagi qahramonlarning soni ham kam bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Asarda Amir Temur, Boyazid Yildirim, Monezes, Akasalla, Stratokl, shahzoda Tana, Umar, Mirvan, Arpasiya obrazlari muhim o‘rin tutadi. Pyesa XVIII asr ingliz dramaturgiyasida katta shuhrat qozondi hamda, Angliya teatrlarida o‘tish davrini boshlab bergen asar sifatida e’tirof etildi. Nikolas Rou Amir Temur obrazini yaratish jarayonida uning qahramonliklarini ko‘rsatishga katta e’tibor qaratdi. Ayni shu jihat ushbu dramaning Marlo asaridan mazmuniy farqlanib turishini ta’minladi.

XVII asrga kelib, Uyg‘onish davrining “imkoniyat” va “taqdir” tushunchalari endilikda “yetuk shaxs” masalalariga almashdi. Shekspirning durdona asarlariga teng baho berilgan Nikolas Rouning “Tamerlane” sahna asari alohida mavqe qozondi. Shu asar muallifning eng ko‘p chop etilgan ijod mahsuli sifatida keyingi davrda ham sahna repertuarlaridan tushmadi. Bu drama ham o‘zigacha yaratilgan boshqa sahna asarlaridan tubdan farqlanib, sahna tarixida sentimental fojia turiga o‘tish pallasini boshlab berdi. Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda yozilganidek, Nikolas Rou bu asarini yozishda o‘z davri allegoriyalari sifatida Vilgelm III va Lyudovik XIVni shu bilan birgalikda, demokrat va liberal partiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatishni maqsad etadi. U barcha ijobiy fazilatlarni Temurda, barcha jaholat va manmanliklarni, qo‘lidan ishlmas, balandparvoz, kibrli Boyazidda ko‘rar ekan, buning isboti sifatida Devonshir gersogiga yo‘llagan maktubida shunday bitadi: “Temur jasorati, uning saxiyligi, sabr toqati va o‘z xalqiga bo‘lgan otalarcha qayg‘urishi, birinchi navbatda esa zulm va jaholatga

qarshi bo‘lgan nafrati, insoniyat manfaatini o‘ylab qilgan g‘amxo‘rligi xuddi Sizga o‘xshaydi hazratim”. Muallif Sohibqiron shaxsiyatiga hurmatini o‘z asari prolog qismida bildirgan fikrlari ham tasdiqlaydi: “O‘z davlati manfaatlari uchun qayg‘urgan bu xudojo‘y hukmdor, tinchlik uchun kerak bo‘lsa, jang maydonida o‘z qonini to‘kishga ham tayyor edi”¹⁷³. N.Rou ijodi xususan, shu mashhur sahna asari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan O.Zagriyeva xulosalariga ko‘ra, Temurning Boyazid ustidan erishgan g‘alabasi shunchaki tarixiy dalilgina bo‘lib qolmasdan, badiiyatda aql va axloqning tantanasidir. Olimaning bu fikriga qo‘srimcha tarzda aytish mumkinki, Amir Temur sultonni Yeldirim Boyazidga do‘stlik qo‘lini uzatib bitgan maktublari mazmun mohiyatiga ko‘ra ikki musulmon xalq egalarining bir-biriga adovatlashuvi oqibatida G‘arb qirollariga kulgi bo‘lishini, bir musulmonning dushmani do‘st musulmonga ham do‘st bo‘lmasligi, qilich qinidan chiqmasdan, aql egasidan ketmasdan, jahl otiga minmasdan quda-andalik rishtalari taklifi maqsadida edi. Ammo, jo‘natilgan elchilarning fojiali taqdiri, o‘z kuchiga haddan ziyod ishongan, kibrlangan, hatto Temurning undan qo‘rqib jangga kelmasligi shariatda tilga olib bo‘lmas so‘zlar bilan haqoratlari natijasi bu urush harakatlariga sabab edi. Yeldirimning mag’lubiyati ibtidosi esa, Tangriga xush kelmagani, tinchlik turganda urushni talab etgan Boyazidni o‘z taqdirini yozishi edi.

N.Rou asarining yana bir yutug‘i va biz uchun faxrli ishi shu ediki, U Temur obrazini “yuksak shaxs sifatida” ijobjiy obrazlar qurshovidaadolatli talqin etadi. Bu esa Yevropa tomoshabinlari tomonidan asrlar mobaynida samimiy qabul qilinadi. N. Rou Amir Temur va Boyazid obrazlarini yaratishda ma'lum darajada ramziylikka ham tayangani ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Amir Temur siymosida insonparvar va olivjanob ingliz qiroli Uilyam III tasvirlangani, Boyazid qiyofasida esa Fransiya hukmdori Lyudovik XIV shaxsiyati gavdalantirilgani qayd qilinadi. Dramaning syujeti tezkorlik bilan rivojlanadi. Vizantiyani istilo qilishga urinayotgan, shu orqali butun Yevropani nazoratda

¹⁷³ Rowe N.Tamerlane. – Paris., 1994. – P.380

saqlashga intilayotgan Boyazidga dunyodagi siyosiy kurash maydonida yangi raqib – Sohibqiron Amir Temur paydo bo‘ladi. Amir Temur qo‘sini boshqarayotgan sarkardalardan biri italiyalik general Aksalla (to‘qima obraz) turklar chodiriga sezdirmasdan bostirib kirib, Boyazidning Salima ismli qizini o‘g‘irlab ketadi. E’tibor qaratilsa, drama syujetining shu o‘rinlari Gomerning “Iliada” asarida tasvirlangan Troya urushi voqealarini yodga soladi. Sparta podshosining o‘g‘li shahzoda Parisning Troya hukmdorining rafiqasi Yelenani o‘g‘irlab kelishi to‘qqiz yil davom etgan Troya urishi boshlanib ketishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, sarkarda Aksallaning malika Salimani o‘g‘irlab ketishi ikki ulkan sultanat o‘rtasidagi muhorabaga yo‘l ochadi. Ayni paytda Aksallaning to‘qima obraz ekanini, malika Salima bilan bog‘liq voqealar o‘ylab chiqarilganini, asarning bu epizodlari badiiy mantig‘i hayotiy vogelikka zid ekanligini yana bir bor qayd qilish joiz.

Nikolas Rouning dramada Temur va Boyazid o‘rtasidagi bahs epizodini yaratishi teran falsafiy mushohadalarni sahnada jonlantirish imkonini yaratadi. Ayni shu jihat dramaning badiiy saviyasini yuksaltiradi. Voqealar ortidagi hislarning yuzaga chiqish omillarini ko‘rsatib beradi.

Bu holatni o‘zbek adabiyoti namunalari bilan qiyos etsak, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. “Sohibqiron” da ham Temur ulkan g‘alabadan masrur bo‘lmaydi. Begunoh odamlarning jang maydonida qurban bo‘lganidan, turkiy birodarlarning bir-biriga qarshi qurol ko‘targanidan afsuslanadi. Ulug‘ Sohibqiron yuzaga kelgan vaziyat shuni taqozo etganini, voqeanning aybdori Boyazidning o‘zi ekanini rad qilib bo‘lmaydigan shaklda isbotlaydi.

“O‘z boshingga o‘zing yetding,
Iqror bo‘l, Sulton,
Takabburlik va manmanlik hunaring bo‘ldi.
O‘z qavmingdan chiqqan bizdek Sohibqironga
Ko‘p noloyiq maktublarni bitgan-ku bu- sen.
Xudo sendan yuz o‘girdi
Lashkarlaring ham

Qora Yusuf Jaloyirdek g‘animlarimning

Boshin silab, atay mening g‘ashimga tegding”.¹⁷⁴

Nikolas Rou she’riy asaridagi Boyazidning Temurga javobi ham har jihatdan xarakterlidir. Boyazid o‘z xatolarini tan olishni aslo istamaydi. O‘z halokatiga o‘zi sababchi bo‘lganini ich-ichidan e’tirof etsa ham, raqibi Temur qarshisida taqdirga tan berishni xohlamaydi. Boyazidning o‘z xatolarini e’tirof etishdan qochishi uning halokatiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biri bo‘lganini dramaturg chuqur idrok qiladi.

“Bayazet:

The noble Fire that warms me does indeed

Transcend they Codness, I am please we differ,

Not think alike”¹⁷⁵.

(Tarjimi: Meni o‘z domiga tortmoqchi bo‘lgan Olov sening sovuqligindan ustun, men xursandman-bizlar bir-birimizdan farq qilamiz. Niyatlarimiz, fikrlarimiz ham turlicha).

Boyazidning fikrlari o‘zini muqarrar halokat qarshisida deb hisoblayotgan kishining sun’iy ravishda yuzaga keltirilgan mag‘rurligi ta’siridadir. U Temurning o‘zidan ko‘ra qudratlgi ekanligiga batamom amin edi. Biroq bu hukmini yuzaga chiqarishni xohlamaydi. O‘zining Temurdan farqli ekanligini ta’kidlash orqali Temur qarshisida mag‘rurligini yo‘qotmaslikka intiladi. Biroq bu intilish ham chuqur mantiqiy asosga ega emas. U Amir Temurning xato va kamchiliklarini topib ko‘rsatishga qodir emas. Ko‘rsatgan isbotlarining kuchsiz ekanligini o‘zi ham yaxshi anglaydi. Ammo baribir manmanlik ta’sirida biror qarshi fikr aytishdan tiyilmaydi.

Sohibqiron va Boyazid o‘rtasidagi bunday bahs Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida ham o‘z aksini topgan. Abdulla Oripov ham Nikolas Rou singari masalaning mantiqiy asoslarini yaxshi anglaydi. Boyazidning “yotib

¹⁷⁴ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – 430 б.

¹⁷⁵ Rowe N. Tamerlane. A tragedy. – L., J. Tonson, 1702. – P.21.

qolguncha otib qol” qabilidagi bahsi uning asarida ham ulkan iqtidor bilan jonlantiriladi.

“Boyazid

Asir bo‘lib tursam hamki qoshingda, Temur,

Zor emasman iltifoting, taassufingga...

Sen ustimdan kulmoqdasan,

Masxara qilma!

Botirlarning ishi emas yotganni to‘plash”¹⁷⁶.

Amir Temur asirga tushgan Boyazidning sha’niga biror yomon gap aytmaydi. Uni qo‘li bog‘liq holda ko‘rib, martaba hurmati yuzasidan qo‘llarini yechishga buyruq beradi. Temurning qo‘li bog‘liq mag‘lub hukmdor bilan gaplashishni istamasligi, uning diplomatik qonun-qoidalarni qattiq hurmat qilishidan hamdaadolatli inson ekanidan dalolatdir. Boyazid uning bu jihatiga guvoh bo‘ldi. Biroq yuqorida ta’kidlaganimizdek, u manmanlik vajidan tuhmat qilishni o‘zining so‘nggi chorasi deb hisoblaydi.

Nikolas Rouning “Buyuk Temur” pyesasi voqealarining keying rivoji ham qiziqarlidir. Aksalla Boyazidning qizi Salimani olib qochib kelganidan xabar topgan Temur ularning birga bo‘lishlariga ruxsat bermaydi. Buning uchun qizning otasidan – Boyaziddan izn so‘rash zarur ekanligini aytadi. Aksalla Boyazidning huzurida dastavval rad javobini oladi. Biroq sultonning fikri o‘z foydasi tomon o‘zgaradi. U Aksallaga Temurni o‘ldirishga rozi bo‘lsa, qizi Salimani unga berishga va’da beradi. Aksalla bu taklifni rad qiladi. U Sohibqironga butun umr sadoqat bilan xizmat qilishga ont ichganini, hech bir odam va hech bir maqsad uni bu sadoqatdan mahrum qila olmasligini faxr bilan ta’kidlaydi. Shu o‘rinda, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasidagi Amir Temur va Boyazid suhbati epizodida Boyazidning o‘z qo‘sishinlaridan noligani, sarkardalari xiyonat qilgani tufayli o‘zining mag‘lubiyatga uchraganini ta’kidlashi yodga tushadi. Nikolas Rou

¹⁷⁶ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Фаур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – 429 б.

Amir Temurning qo'shini Boyazid qo'shinidan kuchliroq ekanini, Sohibqironning sarkardalari sadoqat bobida Boyazid sarkardalaridan ustun ekanini yaxshi bilgan. Amir Temurning bunday hurmat va sadoqatga loyiq shaxs bo'lganini ham dramaturg ham bevosita, ham bilvosita e'tirof eta olgan.

Dramaning Monezet va Arpa zi hayoti bilan bog'liq syujet liniyasi ham muhim badiiy va falsafiy xulosalarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Boyazidning zo'ravonlik bilan saqlab turgan xotini yunon yurtining malikasi bo'lgan Arpazini Temur qo'shini sarkardasi Monezet sevar edi. Arpa zi ham unga avvaldan befarq bo'lmaydi. Pyesada muhabbat mavzusining muhim o'rin tutishi voqealarning qiziqarlilagini ta'minlashga sezilarli darajada xizmat qilgan. Aksalla obrazi shaxsiy manfaat va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi to'qnashuvning hissiy omillarini, yorga muhabbat va vatanga sadoqat o'rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

"Sohibqiron" dramasida ham muhabbat motivi syujet rivojida muhim o'rin tutadi. Bu asarda ham Uljoy Turkon obrazi o'zi uchun aziz bo'lgan ikki inson o'rtasidagi kelishmovchilikdan qattiq aziyat chekadi. Uljoy Turkon ham Amir Temurdan norozi bo'lishdan tiyiladi, o'zi uchun og'ir bo'lsa ham, Sohibqironning qarorlarini ustuvor deb hisoblaydi. Biroq bu ayol akasi Amir Husaynning boshiga tushgan ko'rgiliklarga ham beparvolik bilan qaray olmaydi. Dramada personaj va muhit o'rtasida yuzaga kelgan kolliziyada ijtimoiy sharoitning g'alaba qozonishi qahramonning o'z joniga qasd qilishiga sabab sifatida ko'rsatiladi. Uljoy Turkon o'zini o'ldirish bilan sodir bo'lgan hodisalarga va muhitga nisbatan o'z norozilagini stixiyali ravishda namoyish qiladi. Ayni shu o'rinda, Uljoy Turkonning o'limiga kim sababchi ekanligi borasidagi savol ham yuzaga chiqadi. Muallif bu jihatga ham ramziy detal vositasida ishoralar beradi. O'zini o'ldirgan Uljoy Turkonning qo'lida Amir Husaynga tegishli bo'lgan kamon o'qlarining topilishi epizodi bu xudkushlik sababchilarining asosiysi qurol egasi ekaniga ishora qiladi.

Shuningdek, dramada muhabbat va sadoqat mavzularining tarannum etilishi borasida fikr yuritganda, Bibixonim obrazining tutgan o'rnini ham alohida e'tirof

qilish zarurdir. Bibixonim dramaning Amir Temurdan keyingi eng asosiy qahramoni hisoblanadi.

Nikolas Rouning “Buyuk Temur” pyesasida esa Sohibqiron obrazining badiiy talqiniga baho berishda bu personajning aldovlarga ishonmaydigan, turli maqsadlarda aytيلayotgan hiylakor yolg‘onlarga aldanmaydigan shaxs ekanini ko‘rsatish muallif diqqat markazida turgan jihat ekanini qayd qilish joiz. Boyazid qarshi urushni to‘xtatishga undash uchun Amir Temur bir darveshning xizmatidan foydalanishga urinadi. Go‘yoki o‘z ixtiyori bilan kelgan, aslida esa Boyazidning buyrug‘i bilan yuborilgan darvesh Sohibqironni turk taxtini islom xalifalarining vorislari sifatida e’tirof etiladigan turk sultoniga topshirishga undaydi.

Biroq Amir Temur din nomidan aytيلayotgan shaxsiy manfaat yo‘lidagi yolg‘onlarga aldanmaydi. Da’volarga mantiq bilan javob qaytaradi.

“This false; no law divine condems the virtuous,
For differing from the rules your schools devise.
Look round, how providence bestows alike
Sunshine and rain, to bless the fruitful year,
On different nations, all of different faiths;
And (they by several names and titles worshipp’d)
Heavn’t tekes the various attribute of their praise;
Since all agree to own, at least to mean,
One best, one greatest, only lord of all.
Thus when he view’d the many forms of nature,
He found that all was good, and blest he fair variety”¹⁷⁷.

(Tarjimasi: Siz meni chalg‘itmoqchisiz. Bunga sizning siyosiy maqsadlaringiz sabab bo‘lsa kerak. Tangri ko‘p e’tiqodlarni yaratdi, ularning hammasi ham din deb ataldi. Ushbu dinlar o‘rtasidagi ayrim ziddiyatlar uchun jangga kirishish birodarlaringga nisbatan xiyonat sifatida baholanmog‘i zarur). Bir so‘z bilan aytganda, Amir Temur Boyazidning Yevropa xalqlariga ochmoqchi

¹⁷⁷ Rowe N. Tamerlane. A tragedy. – London.: J. Tonson, 1702. – P. 41.

bo‘lgan urushini har jihatdan qoralaydi. Xristianlik e’tiqodida bo‘lgan kishilarni nohaq o‘ldirib, “dinlar o‘rtasidagi ayrim ziddiyatlar uchun jangga kirishish” ishini qoralaydi. Sohibqiron xristianlikning ham Tangrining marhamati bilan paydo bo‘lgan din ekanini, ularga ham samoviy kitob berilganini e’tirof etadi. Ayni shu jihat Amir Temurning yuksak diniy-falsafiy tafakkur egasi ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Uning vafotidan keyingi asrlarda hukmronlik qilgan ko‘plab amir va xonlar o‘zlarini “amir al-muslimiyn” degan jarangdor nom bilan atasa-da, tor dunyoqarashlari ta’sirida boshqa din vakillariga nisbatan ko‘p adolatsizlik qilganlar. Buxoro amiri Nasrulloxonning tobora yaqinlashib kelayotgan rus istilosidan ogohlantirib, o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun kelgan ingliz elchilari Stoddart va Konnolilarni qatl qildirgani achinarli holdir. Ayrim manbalarda Nasrulloxonning elchilardan islom dinini qabul qilishni so‘ragani, shunga buyruq bergani qayd qilingan. Bu jihat ham amirda diplomatik etika elementlari bo‘limganini, (garchi o‘zi qassob amir deya e’tirof etilgan bo‘lsa ham) islom diniga e’tiqod qilmaydigan har qanday odamga nafrat bilan qaraganini ko‘rsatadi. Dinlar, e’tiqodlar o‘rtasidagi adolatning ta’minlanmagani, diplomatik aloqalarni yuritishga noqobil bo‘lish omillari millat tarixidagi fojiali hodisalarining sababchisi ekanligini e’tirof etish joiz. Amir Temur bunday xatolarga yo‘l qo‘ymagani dramadan keltirilgan yuqoridagi parchada ham bilvosita ta’kidlanadi. Qolaversa, Sohibqironning Angliya, Ispaniya va Fransiya davlatlari bilan faol diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yanligini ham yodga olish zarur. Amir Temur e’tiqodlar o‘rtasidagi xilma-xillik o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatish uchun to‘sinq bo‘lmasligini chuqur idrok etgan. Nikolas Rou ham o‘z asarida ayni shu jihatlarni yoritishga katta e’tibor qaratgan.

Bu ana’anani davom ettirgan holda yana bir taniqli ingliz yozuvchisi Charlz Sanderz “Buyuk Temur” asari orqali ingliz adabiyotida ideal davlat boshqaruvchisi va sarkardasi, mard inson vaadolatli podshoh obrazini tarixiy shaxs Amir Temur siyemosini yaratishga musharraf bo‘ldi.

Xullas, Yevropa adabiyotida, jumladan ingliz adabiyoti tarixida Amir Temur va temuriylar hayoti va hukmdorlik faoliyatiga oid ko‘plab badiiy asarlar mavjud

ekanligini kuzatish mumkin. Chunki, Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlarining faoliyatiga qiziqish o‘z davridayoq boshlangani ayni tarixiy haqiqatdir.

Jahon adabiyotshunosligida Aziz Bahoriy, Rahi Aslam, Aziz Ahmad singari yozuvchilarning romanlari, Muhammad Jamoliddin Ramadiyning shu mavzudagi dramasi, Ahmad Hasan Donining (Pokiston) “Temur merosi”, shuningdek, Al-Sayyid Faraj(Misr), Muhammad Ahmad Panoh(Eron)larning ilmiy-ma’rifiy kitoblari ham olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Bu asarlarning barchasi Sohibqiron Amir Temur hayoti va ijtimoiy faoliyatidan hikoya qiladi.

Uyg‘onish davrining Yevropa adabiyotida esa ingliz shoir va dramaturgi Kristofer Marlordan tortib, Temur shaxsiyati va uning harbiy salohiyati, mag‘lubiyatsiz yigirma olti davlat istilosini va buyuk ipak yo‘lida o‘rnatgan osoyishtaligi g‘arb ijodkorlarining e’tiborini ham qayta-qayta o‘ziga tortib kelgan. Marloning 1587-1590 yillarda yozilgan ikki qismdan iborat “Buyuk Temurlang” tarixiy tragediyasi ular uchun ulug‘ jahongir siymosini badiiy tadqiq etish sari qo‘yilgan ibtido ekanligi yuqorida ta’kidlangan edi. Fojiada Temur timsoliga bir qadar ijodiy yondashilgan bo‘lsa-da, muallifning bosh qahramonga otashin munosabati, uning shaxsiyatiga doir ma’lumotlarni imkon qadar atroflicha o‘rganib chiqqani sezilib turadi. Perrodina, Desa Krua, De Sankso, J.Kalyu, De Margaf, Nev, E.Gomlios, H.Vamberi, I.Lengle kabi yevropalik tarixchilar va olimlar, Temuriylar davriga oid noyob qo‘lyozmalarni o‘rganib, o‘z tillariga tarjima qilganlar. K.Marlo qisqa umri va ijodiy faoliyati davomida bir necha asarlar: “Jew of Malta” (“Maltalik yahudiy”), “Edward II” (“Eduard ikkinchi”), “The Massacre at Paris” (“Parij qirg‘ini”), “The tragedy of Doctor Faustus” (“Shifokor Faust fojiasi”), “Tamburlaine the Great” (“Buyuk Temurlang”). Marloning London sahnalashtirilgan ilk mashhur pyesasi jangovor Temurning hikoyasi “Tamburlaine the Great” asari edi. Uning qalamiga mansub “Buyuk Temur” tragediyasi jahon adabiyotida buyuk sarkarda Amir Temur to‘g‘risidagi ilk sahna asar deya tilga olinadi. Ammo, biz bu asarni to‘liq tarixiy haqiqatlarga mos shaklda bitilgan deyish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Boiski, asarning ilk sahnalaridanoq, haqiqiy

Sohibqiron Amir Temur turkiy mo‘g‘ullardan bo‘lgan va zodagonlarga mansub bo‘lsa-da, Kristofer Marlo dramatik maqsadlarda uni imperator darajasiga ko‘tarilgan skif qabilasidan chiqqan cho‘pon sifatida tasvirlaydi. Kristofer Marlo fojiasida badiiy to‘qima ruhi ustun bo‘lsa-da, undagi bosh qahramon iroda kuchi, favqulodda shiddati bilan hayot haqiqatiga mos keladi. Asar muqaddimasida muallif kitobxonga qarata, “saltanat qilichi ila hukmdorlarni jazolaydigan Temur” haqida hikoya qilishini ma’lum qiladi va bu obraz kishilarning qalbi va shuurini junbushga keltirishga umid bog‘laydi. Ilk qismning dastlabki pardasi fors hukmdori Miket dargohidagi muloqot bilan ochilgan. Eron podshosi sarkarda Meandrdan “savdogarlarga tajovuz qiladigan skif qaroqchisi Temurlang”¹⁷⁸ haqida gapirib berishini so’raydi. Meandr shoh so‘rog‘iga javoban Temur Eron zaminida har kun qonunsiz bosqinlar qilayotgani, u Osiyoni egallab, Sharq hukmdori bo‘lishga intilayotganligi haqida so’zlaydi. Podshoh ham, uning yaqinlari ham o‘z kuchlariga ortiqcha baho berib, g‘alaba qilishlariga ishonadilar. Bu sahnada Meandrning hokimiyatparast ukasi Xusravning akasini irodasizlikda ayblab, unga qarshi chiqishi, saroy a’yonlarining shohdan voz kechib, Xusravga ishonch bildirishlari ham tasvirlangan. She’riy asarning ikkinchi pardasida fors lashkarboshisi Menafon Xusravga Temurni ta’riflab berar ekan, uni “baland bo‘yli, adl qomatli, zuvalasi pishiq, Atlant kabi butun dunyoni ko‘tarishga qodir keng yelkali, ko‘zi ikki afsunli oyna misoli... uning qudrati va himmati jahonga hukmron bo‘lishidan dalolat beradi”, deb ta’rif keltiradi. Shunday qilib, fojianing ilk sahnalaridayoq, bosh qahramon ijodkorning yuksak idealiga muvofiq aqlan va jismonan barkamol ekani ma’lum qilinadi. U eng og‘ir va tengsiz janglarda ham o‘zini yo‘qotib, sarosimaga tushmaydi, o‘tkir sarkardalik va notiqlik mahoratini ishga solib, yengilmas sarkarda sifatida tan olinadi va har safar g‘olib chiqaveradi. Shu bilan birga, muallif qahramonini haddan ziyod ideallashtirmaydi. Fojiada Temur o‘z davri va muhitining, makoni an’analarida tarbiyalangan farzand sifatida faoliyat olib boradi. Dastlab Miketga qarshi urush olib borayotganda, toj-u taxt

¹⁷⁸ Marlowe Ch. Tamburlaine the Great. – Moscow., 2010. – 354 p.

gadosi Xusrav bilan bitim tuzadi. Eron shohi jangda yengiladi. Xusrav bu g‘alabani o‘z nomiga nomlab, Temurni noibim, deb ataydi. Shundan so‘ng Temur unga qarshi qo‘shin tortadi va Eronni qo‘lga kiritadi.

Ikkinchı sahnada, qudratli Temur bilan yuzma-yuz kelamiz. “Dahshatli Misr sultonining qizi”, asira Zenokrata Temurga murojaat etar ekan, uni “cho‘pon” deb ataydi. Marlo Amir Temurni daf’atan oddiy cho‘pon sifatida sahnaga olib chiqadi. Bu tarixiy haqiqatga zid tafsilot. Ibn Arabshohning o‘z taassurotlariga tayanilgan asarida Temurning otasi temirchi bo‘lgan. “Nikon solnomasi”ning ma’lumot berishicha, Temurning otasi qishloq oqsoqoli bo‘lib, kasbi temirchi edi. “1512-yilnomasi” ham shu ma’lumotlar keltiriladi. K.Marlo asarida esa qahramonning o‘zining past mavqeyidan oshib, yuqori maqomga erishish qobiliyatini tasdiqlashi masqadida u o‘zini cho‘pon deya ataydi. Asar bosh qahramoni Temurlang umrining oxirida ham merosxo‘rlariga urush harakatlarini davom ettirishni buyuradi. Bu yakun esa o‘g‘illaridan tinchlikni saqlashni so‘ragan, adolatli bo‘lishni hayoti va umrining shiori sifatida yashab o‘tgan Amir Temur shaxsiga mutlaqo zid obraz. Amir Temur Zenokratani sevadi, o‘g‘illarini o‘ziga munosib merosxo‘rlar qilib o‘sirish uchun ularning tarbiyasiga, o‘sishiga katta e’tibor beradi, o‘z sodiq sarkardalariga ishonadi, ularni xizmatlariga mos ravishda rag‘batlantiradi. Shuningdek, unga qarshi turgan odamlar Bobilga yetib borganida, Temurlang yana g‘ayrioddiy harakatlarini namoyish etadi. Shahar gubernatori davlat xazinasini oshkor qilish evaziga uning hayotini saqlab qolishga harakat qilganda, Temurlang uni shahar devorlariga osib qo‘yadi va odamlariga uni otib o‘ldirishni buyuradi. U aholini erkaklar, ayollar va bolalarni bog‘lab, yaqin atrofdagi ko‘lga tashlashni buyuradi. Lekin aslida, Amir Temur begunoh kishilarga qilgan muruvvatlari bilan ham mashhur tarixiy shaxs sifatida o‘z avlodlariga o‘rnak edi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga pand nasihalar qilar ekan, uning buyuk va adolatni bobosi “kuch adolatda” shiori egasi Sohibqiron Temurdan namuna olishiga umid bog‘laydi. Ingliz adibi asarining yakuniy sahnasida Temurlang kasallikka chalinib, o‘limidan oldin ham yana bir dushmani mag‘lub etishga muvaffaq bo‘ladi. U o‘zi zabit etgan bu dunyoni tark etar ekan, o‘g‘illariga

yerning qolgan qismini zabit etishni buyuradi. Amir Temur obrazining bu qadar tarixiy haqiqatlarga yiroq tarzda berilish sabablarini ikkiga bo‘lishimiz mumkin: birinchi sabab, G‘arblik muarrixlar, turklar, ularga qo’shni uygur va boshqa millatlarning Temur haqidagi mish-mishlari va uydirmalarida Temur hayotiga oid ma’lumotlarni buzib va bo’rttirib berilishi bo‘lsa, ikkinchi sabab, K.Marloning ijodkorlik dunyoqarashi, hayot haqidagi nuqtai nazaridir. Ya’ni, fofia ibtidosida ta’kidlangan Temurlangning isyonkorligi va fidoyiligi Marloga ming yillik hayot qurilishining illat va xurofotlaridan xalos bo‘lgan yangi insonning tafakkur va irodasini o‘z qahramoniga singdirish, feodal qurilma, diniy itoatkorlikdan chekinish, bir so‘z bilan aytganda, Temurlang tilidan o‘zining shaxsiy dasturini ifoda etishga imkon bergen deb hisoblash mumkin. Yuqoridagi farqlar muallifning illyuziyasi natijasi emas. Marlo o‘z asarini o‘sha davrning tarixiy manbalari asosida yaratgan. Ammo XVI asrda G‘arb sharqshunoslari Temurlangni kambag‘al oiladan chiqqan va hamma narsaga o‘zining sabri va e’tiqodi tufayli erishgan deb o‘ylashgan. Marlo aslida tarixiy faktlarga asoslangan asar yaratmoqchi bo‘lishi mumkin edi, lekin o‘sha davr tarixiy manbalaridan noto‘g‘ri ma’lumotlar qo‘llangani uchun tasvir yanada xayoliylashib ketgan.

Darhaqiqat, Marloning “Buyuk Temur” asari bosh qahramonining tarixiy shaxs Temurbekdan tafovuti katta, ammo muallifning o‘zi ataylab uning xattiharakatlarini salbiy oshirib ko‘rsatmoqchi bo‘lgan deyish noto‘g‘ri. Asarni o‘qigan kishi K.Marlo o‘z qahramonini real hayot va haqiqiy tarixiy shaxs asosida yaratmoqchi bo‘lgan degan xulosaga keladi. Ammo XVI asrda G‘arb sharqshunoslari noto‘g‘ri ma’lumotlarga ega bo‘lib, tarixiy siymo Amir Temur haqidagi real faktlardan to‘liq xabardor emas edilar. Marlo esa o‘sha davrning tarixiy manbalariga tayanib o‘z asarini yaratgan. Shuning uchun ham, uning qahramoni haqiqiy tarixiy shaxsdan farq qiladi.

Kristofer Marloning “Buyuk Temur” asari o‘zining badiiy pishiqligi, siyosiy muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsata olishi bilan Uyg‘onish davri Temur va temuriylar obrazini yaratgan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Garchi asarda badiiy to‘qima ruhi ustun bo‘lsa-da, bu asarning mukammalligiga putur

yetkazmagan, shuningdek, asar K.Marloning ijodkor sifatidagi armoni bo‘lgan o‘sha davr siyosiy muammolarini o‘ziga singdirgan.

Davrlar almashinuvi natijasida adabiyot va san’atda, xususan dramada ham bunday o‘zgarishlar aks etishi lozim edi. Boiski, estetik o‘zgarishlar shunday ehtiyojlardan kelib chiqadi. Buyuk adabiyotshunos olim M.M.Baxtin ta’biri bilan aytganda: “estetik faoliyat faqat “san’atda o‘zini namoyon etadi”¹⁷⁹.

Demak, Amir Temurning Sulton Yeldirim Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi tufayli u Yevropa e’tiboriga tushgan edi. Shu bois, Uyg‘onish davrining biz e’tibor qaratayotgan yozuvchilari asarlari orqali Temurbek siymosi Uyg‘onish davri Yevropa istak va xohish, iroda qudrati razmiga aylangan edi. Aynan bu K.Marloning o‘zi yashayotgan jamiyatning ojiz tomonlarini tasvirlash uchun egzotik nomlardan, xususan “Tambirlaine” obrazidan prototip sifatida foydalanishiga turki bo‘ldi. Dunyo temurshunoslaridan biri Biatris Forbes ta’kidlaganidek: “Uni adabiyotda g‘ayri tabiiy kuch-qudrat va iroda egasi sifatida tasvirlay boshladilar”¹⁸⁰. Shu ma’noda, Marlo ham o‘zini qiyayotgan ko‘plab ijtimoiy savollarga ana shu sharqlik hukmdor siymosida javob topa oldi. Demak, ushbu asar tarixiy shaxs Amir Temurning fotihlik yurishlari haqida emas, balki, XVI asr Angliya monarxiyasining zaifliklarini, ziddiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan asar edi. Ijodkor bosh qahramon siymosida o‘z davri qirollarining kamchilik va nuqsonlarini ko‘rsatishda, uquvsiz qirollardan Buyuk Temurning ustunligini ko‘rsatib berishga harakat qildi.

O‘rta asrlarda Ingliz diyorida qirollar Xudoning xohish irodasi bilan ilohiy boshqaruv huquqiga ega bo‘lganmiz deb davo qilishgan bir davrda, K Marlo “Buyuk Temur” dramasi orqali qirollarning hech bir ilohiylikka daxldor emasliklarini, ular ham oddiy xalq vakili ekanliklarini ko‘rsatib berdi. “Temur dunyosida qirollar o‘z kuch qudratlari bilangina taxtga erishadilar. Ular o‘zgalardan kuch-qudrati ko‘proq insonlargina xolos. Insonning qudrati oshsa u

¹⁷⁹ Бахтин М. Творчество и народная культура средневековья и Ренессанса. – М., Х.Л, 1990. – 544 с.

¹⁸⁰ Manz B. “Tamerlane’s career and its uses”, journal of world history.13, №1. (2002), 1-25.

qirol bo‘lishi mumkin, toji taxtning ilohiylikka hech qanday daxli yo‘q”¹⁸¹. Ayniqsa, asarda Temur: “Toj-u taxtni men jang ila oldim”, degan fikri orqali muallif toj-u taxtni ilohiylashtirgan XVI asr Angliya aqidalarini tamomila rad eta oldi. Toj-u taxtning omonatligiga ramzlar orqali ishora etdi. Sharqshunos Jastin Marozzi esa K.Marlo o‘z dramasi orqali Angliyadagi vaziyatni tasvirlaganiga shubha qilmaydi: “Pyesani qirollik hukumati va mutlaq monarxiya tartiblari ustidan masxaralash deb qabul qilish mumkin”¹⁸². Shoir o‘z dramasidagi qahramonlar xarakterlarini sahna asarlariga xos bo‘lgan uslub dialoglar orqali ochib berar ekan, o‘z davri qirollari gap so‘zlari ma’no mantiqdan yiroq ekanligini bosh qahramon tilidan ifoda etadi:

Tamburlaine: I would entreated you to speak but three wise words. (P.I, Act.I, sc.4)

Ma’nosi: So‘zla deb yolvorgum, uch og‘iz bo‘lsa-da mantiqli jumla so‘ylagin faqat. (tarjima bizniki, Z.Y)

Uyg‘onish davri ijodkorlaridan yana biri Volter o‘z esselaridan birini Amir Temurga bag‘ishlagani Sohibqiron siymosi G‘arbda katta e’tiborga ega ekanlidigidandir. 1710-yilda Vena teatrida kompozitor Gaspirining “Temur” operasi sahnalashtirilgan bo‘lsa, 1722-yilda esa Neapol teatrida bastakor Leoning “Temurlang” operasi sahna yuzini ko‘rdi. Manbalarda shu davrda yashab o‘tgan italyan bastakori, virtuoz skripkachi Antonio Vivaldining ham Amir Temur to‘g‘risida “Temurlano” operasini yaratgani tilga olinadi. Buyuk nemis bastakori Georg F. Gendel (1685-1759)ning “Temurlang” operasida jahongir bag‘rikeng inson, tadbirkor hukmdor, jasur va omadli sarkarda sifatida ulkan muhabbat bilan tasvir etilgan. Muhimi shundaki, Kunbotish mualliflari Sohibqiron shaxsini xaloskor sarkarda, adolatli hukmdor, oqil inson sifatida aks ettirganlar.

Shu jihatdan, Yevropa ijodkorlari butun Yevropa mamlakatlarining xaloskor sifatida o‘z asarlarida Amir Temur siymosini yorqin ifodalar bilan gavdalantira boshladi. Ayni tarixiy vaziyat tufayli Yevropa ijodkorlari yurt

¹⁸¹ Beal N. “Let us march against the fires of heaven. Tamburlaine”. Marlowe and Atheism. 2008.

¹⁸² Justin M. Tamerlane. Sword of Islam. Conqueror of the world Harpercollins. – L., 2005. – P. 66.

qirollarining martabasi taqdiri azal ekanligi, uning obro' yo'l yo'riqlari cherkov qonunlari bilan cheklanganligi, ilohiy qahramonlarni izlashda Yunon antik davr ijodiga taqlid qilish tendensiyasidan ham voz kecha boshladilar.

Ma'rifatchilik oqimi sifatida tan olingan bu davr XVII-XVIII asrlarda Yevropada vujudga kelib, bu davr adabiyotining asosiy xususiyati Amir Temur kabi tarixda yashab o'tgan zabardast shaxslarni asarlarda qahramon sifatida akslantirish orqali avom xalqni jaholat qurban bo'lishdan, ma'naviy tanazzul va qoloqlikdan qutqarishni maqsad etganligi, ilm olish orqaligina bunga erishishga, ma'rifatga chaqiriq sifatida xarakterlanadi. Ma'rifatchilik davrining vakillari mavjud ijtimoiy tuzumni, siyosiy boshqaruvni mukammallikdan olisda deb biladilar, insonning esa gunohkor banda ekanligi, ojizligini tan oladilar. Biroq shunga qaramasdan, ular inson aqliga, tafakkur mahsulorligiga ishonadilar. Ushbu yo'naliш yetakchilari aql va bilim bilan inson zaminni ezgulik, yaxshilik tomon eltishga qodir bo'la oladi, deb hisoblaydilar. Aynan Yevropa Uyg'onish davri adiblarining asarlarida ham mana shunday inson omili, toj-u taxt egalari ilohiy shaxslargina emas, balki oddiy cho'pon bo'lsa-da, kuch qudrat egasi taxtga davogarlik qilishi mumkinligi ishonchli tarzda ko'rsatib berilgan edi.

Chunki, u davr shoirlari va yozuvchilari "tamaddun", "ijtimoiylik" "tabiat" va "tabiiylik" o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirishga uringanlar. Shu sababdan, bu davr adabiyotida ma'rifatning moddiy asoslarini kuchaytirish yo'lidagi harakatlar, insonning tabiat kuchlari bilan kurashi va g'alabasi, bunda inson tafakkurining sinovli g'alabasi kabi mavzular ilgari suriladi. Mana shunday g'oyalar bilan sug'orilgan asarlardan biri ingliz tarixchi olimi Edward Gibbonning "The History of the Decline and Fall of the Roman Empire" Vol. VII Gibbon Edward" (1787) – "Rim imperiyasining yakuni va qulash tarixi"da butun bir bob (Chapter LXV: Elevation of Timour or Tamerlane, and his death)¹⁸³ Amir Temurga bag'ishlangan. Muallif Amir Temurning Fors va Hindistonga bo'lgan yurishlari haqida qisqa so'z yuritib, asosiy e'tiborini yanada qiziqarliroq hikoyaga, Usmonli

¹⁸³ Gibbon E. The history of the decline and fall of the Roman Empire. Vol. VII, ed. by J.B. Bury, Methuen, – London., 1914.

turklarga qarshi bo‘lgan jangga qaratmoqchi ekanligini o‘quvchiga ma’lum etadi. Ammo, ma’rifatchilik davri adabiyotida tabiatan kurashchan qahramonlarning aksi bo‘lgan obrazlar ham talaygina. Ular asosan tub Yevropalik bo‘limgan, boshqa zaminda tarbiyalangan qahramonlar timsolida namoyish etiladi. Masalan, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asaridagi Axiy Jabbor yoki Usmon Azimning temuriylarga bag’ishlangan asarida Shafqat Devona garchi o‘ta ishonuvchanligi va soddadilligi, ma’sumligi, dunyodan mutlaqo bexabarligi va o‘z hayollari va aqidalari asosida ish ko’rishi bilan ajralib turadigan qahramonlar obrazi uchraydi.

Osiyo lashkarboshisining bosh qahramon sifatida olinishi va o‘sha davr tomoshabinlarining yorqin qahramoniga aylanishi ham Tamburleyn ma’lum murakkabliklarni singdirgan, zamon qahramonlarida mujassam bo‘lishi lozim bo‘lgan sifatlarni jo etgan obraz sifatida Nikolas Rouning ham sevimli obraziga aylanganining sababi ham shunda edi. Bu qahramon oddiy xalq vakili bo‘lishi bilan birgalikda zamon chigalliklarini mardonavor yengib o‘ta olgan obraz sifatida tan olindi.

Ma’rifatchilik davri adabiyotidagi yana bir o‘ziga xos-novatorlik ham faqat yangicha fikrlashda emas, yangicha hayot tarzida va shaklda ham namoyon bo‘la boshladi. Ma’rifatchilar o‘z zamonida mavjud shakllarga yangicha ko‘rinish, o‘zgacha mazmun baxsh etishga kirishdilar. Aynan drama janri rivoji ham shu davrda yangi bosqichga ko‘tarilishga erishdi. An’analarga aylanib ulgurgan, klassizm dramasining yuqori (tragediya) va quyi (komediya) janriga qo‘yadigan talablaridan bir muddat chetga chiqildi, asarlar qahramonlari Osiyo lashkarboshisi kabi oddiy kishilar, tanlangan mavzusi esa zamona kishilari uchun siyqasi chiqqan kundalik yumushlardan o‘ziga xosligi bilan, kitobxon va tomoshabinni bir vaqtning o‘zida hayratlantiradigan, yuqori tabaqa vakillarining naqadar ojizlik va manfur ekanliklarini o‘zlariga ko‘zgu kabi namoyish etishga qodirligi bilan xarakterlanadi.

Tarixnavis yozuvchilar oldida turgan yana bir murakkab masala: buyuk tarixiy shaxslar faoliyati haqida turli tarixiy manbalarda mualliflar tomonidan turfa xil munosabat bildirilishidir. Ijodkor bu manbalarni saralab, tarixiy davr voqeligiga

zid bo‘limgan holda asariga olib kira bilish va eng muhim, olis tarix bag‘ridan o‘z zamonasining muammolariga javob topishi, ibrat-tajriba bo‘ladigan jihatlarni badiiy yo‘sinda aks ettirishi ham zarur bo‘ladi. Bu tarixiy romanchilikning o‘ziga xos xususiyatlardan hisoblanadi.

Shuningdek, tarixiy davr talqinida va millat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan tarixiy siymolar obrazini yaratish tarix haqiqatiga uyg‘un holda olib borilishi darkor. Aks holda, yozuvchining kichik bir e’tiborsizligi tufayli kitobxonda ajdodlar shaxsiyati haqida noto’g’ri fikrlar shakllanib qolishi hech gap emas.

Ijodkor o‘z qarashlarini temuriyzodalar haqida bitilgan asarlarda keltirilgan misollar bilan isbotlar ekan, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidagi Xo‘ja Ahror Valiy va Ulug‘bek Mirzo o‘rtasidagi munosabatlar, Mirzo Ulug‘bekning mashuqasi Feruza bilan kechgan muhabbat mavzulariga to‘xtalib, aslida Abdulatifning Samarqandni egallash jarayonida Xoja Ahrori Valiy Samarqandda bo‘limgani, Mirzo Ulug‘bek va Feruza munosabatlari esa Xalil Sulton va Shodimulk o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ishqiy munosabatlarga qiyosan ular o‘rtasidagi o‘xshashlik kabi ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Mirzo Ulug‘bek kabi temuriylar orasida faxrli ajdodlarimizning badiiy siyemosini o‘ziga xos fasohat bilan yoritgan Maqsud Shayxzoda fikrlari o’rinli: “Tarixiy asar ustida ishlash juda qiyin, – deydi yozuvchi – negaki, voqealar allaqachon o‘tib ketgan, ular to‘g‘risida esa kitoblardan, arxivlardangina ma’lumot olish mumkin”. Lekin bu bilan ish bitmaydi. Tarixiy asarlarda ham qahramonlar sifatida jonli odamlar harakat qiladi. Ular jonli chiqmog‘i uchun xatti-harakatlari, qiliqlari, o‘zini tutishlari tafsilotlari va detallar orqali ifodalanishi kerak. Bu esa oson emas – har qadamda, har sahifada dabdurustdan hal qilish juda qiyin bo‘lgan savollar ko‘ndalang bo‘ladi. Masalan, XIV yoki XV asr odamlarini tasvirlar ekansan, ular bir-birlari bilan qanday salomlashganlar – bosh irg‘ibmi, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yibmi, bir-birlarining yelkalariga qoqibmi, qo‘llarini tik ko‘taribmi, qo‘l qisibmi yoki yana boshqa biron tarzda ko‘rishishganmi, biron kitobda buning tasviri va tasdig‘i bormi degan o‘xshash savollar ko‘ndalang bo‘ladi. Yoki u davr odamlari ko‘zoynak taqqanmi,

soch qo‘yganmi, kiyim-kechagi qanday bo‘lgan, yotib turishi, yuvinib-cho‘milishlari qanday kechgan va hokazo...

Darhaqiqat, adibning yuqoridagi mulohazalari tarixnavis yozuvchi mehnatining eng mayda, ammo, o‘ta nozik jihatlarini o‘zida aks ettirgan. Tarixiy asar davr muhitini tom ma’noda jonlantirish uchun yozuvchidan mayda-chuyda detallargacha ahamiyat berishni taqozo etadiki, bu ham bo‘lsa tarixiy mavzudagi asarning umrboqiyligini ta’minlaydi.

III.2. O‘zbek va inglizzabon dramaturgiyada Amir Temur va temuriylar obrazi talqinlari

Jahon adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan ko‘plab sahna asarlari mavjud. Nikolas Rouning “Temurlan”, Kristofer Marlo va Charz Sanderzlarning “Buyuk Temur”, Jozef Mislevkning “Tamerlano”, Frederik Hendlning “Tamerlano” asarlari ushbu mavzudagi eng sara ijod namunalari sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbek adabiyotida ham Amir Temur obrazini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Muhammad Ali, Nurali Qobul, Bo‘riboy Ahmedov singari yozuvchilar Sohibqiron siyosini badiiy jonlantirish uchun nasriy janrlarga murojaat qilgan bo‘lsalar, Ma’ruf Jalil, Abdulla Oripov, Asror Samad kabi ijodkorlar o‘zlarining dramatik asarlarida Amir Temur obrazini badiiy talqin qilishda katta muvaffaqiyat qozondilar. “Sohibqiron” dramasi 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi tantanalari dunyo va O‘zbekiston bo‘ylab keng nishonlanayotgan paytda yaratildi. Asar 5 sahnadan iborat. Unda sohibqiron hayotining eng muhim pallalari ushbu obrazning falsafiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari bilan hamohang shaklda ko‘rsatilgan.

Ma’ruf Jalil dramasida Amir Temurning yoshlik yillari aks etgan. Sohibqironning Movarounnahr o‘lkasini mo‘g‘ul bosqinchilaridan xalos qilish, kuchli, markazlashgan davlat barpo etish borasidagi sa’y-harakatlarini ko‘rsatish maqsad qilingan. Ushbu faslda esa Kristofer Marlo, Abdulla Oripov va Ma’ruf Jalil qalamiga mansub bo‘lgan sohibqiron Amir Temur haqidagi dramatik asarlarni siyosiy-tipologik tahlil qilishni maqsad qildik. “Ijtimoiy fanlarni,

madaniyatshunoslikni, san'atshunoslikni, adabiyotshunoslikni va tilshunoslikni o‘rganishda chog‘ishtirish tamoyilidan keng foydalanib, adabiyot bilan turli san’atlarning o‘zaro aloqadorligi aynan qiyoslash usuli orqali tadqiq etildi. Qolaversa, muayyan adabiyotga mansub davrlar, mualliflar va asarlarni o‘rganishda ham komparativ analiz usullari qo‘llanildi”¹⁸⁴. Jumladan, tahlil avvalida K.Marloning “Buyuk Temur” dramasi haqida to’xtalar ekanmiz, asosiy qahramonlari fors podshosi Miket, uning ukasi Xusrav, skifiyalik cho‘pon – Temur, Misr sultonining qizi Zenokrata singari obrazlardir. Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasidagi voqealar tarix haqiqatiga to‘la muvofiq emasligini hisobga olish joiz. Birinchidan, Amir Temur tomonidan ozod qilingan Movarounnahr dramada Skif yurti deb nomlanadi.

“Yallalar va teran askiyalardan,
Sayyor masxaraboz o‘yinlaridan,
Ketdik, ketdik skif chodirlariga!”¹⁸⁵

O‘rta asrlar oxirida ham, yangi dunyo tarixining boshlarida ham yevropaliklar Markaziy Osiyo hududini Skifiya deb ataganlar. Ispan olimi Perandino tomonidan Amir Temur haqida yozilgan tarixiy asar ham “Skifiyalik Tamerlanning ulug‘vorligi” deb ataladi. Bu jihat ingliz dramaturgi Marloning “Buyuk Temur” asarida ham namoyon bo‘ladi. Muallif tomoshabinlar e’tiborini askiyalar va masxaraboz o‘yinlaridan skif chodirlariga qaratishni istaydi.

Ikkinchidan, o‘z vatani tuproqlarini yog‘iylardan ozod qilishga urinayotgan Temurga dushmanlik qilayotgan davlat nomi fors podsholigi deb atalgan. Xolbuki, bu ma’lumotlar tarixiy haqiqatlarga muvofiq emas. Amir Temur Movarounnahr va Xurosonni to‘liq birlashtirganidan keyingina Eron hududidagi muzaffariylar va jaloyiriylar qabilalari bilan ziddiyatga borgan. Bu qabilalar turk sultoni Boyazid Yildirim tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa ham, Amir Temurga qarshi kurashlarida muvaffaqiyatga erisha olmagan. Movarounnahrni mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod qilish uchun Temur Ilyosxo‘ja va Tug‘luq Temurga qarshi

¹⁸⁴ G’aniyev I. Qiyosiy adabiyotshunoslik. Darslik. – Buxoro.: Durdona, 2023. – B. 4.

¹⁸⁵ Марло К. Буюк Темур. Драма. – Бухоро.: Дурдона, 2024. – Б. 3.

kurash olib borgan. Biroq dramada bu haqida so‘z yuritilmaydi. Menafon Xusravga:

“Saltanatga qaytarib eski qudratin
Afriqo, Ovrupo hamsoyamizdir,
Senga bo‘ysunajak butun Osiyo”¹⁸⁶ deya xitob qiladi.

Bu ta’rifdan ushbu mamlakat nomi Fors davlati emas, balki Usmonlilar ekani anglashiladi. Bu vaqtga kelib, Usmonli turklar Osiyo, Yevropa va Afrikada katta mustamlakalarga ega bo‘lgan qudratli davlatga aylangan edi. Muallif bu o‘rinda Temurga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan davlat sifatida Usmonlilarni nazarda tutgan bo‘lishi ham mumkin. Podshoh Miket o‘ziga nisbatan tanqidiy fikr bildirayotgan ukasi Xusravga uni o‘ldirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Dramaturg bu o‘rinda Usmonlilar tarixida ko‘p asrlar davom etgan an’ana – taxt vorisining barcha qondoshlarini o‘ldirish odatiga ishora qiladi. Biroq Usmoniylar haqidagi fikrni ham mutlaqo to‘g‘ri deb xulosa chiqarish mushkul. Amir Temur Usmoniylarga qarshi kurashayotgan paytida qudratli markazlashgan davlat hukmdori va dunyoning eng qudratli kishilaridan biriga aylangan edi. Dramadagi Temur esa siyosiy kurash maydoniga endigina kirib kelayotgan yosh yigit timsolida gavdalanadi. Pyesada tarixiy ma’lumotlarning badiiy talqin qilinishi bilan bog‘liq ayrim nomuvofiqliklar o‘sha davr Yevropa jamiyatida Markaziy Osiyo haqidagi ko‘plab tasavvurlarning noaniqligi va aniq ilmiy bilimlarga asoslanmaganligi bilan bog‘liq edi. Bir necha asrlar mobaynida Hindistondagi Boburiylarni “Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi” deb atash odat tusiga kirganini, temuriylarni mo‘g‘ullar deb bilish keng tarqalganini ham keltirish o‘rinlidir.

Turli makon va zamonga tegishli bo‘lgan ko‘plab asarlarda Amir Temurning tavalludi borasida munajjimlarning bashoratlari mavjudligi ta’kidlanadi.

Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasida:

“Endi sening taxting Saturn hamda,

¹⁸⁶ Марло К. Буюк Темур. Драма. – Бухоро.: Дурдона, 2024. – Б.6.

Sentiya birlashgan qora bir kunda

Tug‘ilgan kimsaning qo‘lida o‘tmish”¹⁸⁷ deya podsho Miketni bundan ogohlantiradilar.

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Shayxulisloq obrazi tomonidan bu qarash quyidagicha izohlanadi:

“Allohimning karami-la sakkiz yuz yilda

Yulduzlarning holatlari ayricha bo‘lgay.

Jadiy burji ko‘ringaydir kiyik shaklida.

O‘sha yili tug‘ilgaydir bir Sohibqiron.

Eng avvali shoh Iskandar, undan so‘ng esa

Tug‘ilmishdir Rasuli Akram –

Payg‘ambarimiz.

Uchinchisi hazrat Temur –

Sohibqirondur”¹⁸⁸.

Kristofer Marlo ham Abdulla Oripov ham o‘z dramalarida Amir Temurning g‘ayritabiyy salohiyat egasi ekanini, insoniyat taqdirida tub burilishlar qilishga qodir bo‘lgan ilohiy ishoralar ila tavallud topgan siymoligini ikki ijodkor tasavvurlari va bilimlari asosida ulkan mahorat bilan ifoda eta olganlar.

“Buyuk Temur” dramasiga ilmiy asosda baho berishda asosiy qahramon – Temur islom diniga e’tiqod qiluvchi shaxs emas, balki qadimgi yunonlar dini vakili sifatida namoyon bo‘ladi. U fors podshosiga qarshi kurashish uchun o‘z yaqinlari oldida yunon mifologiyasining qahramonlari Pilad va Orest nomini o‘rtaga qo‘yib qasam ichadi. Bu o‘rinda badiiy mantiqning hayotiy mantiqqa muvofiq emasligini e’tiborga olish zarur.

“Buyuk Temur” dramasi haqida fikr yuritganda matnda qadimgi Yunoniston va Rim mifologiyasi ta’siri sezilishiga guvoh bo‘lamiz. Dramada Saturn, Yupiter, Mars singari rim xudolari nomlari, Troya urushi hodisalarini eslatishga xizmat

¹⁸⁷ Марло К. Буюк Темур. Драма. – Бухоро.: Дурдона, 2024. – Б.10.

¹⁸⁸ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Фафур Ўулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – 387 б.

qiluvchi Paris detali mavjud. Shuningdek, muallif miloddan avvalgi V asrda bo‘lib o‘tgan yunon-fors urushlari natijalariga ishora qiluvchi ayrim tushunchalarni ham qayd etadi.

Drama birinchi qismining ikkinchi ko‘rinishida

“Oltinni forslarga chiqar, ko‘zi chaqnasin”¹⁸⁹.

Qadimgi dunyo tarixi bilan yaxshi tanish bo‘lgan Kristofer Marlo bu o‘rinda Gerodotning “Tarix” kitobida hikoya qilingan bir voqeaga ishora qilgan ko‘rinadi. To‘maris boshchiligidagi massagetlar qabilasi yerlariga hujum qilgan fors podshohi Kir II ni bu o‘lkaning oltinga boyligi qiziqtiradi. Dramaturg fors podsholigi haqida so‘z yuritish asnosida ushbu voqeani e’tiborga olgan bo’lishi haqiqatga yaqin.

Yuqorida to‘xtalganimizdek, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi besh sahnadan iborat. Drama Temurning Samarqand saroyida soch oldirishi epizodi bilan boshlanadi. Amir Temur sartarosh bilan bir qancha mavzularda mazmunli suhbat quradi. Asardagi bu voqeа shunchaki badiiy to‘qima mahsuli emas. Bu o‘rinda Iskandar va sartarosh haqidagi rivoyatning ta’siri ma’lum darajada mavjud ekanligi anglashiladi. Iskandarning sartaroshdan xavfsirashi, o‘z sirining oshkor bo‘lmasligi uchun barcha choralarни qo‘llashga tayyor ekanligi, shuningdek, shoh haqidagi sinoatning turli yo‘llar bilan oshkor bo‘lishi voqeasi bu rivoyatning asosiy mazmunini tashkil etishi barchaga ma’lum. Abdulla Oripov yetti iqlim hukmdori bo‘lgan Iskandarning nozik tomoni uning shoxlari ekani, o‘z sirining maxfiyligini saqlash uchun ko‘plab sartaroshlarni ham, boshqa kishilarni ham o‘ldirishga tayyorligini alohida e’tiborga oladi. Amir Temurning sartarosh bilan do‘stona suhbatini dramaga olib kirish orqali muallif bu qahramonda Iskandarda mavjud bo‘lgan xavotir yo‘q ekanini, yashirin ayblari bo‘limgani uchun ham begunoh insonlarni nohaq qatl qilishga urinmasligini anglatmoqchi bo‘ladi.

¹⁸⁹ Марло К. Буюк Темур. Драма. – Бухоро.: Дурдона, 2024. – Б.18.

Soch oldirish voqeasidan so‘ng, asirga olingan Amir Husaynning keltirilishi epizodiga ahamiyat beriladi. Bu o‘rinda asosiy qahramonning aql-u zakovati hamda, dunyoqarashi aniqroq namoyon bo‘ladigan vaziyatlar yuzaga chiqadi. Temur Amir Husayn bilan bahsga kirishar ekan, ortiqcha qiziqqonlikka berilmaydi, o‘z da’volarini mantiq kuchi bilan yetarlicha isbot qila oladi.

“Qay bir fozil aytgan ekan: Tuz aynisa gar
Uni nima tuzatar deb,
O‘h, ablah, olchoq!”¹⁹⁰

Sohibqiron o‘zi va Amir Husayn o‘rtasidagi ziddiyatning o‘ta keskin holatga kelganini, endilikda kechirim va shafqatga hech qanday o‘rin qolmaganini shu kabi chuqur falsafiy mushohada bilan mantiqiy isbot etadi.

Ushbu ikki personaj o‘rtasidagi kolliziya o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan nuqtada Uljoy Turkon vaziyatni yumshatishga astoydil harakat qiladi. Bu ayol Amir Temurning rafiqasi, Amir Husaynning singlisi bo‘lgani uchun ham, bu qarama-qarshilikning barham topishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga urinadi. Bu intilishlar o‘z samarasini bermagach, Uljoy Turkonning o‘z joniga qasd qilishi bahslashuvga yakun yasaydi. Amir Husayn o‘zining qismatiga rozi bo‘lishni ma’qul deb topadi.

Dramada ushbu ikki tarixiy shaxs o‘rtasidagi hodisalarining badiiy talqini o‘ziga xosliklarga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Real tarixga nazar tashlar ekanmiz, Uljoy Turkonning Amir Husayn qo‘lga olinishidan avval vafot etganligi ayon bo‘ladi. Dramada esa bu voqealar boshqacha shaklda talqin qilingan. Uljoy Turkon obrazining asarga olib kirilishi kollizianing murakkablashuviga, Amir Temur xarakterining yanada mukammalroq namoyon bo‘lishiga imkon yaratadi.

Ikkinchi sahnada Amir Temurning davlat rahbari sifatidagi qiyofasi ulkan mahorat bilan yaratilgan. Ko’ragon jahongir vazirlar, amirlar, shahzodalar va

¹⁹⁰ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – Б.388.

sarkardalar qarshisida davlat boshqaruvi, qo'shinni jangga tayyorlash sir-asrorlari va adolat haqidagi qarashlarini bayon qiladi.

"Har qandayin davlatni ham boshqarmoq uchun
Eng avvalo, yo'riq kerak,
Qoida darkor.
Chingiz buni yaso degan,
Biz "Tuzuk" dedik"¹⁹¹.

Muallif sahna asarida Amir Temur siyemosini falsafa va badiiyat vositasida jonlantirish bilan birgalikda bu shaxs ishlab chiqqan davlat boshqaruviga oid qonun-qoidalarning umumiy mazmunini ham ma'lum etishni maqsad qiladi. Shuning uchun ham, Chingiz yasosi, Temur tuzugi tushunchalarini dramaga olib kiradi... Chingizzon yasog'i haqida kengroq ma'lumot berish, uning ko'chmanchi chorvador aholiga boshchilik qilib, markazlashgan davlat tuzganligi, yangi davlatni imperiya darajasiga yetkazib, mustahkam davlat boshqaruviga asos solganligi, asosiysi, uning davlatchilik qarashlari qadim turkchilik, tangrichilik, umuminsoniylik g'oyalariga asoslanganligini ko'rsatib berish bilan birga, bu asar "Temur tuzuklari"ning nazariy asoslariga qanchalik hamohang ekanligini anglatishdan iboratdir"¹⁹².

Jahon sahnalarida olib borilayotgan mana shunday faoliyat o'zbek adabiy olamida Abdulla Oripov qalamiga mansub "Sohibqiron" she'riy dramasi bilan yanada boyidi deyish o'rini. Unda shavkatli Temurbek obrazi katta iftixor va g'urur bilan qalamga olingan. Amir Temur xususida aytish mumkinki, mingga yaqin badiiy va ilmiy asarlar yaratilgan. Ammo, Abdulla Oripov yuqorida nazarda tutilgan asarlarda ifodalangan mohiyat, obraz va tashbehlarni takrorlamaslikka intilgan. Sohibqiron Temurni ushbu sahna asarida mehnat ahliga, o'z lashkar-u, askarlariga, san'at va hunar ahliga, farzand va nabiralariga mehri va g'amxo'rliги, saxiyligi bilan birga qattiqqo'lligi, adolat tarozisida ish ko'rganligini xullas,

¹⁹¹ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Фаур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – Б.397.

¹⁹² Чингизхон ясоги ва Темур тузуклари. – Тошкент.: Info Capital Books, 2024. – Б.5.

insonparvarligi aks ettirilgan. Buning yorqin isboti, she’riy asar ibtidosida Temur va sartaroshning suhbatini keltiriladi. Abdulla Oripov bu sahnani shoirona mohirlik bilan yarata olganki, goho mehrli, goho qahrli Amir Temur o‘z saroyidagi oddiy lavozim egasidan to eng oliy lavozim sohibigacha dildan suhbatdosh, do‘stona munosabatda bo‘lganligini adabiy bo‘yoqlarda bera olgan. Shu bois ham, shoir o‘z asarining avvalini Temurdekni ya’ni ulug‘ hukmdorni oliynasablar davrasida emas, oddiy bir xalqona obraz-sartarosh bilan suhbatda tasvirlashdan boshlaydi:

Temur:

“Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh

Senga ko‘ngil ochsam bo‘lar”

Sartarosh:

“Qulluq, Hazratim”¹⁹³.

Sahna asarida Sohibqiron Temur obrazi tilidan keltirilgan suhbatdan anglashiladiki, u oddiy xalq vakillari orasidan ham o‘ziga sirdosh, hamroh topa olgan.

Abdulla Oripov “Sohibqiron” she’riy asarida Amir Temur timsolini adabiy chizgilarda yaratar ekan, uni zamon va makon, tarixiy muhit va sharoit, inson va insoniy fazilatlar qamrovidan holi, ulardan o‘zga holatda tasvirlamaydi, balki, inson sifatida fazilatlarga, ijobiy qarashlarga ega, o‘zi yashagan davrning sodiq farzandi sifatida badiiy gavdalantirib, go‘zal chizgilar bilan qalamga oladi. Dramaning har bir sahnasida ijodkor Temur obrazini yaratishda unga yangidan–yangi badiiy bo‘yoqlar berib, uni yangi tashbehtar bilan boyitadi.

Yuqoridagi xususiyatlar badiiy asar namunalarida ijodkor tafakkuri va iste’dodi darajasini ko‘rsatadi. Abdulla Oripov ijodi – jahon badiiy tafakkuri tarixidagi ana shunday noyob hodisalardan biri hisoblanadi. Ularning ijroviy lirika ko‘rinishidagi she’rlarida nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun dunyo xalqlarining turli ijtimoiy-tarixiy muhitlarda kechgan hayoti, orzu-armonlari va irodasi, erk va ozodlik yo‘lidagi kurashi ifoda etiladi. Shoirlar ijroviy lirkasi orqali insoniyat

¹⁹³ Oripov A. Sohibqiron. Drama. – Toshkent.: “Yangi nashr”, 2019. – B. 7.

hayotining yaxlit badiiy tarixini yaratdi. Shunga ko‘ra, Abdulla Oripov ijodi rang-barang talqinlar uchun imkon bergani kabi, turli mavzudagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham material bo‘lib xizmat qila oladi.

Asarda Sohibqiron Amir Temurning fan, adabiyot va san’at homiysi ekanligi uning Ibn Xaldun singari olimlar, Hofiz She’roziy kabi shoirlar va din ulamolari bilan qilgan suhbatlaridan namoyon bo‘ladi. Muallif Amir Temurning shon-shuhrat bilan yo‘g‘rilgan hayot yo‘lini katta mahorat bilan aks ettirar ekan, temuriylar sulolasining keyingi qismatiga ishoralar ham beradi. Amir Temur huzuriga uning kelini Xonzodabeginning Mironshoh Mirzo ichkilikka berilishidan shikoyat qilib kelishi epizodi bu fikrning yaqqol dalilidir. Temur shavkatli hukmdor bo‘lsa ham, aybdor ota sifatida o‘glining axloqiy tubanliklaridan xijolat bo‘ladi. Muallif temuriy shahzodalarning markazlashgan davlatni parokandalikka duchor qilganini, ulug‘ jahongirning boshqaruv tartibi u vafot etishi bilanoq, tezda barham topganini taassuf bilan e’tirof etadi. Sodir bo‘lajak bu voqealarning tasodif emasligi dramadagi turli epizodlar vositasida anglashiladi.

Dramaning 3-sahnasida Boyazid Yildirim va uning qo‘smini bilan bo‘lgan kurash asnosida Amir Temurning davlatchilik va urushlar haqidagi mushohadalariga keng o‘rin beriladi. Sohibqiron turkiy millatlarning o‘zaro nizoga borib, jang maydonida bir-birining qonini to‘kayotganidan qattiq afsuslanadi. Keyingi sahnada Amir Temurning Hizr va Ahmad Yassaviy bilan suhbatli epizodlari asar g‘oyasini yuzaga chiqarishda muhim o‘rin tutadi.

Ma’ruf Jalilning “Sohibqiron. Amir Temur qissasi” dramasida Amir Temurning Amir Husayn bilan birgalikda Ilyosxo‘ja boshchiligidagi mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan jangovar harakatlari aks ettirilgan bo‘lib, Sohibqironning Balx qurultoyida amirlik martabasiga munosib ko‘rilishi voqeasi bilan nihoyalanadi. Asror Samadning “Sohibqiron Temur” asari voqealarini esa Amir Temurning Balx qurultoyidagi muvaffaqiyatlari namoyishi bilan boshlanib, umrining so‘ngiga qadar bo‘lgan hodisalarini qamrab oladi.

Ma’ruf Jalil esa asar voqealarini bu ikki qahramonning do‘stligi aks etgan epizoddan boshlaydi. Sohibqironning do‘stlik oldidagi juda katta xizmati shundaki,

u Amir Husaynni o‘limdan saqlab qoladi, dushman qurshovidan olib chiqadi. Shu sababdan ham, ular o‘zlarining umumiy dushmani – Ilyosxo‘jaga qarshi birgalikda kurashadilar. “Olisdan yog‘iy qo‘sining manglayi ko‘rinadi. Husayn ham, Amir Temur ham o‘z qo‘sining safga tizib, janga hozirlik ko‘ra boshlaydi”¹⁹⁴. Ammo Amir Husayn o‘zini Sohibqironga yaqin qilib ko‘rsatishga urinsa ham, zimdan unga qarshi ishlar qilish payida bo‘ladi. Hukmdorning “Bir mamlakat tuzsam, degan rejam” bor degan niyatini bilgan Amir Husaynning ichiga g‘ulg‘ula tushadi va “kinoyali jilmayib...” qo‘yadi. Bu tasvir esa ham uning asl holatini ochishga xizmat qilgan. Lekin yordam zarur bo‘lgan paytda Husaynning qochishga urinishi bu ikki qahramon o‘rtasidagi kolliziysi kuchaytirib yuboradi.

Amir Husaynning maqsadi qanday bo‘lmisin, jonini saqlab qolish, ayshishratda hayot kechirish ekani ayon bo‘ladi. Muallif asarga xarakterli real tarixiy voqeani fabulasi olib kirib, Husaynning xarakterini yaqqol namoyon qilishga muvaffaq bo‘ldi. Uning ko‘ngli Sevinbeka ya‘ni xalq orasida Xonzodabegim nomi bilan mashhur Yusuf So‘fi qiziga tushib qoladi. Sovg‘a-salomlar qilib, to‘yni tantana bilan o‘tkazish uchun mablag‘ yig‘ish dardiga giriftor bo‘lib, aholini og‘ir soliqlar bilan qattiq qiynaydi. Amir Temur xalqni azobdan qutqarish maqsadida barcha mablag‘ni o‘zi to‘laydi. Bu o‘rinda turli xarakterli va dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxslarning asl qiyofasi kontrast usulida ochiladi. Biridan muruvvat yog‘iladi, biridan esa, qabohat. “Amir Husayn qanday qahramonu, Amir Temur kim?” degan savolga ana shu voqealardan javob topiladi. Ayniqsa, bu ikki qahramon o‘rtasida hukmdorlik masalasi ko‘tarilgandan so‘ng, bu ikki shaxs o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskinlasha boshlaydi. “Zotim kim” deb o‘ylamasmi Temurning o‘zi? Men-ku xonning kuyoviman, aloqam bordir”¹⁹⁵.

Asror Samadning “Sohibqiron Temur” dramasida ulug‘ jahongir hayotining keyingi davrlarini aks ettirishga alohida e’tibor qaratilgan. Amir Temur Boyazidga noma yo‘llar ekan, sultonga hurmatini ifoda etgan holda, Qora Yusufni unga yuborishini talab qilganda olgan javobi xarakterlidir. Boyazid dag‘dag‘a va po‘pisa

¹⁹⁴ Жалил М. Амир Темур қиссаси. – Шарқ ўлдузи, 1993. № 5-6. – Б.35

¹⁹⁵ Жалил М. Амир Темур қиссаси. – Шарқ ўлдузи, 1993. № 5-6. – Б.8.

qilgan holda, uni haqoratlab, shunday javob maktubini yuborgan. “Temurni ogohlantir, toki es-hushini yig‘ib huzurimizga kelsin, agar huzurimizga bosh egib kelmasa, ahli ayoli uch taloq bo‘lsin!”¹⁹⁶ Ha, bu haqoratga g‘ururi bor er kishi bardosh berishi mumkin emas. Bu bilan cheklanmasdan, Boyazid butun umri davomida Amir Temurga ham ma’naviy, ham jismoniy zARBalar berishga intilgan.

Asarda-Boyazidning asl maqsadi oydinlasha boradi. “Seni yengib, asir olay, ey oqsoq Temur...kanizaklarimga Haram og‘a qilib qo‘yay, shoshmay tur hali”¹⁹⁷. Boyazid g‘alaba qilishiga ishongani holda holda Amir Temur lashkarlariga tinmay qaqshatqich zARBalar beradi, ko‘p sonli lashkarlarini ham qirib tashlaydi. Ammo, so‘ngi lahzalardagi harbiy jang san’atidagi ustuvorlik o‘z ishini beradi va u mag‘lubiyatga uchrab, asir olinadi. Ha, shunday haqoratlar egasi bo‘lmish bu sultonga g‘olib hukmdor qanday munosabatda bo‘ladi?

Asir tushgan Boyazidga mardona Sohibqiron “ozor” bermaslik, uning shohlik izzatini qilishni buyuradi. Bu olivyjanoblikni u davom ettirib, “Yo‘q, taxtga o‘tqazib, o‘zim xizmatingda bo‘lurmen”. Qudratli hukmdor o‘zini shunchalik ham kamsitadimi?. Uning bu tarzda yo‘l tutishi rafiqasi Bibixonimni hayratlantiradi, ularni hazil tarzida qabul qiladi. Aslida esa, “Ori, rost! Hazil – podshohlarga xos emas” edi. Ammo, o‘z salobati va manfurligicha qolgan Boyazidning tersligiga qaramasdan, Sohibqironning javobi voqealar xarakteriga, uning mazmuniga zid bo‘lib tushganday:

Kuzatingiz, afandimni, izzat ko‘rsating,
Izzat-hurmat – hammasi ham bo‘lsin shohona¹⁹⁸.

Xatto shu ham Sohibqironning ko‘nglini tinchita olmasdi. U yanada boshqa yaxshiliklar qilishga qaror qiladi. Raqibining farzandi shahzoda Sulaymonni Rum taxtiga o‘tqazib, uning sharafiga bazmi jamshid uyushtiradi. Bu Boyazidning yomonligiga Amir Temurning yaxshiligi edi.

¹⁹⁶ Самад А. Соҳибқирон Темур. Драма ва хикоялар. – Т.: “Ёзувчи”, 1993 – Б.11.

¹⁹⁷ O’sha manba. – В.12.

¹⁹⁸ Самад А. Соҳибқирон Темур. Драма ва хикоялар. – Т.: “Ёзувчи”, 1993 – Б. 26.

“Temur tuzuklari”da qilingan xatolarga jazo muqarrar ekanligi xususida shunday deydi: “Beglar begilardan yoki amirlardan birortasi hukmimga xilof ish tutib, undan chetga chiqsa, uni qilichdan o‘tkazib, o‘rniga “muntazir al-amorat” hisoblangan o‘rin bosarini qo‘ysinlar”¹⁹⁹. Hukmdorning buyrug‘idan chetga chiqqanga shunday og‘ir jazo berilsa-yu, haqoratlar ortidan qurol ko‘tarib, yuz minglab askarlari sipohlarga qiron keltirgan, mamlakatga yurish etib, vayron qilmoqchi bo‘lgan Boyazidga muruvvat qilinsa! “Temur tuzuklari”da yana shunday insoniylik va olijanoblik xislatlari haqida dalillar uchraydi. “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim”²⁰⁰.

Asarda Boyazid otdan tushsa ham, egardan tushmay do‘q qilib, or talashgandek, mana shu kibr bilan turavergan. Muallif bu o‘rinda Amir Temurning bosh matlabini ifodalash uchun o‘sha tarixiy dalilni – Boyazidni yurti taxtiga o‘tqazish niyatini badiiylashtirib talqin eta olgan.

Ma’lumki, badiiy adabiyot barcha davrlarda xalqning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini obrazli ifodalash bilan birga, har doim o‘z-o‘zini isloh qilib kelgan. XX asr o‘zbek adabiyoti, jumladan, milliy nasrda pandnoma-didaktika o‘z o‘rnini ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq voqelik tasviriga bo‘shatib berdi. Badiiy ijod inson botinida kechadigan hissiy va aqliy faoliyatning mahsuli bo‘lib, u ijodkor “ichki men”ining til vositasida namoyon bo‘lishidir, deb aytish mumkin. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, insonning ichki dunyosi, ruhiy olamida kechayotgan tuyg‘ular, botinida yuz berayotgan evrilishlar g‘ayritabiyy ravishda hatto uning o‘ziga to‘liq tushunarli bo‘lmagan holda badiiy asarda akslanadi. Ingliz badiiy adabiyoti va ilmiy tadqiqotlarida Amir Temur shaxsiga bag‘ishlangan asarlarning yuzaga kelishi va tadriji tahlil qilinganda, e’tibor berishimiz lozim bo‘lgan jihatlar talaygina. Bu uzoq va murakkab jarayonni qamrab oladi, shu sabab, mazkur jarayonni nisbatan to‘la tasavvur qilish qulayligi nuqtayi nazaridan xronologik

¹⁹⁹ O’sha manba. – B.130.

²⁰⁰ Temur A. Temur tuzuklari. – T.:“O‘zbekiston”, 2019. – B. 24.

jihatdan tahlil qilish ma’qul degan xulosaga keldik. Jumladan, ingliz badiiy adabiyotida Amir Temur siymosining yoritilishi haqida so‘z ketganida, birinchi navbatda Kristofer Marlo (1587-1588)ning “Buyuk Temur” tragediyasida davlat hukmdorlari ega bo‘lishi lozim bo‘lgan mulohazakorlik, tantilik, oliyhimmatlilik, adolat, shijoat va shiddat, tangri yorlaqagan shavkat singari insoniy fazilatlar haqida adib orzulari singdirilgan.

Yevropada Amir Temur siymosining badiiy targ‘ibotiga bag‘ishlab, K.Marlodan keyin asar yaratgan ijodkor avlod orasida eng yuksak mavqeni XVIII asr dramaturgi Nikolas Rou (1674-1718) egallaydi. Uning badiiy qiymati va ommaviylici darajasiga ko‘ra o‘z davrida Shekspir tragediyalari bilan bellashishga qodir bo‘lgan “Temurleyn” (Tamerlane, 1702) tragediyasi o‘z muallifiga ana shunday sharafni ato etgan asardir. Epigrafda mazkur tragediya “To the Right Honourable William, Lord Marquiss of Hartington” – “Xarrington markizi Vilyam janobi oliylariga bag‘ishlab yozilgani qayd etilgan “Bag‘ishlov”dir”. N.Rouning asarni yozishdan ko‘zda tutgan maqsad-muddaosi lo‘nda tarzda namoyon etilgan bo‘lib, unda muallif Temur shaxsiyatini o‘sha zamonning eng buyuk qahramoni sifatida eslatib o‘tganini qayd etadi.

Adiblar asarlarini solishtirganda, Kristofer Marloning “Buyuk Temur” (1587-1588) tragediyasida Amir Temur yengilmas, irodali sardor, ulug‘vorlik xususiyatidan forig‘ bo‘lmagan, ko‘rkam, aqli, chin sevgiga moyil, sodiq do‘sifatlari ila tasvirlangan. Yana bir jihat, Amir Temur siymosini Marlo Uyg‘onish davri afsonaviy odami sifatida ko‘rsatib, o‘z davridagi Yevropa an‘analariga muvofiq tarzda ish tutadi, ya’ni Sohibqironni betimsol bashardo‘st-gumanist sifatida gavdalantirgan.

K.Marloning Sohibqiron siymosiga murojaat etishi esa G‘arbiy Yevropa madaniyati va adabiyotining falsafiy ahamiyatini anglab yetish uchun hal qiluvchi pog‘ona vazifasini bajardi. Amir Temur haqidagi afsona Marloning “Buyuk Temur” pyesasida Uyg‘onish davrining yorqin tasviri sifatida o‘z aksini topgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, “Buyuk Temur” bitta asar emas. Ikki qismdan iborat bu dramada ingliz shoirining kechinmalari va Amir Temur afsonasi yaxlit

tarzda berilgan. Tragediyada Sohibqiron tavsifi, mag‘lub etilgan Xusrav nutqida ajoyib tarzda jaranglaydi:

The face and personage of a wondrous man:
Nature doth strive with Fortune and his stars
To make him famous in accomplish’d worth;
And well his merits shew him to be made
His fortune’s master and the king of men,
That could persuade, at such a sudden pinch,
With reasons of his valour and his life,
A thousand sworn and overmatching foes.

Then, when our powers in points of swords are join’d.

Ma’nosi: Temur bahodirning butun qiyofasini,
Uningdek tugal qahramonni yaratmoq uchun,
Taqdir bilan tabiat ittifoq tuzgan.

U yolg‘iz o‘z hayotin boshqarib qolmay,
Hal qilur o‘zgalarning qismatini ham,
Shu sabab, uning tengsiz muxoliflari
Eshitganda g‘olibona zafarlarini,
Tasannolar aytishar, hayratga tushib²⁰¹.

Mohirona tuzilgan nutqida Temur o‘zining buyuk va fazoviy mavqega ega ekanligini aytadi: o‘z otasini samo taxtidan ag‘dargani, unga taxt nasibasi, tabiat va ruhiyat qonunlari bunda asosiy sabab qilib ko‘rsatiladi.

Darhaqiqat, jahon adabiyotining yetakchi janrlari bo‘lgan dramatik asarlarning taraqqiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratish an’anasi yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham, ingliz dramaturgiyasida Sohibqiron Amur Temur obrazini yaratishga, uning dramatik holatlarini talqin etishga harakat qilingan. O‘zbek dramaturgiyasida temurshunoslik yo’nalishida yaratilgan asarlar bilan ingliz adabiyotini qiyosiy tahlil etish, ijodkorlarning o‘ziga xos mahoratini asosli

²⁰¹ Marlowe Ch. Two Tragedies. Moscow. 1980. Part I ACT II Scene I. P.17. (Маъруф Жалил таржимаси). — Сирли олам. 1989 август.

tarzda qiyoslash imkonini berish bilan birligida, obraz yaratish an'anasining poetik xususiyatlarini ochishga keng imkon beradi.

Odatda biron tarixiy shaxs haqida, qaysi tilda bo'lmasin, badiiy asar yozilar ekan, bu o'sha shaxsning favqulodda siymo ekanligini, uning millat doirasini yorib, jahon sarhadlariga yuz burganligini ko'rsatadi. Amir Temur ana shunday nodir shaxslardan biri ekanligi butun jumla jahonga ayon.

Inglizzabon badiiy adabiyotda Amir Temur haqida yaratilgan Allan Edgar Po qalamiga mansub doston ham keng qamrovli va ko'psonli asarlar tor doiradagi mutaxassislar hamda, ijodkorlarga ma'lum bo'lsa ham, biz tadqiqot davomida faqat mazkur manbalar asliyatidangina foydalandik. Edgar Allan Poning ijod mahsuli she'riy usulda bitilgani, biz tadqiq etishni maqsad qilgan she'riy asarlarda til, uslub va obrazlar tahlilida shoirning ijod namunasiga alohida to'xtalamiz.

Ingliz adabiyotida K.Marlo hamda, N.Rou asarlariga qiyoslanganda Amir Temur haqiqiy qahramon sifatida e'tirof etilgani va haqli ravishda gumanistlarning g'oya, qarash va talablariga loyiq topilishi ushbu zotning badiiy siymo sifatida adabiyotda paydo bo'lishini zarurat va ehtiyojdan kelib chiqqan tabiiylik edi deb qabul qilishimiz o'rinni. Charlz Sanderz qalamiga mansub "Buyuk Temur" sahna asari ham ana shunday ehtiyojda yaratilgan, o'z davrining yana bir sevimli dramalaridan sanalgan²⁰².

Ma'lumki, o'rta asrlar Markaziy Osiyoda markazlashgan sultanat asoschisi, o'z zamonasining tengsiz sarkardasi va mohir jang san'ati ustasi bo'lmish Sohibqiron Temur bobomiz haqida butun dunyoda bir necha yuzlab, minglab ilmiy, badiiy va tarixiy asarlar bitilgani sir emas. Shunday izlanishlar davomida jahonda mashhur yana bir asar "Amir Temur" dramasidir. Muallifi taniqli Ozarbayjon shoiri va dramaturgiyasining buyuk vakili Husayn Jovid Turkiyada uzoq yillar tahsil olgan, turklarning Amir Temur haqidagi uydirmalarini eshitgan va rivoyatlarini o'qigan holda, buyuk Sohibqiron haqida xolislik bilan qalam tebratishga kirishgan adiblardan sanaladi. Uning bu asarini ingliz adiblari va jahon

²⁰² Sanders Ch. Tamerlane the Great. – London., 1681

yozuvchilari qatorida tahlilga tortishimizdan maqsad, ushbu asar Yevropa va Osiyo yozuvchilari talqinlarini oydinlashtiradi. O‘z davrida aksariyat kitobxonlarga ma’qul bo‘lgan “Amir Temur” asarida o‘tmish voqealari haqqoniy yoritilgan va Yildirim Boyazid bilan kelib chiqqan ixtilofning tub mohiyatida turk sultonining kibri asos qilib olingan. Asar bosh konfliktiga aylangan ikki yurt sultonlari muhorabasining kelib chiqish sabablarida ham ikki tarixiy siymolarni badiiy talqin etishda, tarix haqiqatini buzib ko‘rsatmaslikka harakat qilinadi. Qahramonlar: Amir Temur tarixiy shaxs bo‘lsa, bir qator to‘qima obrazlar sanalmish Dilshod-Temurning suyukli xotini, Temur sardorlaridan biri Oqbug‘a, mingboshi Urxon, devonbegi-bosh vazirning qizi Olmos, Urxonning xotini, Olga-Urxonga ko‘ngil qo‘ygan rus qizi, yosh zabit Subutoy. Asar konfliktining ikkinchi qutbida tarixiy shaxs bo‘lgan Yildirim Boyazid, u tarafidagi obrazlar Ali Podsho-sadri a’zam, Shayx Buxoriy-fozil bir kishi, Jo‘ja-pakana masxaraboz, Nozim og‘a- qora oriq arab-haram og‘asi, boshqalar ishtirok etadi²⁰³.

Asar garchi qator to‘qima obrazlar, tarixiy fabulaning badiiylashtirilgan sujet shakllari bilan boyitilgan bo‘lishiga qaramasdan, dramaturg tarixiy ma’lumotlarni chuqur o‘rgangan holda, ularni o‘z asariga kiritadi, muallif sifatida ikkisini hamadolat tarozusida baholaydi. Sohibqiron Temur asarda turkiy, musulmon elatlar va xalqlar birligi va tinchligi uchun kurashuvchi diplomat, tajribali sardor va tadbirli davlat boshqaruvchisi talqinidagi tarixiy shaxs prototipi asosidagi badiiy obraz bo‘lsa, Turk sulton Boyazid Turon sultonini mensimasligi va pisand etmasligi bilan o‘tmish solnomalarida qolgan siymo, Jo‘ja, Shayx Buxoriy obrazlari orqali uning tarixda qilgan xatti-harakatlari asarning badiiy sujetlari rivojida ochib beriladi. Shuningdek, Amir Temurning islomga e’tiqodi baland musulmon vakili ekanligi, savdo va san’atshunoslikni, hunarmand va olimu fuzaloni, mamlakatlar obodligi va me’morchiligi ravnaqi rahnamosi sifatida tarixan dalillangan siymo ekanligini ushbu shaxsni ideallashtirmagan holda, muallifga xos muhabbat bilan ko‘rsatib berishga intiladi.

²⁰³ Husayn Jovid. Amir Temur. 5 pardali sahna ko‘rinishi. Jahon adabiyoti. – 1998. 1 son. – B.43-78.

Asar avvalida Temurbek saroyi muhitini tasvirlashda Turon sultoni go'shasi butun dunyoning eng sara va noyob san'at namunalari asosida bezatilgani, atrof esa doimgidek, go'zal bog'lar bilan o'ralgan holda tasvirlanadi. "Samarqand Amir Temur saroyida sharqona yasatilgan go'zal bir qasr. U Turkiston, Eron, Hindiston jihozlari bilan bezatilgan...Oldinda katta bir deraza, derazadan gullarga burkangan ajoyib bir bog' ko'zga tashlanadi". Bu tasvirda ajib bog'ning badiiy ifodasi tasviri ham to'qima tasvir emas, Sh.Yazdiy asarida keltirilgan Amir Temurning bog'lar barpo etish bo'yicha ixlosmand ekanligini, Klavixoning o'z kundaliklarida "Jannat bog'lari" tasvirlariga monand.

Ozarbayjon shoiri Husayn Jovid Rui Gonsales de Klavixoning Amir Temur tashqi ko'rinishiga bergen ta'riflarini yanada boyitib, o'z asarini badiiylashtiradi: "U o'rtalbo'yli, yag'rindor, keng manglayli, boshi katta, oq yuzli, yonoqlari qizg'imtir, yelkalari keng, barmoqlari baquvvat, chakkalari cho'ziq, go'yat sog'lom shaxs"²⁰⁴. Asarda Temurbek zamonidagi orombaxsh kunlar, sayllar, osuda va shonli hayot tasvirlari, kitobxonni o'sha davr Samarqand atrofidagi daralarga yetaklaydi: "Zarafshon daryosi bo'yinda Bingul darasidagi zavq safoli sayllar, yashil adirlar ustiga tikilgan chodirlar, Arab va Eronga xos nafis pardalarning qiyosi yo'qdir. Hindistondan kelgan o'yinchilar, askiyachi va latifago'ylar, raqqos va raqqosalar. Pahlavonlar kurashi, rang-barang matolar bilan bezatilgan fillar, har xil musobaqalar, tengi yo'q hayratomuz turfa xonandalar. Tantanalarda amir va shahzodalar xotinlarining, butun turk qizlarining ishtiroki turli ellardan kelgan ajnabiylarni lol etur. Buyuk Temurning bu hashamatlarini ko'rgan har bir kishi hayratdan o'zini yo'qotur"²⁰⁵. Demak, bu manzaralar tasviri o'z-o'zidan bo'lib qolgan emas, u esa bosh qahramon tilidan aytilganidek, "Samarqanddagi muhtasham saroylar va oliy madrasalar, buyuk obidalar faqat fathu safarlar tarixidir. Shu o'rinda, XX asr boshida yashab o'tgan Ozarbayjon shoiri Temur tilidan Samarqandda mavjud "Ma'budlar"ni keltiradi. Bizningcha, bu yerda turli din vakillarining ham muslimmonlar qatori o'z e'tiqodida ekanligi, turli yurtlar fath

²⁰⁴ Husayn Jovid. Amir Temur.1-parda. Jahon adabiyoti. –1998. 1 son. – B.46.

²⁰⁵ O'sha manba. – B. 47.

etilgandan so'ng olib kelingan olimu, hunarmandlar ham Samarcandda diniy bag'rikenglik asosida o'z ibodatlari bilan mashg'ul va mavjudligiga ishora deb tushunish mumkin.

Asarda Amir Temurning ahli ayollariga, o'z shikoyatlari bilan kelgan keksa dehqonlar, mansabdorlardan jabr ko'rgan oddiy xalq vakillarining arzi mamlakat sultonining nazoratiga olinishi, xolis guvohlar va qattiq surishtiruvlar natijasida bularning bari bartaraf etilishi asar voqealari silsilasida ko'rsatilsa, aynan bu syujetlar asar muallifining tasavvurlari emas, balki u tarix tasdig'i deb tushunish lozim, bu jarayonlar bayoni aynan "Temur tuzuklari"da ham keltiriladi. Demak, muallif asarni yozish qalam qoralash jarayonida buyuk Sohibqironning qonunlari jamlanmasi "Temur tuzuklari"dan ham xabardor bo'lgani oydinlashadi. Shuningdek, Amir Temurning har bir muhoraba oldidan o'tkazajak mashvaratlari haqida asar qahramonlari tilidan aytlishi, tarixda ham bu buyuk fotixning kengashlar va qurultoylarni muntazam o'tkazib kelganligi isbotidir. Asarda Temurbekning insoniy tuyg'ularni qadrlovchi, inson ko'ngilshunoslari - shoirlarni ardoqlovchi va shu bilan birgalikda, yana bir to'qima obraz Shoirga o'z hayotiy maqsadlarini ifoda etgan buyuk qalbli siymo ekanligi oydinlashadi: "Afsuski, inson nomi bilan yurgan ba'zi ikki oyoqli hasharot kabi qabih va razillarni... tartibga solmoq uchun, ularning qurum va chirkin bosgan vijdonlarini tozalamoq uchun Temur qilichi lozim. Hayhot, insonlar marhamat va muhabbatdan ko'ra ko'proq dahshat va kuch quvvatga topinurlar"²⁰⁶. Bu yerda Amir Temurning o'z botiniy maqsad va hayratlari, ilinj va tashvishlari, ko'ngil va aql, g'azab va mehr murosasi yozuvchi tomonidan mahorat bilan poetik talqin etiladi. Hayratlanarlisi, Turkiyada tahsil olgan, aksariyat turklarning Amir Temur haqidagi tasavvurlarini XX asr boshida chil parchin qilgan bu asar turklarning o'zlari tomonidan ham iliq kutib olinadi va mashurlikka erishadi. Amir Temur shaxsiyatini, u bosib o'tgan harb yurishlari, davlat tutumini sinchiklab o'rgangan Husayn Jovid katta bir mahorat bilan badiiyatda yana bir Amir Temur obrazini o'zgacha bir ijobiy,

²⁰⁶ Husayn Jovid. Amir Temur. 1 parda. Jahon adabiyoti. – 1998. 1 son. – B. 50.

falsafiy talqinda: sultanatda podshoh va hayotda qalbi ummon orzular va nadomatlarga to‘la inson sifatida talqin etadi. Uning ulkan sultanat rivojidagi siyosat negizini shunday bayon etadi: “Har bir sajiya va shaxsiyat bir qonundir. Men hozirga qadar biron qurultoysiz, sho‘rosiz ish qilganim yo‘q. Men hamisha fozil va oqil kishilarni tingladim, buyuk sardorlar ila mashvarat qildim. Faqat harb va urushlarni emas, sulk manfaatlarini ham ko‘zda tutdim. Men shu chek-chegarasiz o‘lkalarni goh tadbir va siyosat ila, goh sulh va muhabbat ila, goh tahdid va shiddat ila, goh avfu mulozamat ila idora etmak istaydurman. Men har ishda sabot va matonatni sevganim kabi hazmu ehtiyotdan ham ko‘nglim hush tortadir, lozim bo‘lsa ba’zan dushmaningizga ham sabr va tahammul ko‘rsaturman, ba’zan esa g‘ofil va johil ko‘rinmakdan ham zavq olurman”²⁰⁷.

Husayn Jovidning “Amir Temur” asarining katta tarixiy ahamiyati shundaki, u o‘z dramasi orqali Yevropaning asrlar mobaynida sahnalarini bezab kelgan Kristofer Marloning “cho‘pon yigitning o‘z kuchi va tadbiri bilan, to‘pori hayotida bilagi kuchi orqali, zo‘ravonligi tutumidan sultanat tuzgan” Temburleynidan, Nikolas Rouning “uddaburonligi va taqdiri porlab kulganidan, sarkardalik hiylalari kuchidan taxtga kelgan” Temurlangidan, Charlez Sanderzning “oddiy oilaning yetishmovchiligi vajidan alam va yo‘qchilikdan talonchilik va qaroqchilikdan o‘sib chiqqan” Temurleynidan batamom o‘zgacha obrazi bilan teatr sahnalarini bezadi. Yevropada ushbu asar ta’siridagi “ideal sarkarda va adolatli podshoh” Temuri XX asr dunyo olimlari tomonidan taqdim etila boshlandi. Ingliz adabiyotida salbiy xarakterli qahramonga singdirilgan “yashirin ijobiylikni kasb etuvchi qahramonni yaratish tajribasiga erishuvda Husayn Jovidning ham ushbu asarining ta’siri katta. Chunki, asar syujetini yaratishda tarixiylik mezonlarini bo‘rttirmagan yoxud to‘qima obrazlarga burkamagan tarzda badiylik kompozitsiyasini shakllantirish Husayn Jovid asarining o‘qimishlilagini ta’minlashga xizmat qilgan.

“Amir Temur” asari orqali Husayn Jovid Yeldirim Boyazidni may ichishga mukkasidan ketgan, kalondimog‘ va doimo sarhush, bu safo oqibatida atrofidagi

²⁰⁷ Husayn Jovid. Amir Temur.1 parda. Jahon adabiyoti. – 1998. 1 son – B.50.

takabburlarni ko‘ra olmaydigan darajada manfur shaxs sifatida tasvirlaydi. “Yildirim sharobning quli. Hayhot, shunday kunlar keladirki, kibrli Yildirim o‘z poytaxti Bursada oqsoq Temurni kutib oladir, o‘shanda... faqat o‘shanda o‘z sarxushligining oqibatini va mening kim ekanligimni anglab yetadir”²⁰⁸. Asarda musulmon olamining ikki buyuk fothining o‘zaro jangga kirishuvi, ularni chetdan kuzatib turgan ajnabiy qirollarning qudrati uchun bir imkon ekanligi dono vazir Devonbegi tomonidan go‘zal bir tarzda ifoda etiladi: “Har ikkingiz Turon olamining ikki qutbidursiz. Shul ikki qutb bir-biri bilan chopishsa, o‘rtada falokatli bir o‘pqon paydo bo‘lar va bu nifoqdan foydalanish ilinjida yurgan atrofdagi ajnabiy davlatlarga turk dunyosini zabit etmoq uchun imkon tug‘ulur”. Afsuski mana shunday jangga sharoit yaratilgan kibr va manmanlik natijasi ham asarda ta’sirli bir tarzda kitobxonlarga yetkazilgan. Ushbu urushni tezlashtirishda muallif Temurbek tilidan “Olloh yagona bo‘lgani kabi podshoh bitta bo‘lmog‘i lozim”, iqroriga kelishini oydinlashtirishga intilgan. Yildirim Boyazid bilan murosa-yu madora yo‘lini tutishni istagan Temurbekka qo‘rs va masxaralash javobi natijasida, bir musulmonning ikkinchi bir musulmon cho‘zgan qo‘lni siltab solar ekan, bu kibrga javobning ma’quli, iqrori “Yagona podshoh” lozimdir degan fikrga kelishi xulosasi bilan ikki yurt sultonlari janggi boshlanadi. Ikki turkiyning podshoh urushlaridan payt poylab turgan Ovro‘paliklar va dushmanlarga Temurning mardonavor hitobi yangraydi “turk avlodi faqat bosib, qirmoqdan emas, yashamoq va yashnatmoqni ham bilur. Zero, hozirga qadar yaratganlarimiz hech narsa emas. Bu madaniyat rivojini bizning avlod kamolga yetkazgay. Boshlangan bir odim, kelajak uchun bir ibtido, xolos. Biz boshlagan yumushlar kelgusi butun mamlakat taraqqiyoti uchun namuna bo‘lmog‘i lozim. Biz faqat buning tamal toshini qo‘yurmiz. Bu tamal toshi uzra muhtasham binolar qurmak, bu diyorni gullarga burkamak, bu mas’uliyat keyingi nasllarning, sabotli avlodlarning zimmasiga tushgay”²⁰⁹.

²⁰⁸ Husayn Jovid. Amir Temur.1 pard. Jahon adabiyoti. 1998. 1 son – 51 bet.

²⁰⁹ O’sha asar. – 53 bet

Ma'lumki, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishda xarakter va epizodlarni yaratishda, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham yozuvchi tasavvuri asos bo'ladi”²¹⁰. Ko'rinaridiki, tarixiy haqiqat (syujet) badiylashganda muayyan shaklda ijodiy tasavvur va qayta idrok qilish negizida yanada hayotiylik kasb etadi. Unda muhit va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar hamda, personajlar tabiatidagi o'zgarishlar (inqiroz va yuksalish) voqelikni bir maromda kechishida, ya'ni asar ruhiyatini anglashda qo'l keladi: Yildirim Boyazidning Amir Temur maktublarida bir-biridan qo'rs va sovuq jaboblarini har bir yozuvchi har xil tasavvurda, turli faktlarga asoslangan tarzda, turli asarlarda turlicha talqinda o'qiymiz. Husayn Jovidning “Amir Temur” asarida esa bu urush sababi Yildirimning o'zini yakka ayblamaydi, sulton atrofidagi laganbardor, o'z maqsad va manfaati yo'lida sultonni gij-gijlovchilar davrasida tasvir etishni, ular ta'siri ostida, ularning sultonga cheksiz maddohliklari va uni kuch qudratda tengsizlikka ishontirishlari, bir oqsoqqa qulq solish unga sharmandalik ekanligiga undashlari vajlari oqibatidagina mana shu jarayonlar harakatlanganini urg'ulaydi. Shuningdek, Yildirim Boyazidning kayfu safoda, sharoblar ta'sirida yanada olovlanganligini, unga qadah uzatganlar sultonni aqlidan mosuvo etgan holdagina uning ishonchiga kira olishlarini, unga dunyoning yarmini mag'lubiyatsiz egallagan Temur siyemosini tasavvur etishlari uchun masxaraboz obrazidan foydalanishlari, bu esa atrofidagi Ali Podsho va Jo'ja, ularning pinjiga kirgan Qora Yusuf va Ahmad Jaloyirlar Boyazidni “Xudoning yerdagi soyasi” deya maddohlik bilan uni ko'klarga ko'tarishi, o'zlarini o'ylab sultonni ko'zlarini pardalashi sabab qilib olingan. Asarda nozik ishoralar orqali Yildirim o'zini tengsiz hisoblab turar ekan, aslida uning fuqarolari ahvoli esa dono olim Shayx Buxoriy tilidan ifoda etiladi. “Yildirim podsho ichadigan sharoblari yo'qsil qishloqlikning to'kilgan qizil qonlari, qonli ko'z yoshlari evazidandir”²¹¹. Bu tasvirlarda butun mamlakat qudrati deya hisoblanmish lashkarni jamlash va ta'minlash, hatto sulton sharobini, saroy kayfi safosi ham sulton mamlakatining

²¹⁰ Умурев X. Бадиий ижод асослари. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 80.

²¹¹ O'sha manba – B. 57.

osudaligidan emas, aksincha, yo‘qsillashib borayotgan bechora xalqning ko‘z yoshlari, sitamlari evaziga ekanligi ayonlashadi. Ammo, ushbu asarda ham asrlararo mashhur bo‘lgan o‘sha rivoyat Temurning Isfahonda uch ming lashkarni qirib tashlagan Qoraquyunlining lashkari qasosida kallalardan minora tiklagani bayon etiladi. Lekin, ayna mana shu masalada uzoq yillar izlanish va arxeologik qazishmalar olib borgan tarixchi olimlar Isfahon voqealarining to‘laqonli uydirma ekanligini asoslab berishgan. Asar so‘ngida g‘olib va kechirimli, mard va saxiy Temur va Boyazid yuzma yuz qolishar ekan, Yildirimning qilmishlari Xudoga ham xush kelmagani, undoq ersa yakun bu dunyo qiymati o‘zini tengsiz sanagan Yildirimning mag‘lubiyati-yu, oqsoq deya haqoratlanmish Turon sardorining g‘olibligi bilan nihoyalanan edimi, qabilidagi muallif va tarix tasdig‘i va iqrori bilan nihoyalanadi.

Ushbu yuqorida tahlil ostida olingan uch ingliz va turkiy mualliflar bitgan asarlarda Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi tarixiy muhoraba turfa xil yo‘sinda talqin etilayotir. Lekin Anqara jangi talqin etilgan barcha tarixiy manbalar va badiiy asarlar ham voqelikni to‘laqonli ochib bermagan. Shu sababdan, ushbu tarixiy jang haqida yaratilgan asarlarni yangi ilmiy izlanishlar doirasida qiyosan o‘rganish lozim, deb hisoblaymiz.

III.3. Dramada nutq va sintaksis

Barcha janrlarga mansub asarlar poetikasiga ilmiy asosda baho berish jarayonida ularning til xususiyatlarini qat’iy e’tiborga olish talab qilinadi. Adabiyot so‘z san’ati bo‘lgani uchun ham lingvistika, tarjima bilan bir butunlikni tashkil qiladi. Tilshunoslik ilmida fikr almashish vositasi hisoblanadigan so‘z badiiy adabiyotda yozuvchilar yaratadigan ifoda va tasvir uchun material vazifasini bajaradi. Shu sababdan, badiiy adabiyotning quroli bo‘lgan so‘zlarning leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlarini atroflicha tadqiq etish uchun tilshunoslik fanining qonuniyatlaridan boxabar bo‘lish zarur. Ijodkor so‘zning lug‘aviy ma’nosini yaxshi idrok etishiga qaramay, uning grammatik ma’nosini yetarlichcha anglamasa, tasvir va ifoda jarayonida g‘alizliklar paydo bo‘lishi mumkin. Qolaversa, yozuvchi, shoir, dramaturg tilshunoslik fanining grammatika

tarkibidagi sohasi bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, gap va uning turlarini o‘rganuvchi sintaksis qoidalarini o‘zlashtirgan bo‘lishi shart.

Yozma adabiyotda asarning shakliy va mazmuniy yaxlitligi eng muhim ijodiy omil hisoblanadi. Badiiy ijod namunasining mazmuniy yaxlitligini ta’minlash uchun uning shakliy butunligini o‘rnatish ta’minlash zarur. Gaplarni xatosiz tuzish, tinish belgilaridan o‘rinli foydalanish, kiritmalarni ishlatishda belgilangan tartib-qoidalarga amal qilish, o‘rinsiz takrorlarning mavjud bo‘lmasligi asarning shakliy yaxlitligini yuzaga chiqaruvchi omildir.

Badiiy adabiyotda aloqa materiali hisoblangan so‘zdan foydalanilishi borasida professor Dilmurod Quronov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Badiiy nutqning xususiyatlari haqida so‘z borganda, eng avvalo, uning obrazliligi tilga olinadi. Ma’lumki, tilda mavjud so‘zlarning ko‘pchiligi shundoq ham obrazli tabiatga ega, biroq badiiy nutqning obrazliligi o‘sha so‘zlarning o‘zaro mazmuniy-grammatik aloqa-munosabatda izchil bir qatorga tizilishidan voqe bo‘ladi, ya’ni u ikkilamchi obrazlilikdir. Badiiy nutq shunchaki informatsiya yetkazmaydi, balki lisoniy obrazlar qatorini davriy ketma-ketlikda yaratib boradi va pirovardida o‘quvchini yalang fikr-xulosaga emas, badiiy voqelikka ro‘baro‘ qiladi”²¹². Ijodkorning “obrazli tabiatga ega” bo‘lgan so‘zlardan foydalanib, “lisoniy obrazlar qatorini davriy ketma-ketlikda yaratishi” sintaksis qonun-qoidalariiga amal qilingan holda voqelanadi. Shu xususiyatlar e’tiborga olinsa, Amir Temur haqida yaratilgan dramatik asarlardagi nutq va sintaksisni ilmiy asosda o‘rganish zarurati paydo bo‘ladi.

Dramatik asarlarda dialogik nutq yetakchilik qilgani sababli, aksariyat hollarda ulardagi bir qahramonning nutqi mazmun jihatidan o‘zidan avval so‘zlagan boshqa bir qahramonning nutqiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Dramada bevosita muallif nutqiga o‘rin berilmasligi voqeliklarning umumiy mazmunidagi bo‘shliqlarning ham personajlar nutqi bilan to‘ldirilishi taqozo qiladi. Dramaturg o‘zi yetkazmoqchi bo‘lgan fikrni qahramon nutqi vositasida voqelantirish uchun

²¹² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent.: “Navoiy universiteti”, 2018. – B.241.

qulay vaziyatni yaratishga urinadi. Shu maqsadda, kontekst mazmuni o‘zgartirilishi, personaj savoli yuzaga chiqarilishi mumkin bo‘ladi. Bu xususiyatlar umumiy holatda dramatik asar matnidagi personajlar nutqlarining zanjir shaklida uzviy bog‘lanishini ta’minlaydi. Ushbu holatlarni e’tiborga olgan adabiyotshunos I.G‘aniyev: “Ma’lumki, dramatik asarning asosiy belgilaridan bo‘lgan dialogik shakl qahramonlar nutqining bir-biriga bog‘liqligini keltirib chiqaradi, ya’ni “har bir personajning replikasi undan avval gapirgan personajning replikasi ichi” dan kelib chiqadi va boshqa personajning javob replikasini tug‘diradi, unga ilinib qoladi”²¹³.

Bu nazariy qarashlarni A.Temur haqida yozilgan Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi tahlilida ko’rar ekanmiz, asar personajlar nutqining o‘zaro mustahkam ma’noviy birlik hosil qilganiga guvoh bo‘lish orqali yuqoridagi fikrning to‘g‘riligiga amin bo‘lish mumkin.

Temur:

“Boyazidga yana maktub yo‘llagan edik,
Yana imkon bergen edik o‘ylab ko‘rishga.
Biroq hanuz javob yo‘qdir.

Muhammad Qovchin

Balki Boyazid

Tavba qilib o‘tirgandir, jura’ti so‘nib.
Yoadolat jabhasida biz to‘kkan qonlar
Nazaringda, sel misoli ko‘pirmoqdam?”²¹⁴

Sohibqironning Boyazidga maktub yo‘llagani haqida so‘zlashi vazir Muhammad Qovchinning to‘kilgan qonlar qo‘rquvi haqidagi fikrini bildirishiga sabab bo‘ladi. Bu fikr esa Temurni g‘azablantiradi. U o‘zining nohaq qon to‘kishdan zavqlanadigan zolim hukmdor emasligini ta’kidlashga shoshiladi. U faqatginaadolat o‘rnatish uchun qon to‘kkanini e’tirof etadi. Amir Temurning

²¹³ Фаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси ва фитратшунослик. – Бухоро.: “Дурдона”, 2024. – Б. 227.

²¹⁴ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – Б.406.

harbiy yurishlariga turli darajadagi amaldorlar, sarkardalar va oddiy xalq vakillarining munosabatini ko'rsatish, bu borada Sohibqironning dalillarini yuzaga chiqarishdir. Agar Amir Temurning adolat uchun qon to'kkanini asarda dialoglar vositasida emas, balki uning nutqi orqali ta'kidlanganida, asarning shu o'rinalidagi teran mantiqiylik va badiiylik ta'minlanmay qolar edi. Natijada yetkazilayotgan ma'lumot va'z ruhida bo'lardi. Bu xususiyat ifodaviylikdan xoli bo'lib, qahramonlar o'rtasidagi kolliziyaning yuzaga chiqishiga xalaqit bergen bo'lar edi.

Muallif bu epizod vositasida Temuriylar davlatining mafkuraviy qarashlari borasida turli toifadagi davlat arboblarining o'zaro zid fikrlarga ega ekanligini anglatmoqchi bo'ladi. Yirik amaldor bo'lgan Muhammad Qovchin Amir Temur uyuşhtirayotgan harbiy yurishlardan ko'zlangan asl maqsadni anglab yetmagan. Bu jihat hukmdor Amir Temur va vazir Muhammad Qovchinning siyosiy qarashlari o'rtasida fikriy birlik yo'qligini, qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Amir Temur ham o'z fikrini bildirib, qarashlarini ma'lum qilgan amaldorni birgina so'zi uchun jazolashga shoshiladi. Natijada, fikrlar o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar kuchli tarafning kuchsiz tarafni jazolashi bilan yakunlanadi. Bu epizod Amir Temur vafotidan keyin u tuzgan davlatning qisqa muddat ichida parokandalikka yuz tutishi tasodifiy hodisa emasligini ko'rsatishga xizmat qilgan. Davlat amaldorlari, shahzodalar o'rtasidagi fikriy ziddiyatlar o'zaro ichki urushlarga olib kelgan harbiy ziddiyatlarni paydo qiladi.

Amir Temurning Isfaxonda tiklangan minora haqidagi gapdan tezda g'azablanib ketishi bejiz emas. Ma'lumki, bosh qahramon shaxsiyatida muallifning qarashlari, orzu-istiklari va niyatları ma'lum darajada mujassamlashadi. Muhammad Qovchinning to'kilgan qon haqidagi gapi Temurni bekorga junbushga keltirmaydi. "Ijodkorning hissiy munosabati badiiy konsepsiyaning shakllanishida ham, uning o'quvchiga yetkazilishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero,

obrazlar tizimidagi har bir konkret obrazning hissiy bo'yoq dorligi turlicha bo'lib, bu narsa birinchi galda muallifning ijodiy niyati bilan bog'liq bo'ladi”²¹⁵.

Ma'ruf Jalilning “Sohibqiron” dramasi o'zbek adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan dramatik asarlar orasida alohida o'rin tutadi. Pyesaning bir qismi “Sharq yulduzi” jurnalining 1993-yil 5-6-sonlarida e'lon qilingan. Dramada Sohibqiron Amir Temurning yoshlik yillari – uning Movarounnahrni mo'g'ul istilochilaridan ozod qilish yo'lidagi kurashlari, Amir Husayn bilan bo'lgan ziddiyatlari hamda, markazlashgan davlat qurishi tasvirlangan.

Ushbu pyesa haqida vaqtli matbuotda bildirilgan ilk munosabat tarixchi olim va yozuvchi Bo'riboy Ahmedovga tegishlidir. Temurshunos olimning maqolasi “Sharq yulduzi” jurnalining 1993-yil 5-6-sonlarida e'lon qilingan: “Bu asar iste'dodli shoir Ma'ruf Jalilning qalamiga mansub. Asar oddiygina “Sohibqiron” deb nomlangan, lekin tariximizning o'ta dolzarb davriga bag'ishlangan. Unda hazrati Sohibqironning mamlakatimiz ustiga og'ir kunlar kelganda, yurtimizga Mo'guliston xoni Ilyosxo'jaxon (1363-1365)ning katta lashkari bostirib kirib, hammayoq ostin-ustun bo'lib ketgan bir paytda, Movarounnahr xalqini o'zini muzaffar tug'i ostiga birlashtirib, el-yurt taqdirini o'z qo'liga olgan Sohibqiron Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370) arafasidagi hayoti va faoliyatidan hikoya qiladi”²¹⁶.

Ma'ruf Jalilning “Sohibqiron” dramasi sintaksisi haqida so'z ketganda, avvalo, ushbu asarda epos ruhi mavjudligini e'tiborga olish zarur. Aksariyat dramalardan farqli ravishda bu asarda Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kelishi bilan bog'liq voqeа-hodisalar batafsil tasvirlangan. Umumiy mazmunni to'ldirishga xizmat qiladigan muallif izohlari bajaradigan vazifalar ham aksariyat hollarda personaj nutqining zimmasiga yuklanadi. Dramaturg tomoshabinni o'sha davr voqeligi bilan atroflicha tanishtirishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

Ma'ruf Jalilning Kristofer Marlo qalamiga mansub bo'lgan “Buyuk Temur” dramasini rus tilidan o'zbek tiliga dastlabki tarjimasini muvaffaqiyatli qilganini

²¹⁵ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent.: “Navoiy universiteti”, 2018. – B 93.

²¹⁶ Жалил М. Амир Темур киссаси. // Шарқ ўлдузи, 1993. № 5-6, 27 б.

ta'kidlagan edik. Marloning pyesasida ham Temurning yoshlik yillari qalamga olingan bo'lib, ijodkor ham ayni shu davr hayotini batafsil aks ettirishni o'zining asosiy ijodiy niyati deb bilgan. Biroq fors podsholigi haqidagi gaplar, Temurning kasbi, uning Zenokrata bilan munosabatiga oid tafsilotlar tarixiy haqiqatlarga muvofiq emasligini ham qayd etish zarur. Bu omillarni chuqur anglagan dramaturg she'riy yaratib, Amir Temurning Movarounnahr va Xuroson o'lkasida markazlashgan davlat qurishi bilan bog'liq tarixiy haqiqatlarni to'la aks ettirish zarurati mavjudligini bilgan iste'dodli ijodkor Ma'ruf Jalil "Sohibqiron" dramasini yozdi.

Yuqorida aytib o'tilgan dramada epik asarlarga xos bo'lgan ifoda batafsilligi xususiyati ustuvor ekanini qayd qilgan edik. Bu jihat personajlar replikalarining o'zaro bog'liqligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Qahramonlar retrospektiv syujet voqealarini ko'pincha birgalikda ma'lum qilishni ma'qul deb biladilar.

Shamsiddin Kulol:

Umr qanday tez o'tganin sezmay qolasan,
Kechagina edi otang Tarag'ay Botir
Kelib menga tush ko'rganin so'zlaganlari,
O'sha tushdan uning o'g'il ko'rishligini,
Elga sarvar bo'lishligin anglagan edim.
Keyin seni olib keldi oppoq yo'rgakda,
Qulog'ingga azon aytib, Ot qo'ygan edim.

Amir Temur:

Esimda bor, bir gal o'ynab kelgan chog'imda,
Zikr tushib turgan edi bir to'p qalandar.
Zikrdan so'ng qulog'imni cho'zib, yelkamga
Qattiq-qattiq urib turib, degan edingiz:
Sen jahongir bo'lajaksan, kamol top, o'g'lon.

Shamsiddin Kulol:

Qo'ling ishda, diling yorda, bilaman, o'g'lon

Vafodor yor hamroh erur doim yo‘lingda...”²¹⁷

Pyesaning ilk sahnasida kelinidan ayrilib qolgan kampirning faryodlari va mo‘gullar qilayotgan nohaqliliklardan nolishi epizodidan boshlanadi. Bu paytda Amir Temur Amir Husayn bilan ittifoq tuzib, Ilyosxo‘ja boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘sishinlariga qarshi kurashayotgan edi. Shunday vaziyatda ko‘p yillar avval ro‘y bergen voqealarni sahnada jlonlantirib berishning imkoni bo‘lmaydi. Biroq retrospektiv syujet voqealar rivojining tushunarligini, ichki mantiqning shakllanishini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shunday ekan, dramada retrospektiv syujet imkoniyatlaridan ham voz kechib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda o‘tmish voqelagini namoyon qilib berish uchun personajlar nutqi yordamga keladi. Amir Temur tug‘ilishidan avval, otasi Tarag‘ay Botirning tush ko‘rgani, Shamsiddin Kulolning bu tush ta’biri xayrli bo‘lishini ta’kidlagani, tug‘ilajak bolaning dunyoda katta shuhrat qozonadigan ulug‘ inson bo‘lishini so‘zlashi yuqorida nazarda tutganimiz, asardan olingan parchada tasvirlangan voqealardir. Pyesani tomosha qilish jarayonida bu ma’lumotlar bilan tanishgan kitobxon ulkan siyosiy kurash maydoniga kirgan Sohibqironning oddiy odam emasligini idrok etadi. Kelgusi ko‘rinishlarda ro‘y beradigan hodisalarga katta qiziqish bilan qaraydi.

Eposda muallif va qahramonlar nutqi o‘zaro muvofiqlashgan shaklda namoyon bo‘ladi. Biroq dramada bunday imkoniyat mavjud emas. Dramaturg nutqi remarkalardagi qisqa izohlar bilangina cheklanadi. Shuning uchun, qahramonlar nutqining mantiqiy va mazmuniy bog‘lanishi voqealar rivojining yo‘nalishlarini belgilab beradi. Ma’ruf Jalil asaridan keltirilgan yuqoridagi parchada voqea birgina qahramon tomonidan hikoya qilib berilganida bu nutq cho‘zilib ketishi, bayonning monotonligi tomoshabinni zeriktirib qo‘yishi mumkin edi. Biroq jahon dramaturgiyasining eng yaxshi tajribalaridan boxabar bo‘lgan, ijodiy iste’dodi yuqori ijodkor Ma’ruf Jalil bunday kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaydi. Sohibqironning tug‘ilishi bilan bog‘liq bashorat Shayx Shamsiddin Kulol

²¹⁷ Жалил М. Амир Темур қиссаси // Шарқ юлдузи, 1993. № 5-6, – Б.20.

tomonidan hikoya qilinsa, darveshlar bilan uchrashuv tafsiloti Temurning nutqida voqelanadi. Shamsiddin Kulol ayni paytda Temurga to‘g‘ri yo‘lda ekanligini ta’kidlab, uning qo‘li ishda, qalbi Ollohda ekanligini eslatadi. Muallif shu asnoda Temurning Naqshbandiya tariqatining mashhur shiori “Dil ba yoru, dast ba kor” – (Qo‘li ishda, qalbi Ollohda)ga amal qilishiga urg‘u beradi. O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab, Bahouddin Naqshbandiy ta’limotiga katta urg‘u berilganligi tarixiy haqiqatdir. Mumtoz ijodkorlarimiz estetik idealida ham bu qarashning ta’siri sezilib turadi. Biroq Amir Temur naqshbandiylikdan tashqari, asosan yassaviya tariqatiga katta hurmat bilan qaragan. Uning bu ulug‘ tarixiy shaxs qabri ustida muhtasham maqbara bunyod ettingani ham tarixiy faktdir.

M.Jalil asarida qiyosan K.Marlo asarining ikkinchi biz ijodkor tomonidan amalga oshirilgan tarjimasiga asoslangan tahlilni amalga oshiramiz. Avvalgi faslda ta’kidlaganimizdek, Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasi iste’dodli tarjimon va adabiyotshunos Nodira Ofoqova tomonidan qayta o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girildi.

Zenokrata:

Ey cho‘pon, yovuzlik reja qilmishsen,
Yolvoraman menga rahm ayla.
Toki sheriklaring bir himoyasiz
Malikani o‘g‘irlab, sening
Noming bulg‘ashmasin, bunga yo‘l qo‘yma.
Midiya sultonи mening amakim...
Ketmoqdamiz. Bizga turkning sultonи
Shaxsan imzo chekkan bir hujjat bermish
Toki yo‘limizni to‘smasin turklar.

Magnet:

Xonimiz nomidan Skif shohiga
Olib kelmoqdamiz dur-javohirlar.
Yana maxsus buyruq: zarurat tug‘ilsa
Bizga yordam bermak haqida

Temur:

Xo'sh, o'zingiz amin bo'ldingiz chog'i
Farmon berajakman bunda faqat men.
Sizning xazinangiz mening mulkimda
Erkin saqlanmog'i uchun avvaldan
Olishingiz lozim ham shart edi.
Xonning emas, mening roziligidagi”²¹⁸.

Ifoda va bayonning hamohangligi, personajlar o'rtasidagi kolliziyaning tadrijiy asosda kuchayib borishi hamda, qahramonlarning murakkab vaziyatlarda ham o'zini jiddiy tutishi XVI asr ingliz dramaturgiyasi tajribalariga xos bo'lgan omillardir. Kristofer Marlo o'zining tasavvuridagi Temur obrazini yaratar ekan, o'ziga tanish bo'lgan G'arb monarxlariga xos kayfiyatni hamda, qadimgi yunon mifologiyasini asosiy tayanch deb biladi. Yuqorida keltirilgan parchada Temurning dunyoqarashi va mavjud ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq bir qancha zarur hukm, mulohazalar bayon qilingan.

Zenokrata nutqida:

1. U Temurni o'zini asir sifatida majburan ushlab turishda ayblaydi.
2. Zenokrata Temurning askarlari hukmdor mehmonlarini o'g'irlab ketadigan darajada yovvoyi deb o'ylaydi.
3. Midiya sultoni amakisi ekanini, turk sultonining yo'lda xavfsiz yurish uchun taqdim qilingan ruxsatnomaga ega ekanini ta'kidlaydi.

Magnet nutqida:

4. Skif shohiga xon buyrug'i bilan dur-javohirlar olib borilayotgani ma'lum qilinadi.

Temur nutqida:

5. Bu yurtda harakatlanish uchun boshqa hukmdorning emas, aynan Temurning roziligidagi olish shartliligi ta'kidlanadi.

²¹⁸ Марло К. Буюк Темур. Драма. – Бухоро.: Дурдона, 2024. – Б 12.

Badiiy adabiyotning kommunikativ funksiyasi mavjudligini e'tiborga olib, ushbu uch qahramon o'rtasidagi suhbat Temur va uning faoliyati haqida ma'lumot berishga yo'naltirilganini anglash mumkin. Zenokrataning vahimaga tushishi unda Temurga nisbatan ishonchsizlikning kuchli ekanligi sababidandir. U Temurning nohaq zulm qilishi mumkinligiga ishonadi. Turk va Midiya sultonlari haqidagi so'zlariga urg'u berib, o'zini himoyalashga intiladi. Biroq Temur ushbu hukmdorlar nomini eshitsa ham, qo'rquvga tushmaydi. Ayni paytda olivjanobligi uchun Zenokrata va u olib ketayotgan boyliklarga noto'g'ri munosabatda bo'lmaydi. Shuningdek, milliy g'ururni ko'rsatish va o'z yurtining ozod o'lka ekanini yaxshiroq anglatish uchun, bu tuproqlarda harakatlanish uchun boshqalar emas, shu yurt egalari ruxsat berishini alohida ta'kidlaydi.

Amir Temurning mamlakat yaxlitligi va mustaqilligi uchun kurashi fors hukmdori Miketga ham, boshqa shohlarga ham yoqmaydi. Uning o'z xalqi ona vataniga, uning mo'g'ullardan ozodlikka ega bo'lishi uchun kurashi dramada tasvirlangan ulkan jangni yuzaga chiqargan omildir. Badiiy talqini hayotiy mantiqqa zid bo'lishiga qaramay, muallif Temurning farovon va ozod davlat qurish yo'lidagi kurashini olqishlaydi. Dramaturg asarning asosiy qahramonlaridan biri hisoblangan Zenokrataning ruhiy dunyosini yoritishga alohida e'tibor qaratgan. Bu obraz siymosida ulkan aqliy salohiyatga ega bo'lgan maftunkor ayol xarakterining barcha murakkabliklari aks etgan. U dastavval Temurga nisbatan o'ta rasmiy shaklda munosabatda bo'ladi. O'zining hukmdorlar avlodи ekanini qayta-qayta so'zlab, alohida ehtiromga munosibligini uqtiraveradi. Zenokrata Temurning turmush qurish va saroyda malika bo'lib qolish haqidagi taklifiga rad javobini berishga ham shoshilmaydi. Zenokrata obrazining dramaga olib kirilishi syujet voqealariga ma'lum darajada romantik tus beradi, ifodaning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, bu voqealarning tarixiy haqiqatlarga zid ekanini yana bir bor qayd etish zarur. Amir Temur boshqa dinga e'tiqod qiluvchi ayolga uylangan emas. Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasida Temur boshqa din vakilasi bo'lgan ayolga uylangani uchun Boyazidga e'tiroz bildiradi. Biz bu ma'lumotni qiyosiy-tipologik tahlil taqozo etgani uchungina bayon qilmoqdamiz.

Sohibqiron Amir Temur obrazi badiiy talqin etilgan asarlarda nutq va sintaksis haqida fikr yuritilar ekan, inversiyalarning ishlatilishi va matnda tutgan o‘rnini ilmiy asosda tekshirish zarurati paydo bo‘ladi.

Shuni e’tiborga olish kerakki, biz o‘rganayotgan har uch dramatik asar ham she’riy yo‘lda yozilgan. Kristofer Marlo she’riy asarining asliyatida qofiya mavjud bo‘lsa, Abdulla Oripov va Ma’ruf Jalil qalamiga mansub bo‘lgan dramatik asarlar oq she’r uslubida yaratilgan. Bu xususiyat Sohibqiron haqidagi har uch asarda ham inversiyalardan foydalanish janr talabi ekanini ko‘rsatadi.

Inversiya ifodaning ixcham va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Qolaversa, tilimizning grammatik xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, mualliflar gapdagি asosiy fikr ifodalovchi so‘zni mantiqiy urg‘u tushadigan o‘ringa – kesimdan oldingi qismga joylashtiradi.

“Biror mushkul muammoni hal etar bo‘lsak,

Kengash qildik ahli dinu vazirlar bilan.

Kengash qildik bahodirlar, amirlar bilan.

Ikki daryo orasidan nari yoqdagi

Bizga tobe mamlakatlar to‘rt ulus bo‘ldi.

Biroq farmon yagonadir,

Saltanat bitta.

Har qandayin davlatni ham boshqarmoq uchun

Eng avvalo yo‘riq kerak,

Qoida darkor”²¹⁹.

Yuqoridagi qoidaga amal qilingani uchun ham alohida ta’kidlash ko‘zda tutilgan so‘z va birikmalar kesimdan avvalgi o‘ringa joylashtirilgan. Keltirilgan parchadagi kesimlar quyidagilardir: 1)hal etar bo‘lsak 2)kengash qildik 3)ulus bo‘ldi 4)yagonadir 5)bitta 6)kerak 7)darkor.

²¹⁹ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – Б. 397.

Ikkinchi gapda “kengash qildik” kesimi uyushgan to‘ldiruvchidan avval qo‘llanmoqda. Gapda muallifning davlat boshqaruvi masalasida aynan dindorlar va vazirlar bilan qilingan kengashlarga urg‘u berilgani seziladi.

Uchinchi gapda bahodirlar va amirlar bilan qilingan kengashlarning ahamiyatiga urg‘u beriladi.

To‘rtinchi gapda inversiya hodisasi kuzatilmaydi. Kesimdan avval kelgan “to‘rt” soni miqdor holi vazifasini bajaradi. Natijada ikki daryo orasidan keyingi o‘lkalarda temuriylar davlatiga tobe mamlakatlar aynan to‘rt ulus bo‘lganligi alohida ta’kidlanadi. Bu ta’kid bejiz bo‘lmasdan, bir vaqtlar Chingizzon istilo etgan bepoyon hududlar ham uning to‘rt farzandiga to‘rt ulus qilib bo‘lib berilgani bilvosita nazarda tutiladi.

Beshinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap hisoblanadi. Uning qismlari ohang yordamida bog‘langan. Har ikkala kesimdan avval ega kelgan. Ushbu qo‘shma gapda ikkinchi darajali bo‘laklarning qatnashmaganligi kesimdan oldingi so‘z aynan ega bo‘lishini ta’minkaydi. O‘z navbatida mantiqiy urg‘u egalarga – “farmon”, “saltanat” so‘zlariga tushadi. Amir Temur nutqiga xos bo‘lgan bu gapda saltanat birligini ta’minalash uchun farmon birligi o‘rnatalishi zarurligi eslatiladi. Davlatning birligi boshqaruvning birligiga aloqador ekani qayd etiladi.

Keyingi gapda maqsad holi uyushgan kesimdan va modal so‘zdan avval qo‘llanilgan. Gapda ishlatilgan “kerak” va “darkor” kesimlari aynan bir ma’noni anglatadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, misraning shakliy ixchamligini ta’minalash maqsadida sodda gapda ifodalash mumkin bo‘lgan ma’no, qo‘shma gap vositasida aks ettiriladi. Gap har qanday davlatni idora etish uchun qat’iy qonun-qoidalar mavjud bo‘lishini anglatishga xizmat qiladi.

Ma’ruf Jalilning “Sohibqiron” dramasida ham inversiya hodisasining imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Dramadan keltirilgan parchada qo‘llanilgan inversiya hodisasiga e’tibor qaratamiz.

“Amir Temur:

Eshitganman. Ishonaman Turon eliga,

Yana shuni bilamanki, bu el sabrli,

Taqdiriga tan berar, ammo qul bo‘lmas derdim.
G‘aflat bosib qulligini unutib qo‘ydi,
Endi uni ko‘zin ohib, holingga boq deb,
Sehrli bir oyna bo‘lsa, yuziga tutsang.
Nima qilsam? Ortiq bunda kutish befoyda.
Shuncha kutdim. Boshqa hech kim kelmadi izlab.
Badaxshonga borsam devdim. Shohlari bilan
Hujum qilsam yovga qarshi ittifoq tuzib”²²⁰.
Parcha o‘nta gapdan iborat. Unda uch marta inversiyaga murojaat qilingan.
1 “Ishonaman Turon eliga”
2 “Boshqa hech kim kelmadi izlab”.
3 “Shohlari bilan
Hujum qilsam yovga qarshi ittifoq tuzib”.

Birinchi qatorda kesim vositali to‘ldiruvchidan oldinga o‘tkazilgan. Bu holat bir tomondan misradagi ifodaning ravonligini ta’minlasa, boshqa tarafdan ishonmoq fe’liga alohida urg‘u berilishiga imkoniyat yaratadi. Shu shaklda qahramonning Turon eliga ishonishi baralla ifoda etiladi.

Ikkinci qatorda “kelmadi” fe’li “-b” ravishdosh shaklini olgan “izlamoq” fe’lidan oldinga o‘tkazilgan. Asosiy fe’l oldidan “hech kim” inkor olmoshining qo‘llanilishi boshqa hech bir insonning izlab kelmaganini qat’iyan ta’kidlashga xizmat qilgan. Ushbu mazmuni keyingi fikrning yuzaga chiqishi uchun asos vazifasini bajaradi.

Uchinchi qatorda ifodalangan qo‘shma gapda “shohlari bilan” to‘ldiruvchisi asosiy kesimdan avval, asosiy kesim esa aniqlovchidan oldin qo‘llanilgan. Shu tariqa muallif personajning aynan shohlar bilan ittifoq tuzishni rejalashtirgani, bu rejadan maqsad esa yovlarga qarshi hujum qilish ekanini ixcham va ta’sirchan ko‘rinishda ifoda etadi. Agarda dramaturg asarda inversiya imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmaganida katta hajmdagi tarixiy ma’lumotni she’riy

²²⁰ Жалил М. Амир Темур қиссаси // Шарқ юлдузи, 1993. № 5-6, Б.20.

shaklda tartib bilan ifodalab berish vazifasini muvaffaqiyat bilan ado eta olmas edi. Shu kabi omillar dramatik asarlar sintaksisini o‘rganish muhim ilmiy xulosalarning yuzaga chiqishiga xizmat qilishini isbotlaydi.

Mana shunday ilmiy-nazariy asoslari negizida o‘rganilishi maqsad qilingan ingliz - dramaturgiyasi Amir Temur siymosini yoritgan sahna asarlarning eng mashurlarini keltiramiz. Bunga Charlz Sanderzning “Buyuk Tamerlan” (London, 1681), Fransiz Feynning “Fidokor” (London, 1686), Nikolas Rouning “Tamerlan” (London, 1702), Uilyam Poplining “Saxovatli Tamerlan” tragediyalari (London, 1732), L.Smitning “Tamerlan” tarixiy dramasi (Amsterdam, 1970) kabi ko‘plab sahna asarlari yaratilgan edi. Eng xarakterlisi shundaki, san’atning yuksak cho‘qqisi bo‘lmish operaga ham Amir Temurning siymosi kirib borgan. Ilk operani Italiyada Mars Anton Ziani 1689-yili yozgan bo‘lib, “Buyuk Tamerlan” nomi bilan Venetsiya teatrida namoyish qilingan. Shuningdek, unga ergashgan ko‘plab operalar ham yaratilganki, ular ushbu sahna hayoti orqali oddiy xalq va hukmron qatlam tafovutlarini akslantirgan edi. J.F.Fortshning “Boyazid va Tamerlan” (Gamburge, 1690), E.M. de Shefdevilning “Tamerlan” (Parij, 1766); M.G.Levisning “Temur” asari (London, 1811) shular jumlasidan.

Dramatik asar asosida nutq birliklari va sintaksis yetakchilik qiladi. Shu jihatdan, dramatik asarlardagi bu poetik unsurlarning badiiy ifoda shaklidagi o‘rnini tahlil qilishni lozim deb hisoblaymiz. Dramalar, asosan, taniqli insonlarning tavallud ayyomlari, maxsus sanalar yoki mavsumiy tadbirlar munosabati bilan yaratilayotgani sahna asarlari nomlanishidayoq ma’lum bo‘ladi. Iqbol Mirzo “Alisherbek va Husaynbek”, To‘ra Mirzoning “Amir Temur”, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” kabi. Odil Yoqubovning “Fotihi Muzaffar yoki bir parivash asiri” sahna asari jahongir Amir Temurga bag‘ishlangan bo‘lsa, Hayitmat Rasul qalamiga mansub “Piri koinot”, Yo‘ldosh Sulaymon ijod mahsuli “Al-Farg‘oniy muhabbati”, Ibrohim Rahimning “Farg‘ona farzandi” asarlari buyuk, ilm fanda, saltanat boshqaruvida taniqli temuriyzodalarga atalgan.

Tarixiy haqiqatni ta’sirchan gavdalantirish uchun adabiy asarlarda turli badiiy vositalar qo‘llaniladi. Real voqelik manzarasi to‘qima qahramonlar taqdiri,

faoliyati orqali yorqinlashtiriladi. Asar syujetini to‘qima voqealar asosida shakllantirish va ularga tayanib, Amir Temur davri murakkabliklarini manzaralantirishga intilish ”Sohibqiron” dramasining ham mohiyatini belgilashda muhim sanaladi.

”Sohibqiron” dramasida hayot haqiqatining ta’sirchan manzarasini ko‘rsatish, Amir Temur shaxsida mujassamlashgan ulug‘vorlikni gavdalantirish maqsadida qator to‘qima obrazlari ham yaratilgan. Sartarosh, yasovul Qosimbek, Kayxisrav, shatranji Alovuddin, xufya Buqalamun, turli mamlakatlarning elchilari obrazlari real voqelikni akslantiruvchi adabiy qahramonlar sanaladi. Bir-ikki ko‘rinib ketuvchi ushbu to‘qima qahramonlarning har biri Sohibqiron siymosining ulug‘vorligini gavdalantiruvchi muayyan ”yuk” bilan harakatlanadi. Sartarosh obrazi “men-hazrat emas, men ham Temur deb atalmish oddiy bir banda”(43-bet) degan bosh qahramonning barcha qatori inson ekanini asarda badiiy ifoda etgan. Bu bosh g‘oya asar boshida ham, xotimasida ham dramaning falsafiy mazmunini chuqurlashtirgan. Amir Temur:

“Sartaroshsan, mana senga boshimni egdim...

Sartaroshga bosh egar, ha, jahongirlar ham.

Boshqalarga egilishdan asrasin xudo!...

Har qaydayin bandaga ham kerakdir sirdosh.

(deb sartaroshga ko‘nglini ochadi.)

Qo‘ni-qo‘shni uluslarning hukmdorlari

Shamshirimdan qo‘rqadilar, shonimdan emas”.

deydi. O‘zining tug‘ilgan tuprog‘i ozodligi uchun qay tarzda jangu jadalga otlangani, mansabparast, g‘ayur, battol, o‘g‘ri, firibgar, xushomadgo‘y kimsalarni o‘ziga mahram sanamasligi, ularning yuragida ne kechishini oynaga boqqan kabi ko‘rib turishini” (9-bet) aytadi.

Sohibqiron faqat sartarosh bilan emas, yon-atrofidagi boshqa odamlar bilan ham samimi suhbat qiladi. Bu bilan buyuk shaxslar ham barcha singari oddiy odam ekanligi ta’kidlanadi. Dramada ham Amir Temurning qahridan ko‘ra mehri baland bo‘lganini ko‘rsatishga alohida e’tibor qilinadi.

Atoqli adib Chingiz Aytmatov tabiricha: “Amir Temur buyuk davlat arbobiga xos tadbirkorlikni ham, harbiy tafakkurni ham, oldindan ko‘ra olish iqtidorini ham, o‘zida mujassam etgan”. Chunki u qonli urushlar, zulm, bosqinchiliklar avj olgan bir zamonda yashagan. Davrning turfa to‘sıqlarini beqiyos zakovat, hayratlanarli tadbirkorlik bilan yengib o‘tgan. Amir Temurning sultanatni boshqarish san’atiga dunyo ahli tan bergen. Uning jang yo‘riqlari, dushmanlariga qarshi olib borgan kurash usullari shoh-u sultonlar uchun o‘ziga xos ibrat maktabi bo‘lib kelgan. “Sohibqiron”da ham Amir Temurning raqiblarini yengish yo‘lidagi tadbirlari ta’riflanadi. Temur o‘zining sultanatini boshqarish tadbirlari haqida so‘zlay turib, jumladan, shunday deydi:

Bolalarim, unutmangki,

Davlat ishida

Har qanday yumushning ham,

O‘z o‘rni bordir.

Minglab xufya xizmat qilar bizga, masalan,

Ammo ular tanishmagay bir-birlarini.

Xabarlarni shoshilmasdan, tinglab, o‘rganib,

Barchasidan chiqargaymiz zarur xulosa.

Dramada shu minglab xufyalardan biri Buqalamunning obrazi yaratilgan. Sohibqironning ishonchli kishilaridan biri bo‘lgan Buqalamunning asl ismi Itolmas. Butun qiyofasini, hatto ko‘zlarining rangini o‘zgartira oladi, ko‘p ellarning tillarini biladi, deb ta’riflangan. Buqalamun eng mushkul topshiriqlarni ham epchillik bilan bajaradi. Ushbu to‘qima qahramonining xatti – harakatlari Amir Temurning siyosat maydonidagi makr – xiylalardan qay tarzda xabardor bo‘lganini bayon etadi.

“Shatranj ilmi jahongiri” deb ta’riflangan Alovuddinning obrazi esa Sohibqironning buyuk iroda, kuchli ruh kishisi bo‘lganini dalolatlaydi. Sulton Boyazid lashkarlari bilan hayot-mamot jangi ketayotgan bir paytda Amir Temur Alovuddin bilan shatranj o‘ynab o‘tiradi. Chodir ortidan jang suronlari eshitilib turadi. “Ayni chog‘da mening bunday o‘ltirishim dushmanga allaqachon ma’lum

bo‘ldi. Bu firibimdan ularning dilida qo‘rquv tahlikasi boshlandi”, deydi Amir Temur. Shoir xayolining kashfi bo‘lgan bu jarayonni shatranj o‘yini qoidalariga muvofiq manzara gavdalantiradi. Amir Temur taxta ustida ruh donalarini harakatlantirib, kutilmaganda, Alovuddinni chiroyli mot qiladi. Sohibqironning buyuk iroda egasi ekanini, ulug‘ donishmand bo‘lganini asarda ko’rsatish maqsadida asarga kiritilgan bu o‘yin ham falsafiy ruh bilan yo‘g‘rilgan. Alovuddin o‘yin chog‘ida Temurga g‘alabaga erishish uchun alp donalaringizni harakatlantiring, deydi, Sohibqiron esa unga:

Tangrim madodkor!

Ruh surish fikrini u o‘rgatdi menga...

Eshitingiz,

Ruh haqiqat qilichidek keskir, beomon.

Men ruh bilan jang qilishni sevaman juda,

Shoyad ruhlar menga mudom bo‘lgay madodkor (68-69-betlar)-deydi. Amir Temur shatranj o‘yinida ruh donalari yordamida g‘olib kelishi rasmiy ma’noda qo‘shinlarining dushman lashkarini yengib, Rum sultonni Boyazidni asir olinishi sahnasida to‘g‘ri keladi. Tarixiy voqelikka mana shunday badiiy tus beriladi.

Ma’lumki, qahramonlar o‘rtasidagi keskinlikni chuqurlashtirishga berilib ketish asarga hamisha ham muvaffaqiyat keltiravermaydi. To‘qnashuvlarni kuchaytirishga kirishib ketish asosiy qahramon taqdiri bir yodqa qolib, boshi, oxirini tutib bo‘lmaydigan sarguzasht tafsilotlari oqimiga tushib qolishga olib keladi”. Sohibqiron” dramasida ana shunday saqlanilgan. Asosiy maqsaddan chalg‘imaslik uchun qahramonlar o‘rtasida ziddiyatlar zanjiri hosil qilinmagan. Voqealar keskinlashib ketishi mumkin bo‘lgan o‘rinda yangi bir qahramon sahnaga chiqarilib, vaziyat iliqlashtirilgan. Yasovul Qosim-ana shunday obrazlardan biri. U Temur Alovuddinni shatranj o‘yinida o‘tirgan chog‘da Sulton Boyazidning asir olingani haqida xushxabar keltiradi. Sohibqiron bu qutlug‘ xabari uchun Samarqandga qaytib borgach, unga nabiralaridan birini uzatishini aytadi. Samarqandga qaytgach, halolligi, sadoqati uchun vazir Muhammad Qovchinni ham kechiradi. O‘lpon talab qilib kelgan Chin elchisiga ham g‘azab qilmaydi. Uni

mehmon sifatida nabiralari to‘yiga taklif qiladi. Biroq Sohibqiron shu lahzalarda yana jangu jadalga chiqish zarurati paydo bo‘lganini o‘ylab ich-ichidan ezilib o‘tiradi:

Evoh, meni avlodlarim kim deb eslashur?!

Bosqinchi bir jahongirmi yo haq posboni?

Adolat deb umrim bo‘yi kurashdim, biroq,

Afsuski, u bo‘lmas ekan jangu jadalsiz.

Tarixdan ham ma’lum, Amir Temur g‘oyat chigal davrda yashagan. Adolat uchun kurash yo‘llarida qonli janglarga kirishga majbur bo‘lgan. Ana shu ziddiyatli buyuk siymo ulug‘vorligini gavdalantirishda shoir Abdulla Oripov tarixiy shaxslar obrazi bilan bir qatorda to‘qima qahramonlar obrazlaridan ham mahorat bilan foydalangan. “Sohibqiron”dagi adabiy qahramonlar tarixiy shaxslar obrazi bilan uyg‘unlashib, o‘tmish hodisalarning jonli, ta’sirchan manzarasini namoyon qilgan.

Dramatik asarlarining asosiy xususiyati nutqiy birlikning asosli ifodasida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham, badiiylik kategoriyasidagi qarashlarning o‘ziga xosliklariga nazar tashlanganda, poetik sintaksis va nutq ifodasi ijodkor mahorati sifatida namoyon bo‘ladi.

Yozuvchining sintaktik vositalarni tanlashi asarning turli janrlari, voqealar kechgan davr, qahramonlarning xarakteri, qanday o‘quvchiga mo‘ljallanganligi kabi xususiyatlarga chambarchas bog‘liqdir. Ana shu katta-kichik badiiy komponentlarning uzviyligini ta’minlovchi vosita ijodkor uslubidir. Dramatik asarning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan dialogik shakl qahramonlar nutqining bir-biriga bog‘liqligini keltirib chiqaradi, har bir personajning “replikasi ichi” dan kelib chiqadi. Bu holat esa, boshqa personajlarning javob replikasini tug‘diradi. Qahramonlar nutqi xuddi zanjir kabi bir-biriga ulanib ketadi. Bu uzviylik, ba’zan shu darajada mustahkam bo‘ladiki, butun-butun majlis va ko‘rinishlarda yaxlitlik kasb etadi, ularni biror joydan uzib olish mumkin emas, chunki matn shunday mukammal tuzilgan bo‘ladi. Bu holat asosan, sahnada birdan ortiq qahramon

bo‘lganda yuzaga chiqadi. Ba’zi qahramonlarning nutqida esa gaplarning sintaktik qurilishi ham yetakchilik qiladi.

Garchi drama nazariyasiga oid qarashlar tarixiga ikki ming yildan oshgan bo’lsa-da, lekin uning yangi namunalari va umuman drama haqidagi baxsmunozaralar bugun ham davom etmoqda. Misol uchun, M.Baxtinning dramatik asarlar borasidagi mulohazalariga e’tibor qarataylik: “O‘zlarining klassik taraqqiyoti davomida bu janrlar qat’iy qoidalari va kanonik xususiyatlarni saqlab qoldilar, - deb yozadi u. – Turli davrdagi oqimlar, yo‘nalishlar janrning o‘zak masalasini, ya’ni qonuniylashgan tarkibini o‘zgartirilmadilar. Aristoteldan keyin bugungi kunimizgacha bu shakllanib bo‘lgan janrlarning nazariyasiga aniq bir yangilik va o‘zgarish qo‘shilmedi hisobi”²²¹. Ko‘chirmada keltirilgan mulohazalar dramatik san’at va uning nazariyasi amaliyotiga unchalik muvofiq kelmaydi. Dramatik janrlarning qadimiylarini chindanam kanonik xususiyatlarga ega, bo’lib biroq ular zamonaviy roman singari uzlucksiz o‘zgarib taraqqiy etib, Pushkin, A.Chekov, Fitrat, A.Ibrohimov, Sh.Boshbekov dramalaridagi janr, syujet, kompozitsiya, qahramon, inson talqini muammolarini o‘rganish uchun birgina Aristotelning “Poetika”si yetarli deyish to‘g’ri emas.

Ehtimol Gegel, Lessing, Didro, Belinskiy, Chernishevskiy kabi ilm darg‘alarining tadqiqotlarida e’tiroz uyg‘otadigan o‘rinlarni topish mumkindir, lekin ularning drama san’ati va nazariyasiga doir qarashlarini yo‘qqa chiqarish adolatdan emas. Yuqorida tilga olingan nazariyachilarning barcha mulohazalari ham bugungi drama sifatlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Bu – tabiiy hodisa. Ijod, ilm – uzlucksiz davom etadigan, yangilanib boradigan tafakkur jarayoni. Chunki, keyingi yigirma-o‘ttiz yil mobaynida yaratilgan dramatik asarlarda psixologik mushohada usuli ko‘zga yaqqol tashlanmoqda.

“Vaqt o‘tishi bilan muomalada bo‘lgan metodlar o‘zining aktualligini yo‘qota boradi, - deydi B.Brext. – Yangi muammolar paydo bo‘ladi. Hayotning

²²¹ Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – Т., С. 482.

o‘zi o‘zgaradi; uni qamrab olish uchun yangicha tahlil usullariga ehtiyoj seziladi”²²².

Haqiqatan ham Bertold Brext XX asrning birinchi yarmida o‘zining epik teatri va dramaturgiyasini yaratdi. Brext qadimiy teatr va mumtoz dramaturgiyaga o‘zgartirishlar kiritish zarurligini teran angladi. “Menda barcha imkoniyatlar yetarli bo‘lsa-da,-deb yozadi u, 1955-yili, biroq men noaristotelona deb atagan pyesalarim barcha paydo bo‘layotgan muammolarni hal qiladi, deyolmayman. Bir narsaga ishonchim komilki, zamonaviy kishilar hayot o‘zgarayotganligini dramada ko‘rsalargina unga ishonadilar”²²³. Zamonaviy teatr to‘g‘risida gap ketganda, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Brextning noaristotelona pozitsiyasini hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotshunos V.Frolov “Судби жанров драматургии” asarida XX asrning 80-yillarigacha bo‘lgan dramatik janrlarning tablitsasini chizib ko‘rsatadi. Uning fikricha, dramaning sof janrlari sifatida tragediya, komediya, drama, melodrama qayd etiladi. Shundan so‘ng, bu janrlarning dramatik tur doirasida yuzaga kelgan ichki shakllariga e’tibor qaratadi. Masalan, u melodramaning ichki ko‘rinishlari sifatida quyidagilarni qayd etib o‘tadi: 1) detektiv xarakteriga ega melodrama; 2) maishiy melodrama – “ichki monolog”; 3) melodrama – tragediya; 4) melodrama – komediya; 5) melodrama – vodevil; 6) qahramonlik xarakteriga ega bo‘lgan melodrama.

Shundan so‘ng, adabiyotshunos adabiy turlarning teatr san’ati bilan birlashib ketgan janr va shakllarini bir tizimga soladi. Misol uchun eposning “roman” yo “povest” - pyesalar xili, “hikoyachi qatnashgan pyesa” turlari mavjud deya hisoblaydi. Lirk turning esa, teatrga qo‘silib ketgan “lirk drama”, “lirk komediya”, “lirk monolog” kabi xillarini sanab o‘tadi. Bularidan tashqari, adabiyotshunos musiqa, pantamimo, kino, radio, teleteatr bilan bog‘liq qator janrlar mavjudligini ta’kidlab o‘tadi²²⁴.

²²² Брехт Б. Пьесы, статьи, высказывания. В пяти томах, 5. – М., 1965. – С. 169.

²²³ O’sha manba. – В. 201.

²²⁴ Фролов В. Судбы жанров драматургии. – М.: Советский писатель, 1979. – С. 407 – 410.

“Pyesa qahramonlarini ataylab aqlli qilib ko‘rsatish yaramaydi, – deb yozgan edi adabiyotshunos olim D.Didro. – Ularni shunday sharoitga tushirib qo‘yish kerakki, bunda ular o‘z-o‘zlaridan aql ishlatishga majbur bo‘lsinlar. 40-yillar dramaturgiyasining 30-yillarnikidan farqi shundaki, endi dramatik asarda inson obrazini, uning shaxsiyatini talqin etishda murakkab vaziyatlar, o‘tkir psixologik holatlar, intrigalarning tez-tez almashuvi, avj nuqtalarning bo‘rttirilishi kabi sifatlarga ega bo‘la bordi. 30-yillar dramasining aksariyatiga xos bo‘lgan jo‘nlik, sxematizm hamda, qahramonni faqat ijobiy yo salbiy qilib ko‘rsatish nisbatan kamaydi. O‘tkir syujetli talqin, kompozitsion murakkablikka ega fabula, epik qamrov dorligi keng badiiy talqin, qahramonni chigal psixologik kolliziyalarda kuzatish va toplash kabi sifatlar urush davri dramaturgiyasining jiddiy yutug‘i bo‘lishi barobarida mazkur tur janrlarining o‘zbek adabiyoti rivojidagi muhim bir bosqichi bo‘ldi.

Hayotga va jamiyatga ochiq ko‘z bilan qaraydigan, dunyoqarashi keng va barkamol bo‘lsa-da, har holda oldiga aniq bir maqsad qo‘yan, faol, kurashchan xarakterlar, ularning munosabatlari mohirona talqin etilgan pyesalardagi ichki mutanosiblik va dramatizm kitobxon va tomoshabinni o‘ziga tortib turadi. Hayot va olam haqidagi tasavvurlarni boyitadi, tuyg‘ularni tiniqlashtiradi, o‘ymulohazaga, bahsga undaydi. O‘tgan asrning 70-80-yillarida qirqa yaqin pyesa e’lon qilingan bo‘lsa, shulardan tomoshabin yodida qolgani juda kam.

Ma’lumki, o‘tgan asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyati va prozasi insonni tahlil va talqin etishda ancha yuqori natijalarga erishdi. Biroq, o‘zbek dramaturgiysi sohasida bu masala talqini ko‘ngildagidek emas. She’riyatda A.Muxtor, E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, Sh.Rahmon, U.Asim, H.Xudoyberdiyeva, keyinchalik S.Said, A.Qutbiddinlarning she’riyatidagi lirik qahramonlar intellektual salohiyati yuqori, olam va odamni talqin etishda faylasuf, dunyoqarashi va didi baland qahramonlardir. Mushohadakorlik, analistik tahlil, psixologik anqlik va izchillik, davr oldingga qo‘yayotgan muammolarga hozirjavoblik, faol kurashchanlik kabi xislatlar mazkur lirik qahramonlarning mushtarak jihatlaridir. Ma’lumki, dramatik asarda muallif nutqi ishlatilmagach,

hamma “yuk” personajlarning zimmasiga tushadi. Shuning uchun, personajlarning nutqi pishiq-puxta, boshqacha aytganda, aytigan so‘z – otilgan o‘q bo‘lishi kerak hamda, bir o‘q bilan ikki quyonni urgandek tagma’noli bo‘lmog‘i lozim. Xullas, til masalasi personaj qiyofasiga tutilgan ko‘zgudek gap.

Bob bo‘yicha xulosalar

1. Ingliz Uyg‘onish va ma’rifatparvarlik davri dramaturgiyasida Sohibqiron va temuriylar obraziga qiziqish kuchaydi. Chunki, tarixiy sharoitning shakllanishida ba’zan tarixga juda katta ehtiyoj sezadiki, bu esa yangi davrning maydonga kelishi, uning mahsuli bo‘lgan badiiy adabiyotda ham yangilanish jarayonlarining yuzaga chiqish sabablari asoslandi.

2. Uyg‘onish davrining asosiy xususiyatlarining sabablari, bunday tarixiylikni o‘zida mujassamlashtirgan obrazlar galereyasini voqelikka hamohangligini asoslashga bo‘lgan intilishlari, ijodkor mahoratiga uzviy birlikda tahliliy xulosalar chiqarish imkonini bergenligi asoslandi.

3. Uyg‘onish davri ijtimoiy-siyosiy vaziyati ingliz badiiy adabiyotida xayoliy obrazlarning emas, balki oddiy xalq orasidan chiqqan va insonlar ko‘z o‘ngida daholik maqomiga erishgan shaxslarning bayroq dor bo‘lishini taqozo qila boshladi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa ijodkorlari butun g‘arb mamlakatlarining xaloskorি sifatida o‘z asarlarida Amir Temur siyosini yorqin ifodalar bilan gavdalantira boshladi. Ayni tarixiy vaziyat tufayli Yevropa ijodkorlari yurt qirollarining martabasi taqdiri azal ekanligi, uning obro yo‘l-yo‘riqlari cherkov qonunlari bilan cheklanganligi, ilohiy qahramonlarni izlashda Yunon antik davr ijodiga taqlid qilish tendensiyasidan ham voz kecha boshlash sabablari o‘rganildi.

4. O‘zbek va ingliz dramaturgiyasida Amir Temur va temuriyzodalarning dramaturgiyadagi badiiy talqinlariga jiddiy nazar tashlash imkonini berdiki, bu esa dramatik asarlardagi dramatizmni shakllanishiga keng imkon berilganligi asoslandi. Chunki, badiiyat mezonlarining asosini tashkil etuvchi dramatizmning kuchayishi, bu esa inson konsepsiysi va uning mohiyatini anglashga asos bo‘lganligi isbotlandi.

5. Mustaqillik davrida yaratilgan tarixiy mavzulardagi ko‘plab pyesalarda Amir Temur obrazini yaratish borasida ulkan ijodiy yutuqlarga erishildi. Ma’ruf Jalilning “Sohibqiron” sahna asari mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida Sohibqiron Amir Temur obrazini badiiy talqin qilish yo‘lidagi ilk tajriba bo‘ldi. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi ushbu mavzuda yaratilgan ko‘plab pyesalar orasida alohida shuhrat qozondi. Dramada chuqrur falsafiylik va teran badiiylikning hamohangligi ta’minlangan.

6. Dramatik asarlarning badiiy funksiyasidan kelib chiqib, ijodkorning individual qaharamon yaratish tamoyillari tahlil qilindi. Ularda davr voqeligini aks ettirish an’anasi yetakchilik qilsa-da, talqin etish jihatidan keskin farqlanishi, betakror dramatik asarlarning maydonga kelishiga asos bo‘lganligi tahlillar misolida olib berildi. Dramatik asarlar negizida nutqiy birliklarning badiiy ifodasi mavjudligiga e’tibor qaratish lozimligi, dialogik va monologik nutqiy birliklarni badiiy asarda yuzaga chiqarish imkoniyatining kengaytirganligi asoslandi.

7. Asarlardagi nutqiy birliklarning yetakchilik qilish sabablari Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlab qalam tebratgan qator ijodkorlarning asarlari misolida asoslandi. Chunki, tarixda yashab o‘tgan insonlarning asardagi nutqi adabiyotda uning xarakter xususiyatini, ichki botiniy olamini ochishga xizmat qilishi bilan birgalikda, inson psixikasining yoritishiga ham sabab bo‘lishi tahlillar misolida olib berildi. Tarixiy mavzudagi dramalarni ilmiy asosda o‘rganish jarayonida mualliflarning personajlar nutqini qay darajada individuallashtira olganini tekshirish zarur.

8. Dramatik asarlarning sinkretik janr namunasi sifatida shakllanib kelganligi, nutqiy birligini yuzaga chiqarishi haqidagi qarashlar asosida badiiy qaramonlarning ruhiy olamini ochishga xizmat qilishi bilan birgalikda poetik sintaksis asosida insonni anglash jarayoniga xizmat qilishiga diqqat qilindi. Chunki, insonning nutqiy birligi dramatik obrazlar olami bilan hamohanglikda, uning xarakter xususiyatlarini anglash tamoyillarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi tahlillarimiz asosida olib berildi. Poetik sinkretikasining nazariy jihat sifatida dramanining asosini tashkil etishiga nazariy yondashildi.

IV BOB. INGLIZ VA O'ZBEK LIRIKASIDA SOHIBQIRON SIYOMSI:

INDIVIDUAL USLUB VA BADIYAT

IV.1. She'riyatda shaxs va erk muammosi

Asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy adabiyot namunalarida ifoda etilgan talqinlarning badiiy xususiyatlari, unda ilgari surilgan qarashlarning poetik ifodasida buyuk tarixiy shaxslarning obrazini yaratish an'anasi paydo bo'ldi. Bunday asarlarda tarixiy siymolarning turli kechinmalari, lirik qahramon obraziga mujassamlashganligini kuzatish mumkin.

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida Amir Temurga bag'ishlangan ko'plab she'riy va nasriy ijod namunalari ham mavjud. XX asr boshlariga kelib, Turkiston o'lkasida jadidchilik g'oyalarining keng tarqalishi milliy o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirdi. Jadid shoirlari o'tmishda butun turkiy xalqlarning hamda, Turkiston o'lkasining shuhratini olamga taratgan Sohibqiron Amir Temur haqida ko'plab she'rlar yaratdilar. Abdurauf Fitrat "Yurt qayg'usi" she'rida vatanga, "Ona", deya murojaat qilar ekan, Temur singari bobolarning qoni tomirlarda jo'sh urayotganini ta'kidlaydi.

"Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?

Temur bila Chingiz qoni toshdi tomirimizdan,

Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?"²²⁵

Mutafakkirlar g'aflat uyqusidagi xalqni uyg'otish uchun uning tarixini eslatish, targ'ib qilish zarur ekanligini ta'kidlaydilar. Bu yo'lning to'g'ri ekanligini chuqur anglagan Abdurauf Fitrat millat kishilariga o'zlarining katta ishlarga qodir ekanliklarini anglatish uchun Sohibqiron bobosining qahramonliklarini eslatishni xohlaydi.

Fitrat "Yurt qayg'usi" turkumidagi sochmalaridan birida Amir Temurga murojaat qiladi. Temur maqbarasiga kelgan shoir millat ahvolining achinarli ekanligini aytib, Sohibqironga xalq dardiga davo topish uchun faryod qiladi.

²²⁵ Фитрат А. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Тошкент.: "Маънавият", 2000. – Б. 31.

“Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk. Sening ziyyoratingga keldim, sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, xoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko‘rub, g‘am chekib kelgan turning qonli ko‘z yoshlarin etaklaringga to‘karga keldim. Qorong‘uliklar ichra yog‘dusiz qolgan o‘zbek ko‘zlar uchun tuprog‘ingdan surma olg‘ali keldim”²²⁶.

Fitratning Amir Temur haqidagi lirik asarlari teran hayotiy mazmun-mohiyatga egadir. 20-yillar boshida Fayzulla Xo‘jayev va Fitrat tashabbusi bilan Germaniyaga o‘qishga yuborilgan 70 nafar turkistonlik talabalar yo‘lga otlanishdan avval Go‘ri Amirga keltirilib, millatga sadoqat bilan xizmat qilish uchun ont ichgan edilar. Tahsilni tugatib, vatanga qaytib kelgach, o‘ldirilgan kadrlar ham, o‘z hayotini saqlash uchun chet elda qolishga majbur bo‘lgan boshqa yigit-qizlar ham Temur sag‘anasida ichgan ontlarini butun hayotlari davomida muqaddas deb bilganlar.

Abdulla Oripovning Amir Temurga bag‘ishlangan o‘n banddan iborat “Har qancha faxr etsang arziydi, o‘zbek” she’ri “Sohibqiron” dramasi ilk sahnasi avvalida keltirilgan. She’rda Amir Temurning buyuk davlat barpo qilgani, zamonaviy dunyoga ulug‘ jahongir nigohi bilan nazar tashlanishi haqida so‘z boradi.

“Hamon yer yuzida shayton tug‘yoni,
Tillarda duo-yu dillarda zarda.
Ko‘rib bu noqisu notinch dunyoni
Qayta bosardingiz balki, sarkarda”²²⁷.

Shoir ulug‘ jahongirning qudratiga baho berish barobarida zamonaviy dunyoning ahvoliga, insoniyatning globallashgan jamiyatlardagi hayotiga teran nazar tashlaydi. Ijodkor yuksak ideallar bilan yashagani uchun ham dunyoning

²²⁶ Фитрат А. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: “Маънавият”, 2000. – Б.33.

²²⁷ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 2001 – Б. 380.

ayni paytdagi ahvoldidan aslo qoniqmaydi. Millatlararo nizolar, tartibsizliklar hamda, dunyodagi muvozanatning barqaror bo‘lmayotganidan o‘yga toladi. Agar Sohibqiron Amir Temur hayot bo‘lganida butun yer yuzida tartib o‘rnatish, milliy va etnik nizolarga barham berish, qolaversa, turkiy xalqlar dovrug‘ini olamga yoyish uchun qo‘liga qurol olib jangga shaylanishiga ishonadi. She’r “Sohibqiron” dramasi matniga ilova qilingani uchun ham uning voqealar rivojiga ma’lum darajada ishora qiladi. Amir Temur turli o‘lkalarda tartib o‘rnatish, savdo-sotiq, ilm-fan, adabiyot, san’at, me’morchilik singari sohalarni rivojlantirish uchun kurash olib boradi. Hindistonga qilingan yurish hind quruvchilarining Movarounnahrda muhtasham saroylar qurishiga imkon yaratgan bo‘lsa, Usmonli turklar sultoni Boyazidga qarshi urush dunyoning g‘arbiy o‘lkalarida tinchlik-osoyishtalikni ta’minlashga xizmat qildi. Bularni e’tiborga olgan muallif XX asr nihoyalanib, dunyoning qiyofasi tobora tushunarsiz tusga kirib borayotgan bir paytda olam uchun bir Sohibqiron zarur ekanligini anglatmoqchi bo‘ladi. Aynan mana shunday ulug’vor fikrlar tasdig’i Angliyada tug’ilib o’sgan, shu diyorning Temur haqidagi afsona va tasavvurlari bilan ulg’aygan inglizzabon shoir Viktor Jeyms Deyl ijodida ham ko’zga tashlanadi:

LO, upon the carpet, where

Throned upon a heap of slain

Blue-eyed dolls of beauty rare

(Ah, they pleaded all in vain!)

Sits the Infant Tamerlane!

Broken toys upon the floor

Scattered lie—a ruined rout.

Thus from all things evermore

Are—the fact is past a doubt—

Hidden virtues hammered out²²⁸.

Ma’nosi: Qay yerdadir gilam ustida LO,

²²⁸ Victor James Dale. Tamerlane. <https://www.poemist.com/victor-james-daley/tamerlane>.

Talay zamon o'tib taxtga erishdi.

Moviy ko'z, xushro'y siymo qo'g'irchoqlari

(Eh, ularning behuda iltijolari)

Yosh Tamerlan endi o'z taxti uzra!

Yerda o'sha singan o'yinchoqlari

Ro'parada ro'yo - vayron bo'lgan yo'l.

Sarob kabi endi bari arg'umoqlari

Haqiqat gumondan bir qadam ildam -

Ro'yobda jamiki zohir o'ylari. (tarjima bizniki Z.Y)

“Ijodkor— aslida uyg'oq fikrli dono shaxs, kelajakni ko'ra oluvchi munavvar siymo, biroq u shu g'oyani amalga oshiruvchi tarixiy kuch emas va bu uning vazifasi ham sanalmaydi. Ijod xalqni ogohlikka chorlov, komil axloqli bo'lishga da'vat, hayotda qaysi tomonda tursa, saodatmand bo'lishini ko'rsatuvchi sog'gom fikr, g'oya, e'tiqoddir”²²⁹.

V.Jeyms Deyl ijodiga solishtirganda Abdulla Oripov Amir Temur haqidagi she'rida bir nechta she'riy san'atlarni qo'llagan.

“Eng ulug' binolar mujassam bo'lmish

Olamda tengi yo'q Samarqand-ku bor:

Temurbek jang-jadal shavqiga to'lmish,

Qo'lida shamshiru tagida tulpor”²³⁰.

Banddag'i jang-jadal, shamshir, tulpor so'zlari ma'noviy umumiyliliklarga ega bo'lib, tanosub san'atini yuzaga keltiradi.

A.Temur mavzusini davom ettirgan holda, Muhammad Yusuf ijodida ham Sohibqironga bag'ishlangan bir qancha she'rlar mavjud. “Amir Temur” she'rida Amir Temur va Bibixonim obrazlari asosiy o'rinni tutadi.

“Samarqandda qoldi Bibixon,

Yo'llar qarab toldi Bibixon.

²²⁹ Фаниев И. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент.: “Мухаррир”, 2021. – Б.6.

²³⁰ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.379 .

O‘zbek – seni o‘zbek qilguncha
Qirq yil otdan tushmadi sulton”²³¹.

Shoir Amir Temurning qirq yil otdan tushmaganini ta’kidlar ekan, o‘zbekni o‘zbek qilgan shaxs aynan uning o‘zi ekanini e’tirof etadi. Darhaqiqat, Amir Temur millat tarixidagi eng buyuk davlat arboblaridan biridir. Asarga Bibixonim obrazining olib kirilishi bejiz emas. Amir Temurning ulkan muvaffaqiyatlarga erishishida uning rafiqasi Bibixonimning ham hissasi katta. Muallif Bibixonim ruhiyatini tasvirlash asnosida “Yo‘llar qarab toldi Bibixon” derkan, bu ayolning shaxsiy tuyg‘ulari millat dardi bilan bevosita uyg‘unlashib ketganini anglatmoqchi bo‘ladi. Bibixonim Amir Temurni qattiq sog‘ingani uchun ham “yo‘llar qarab” toladi. Uning intazorligiga yana bir sabab – vaqtinchalik qabul qilib olgan davlat boshqaruvini tezroq egasiga qaytarish istagi. Sohibqironning uzoq davom etgan harbiy yurishlari Bibixonimning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklagan. U Amir Temurning qaytib kelishini kutadi, o‘zining mas’uliyatlarini kamaytirish bilan birga Sohibqirondan xavotirlangani uchun ham uning jang maydonida emas, balki Samarqandda bo‘lishini ko‘proq xohlaydi.

“Garchi imo qilsa – qilmayin,
O‘ttiz o‘lka jilovda, tayin.
Bir qultum ham manmanlik mayin
Tatimadi, ichmadi sulton”²³².

Shoir Amir Temurning davomli muvaffaqiyatlarini ta’minlagan omil – hushyorlik va tadbirdilik ekanini qayd qiladi. Yigirma yetti mamlakatni yagona bayroq ostida birlashtirgan ulug‘ jahongir kibr-u havoga berilmagan, yo‘ldan ozmagan. Keyinchalik xonlar va amirlar zamonida kuch-qudrat borasida Sohibqironning soyasiga ham yaqinlasholmaydigan hukmdorlarning manmanlik va kaltabinlik bilan maishatga berilib ketgani, davlat boshqaruvi mas’uliyatlarini unutib, “amir al muslimin” degan soxta unvonlar bilan o‘zlarini xursand qilib

²³¹ Юсуф М. Халқ бўл, элим. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2007. – Б.78.

²³² O’sha manba, – Б. 79.

yurganiga tarix guvohdir. Amir Temur bunday o'tkinchi havaslarga aldanmaydi, o'z zimmasida turgan mas'uliyatlarni ado etishni asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

Inglizzabon shoir Viktor Jeyms Deylni hayratga solgan Sharq sultonining hayotiy qarashlari va kurashlari garchi taxtga erishuvi yoshlikning eng avjida ro'yob bo'lgan bo'lsa-da, uning ongu shuuriga, maslagi va aqidalariga singgan buyuk o'tmishdoshlarining tajribalari asosida yuzaga chiqqanligini tilga oladi.

Poet's page, or statesman's bust,
Nothing comes to him amiss;
Everything he clutches must—
'Tis his simple dream of bliss!—
Suffer his analysis.

O my little Tamerlane,
Infantile Iconoclast,
Is your small barbaric brain
Not o'erawed by the amassed
Wit and Wisdom of the Past!²³³

Ma'nosi: Shoir satrlari yoxud fotih haykali
Kelguvchi hech biri-istisnosizmas;

Tutgani-changaldan ozod bo'lolmas,
Ilgida mahkamadir, baxtning tizgini.

Titroqda tug'ilgan qalb iqrorlari!
Ey mening murg'agim, kichik Tamerlan,
G'o'r beg'ubor, inju tasavvurlari.

Ilk hayol va yoshlik o'ylar girdobi,
To'planganlar ichra olqishdan nari.

Lek, o'tmish - zakovatning tajribalari! (tarjima bizniki, Z.Y)

Ushbu she'riy parchalarni atrjima qilishda so'zning leksik birlik sifatidagi ahamiyatini e'tiborga olar ekanmiz, bunda she'riy asardagi ma'no, obrazlilik va his

²³³ Victor James Dale. Tamerlane. <https://www.poemist.com/victor-james-daley/tamerlane>.

tuyg‘u birinchi o’ringa ko’tarilishini²³⁴ ham unutmaslik kerak. Ingliz she’riyatida Amir Temur obrazini yaratishga romantizm davrida alohida e’tibor qaratildi. Charlz Lemb, Edgar Allan Po kabi o’nlab shoirlar qalamiga mansub bo‘lgan ushbu mavzudagi she’rlar o‘zining yuqori badiiy quvvati bilan ajralib turadi.

Charlz Lembning “Malika Ariananing orzusi” she’ri inglizzabon adabiyotda yaratilgan Amir Temur haqidagi she’rlarning birinchisidir. She’r 36 misra, ikki banddan iborat. Misralar a-a, b-b tarzida qofiyalanadi. Biroq she’rning g‘oyasi, badiiy mantig‘i haqida fikr yuritganda, hayotiy mantiqning ma’lum darajada e’tiborga olinmagani oydinlashadi. Sarlavhada ismi tilga olingan Ariana Amir Temurning rafiqasi bo’lib, she’rda Temur ismi tilga olinmasdan unga ishora qilinadi. Shu kabi jihatlar va o‘sha davr voqeligiga nazar tashlashdagi nuqsonlar muallifning Temur va temuriylar haqida yetarlicha ma’lumotlarga ega emasligini ko‘rsatadi. Qolaversa, shoirning Ariana ismli ayolni Sohibqironning rafiqasi sifatida e’tirof etishi ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi. She’rning asosiy qahramoni malika Ariana daryo sohilida salqin havo og‘ushida orom olishni qattiq istashini go’zal ifoda etiladi:

“On a bank with roses shaded,
Whose sweet scent the violets aided,
Violets whose breath alone
Yields but feeble smell or none
(Sweeter bed Jove ne’er reposed on
When his eyes Olympus closed on),
While the nontide fervor beam’d
Mused herself to sleep, and dream would”,²³⁵
(Tarjimasi:
Atirgullar soya solgan sohilda
Ular iforini binafshalar orzu qilar chog’)
Binafshaning birgina xosli nafasi

²³⁴ Qosimov A va boshq. Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2019. – B.112.

²³⁵ Lamb Ch. John Voodvil. – New York.: Atheneum, 1980. – P. 144.

Biroq bu ifor kuchsiz yoki yo‘q.
Ko‘zlariga Olimp termulgan Jovening
Yotog‘idan ko‘ra ham xushbo‘yroq
Chohgoh payti qizg‘in nur taralayotgan paytda
U uqlashga va tush ko‘rishga o‘zini chog‘laydi).

Boshqa ingliz ijodkorlari singari Charlz Lemb ham Temur obrazini yaratishda real tarixiy hodisalar talqinidan chekinib, yunon mifologiyasi ta’siriga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining ma’naviy miqyosi, badiiy salohiyati kundan-kunga oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Shu ma’noda, hozirgi o‘zbek adabiyotida jiddiy yangilanish jarayoni kechayotganligi tahsinga sazovor. Biroq, ana shu boy va rang-barang xazinaning ijtimoiy-psixologik asoslarini, ichki mundarijasini yoritib beradigan ilmiy-nazariy tadqiqotlar nisbatan kam yuzaga kelmoqda. Bu holat badiiy tizimning harakatdagi hodisa ekanligi, ijtimoiy ongdagi evrilishlar nazariy aqidaga ham ta’sir o‘tkazishi bilan izohlanadi. Hozirgi milliy she’riyatimizda uslubiy rang-baranglik hamda, ular mohiyatida zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg‘ularni aks ettirish barobarida mamlakatimizning har bir a’zosining mustaqillikka shukronalik, porloq kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, temuriylarga bag‘ishlagan har yili bir necha yuzlab she’rlar yoziladi. Ularning bir qismi matbuotda e’lon qilingach, alohida to‘plam holida nashr qilinadi. Ularni tadqiq etish, yutuq va kamchiliklarini tahlil etish borasida adabiyotshunosligimizda salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, janrlar ichki taraqqiyoti negizida yuzaga kelayotgan oraliq badiiy shakllar tabiatni va nazariyasini maxsus aspektida o‘rganish hanuzgacha yo‘lga qo‘yilgan emas. Eng muhimi shundaki, zamonaviy o‘zbek she’riyatida shiddat bilan shakliy ixchamlikka intilish asosiy tamoyil darajasiga ko‘tarilmoqda. Jumladan, Temuriy shaxzodalardan Husayn Boyqaro haqida pyesa yozgan I.Mirzoning Sohibqiron haqida xalqona ohangdor, elning diliga yaqin, sodda, samimiy she’rlari paydo bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida she’riyatning tadrijiy

takomili sifatida ko‘zga tashlanmoqda. Adabiyotning bugungi qiyofasi, xususan, she’riyatning bosh mavzusiga aylangan millatning buyuk daholarini e’zozlash orqali, ulardan olgan xalqaro tarbiya orqali inson tafakkuridagi yangilanishlarni yuzga chiqarmoqda. Darhaqiqat, daqiqa sayin turlanib, tuslanib, globallashib borayotgan zamon unga tayyor mavzuni yoritishni oldiga ko‘ndalang qo‘yadi.

Yana bir qator shoir zamondoshlari ijodida buning boshqacha isbotini ko‘rish mumkin. She’riyatdagi rang-baranglik ham falsafiy o‘ychanlik, teran mulohaza qatlamlariga kirib borishga moyillik sezilmoqda. M.Ali, M.Yusuf, S.Sayyid, Q.Norqobil, T.Ali, Z.Mirzayeva, U.Hamdam, A.Qutbiddin, I.Mirzo, H.Ahmedova ijodida buning yorqin ifodasini kuzatishimiz mumkin. Bu kabi bir qator shoiru shoiralari ijodidan o‘rin olgan kichik hajmli she’rlarda Ona-vatan, buyuk tarixiy shaxslar obrazining badiiy ifodasini kuzatamiz.

Iste’dodli shoira, olima Nodira Ofoqovaning “Haqiqat” nomli she’rida ham Sohibqiron Amir Temurning buyuk shaxs sifatida shakllanishidan bahra olish bilan birgalikda, o‘zlikni anglashdagi intilishlarining mahsulini kuzatish mumkin. Shoira talqinlaridagi badiiy ifoda shakllariga diqqat qilaylik. Buning asosida, inson meni bilan bir qatorda uning ruhiy kechinmalari mujassamlashgan:

Men kimu, Temurdan so‘z aytmoq qayda?

Onaman, naslimning g‘amini yeyman:

Temurbekka boqib so‘ngan shiddatim,

Sindirilgan shashtim uyg‘onsa deyman²³⁶.

Buyuk siymolar haqida so‘z yuritmoq naqadar murakkab, mas’uliyat, shu bilan birga, ularga bo‘lgan sadoqat ramzi sifatida yangraydi. Yillar davomida o‘z tarixidan uzoqlashtirishga harakat qilinganligi, buyuk bir avlod vakillarining qismati, ularning tarix sahifalarida katta madaniy-ma’rifiy ishlarga bo‘lgan ishonchini ma’lum ma’noda avlodlardan uzoqlashtirilishi, tarixga, uning buyuk farzandining shashtini so‘nishi ham bejiz emas. Sindirilgan, egilgan, bukilgan qaddini tiklash naqadar og‘ir ekanligiga ishonch hosil qiladi.

²³⁶ Офокова Н. Кўнгил шеваси. – Тошкент.: “Фан”, 2011. – Б. 24.

Qonimni qizdirsa turkiy asosim,
Qadrimga axtarsam mangulik qiyos
G‘ururim, isyonim, orim, qasosim –
Temurbek yodimga kirar gulduros.

Uning turkiy qonida mujassamlashgan sadoqat, erk o‘rnini mutelik, tobelik egallaganligini, bu ham bejiz emasligini alohida qayd etish, bu lirik qahramon uchun ham juda og‘ir kechmoqda. Tarixning noxolislik darajasiga kelishi ham tasodif emasdek, unga ham bir vaqtlar “qiziqqon qon” egasi bo‘lgan insonning ma’lum bir davrdagi holati, hattoki g‘ururi, orini ham ham asta-sekin unutish darajasiga kelib qolishiga ham tazyiqlar, ayanchli qirg‘inlar sabab emasmikin? Uning qalbida yillar davomida saqlanib kelayotga bu kurash ham qalbda mujassamlashganligiga urg‘u beriladi. Bundan ruhlanishni, achchiq tarix haqiqatini anglash naqadar murakkabligini his eta olish ham besabab emasdek.

Temurbek, Temurbek. Tasodif emas,

Urhosi To‘nyuquq xitoblarida.

Parishon turkiylar ko‘kragida darz

Fol ochdi “Irq bitik” kitoblaridan.

Shoiraning misralariga nazar solar ekanmiz, botinidagi iztiroblar, buyuk turkiylarning ayanchli qismati, bir vaqtlar olamni o‘ziga bo‘ysindira olgan shaxs qismati, uning borlig‘i-yu, mavjudligi, o‘z davri uchungina emas, balki, buning zamirida qadimiylar turkiylarning ham nolasi, mungli ovozi borligi, bu esa To‘nyuquq xitoblariga, unga bitilgan toshlar kabi ovoz chiqar olmasligidan emasmikin? Bu holdan turkiylarning qalbida “darz” paydo bo‘ldiki, uning asosida mahkumlikning o‘ziyoq shu holga tushushishga imkon bergenligi, hattoki “Irq bitik”lari ham nola cheka boshlaganligini anglash mumkin. Achchiq haqiqatning zamiridagi lirik qahramonning iztiroblariga nazar tashlaylik, axir yillar shamoli avlodlarimiz ne kuylarga solmadi, qani erk, qani ozodlik, buyuk tarixning zarvaraqlaridan o‘rin olgan ajodlarning qiyofasimi shu holatimiz, - deyayotgandek bo‘ladi. Balki, qahrdan, balki mehrdan, balki iste’dodning mahsuli sifatida buyuk sulolalar maydonga kelganligiga urg‘u berayotgandek tasavvurlarni beradi.

Erk, ozodlik shabadasining mavjudligini, buni esa anglash kerakligini alohida ta'kidlash bilan birgalikda, mangulik hikmati juda og'ir, uning zimmasida xalq va Vatan erki mujassamlashganligini anglamoq darkor.

Garchand Tangri suydi bahodirlarni,
Garchand dillarida porlatdi chiroq,
Garchand haqiqatning qarorgohida
Temurbek o'z o'min topdi-ku.

Tangri inoyat etgan buyuklarni, ham sotqinlarni ham, ammo mangulikka daxldorlik bu inson erki bilan uzviy bog'liqligi, bu esa o'zlikni anglashdan iborat ekanligini qayd etish lozim. Tarix haqiqatining oldida barchasi "sarob" ekanligini, vaqt kelganligini, davr shamollari yana erkin, ozodlikni qaytarganligini, hatto Sohibqiron Amir Temur kabi buyuklarning "qaytishi" ham bir inoyat ekanligini anglamoq, his etish lozim. Yuqoridagi she'rning mohiyatida shoirning achchiq dil izhorlari bilan kitobxon xotiralari, yaqin-uzoq o'tmish manzaralari so'zsiz sirlashadi. Bunday nozik kuzatish shoira dilidagi hasratni ifoda etgani bilan juda ko'pchilikka birdek ta'sir etadi. Yurak esa o'shalarning og'ir azoblaridan g'ashlik hissin tuyadi. Bir qarashda juda sodda tuyulgan bo'lsa-da, shoira hech kimga o'xshamagan poetik obraz yaratgan.

Shu maqsadlar yo'lida yaratilgan Shoир Isroil Subhoniyning kichik lirk asarlaridagi tarixiy obrazini yaratishga bo'lgan intilishni kuzatar ekanmiz, lirk qahramonning kechinmalari, uning ifoda shakllaridagi mohiyatni anglaymiz. Shoirning "Temur monologи" asaridagi tuyg'ular ifodasiga nazar tashlaylik:

Men yarim dunyoni sar-basar etdim,
Bitta qilich bilan, bitta qo'l bilan.
Tangrim bandasini dar-badar ettim,
Bitta so'qmoq bilan, bitta yo'l bilan.

Dunyoning yarmini sar-basar etmoq, zabit etmoqlik uchun, unda jasorat, mahorat va o'ziga bo'lgan ishonchning borligini, tafakkur olamini hayotga, erkinlikka baxshida etish lozimligi she'rda Temur tilidan qayd etildi. Bitta qilich yoki bitta qo'l bilan dunyoni sar-basar eta olish iqrori insondagi jasorat, ilm,

salohiyat bilan mujassamlashgan. Bitta yo‘l bilan yoki bitta so‘qmoq bilanmi, uning zamiridagi metoforik talqinning mavjudligi, “Kuch adolatda” ekanligi bilan uzviyilagini anglashga yordam beradi.

Shaksiz bitta edi mening qismatim,
Men osilgan dorlar naqadar baland.
Va lekin o‘lchamang buyuk xizmatim,
Bitta o‘lim bilan, bitta jon bilan.

Buyuk tarix ko‘z o‘ngimizda jonlanadi, bu esa uyg‘oq qalbni iztirobga soladi, uning buyuk tarixi, buyuk ajdodlarining olamini his eta boshlaydi. Buyuk xizmat o‘lim bilan tugamaydi, asrlar osha avlodlar qalbini titroqqa soladi.

E’tiqod dunyoning tayanch nuqtasi,
Men unga ehtirom keltirdim bajo.
Al-qasos bitta, Vatan bittasi,
Bittasi payg‘ambar, bittasi Xudo.

Ma’lumki, lirkada qanchalik g‘ayritabiiy tuyulmasin, kichik hajmli she’rda ruhiyatni chizish va fikr aytish imkoni katta bo‘ladi. She’r qancha qisqa bo‘lsa, unda tagma’no va ishoraga shuncha ko‘p joy qoladi. Bunda she’riyat ixloslamdlariga ushbu satrdan turli-tuman kashfiyotlar ilg’ash imkoniyati beriladi.

Ey nomi dunyoga ketgan saltanat,
Temurbek so‘zim bu tingla badiha.
Kindik qon kutadi abadul-abad,
Har bitta odamdan, har bitta voha.

Axir, dunyo adabiyoti buyuk Sohibqironning turli aspektlarda badiiy talqin etishining boisini ham anglash imkonini kengaytiradi. Buning zamiridagi kurashlar, iztiroblar, yo‘qotishlar, fojialar barcha-barchasi lirk qahramon qalbida mujassamlashgan.

Taajjublar noo‘rin, gumonlar xato,
Tavollo qilurman, farmon berurman.
Ostimda bir zamin, tepamda xudo-

Yakka-yu yagona, men- Amir Temurman²³⁷.

Tarixda ham, hayotda ham uning shiori edi: “Yagona Alloh, yer yuzida tanho podshoh” sababi ham uning ruhiy-ma’naviy yuksak shaxs ekanligidan dalolatdir. To‘g‘ri, yagonalik Allohga xos ammo bu o‘rindagi metaforik ishoraning mavjudligini ham unutmaslik lozim.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev “Yoniq so‘z” asarida qayd qilganidek: “Shaxsiyatga xos mag‘rurlik, qaysarlik, ayni paytda, mislsiz mehnatkashlik, bo‘ysunmaslik, tengsiz kuchli xotira, tinimsiz o‘qib o‘rganish stixiyasi, rostgo‘ylik singari jihatlar shoir ijodining o‘ziga xosligini belgilaydi”,²³⁸. Qisqa she’r o‘quvchiga ishonchning ifodasi bo‘lib, uni badiiy so‘zga iste’molchisidan poetik holatni tuyish, badiiy manzarani jonlantirish jarayonining ishtirokchisi martabasiga ko‘tarishga urinish natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shoir va yozuvchi ijtimoiy mavzuda qalam tebratib, hayotning yaxshi va yomon, nurli va nursiz tomonlariga urg‘u berib, insoniyat qalbida yomonlikka nafrat, yaxshilikka muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalab boradi. Ammo hozirgi davrda, texnika asrida inson qalbining oliv tuyg‘usi – muhabbatni e’zozlash, bu qadrlashni she’riyat orqali yanada ulug‘lash muhim ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga egadir. Chunki har bir kishi jamiyatning axloqiy qoidalariga rioya qilish-qilmasligini hamisha qonun kuchi bilan tartibga solish nihoyatda qiyin. Balki, she’riyatga har bir xalqning o‘ziga xos milliy ruhini singdirib, uning xarakterida axloq va odob, hayo va iffat singari fazilatlarni tarbiyalash asrimiz kasaliga aylanib borayotgan “erkin muhabbat” rivojining oldini olishning, oilalar mustahkamligining, tirik yetimlar ko‘paymasligini ta’minalashning ma’naviy choralaridan biridir.

Shoirlar hamisha zamondan bir qadam ilgari yurishadi. Lekin achchiq haqiqat ular tomonidan, she’r tili bilan aytilsa, erish tuyulib qoladi. Shu zahoti ijodkor ma’naviyati “chuqur o‘rganishga” kirishiladi. Axir, shoir ham shu

²³⁷ Субхоний И. Бухоронинг етти юлдузи. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.28.

²³⁸ Йўлдошев К. Ёник сўз. –Toshkent.: “Янги аср авлоди”, 2006. – Б.338.

xalqning, yurtning farzandi. Taniqli adabiyotshunos olim U.Normatov e'tirof etishicha: "Shoirlik shaxsi qanday bo'lsa, she'riyati ham o'shanday bo'ladi, degan naql bor. Bu gap barcha shoirlarga to'g'ri kelaveradi. Biroq bu naql yurt, ushbu xalqning boy o'tmishi, buyuk shaxslari kuylovchisi Iqbol Mirzoga to'laligicha daxldordir"²³⁹. U hech qachon o'z sevgan xalqiga, yurtiga zarracha xiyonatni ravo ko'rmaydi. Aksincha, u nima haqida kuyinib yozsa, bu uning fidoyiligi, xalqi va vataniga bo'lgan mehri va sadoqati tufayli. Shoir yozgan haqiqatlarni xayolidan emas, balki hayotidan oladi. Shuning uchun ham, nuqsonlar ildizini hayot bag'ridan izlash, undan keyin ijodkorning haq yoki nohaqlik darajalarini aniqlash maqsadga muvofiq keladi.

Har bir davr o'zidan avvalgi yoki keyingisidan qaysi bir jihat bilan ajralib turadi. Har bir davrning o'z qiyofasi, yurish-turishi bo'ladi. Aynan o'zgachalik, turfa xillik ko'pincha shu davrda yashagan insonning umumiy kayfiyatini belgilaydi. Odamzodning xayoli har qancha chuqur bo'lmasin, u o'z davrining ko'rinas rishtalaridan batamom uzilib ketolmaydi. Shu ma'noda XIX asrning qariyb ikkinchi yarmidan XX asrning so'nggi o'n yiliga qadar davom etgan har xil shakllarda turlanishga qaramay, mohiyatan istibdod davri bo'ldi. Va bu istibdodni anglab yetgan shoir xoh u, xoh bu ko'rinishda bo'lsin, ozodlikni kuyladi, istiqlolga yetishni orzu qiladi, xalqni shunga chorlaydi.

Badiiy tadriji takomillashgan sari, she'riyatda ham uslubiy-shakliy o'ziga xoslik qabarib ko'rina boradi. Chunki she'riyat bog'iga kirib kelgan yangi avlod uning azaliy mohiyatini amalda isbotlashga kirishadi. Ayniqsa tarixiy siymolar haqida yozilgan she'r, ijtimoiy fikr, madaniyat va fan tarixi sanalmish adabiyot tarixini(G.Floto), shoir shaxsiyati esa ma'lum tarixiy sharoitni shakllantiradi²⁴⁰. Shulardan biri Iqbol Mirzo bo'lib, u o'z zamondoshlariga, dunyo ahliga buyuk Temurbek bobolaridan g'urur tuyib, qalamkash do'stlariga jasorat bilan shunday murojaat qildi:

Egasiz va oyoqosti bo'lmas o'zbek,

²³⁹ Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Toshkent.: “Маънавият”, 2000. – Б.75.

²⁴⁰ Eshonboboyev A.Qiyosiy tarixiy metod haqida// O'zbek tili va adabiyoti. –T, 2008.№4. –B.38.

Xohlagan suv oladigan ko‘lmas o‘zbek.

Dong taratgan va o‘ziga qaratgan el,

Hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmas o‘zbek²⁴¹.

Ko’rinib turibdiki, shoir she’riyatning azaliy mohiyatini, uning o‘tmish tarbiyasining asl maqsadini nazarda tutmoqda. Garchi ko’proq publitsistik ohang bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, 90-yillar boshida mudragan shoirlarni uyg‘otdi, ularning sovib qolgan qalbiga o‘t yoqdi, sustlashgan she’riyatni seskantirdi, biroz orqa-oldiga qarashga majbur qildi. Keskin ruhdagi bunday she’rlarning oz bo‘lsa-da, paydo bo‘lishi lirk turning po‘rtana oldidagi sokinligini buzdi. Shoir I.Mirzo hayqirig‘iga javoban ko‘pchilik shoirlar xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga, tarixiy zabardast shaxslarni o‘rganishga dadil kirishdilar.

Darhaqiqat, shoir badiiy izlanishlari asosida milliy o‘zlikni anglashga urinayotgan shaxs tiynati tasvirlanadi. Bu esa o‘z navbatida temurshunoslar ijodiga ham taalluqlidir. Ma’lumki, she’riyat adabiyotning eng ko‘hna va har doim ustuvor bo‘lib kelgan turidir. Jamiyat hayotida ro‘y bergen har qanday voqeа-hodisalarga birinchi bo‘lib aks-sado beradigan tur she’riyatdir. Lirika paydo bo‘lgandan beri xalqning o‘tmish xotirasini ardoqlash, e’zozlash, tozalash, ongini uyg‘otish vazifasini ado etib kelmoqda.

Ma’lumki, she’r shoir ruhiy-psixologik holati sintezidir. Ijodkor idrokida nish urgan xususiylashgan tuyg‘ular silsilasi lirk qahramon kechinmalarida maromiga yetadi. Unda poetik xarakterning shakllanish tarzi, shaxsiyatning tadrijiy takomili, finogenetik yangilanish hajmi aks etadi. Shunga muvofiq ravishda, insonning biologik-estetik-qadriyaviy qirralari uzluksiz kechadigan jarayonda uyg‘unlashadi. Turfa harakat va holat chiziqlari so‘z-obraz-ruhiyat parchalari atrofiga jipslashib, muallifning borliqqa ijodiy munosabatini ifodalaydi. Ayni paytda, aql-hofizada sayqal topgan, rivojlantirilgan shaxsiy kechinma umumiylitka intiladi va muayyan shakl-shamoyil doirasida sinxronik ko‘lamga ega bo‘ladi. Aslida, odamzod tabiat statistik aniqlikdan umuminsoniy mohiyat sari rivojlanib

²⁴¹ Мирзо И. Агар жаннат кўкда бўлса..., – Тошкент.: “Шарқ”, 1992 – Б.24.

boradi. To‘g‘rirog‘i, har qanday alohidalik zamirida insoniyatga xos zarif xislatlar ibtidosi murakkablashib boradi. Aynan xususiy lashgan belgilarning o‘zgachaligi barqarorlashgan mezonlar orqali namoyon bo‘lishini e’tiborga olsak, individuum shakllanish bosqichlari bashariyat tarixiy taraqqiyotining uzviy davomi ekanligi anglashiladi. Shu ma’noda, poetik til ma’no tadrijini muayyan tizimga solish, bir tomondan, shoir ijodining poetik o‘ziga xosligini belgilab olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, davr lirkasining spetsifik jihatlarini aniqlab olishga yordamlashadi:

Xullas, keyingi yillarda yaratilgan kichik she’rlarda buyuk tarixga, tarixiy voqelikka, bevosita Amur Temur obrazining badiiy talqinlariga ham jiddiy e’tibor qaratildi va shu asosda obrazlar galeriyasi talqin etildi.

Inglizzabon badiiy adabiyodagi kichik janrdagi she’riy asarlarda Amir Temur mavzusi ibtidosi romantizm davriga oid bo‘lib, Charlz Lembning “Malika Ariananing orzusi” nomli she’ri bilan boshlanishi haqida yuqorida to’xtalgan edik. She’rda Sohibqiron rafiqasi malika Ariananing cheksiz xayoliy orzulari Amir Temurning sarhadbilmas imkoniyatlari timsoli sifatida berilgan. She’r sof badiiy asar bo‘lib, unda tarixiy va badiiy haqiqat borasida muqoyosa qilish imkoniyati yo‘q. Shunday bo‘lsa ham, inglizzabon she’riyatda Amir Temur mavzusida birinchi she’rni bitgan Charlz Lemb o‘zidan keyin Amir Temur mavzusining g‘arb she’riyatida keng tarqalishiga yo‘l ochib berdi²⁴².

IV.2. . Liro-epik janrda Sohibqiron obrazi: shaxs va taraqqiyot

Sohibqiron Amir Temur haqida ingliz adabiyotda ham shu kunga qadar ko‘plab nasriy, dramatik va lirk asarlar yaratilgan. Ingliz adiblari Robert Xovard “Samarqand hukmdori” (Lord of Samarkand, 1932), Kristofer Marlo “Buyuk Temur” (Tamburlaine the Great, 1587), Charlz Sanderz “Buyuk Temur” (1681), Nikolas Rou “Temurleyn” (1702), Charlz Lemb “Malika Ariananing orzusi” (Queen Oriana’s Dream, 1818), Edgar Allan Po “Temur” (1827) Viktor Jeyms Deyl “Temurleyn” (1905) kabi o‘nlab Amir Temurga bag‘ishlangan nasriy va

²⁴² Yakubov M. “Inglizzabon adabiyotda Amir Temur siymosi”. f.f.d.avtoref.. – Buxoro., 2021– Б.46.

nazmiy asarlari hozirgacha dunyo kitobxonlari tomonidan zo'r qiziqish bilan o'qilmoqda, o'quvchilarni hayratga solib kelmoqda, yangi ilmiy tadqiqotlarga turtki bo'lmoqda. Gyote (1749-1832) va Shekspir ijodida ham Amir Temur haqidagi she'rlar mavjudligi ushbu buyuk allomalar hayrati va izlanishlarida bizning ajdodimiz nomi borligi insonni g'ururlantiradi.

Lirik turning tarkibiy qismi bo'lgan liro-epik asarlarning badiiy xususiyatlariga nazar solar ekanmiz, bu kabi asarlarda ham buyuk siymolar obrazini yaratish shu asosida tarixga murojaat etish an'anasi yuzaga chiqishi kuzatiladi. Shuningdek, sohibqiron Amir Temur obrazini lirik xarakterga singdirish, kechinmalar asosida, badiiy qahramon yaratish an'anasi ham teranlik kasb eta boshladи.

Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatini aks ettirishga bag'ishlangan liro-epik asarlarning mavzu-mundarijasiga baho berish jarayonida iste'dodli shoir va yozuvchi Muhammad Alining "Gumbazdagi nur" dostonini yodga olish zarur. Asar 1967-yilda yaratilgan bo'lib, Amir Temur va boshqa tarixiy siymolarning yurt obodligi yo'lida qilgan mehnat-mashaqqatlari, bunyodkorlik faoliyatini madh qilishga hamda, o'z zamonida jamiyat osoyishtaligi uchun kamarbasta bo'lgan kishilarni ulug'lashga bag'ishlangan. Doston Go'ri Amir maqbarasi qoshida turgan bolaning o'tmish me'morchiligi namunasi bo'lgan gumbaz qarshisida hayratlanishi tasviri bilan boshlanadi. Muallif o'zi o'sgan elining buyuk tarixi bezagi bo'lmish bunyodkorlik va me'morchilik ishlarini ulug'lar ekan, o'tmishda yashab o'tgan ota-bobolarning bu boradagi xizmatlari hozirgi avlodlar uchun ibrat namunasi ekanligini ta'kidlaydi. 1966-yilda ro'y bergan mudhish zilzilaning asoratlarini bartaraf etish uchun qilingan say-harakatlar qadimda yashagan bobolarning bunyodkorlik yo'lida qilgan ishlari bilan mazmunan hamohang ekanligi muallifning e'tiborini tortadi. Nabirasi Muhammad Sultonning vafotidan qattiq qayg'uga tushgan Sohibqiron Amir Temurning iztiroblari ta'sirchan shaklda tasvirlangan. Sohibqiron nabirasining xotirasini abadiylashtirish hamda, o'zidan avlodlarga yana bir yodgorlik qoldirish maqsadida Go'ri Amir maqbarasini

qurishga farmon beradi. Mamlakatning turli chekkalaridan bu inshootni barpo etish uchun mohir quruvchilar jalb qilinadi.

“Buxorodan kelmish sangtarosh,
Farg‘onalik gilkor ham bunda.
Naqqoshini yuboribdi Shosh,
Xorazmlik ganchkor ham bunda”²⁴³.

Muallif doston yozilayotgan paytda jamiyatda milliy o‘zlikni anglash jarayoni oz bo‘lsa-da, sodir bo‘layotganini e’tiborga oladi. Maqbara qoshida turgan, o‘tmish obidasining mahobatidan hayratlanayotgan bola XX asrning 60-yillariga kelib, biroz erkinlashgan sovet jamiyatida o‘z bobolarining ulug‘vor qiyofasi va olamshumul ishlari bilan endigma tanisha boshlagan yosh avlodning umumlashma badiiy obrazidir.

“Hilpirar galstuk,
Pirpirar kipriklar,
Gumbazga termulib
Og‘riydi bo‘yni,
Chiqadi, kiradi
Qabrga tiriklar,
Bolakay turadi
Unutib uyni”²⁴⁴.

Shoir bu o‘rinda sivilizatsiyalar to‘qnashuvi masalalasini asarga olib kirganiga guvoh bo‘lish mumkin. Zamonaviy jamiyatda yashayotgan, ixtiro kashfiyotlar zamonida o‘z yantuqlari bilan g‘ururlanayotgan kishilarning farzandi bo‘lgan, galstugi hilpirayotgan bola ramziy obraz ekanini esga olish zarur. Zamonaviy dunyo kishisining gumbazga termulib bo‘yni og‘rishi, sohibqiron Amir Temur buyrug‘iga binoan qurilgan inshoot qarshisida hayratlanib turishi temuriylar davridagi o‘tmish sivilizatsiyaning shuhrati XX asr sotsialistik sistemasining yantuqlaridan ulug‘vor va yuksak bo‘lganiga ishora qiladi. Albatta muallif o‘z davri

²⁴³ Али М. Сайланма: Шеърлар, достонлар, шеърий роман ва таржималар. – Т.: “Шарқ”, 1997. – Б. 247.

²⁴⁴ Shu manba, – В. 244.

mafkurasi ta'siridan mutlaqo holi bo'lishi mumkin emas. U bu misralarni yozish jarayonida yuqorida biz nazarda tutgan xulosani e'tiborga olmagan bo'lishi mumkin. Biroq badiiy asarning o'z muallifiga ham ma'lum bo'limgan ma'noviy qatlamlari barcha zamonlarda ham matn qa'rida yashirin holatda mavjud bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan asarning avval yuzaga chiqmagan ma'nolari oydinlashib boradi. Olis o'tmishda yashagan barcha insonlarning endilikda qaborda ekanligi haqida bolakay taassuf bilan mushohada qilishi, "unutib uyni", deya ta'riflanishi badiiy adabiyotning abadiy mavzusi – tiriklik va o'lim qarama-qarshiligining asarda almashinayotgan avlodlar nigohi orqali teran badiiy-falsafiy aks ettirilganini ko'rsatadi. Sovet mafkurasi o'tmishda yashagan ulug' bobolarning xotirasi haqida mushohada qilish, o'lim hodisasining asl diniy, falsafiy va botiniy asoslarini chuqur o'rganishni qattiq qoralagan. "Odamlarga nima bo'lgan o'zi! – deya xunob bo'ldi Edigey. – Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim! – Bu fikr Edigeyning ich-etini tirdardi. – Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?"²⁴⁵

Go'ri Amir maqbarasining mahobati haqida gap ketar ekan, muallif bola nutqi orqali o'sha davr ijtimoiy hayoti uchun xarakterli belgi hisoblangan jihat – o'tmishni qoralash va kamsitish, sotsialistik hayotnigina farovon deb tan olish illatini bilvosita tanqid qiladi.

"Vo-o-o! Qandoq qurbanlar?

Juda ham katta-ku?

Bo'lganmi kranlar

Avvali ham, a ?"

Domlamiz der edi:

"O'tmishda, hattoki,

Arpa non yer edi

²⁴⁵ Aytmatov Ch. Asrni qaritgan kun. – Toshkent.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020. – B.38.

Qari-yosh hamma!”²⁴⁶

O‘tmish me’morchiligining durdonasi, Amir Temur qudratining nishonasi qarshisida turgan bola shu vaqtga qadar ustozlari qulog‘iga quyib kelgan ayrim shiorlarning rost ekanligidan shubhalana boshlaydi. Sovet notiqlari ma’ruzalarida o‘zgarmas mavzu hisoblangan o‘tmishning qoloqligi, sovet jamiyatining gullab-yashnaganligi haqidagi da’vat tusidagi chaqiriqlaring ma’lum darajada shubha ostiga olinishi asar yozilgan davr uchun ulkan ma’naviy jasorat edi. Muallif tarixiy voqelik va mavjud vaziyatga bola nigohi orqali baho berar ekan, shunday imoratlar bunyod qilgan bobolarning kommunistlar ta’kidlaganidek yovvoyi, madaniyatsiz bo‘lganligiga aslo ishonmaydi. Keltirilgan she’riy parchada domla – o‘qituvchi obrazining mavjud bo‘lishi masalaga boshqa rakurslardan nazar tashlash ehtiyojini yuzaga chiqaradi.

Dostonda temuriylar shuhrati hamda, o‘tmish me’morchiligining mo‘jizalari mavzusi bilan birgalikda, o‘z davri uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan bir qancha inshootlarning bunyod etilishi masalalari qalamga olinadi. Katta Farg‘ona kanali, Farhod GES, Muhtasham teatr binosi hamda, Toshkent zilzilasidan so‘ng barpo etilgan binolar Amir Temur davri me’morchiligining durdonasi hisoblangan Go‘ri Amir inshooti bilan qiyoslanadi. Bu jihatni yuzaga chiqargan omillarni hisobga olish zarur. 1967-yilda to‘laligicha Temur yoki temuriylarning bunyodkorlik faoliyatini ulug‘lashga bag‘ishlangan asar yozish mumkin emas edi. Biroq bu tarixiy shaxsning bunyodkorlik ishlariga hurmat bilan qaragan muallif turli yo‘llar bilan o‘zining ezgu ijodiy niyatini amalga oshirishga intiladi. Shu maqsadda, sovet adabiyotining kundalik mavzusiga aylanib qolgan yuqorida nomlari tilga olingan qurilishlarni madh qilishni ma’qul deb topadi. Bu o‘rinda o‘tmish va o‘z davri bunyodkorligini qiyosiy asosda badiiy talqin qilish masalaga nisbatan eng to‘g‘ri yondashuv bo‘lib xizmat qiladi. M.Alining A.Temur va uning bunyodkorlik faoliyati, memorchilik asosida buyuk qudratli avlodlar to‘g‘risida mungli xotira

²⁴⁶ М.Али. Сайланма: Шеърлар, достонлар, шеърий роман ва таржималар. – Т.: “Шарқ”, 1997. – В. 244.

dostonining boshqa bir rakursdagi mantiqiy davomi sanalmish A.Oripovning “Sohibqiron” dramasi haqida to’xtalgan edik.

Adabiyotshunos S.Mirzayev Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi haqida so‘z yuritib, quyidagi tushunchalarni ilgari suradi: “Yoshligidanadolat uchun kurashishni o‘ziga maqsad va maslak qilib olgan Amir Temur ezgulik yo‘lida jahonning qariyb yarmini zabit etib, Buyuk Turon sultanatini barpo etadi. Orttirgan behisob boyliklariniadolat uchun, yaxshi ishlar uchun xarjlaydi. El-yurtni obod qildiradi, yangi shahar va qishloqlar bunyod ettiradi...”²⁴⁷

Darhaqiqat, iste’dodli shoirning mustaqillikning ilk davrlaridayoq, tarixga badiiy siymolarga ijodiy yondashuv bilan bir qatorda, Amir Temur siy whole tarix haqiqatidan kelib chiqib, tasvirlashga harakat qilganligini va bu jarayonda birinchilardan bo‘lib, buyuk siy whole turfa xil kechinmalarini lirik xarakter asosida ifodalaganligini alohida qayd etishning o‘ziyoq, ijodkor qarashlaridagi o‘ziga xos poetik talqinlarning ifodalanishiga, obraz yaratishdagi badiiy mahoratni yoritishga intilganligini asoslaydi. Chunki, Abdulla Oripov Amir Temur obraziga asosli yondashish asosida tarixni, buyuk shaxslarning tarix sahifasidagi o‘ziga xos tamoyillarini, uning jahongirlik bilan birgalikda oddiy inson kabi asosli qarashlarini liro-epik planda talqin etishiga ham, alohida diqqat qiladiki, buning zamirida asoslar mayjud edi. Haqiqatan, ijodkor uzoq yillik mafkuraviy-siyosiy qarash bosimidagi tarixiy shaxslar hayot yo‘li va faoliyatiga emas, buyuk bir tarixiy shaxs ekanligiga ham ijodiy yondashadi. Bu qarashlarning zamiridagi asosiy tushunchalar, asrimiz boshlarida yuzaga kela boshlagan, ammo mafkuraviy qarashlar imkon bermagan jarayonning haqqoniy ifodasini beradi. Bu esa ijodkordan katta mehnat bilan bir qatorda, tanlab olingan shaxs yashagan davrini, tarix sahifalaridagi faoliyatini asoslay olganligi bilan ham ahamiyatli. Chunki, dunyo adabiyotida, turfa xil qarashlar va talqinlarning shakllanishi ham bejiz emasligini ta’kidlab o‘tish lozim. Sobiq sho‘rolar davrida buyuk tariximizga,

²⁴⁷ Mirzayev S. Hayot va adabiyot. – Toshkent.: “Sharq”, 2001. – B. 217.

tarixiy shaxslarni asosli o‘rganish imkonini mavjud emas edi. Ammo, istiqlol arafasida, undan keyingi yillarda bu jarayonga asosli yondashuvlar vujudga keldi.

Muallif shaxsiyatining doston markazida mustahkam o‘rnashishi janrning barcha tizimlarini, jumladan, uning qurilish xarakterini ham belgilaydi. Muallif shaxsiyatining asar markazini tashkil etishi esa lirikaning asosiy belgisi ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan. Lirika unsurlari, epik parchalar va dialog ko‘rinishidagi dramatik manzaralar bilan yaxlit bir butunlikda zamonaviy dostonlarning murakkab qiyofasini gavdalantirmoqda. Obyektiv olamni tasvirlashda lirikaning katta imkoniyatlarga egaligini Gegel bir necha bor uqtirib o‘tadi. Garchi lirik she’riyat ba’zi hollarda lirik subyekt harakat qilishi lozim bo‘lgan doiralardan chiqib, o‘zining tuyg‘u va o‘ylarini rang-barang obrazlar vositasida muhtasham mazmunga joylasa-da, u baribir o‘zining ichki olami bilan lirikaning xususiyatlariga sodiq qoladi. Jamiyat va shaxs ichki dunyosidagi ziddiyatlar, manzaralar, umuman davrning eng muhim masalalari epik lirika, ya’ni dostoniy lirkada individual dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs nuqtai nazaridan yoritiladi hamda, bu xususiyat zamonaviy dostonlarda lirik tur belgilarining ustuvor o‘ringa ko‘tarilganligini ko‘rsatib turibdi.

Abdula Oripovning “Sohibqiron” dramatik dostonida Amir Temur obrazi juda katta mahorat bilan yaratilgan. Asarda Amir Temurning o‘z vatanini mustamlakachilardan ozod etganligi, Samarqanddan boshlab, jamiki turk elatlarini birlashtirib, markazlashgan davlat tuzganligi aniq tarixiy faktlar asosida tasvirlangan.

“Yer yuzida yengilmas bir sultanat tuzdik,
Qovushtirdik boshqalarning ne-ne xalqlarning,
Samarqandning qutlug‘ nomi bizni qo‘llab turdi,
yo‘llab turdi g‘alaba tomon”²⁴⁸.

Ta’kidlash joizki, Abdulla Oripov tarixiy manba va faktlarni chuqr o‘rganish natijasida, o‘tmish voqeligini asosli talqin etish bilan birgalikda, davr

²⁴⁸ Oripov A. Sohibqiron. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – B.100.

ruhini bergen. Asardagi tarixiy shaxslarga, juda katta mas’uliyat bilan yondashadi. Ularning poetik ifodadagi turli holatlarini mahorat bilan tasvirlab beradi. Shu bois, ham, tarixiy voqelik, badiiy ifodada o‘z xususiyatini namoyon qiladi. Millat tarixidan eng muhim jihatlarni ajratib oladi. Buning uchun shoir, Amir Temur hayotiga doir barcha tafsilotlarga to‘xtalib o‘tirmasdan, ularning xarakter uchun zarur o‘rinlarini talqin etgan.

Masalan, tarixda katta mavqeyga ega bo‘lgan Oltin O‘rda xoni To‘xtamish xususida: “To‘xtamishning o‘rdasini chil-parchin qildik”, alohida qayd etadi. Hidiston va Kavkaz ham fath etganligini qayd etadi. Bu talqinlarning barchasi Amir Temurningadolat tarozisini asosli o‘rnatish uchun kurashdagi jangavorlik mahoratini namoyon etgan. Asarda asosiy ikki hukmdor Amir Temur bilan Boyazid to‘qnashuvining yuz berishi u beziz emasligini asoslaydi. Asardagi talqinlar asosida ularning qilmishlari, ularning har bir o‘ziga xos shaxs ekanligini asoslovchi talqinlar syujetga singdirib yuboriladi. Asar syujetiga nazar solar ekanmiz, undagi voqealar turli hududlarda yuz bergenligini angray boshlaymiz. Hokimiyatni qo‘lga olgan Amir Husayn Temurbekni bezizga vazir lavozimiga tayinlamaydi. Bunda ham o‘ziga xos ma’no bor.

Asarda, dastlab, Amir Temur va O‘ljoy Turkon o‘rtasida yuz bergen sirli to‘qnashuv tafsilotlari bilan tanishar ekanmiz, Amir Husayn unga ko‘p sotqinliklar qiladi. Ammo bir nech bor kechirilishiga qaramasdan, bu holat takrorlanaveradi, chunki Amir Temurning g‘alabalari uning qalbini kemirar, hasad o‘ti bilan yonishiga olib kelardi. Bularning barchasi uni asta-sekin raqibga aylantiradi. Bu kabi xususiyatlarning sabablari asar voqealari silsilasida asoslangan.

Shuningdek, Amir Temur haqida bitilgan asarlar orasida U.Azimning “Xalil Sulton”i alohida ajralib turadi. Xalil Sulton Temurdan so‘ng, uning taxtiga o‘tirgan shahzoda. O‘zining insoniy xislatlari bilan ko‘pgina ijodkor va ilm ahlining diqqatini tortgan shaxs. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Davlatshoh Samarqandiyilar Xalil Sulton haqida iliq fikrlar bildirishadi. Tarixiy ma’lumotlarning guvohlik berishicha, Xalil Sultonga juda qisqa muddat tojdorlik nasib etdi. Umri yigit yoshida fojiali yakun topdi. Uning Shodimulkka bo‘lgan

sevgisi ham musibatlar girdobidan chiqolmay qolishiga sabab bo‘ldi. Ko‘rinib turibdi-ki, Xalil Sultonning butun hayot yo‘li fojia xalqalaridan iborat. Buni chuqr anglab yetgan Usmon Azim Xalil Sultonning biografiyasini xronologik tartibda hikoya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi, balki Xalil Sulton xarakteri ochiladigan oliv nuqtalarga, uning ruhiyat manzaralariga e’tibor qaratadi. Doston davomida Xalil Sultonning liro-epik xarakteri dramatizm va lirizm bovastaligida o‘zligini ko‘rsatadi. Atrofidagi beklarning, amirlarning xiyonati uni ruhan ezadi. Shodimulkka bo‘lgan muhabbat bu mahzunlikni yanada kuchaytiradi.

Xalil Sulton:

Shodiyam, bizlardan ixtiyor ketdi-
Hayot ummonida endi bir xasmiz,
Qayga uloqtirsa, oqamiz nochor²⁴⁹.

Xalil Sulton o‘zida tojdorlikni, shoirlikni, oshiqlikni mujassam etgan murakkab xarakter. Uning tabiatan ko‘ngilchanligi bu murakkablikni yanada chigallashtiradi. Xarakter va xarakterlararo ziddiyatlar-asar badiiy tragizmini yanada rivojlantirib, konflikt rivojini jonlantirib turadi. Xalil Sultonning ruhiyatidagi ziddiyatlar uning boshqalar bilan bo‘ladigan qarama-qarshiligini yanada avjlanadiradi. Ayni shu sifatga asoslanib, Xalil Sultonni lirik xarakter deyish mumkin, biroq uning lirik xarakter tarzida kasb etayotgan qiyofasi liro-epik tasvir jo‘rligida amalga oshadi. U.Azim Xalil Sulton hayotining eng dramatik lahzalariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Dramatik lahzalar tasviri esa liro-epik omuxtalik bag‘ridan o‘sib chiqadi. Shodimulkning nutqida Xalil Sultonning bo‘lajak fojiasiga ishora bor:

Shodimulk:

Sultonim, jangohning qonuni qat’iy,
Seni o‘ldirurlar, sen o‘ldirmasang²⁵⁰.

Lirik dostonlarda xarakter shakllangan holda namoyon bo‘ladi. Liro-epik, dramatik dostonlarda ham shunday. Mumtoz dostonlarda liro-epiklik, dramatiklik

²⁴⁹ АЗИМ У. Уйғониш азоби. Шеърлар. Драматик қисса. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 136-б.

²⁵⁰ O’sha manba, – В. 136.

voqea-hodisalarining tadrijiy rivojidan kelib chiqqan bo'lsa, bugungi dostonlarda liro-epiklik, xarakterning dramatik holatlari tasviri yuzaga chiqmoqda. "Xalil Sulton" dostonida mazkur xarakterdan tashqari, Amir Temur, Amir Xudoydod, Shafqat devona, Ayol kabi talay xarakterlar ham yaratiladiki, bularning har biri o'ziga xos fikrlash tarziga, hayot yo'liga, qiziqish va iroda yo'naliishiga ega. Dostoniy xarakterlar janr tabiatiga muvofiq lirika va nasrda yaratiladigan xarakterlar oralig'ida turadi. Shuning uchun bu xarakterni biz ko'pincha liro-epik xarakter deymiz. Xalil Sulton o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun qattiq kurashishi, xiyonatkorlarni mavh etishi, bo'ysunmaganlarni qilich yordamida tiz cho'ktirishi, xullas, saltanat niholini qon va ko'z yoshlar bilan sug'orishi, oqibatda o'z mavqeini saqlab qolishi mumkin edi. Xalil Sulton bularning barini tushunardi. Lekin u shunday yo'l tutganida Xalil Sulton bo'lolmasdi. Chunki uning xarakter mantig'i buni ko'tarolmasdi. Uning tabiatidagi halimlik, yumshoqlik bunga monelik qilardi. Taqdir uni saltanat shohsupasiga ko'tardi va qismat undan ayovsiz bo'lishni talab qildi. Xalil Sultonning fe'l-atvori qismat talabiga javob berolmasdi. Shu sababdan, U.Azim talqinidagi Xalil Sulton voqea-hodisalar girdobida keng quloch yozolmaydi, oqimga bo'ysunib, chor-nochor suzadi, xolos. Bu muayyan xarakterning ifodasi bo'lgan harakat, iroda yo'naliishidir. Xarakter o'z mazmun mohiyatini faoliyatda ochadi. Shunisi ham borki, xarakter yuzaga chiqmog'i uchun mazkur faoliyatda, o'ylarda, xatti-harakatlarda izchillik bo'lmog'i zarur. Asardagi Shafqat devona faoliyatida ham muayyan izchillik mavjud. U atrofdagilarning toshbag'irligidan bezor bo'lgan qalb tasviri. Devona deyilganda pala-partish xatti-harakat qiladigan, og'ziga nima to'g'ri kelsa, shuni gapirib ketadigan kishi gavdalanadi. Biroq Shafqat devona unday emas. Uning qarashlarida, fikrlarida, o'ylarida ma'lum bir izchillik bor, ruhiy olamida muayyan bir mantiqiylik bor. Shafqat devona asar davomida bir epizodda ishtirok etsa-da, yodda saqlanib qoladi. U kun bo'yi ishlab topgan choy-chaqasiga daryo bo'yidan baliq sotib olib, ularni qayta suvga qo'yib yuboradi. Shu rahmdilligi uning boshiga yetadi. Baliqchilar uni suvga cho'ktirib yuborishadi. Rahmdillikning ko'pincha kulfat keltirishi Shafqat devona taqdiri misolida Xalil Sulton qismatiga ishora qilinadi. Shafqat devona

Xalil Sulton fe'l-atvorini to'ldiruvchi epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. U o'zining rahmdilligi bilan ma'lum darajada Xalil Sulton obraziga yaqinlashadi. Asardagi har bir parcha, bo'lak, nutq, tush ta'biri, hodisa tasviri, fakt, dialog obyektivlashtirilgan xarakterlarning muayyan qirralarini to'ldirishga qaratilgan. Asar tilining lakonik xususiyati, badiiy tasvir vositalarining barcha-barchasi ana shunga xizmat qiladi.

Temuriy shahzodalarning dunyo siyosiy va adabiy olamida tutgan o'rnini to'liqroq tasavvur qilish uchun Hindiston tarixini yoritishga bag'ishlangan "Markaziy Osiyo tomonidan Hindistonning zabit etilishi tarixi" mualliflar jamoasining kitobini mutolaa qilish kifoya. Asarda mamlakatning turli davrlardagi taqdiri bayon etilarkan, unda Amir Temurning ham bu o'lkani 1398-yili zabit etgani haqida ma'lumotlar berilgan. Shu munosabat bilan Boburning ham 1525-yil bu o'lkaga yurush qilgani va uning avlodlari 1857-yilgacha bu mamlakatda hukmronlik yuritgani aytilgan. Bu katta hajmli kitobning birinchi bobi to'liq Bobur va uning avlodlarining Hindistondagi hayot yo'li va yurishlariga bag'ishlangan²⁵¹. Boburiylar saltanatiga nisbatan Buyuk mo'g'ular imperiyasi ifodasi keng yoyilgan davrda bu kabi ifoda kabi e'tiroflarni nazardan soqit qilishimiz mumkin emas, albatta. Asarda Amir Temurni "dunyo zabtkori" deb atalib, u zot Turkiston, Qipchoq, Rusiya, Osiyoning kichik qismini, Suriya, Misr, Armaniston, Gruziya va endilikda Hindistonni zabit etishga shaylanayotgan sarkarda sifatida ko'rsatilgan, hamda, o'zidan keyin Qrim toji bilan yigirma yetti davlat tojini qoldirganligini aytadi: "Tamerlane, ...was a world-wide conqueror, ruling Turkistan, Kipzak (the Cossack country), Russia, Asia Minor, Syria, Egypt, Armenia, Georgia and conquering India. He left to his descendants twenty-seven crowns, including that of the Crimea"²⁵².

Asarda Sohibqiron sultanatining go'zal poytaxti Samarqand haqida ham ma'lumotlar berilar ekan, bu shahar Qohira, Konstantinopol, Bag'dod va Dehli shaharlariga tenglashtirildi. Bu yer Hindiston va Damashqdan olib kelingan ustalar

²⁵¹ The Turkish invasion of India, under Sultan Baber, –Dehli., 1525. – P.154.

²⁵² O'sha manba. – B.155.

tomonidan qurilgan ajoyib masjidlar, chiroyli bog‘lar, osmono‘par qasrlar; savdosoti q jadal rivojlanayotgan boy shahar sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ham, ustoz yozuvchi Abdulla Qahhor: “Kitobni badiiy qilib mahorat bilan yozish ijodiy jasorat demakdir... Chunonchi, badiiy asar yaratish – bor kuchini, butun ilhom va qobiliyatini sarf qilish demakdir. San’atning temir qonuni, kasb-korining talabi shudir”²⁵³, – degan edi.

Ayniqsa, insoniyat tarixida muhim siyosiy jarayonlarga sabab bo‘lgan tarixiy jang va yurishlar, ularning kelib chiqish sabablari, tarixiy joylar tasviri va boshqa jarayonlarni o‘z davri nuqtai nazaridan talqin etish anchayin mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Chunki bu kabi tarixiy voqeliklarga tarixnavislar va o‘z davri kishilari tomonidan turfa xil munosabat bildirilib kelinadi va ba’zida bu kabi tarixiy jarayonlarni tasvirlamoqchi bo‘lgan tarixiy romannavislar yechimsiz muammolarga duch keladi. Mana shunday bir vaziyatda ijodkorning tafakkuri serqirra va niyati xolisona bo‘lmog‘i kerak.

Tarixnavis olimning shaxsiyati, uning oldida turgan ulkan mas’uliyatlari xususida xalqaro Chingiz Aytmatov akademiyasining akademigi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, iste’dodli ijodkor Nurali Qobul fikricha: “Afsuski, biz temurshunoslikni temirchilikka aylantirib qo‘ydik. Biz Temurdan Lenin yasamasligimiz kerak. Yo‘q narsani ham yopishtiraverish Amir Temur obro‘sini tushirib qo‘yadi, bor narsalarni haqiqatdan chekinmasdan yozish kerak”²⁵⁴. Shu bois, dunyoda adabiyotshunosligida ilk roman muallifi sanalmish Servantes aytadi: “Qallob tarixchilarni soxta pul yasovchilardek qatl etish kerak”. Ispaniya tarixida faqat soxta pul yasovchilargina o‘limga hukm qilingan. Shu bois, tarixni to‘g‘ri yozish kerak. Tarix buyurtma bilan, havas bilan yozilmaydi, tarix tarixligicha yoziladi. Temur haqida qon bilan, iymon bilan yoziladi. O‘z tarixidan yuz o‘girgan qavm va millatlar manqurt hisoblanadi. U agar biz tarix haqiqatini buzsak, ota-bobolarimizning nomiga chiziq tortgan bo‘lamiz deb ta’kidlab o‘tadi. Demak, tarixiy-badiiy asarlarda aksariyat holatlarda muallif to‘qimalar,

²⁵³ Қаххор А. Асарлар. Бешинчи жилд. Ҳақ сўзнинг кучи. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б 123.

²⁵⁴ Nurali Qobul. “Temurshunoslikni temirchilikka aylantirib qo‘ydik”. – Ma’rifat, 2019. N-3 son

mubolag‘alardan foydalanish mumkin, lekin tarixiy haqiqatdan chekinmagan holda.

Darhaqiqat, xoh Amir Temur haqida bo‘lsin, xoh boshqa bir tarixiy siymo haqida yozilgan asar bo‘lsin, ijodkorda yuksak falsafiy mushohadakorlik, olis moziy qa’ridagi tarixga nisbatan teran nigoh bo‘lmas ekan, u tarixiy material qurshovida qolib ketadi va hujjatli bayonchilikka yo‘g‘rilgan tarixiy asar yaratadi. O‘rta asrlar insoniyat tarixida muhim siyosiy evrilishlarga sabab bo‘lgan sohibqiron Amir Temur va Sulton Yildirim Boyazid o‘rtasida bo‘lib o‘tgan mashhur Anqara jangi xususida Turkiya, Yevropa va Markaziy Osiyo, xususan, yurtimiz tarixchilari va tarixnavis yozuvchilari o‘z davrida, balki bugungi kunda ham tarixiy-badiiy asarlar yaratmoqdalar.

Jahon sahma asarlarida Temur obraziga qo‘l urilgan mashhur asarlardan biri ispan dramaturgi Luis Veles de Gevera qalamiga mansub bo‘lib, “Xudoning g‘azabi yoki Eronning buyuk Temuri” tragediyasi edi. U haqidagi ko‘plab mulohazalarni temurshunos olim D.Degenxart tadqiqotlaridan bilib olish mumkin. Bu asarda ham Yevropa sahnalarida eng ta’sirchan mubolag‘a bo‘lgan Tamorlanning Boyazidni qafasda ushlab turish sahnasi mavjud.

Fransuz dramaturgi Jan Magnon “Buyuk Temur yoki Boyazidning vafoti” fojiasida 1647-yilda Amir Temurni bir qadar ijobiylashgan obraz: o‘z hayotiy tamoyillariga qat’iy itoat etuvchi, talabchan va qattiqko‘l sarkarda sifatida talqin etadi. Uning zamondoshi ingliz dramaturgi Jan Servoutersning 1657-yilda yozilgan “Buyuk Temur yoxud turk sultoni Boyazid favoti” pyesasi Gevera pyesasining erkin talqini sifatida shakllangan bo‘lib, unda Boyazidning Misrliklar bilan janglari, Misr malikasiga oshiqligi, bu sevgi asosida aslida butun osiyoga hukmronlikka erishishga intilishi sahnasida Amir Temur ko‘rina boshlaydi. Boyazid Temurga tahdidi ortida uni yengib “Yelim qafasga uni o‘tqizishi”²⁵⁵ dag‘dag‘asidan boshlangan urush, Boyazidning o‘zining qafasga solinishi bilan yakun topadi. Demak, bir-biridan taassurot olgan bu voqeliklar XVI asr jahon sahma asarlarining

²⁵⁵ Serwouters J. Den grooten Tamerlan. Met de doodt van Bayaset de I. – L., 1677. – P.84.

eng ta'sircha g'oyasi bo'lib qolgan. Bu tarixiy mubolag'a badiiy asarlar kulminatsion nuqtasiga aylangan. E'tiborlisi, har qanday hodisaning, jumladan, adabiy hodisaning paydo bo'lish sababi, zaruriyat mavjud. Qiyoslash chog'ida albatta, ularni ham e'tiborga olish zarur. Har bir hodisaning vujudga kelishi, mavjudligi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishida ko'plab zaruriyatlar rol o'ynaydi va ular orasida ayrimlari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Buni adabiyotda ko'pincha motiv deb ataymiz. Demak, bizga kerak narsaning qiyosiy tahlilini amalga oshirishdan oldin, uni yuzaga keltirgan ehtiyoj va zaruriyatlarni ham taqqoslash kerak. Bu bizga qiyoslanayotgan obyektlarning mavjudligi sabablarida o'xhash va xos tomonlarni ochishga yordam beradi. Buning uchun biz zaruriyat (motiv) – obyekt – mohiyat (natija) algoritmi asosida qiyosiy tahlilni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi²⁵⁶.

Qo'yida jahon sahnalarida namoyish etilgan librettolarning o'xhash va farqli jihatlarini ko'rish asnosida ushbu asarlarda prototip qilib olingan Temur obrazining turli talqinlarini tahlilga tortish, ularni turli talqinlarini qiyoslash orqali xulosa chiqarish xolislikni oshirishga xizmat qiladi:

1. Kristian Genrix Postel "Boyazid va Temur" (Bajaset und Tamerlan): Asar bosh qahramonlari: Temur (imperator) Boyazid (turklar sulton); Asarning to'qima obrazlari: Iris- Temur o'g'li, Despina –Boyazid rafiqasi, Muso-Boyazidning o'g'li (Murod), Alima- Boyazid qizi, Mandan- xizmatkor. Asar voqealari va Temur obraziga yuklangan shaxs konsepsiysi: Asarda mag'lub bo'gan Boyazid temir qafasga o'tqaziladi. Rafiqasi nisbatan Temurning munosabatiga chiday olmagan Boyazid vafoti, Temurni fikridan qaytaradi va uning qizini o'g'liga unashtiradi. Temur voqealar tinchlik yuz burganidan shod. Asarda Temur garchi mag'lub haramiga ko'z olaytirgan obraz ammo, tinchlik tarafdoi bo'lgan siymo sifatida talqin etiladi.

2. Eten Morel de Shedevr "Temur" (Tamerlan): Asar bosh qahramonlari: Temur- Imperator, Boyazid-Turklar sulton; Asarning to'qima obrazlari:

²⁵⁶ Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020. – B.19.

Sulaymon-Boyazidning kenja o‘g‘li, Oktar-turklar vaziri, Saida vazirning rafiqasi, Ali-vazirning o‘g‘li; Asar voqealari va Temur obraziga yuklangan shaxs konsepsiysi: emur turklar sultonini vazirining rafiqasiga qachonlardir oshiq bo‘lgan. Temur Vazirga oilasidan voz kechishini, Saidaga uylanishini aytadi. Lekin Saida eriga sadoqatini ifoda etgach, Temur fikridan qaytadi. Temur insonlarni dushman emas, do‘sst bo‘lishga tayyor ekanini aytadi. Asarda Temur xulosa chiqara oladigan, insoniy xarakteri ijobiy obraz, sifatida yoritilgan.

3. Agostino Piovene “Temur” (Tamerlano): Asar bosh qahramonlari: Temur-tatar imperatori, Boyazid-Turk imperatori; Asarning to’qima obrazlari: Asterio-Boyazidning qizi, Tamur-Temur amirlarining rahbari, Zaida-Asteriyaning maslakdoshi, Klerko-Temurning hamkori, Androniko-Asterioning habibi, Irona Trapizund malikasi, Temurda ko‘ngli bor; Asar voqealari va Temur obraziga yuklangan shaxs konsepsiysi: Temur turklarni mag‘lubiyatga uchratgan bo‘lishiga qaramasdan, u Boyazidga ozodlikni taklif etganida, Boyazid bunday erkinlikdan ko‘ra o‘limni afzal ko‘radi. Boyazidning qizi yunon shaxzodasi Andrinokoga ko‘ngil qo‘ygan, Temur ham o‘z navbatida Boyazidning qizini sevib qoladi. Boyazidga qizini unga uzatsa, unga ozodlik vada qiladi. Boyazid bundan qattiq g‘zabda. Asterio va Andriko bir birini xiyonatda ayblaydi. Irena Temurga turmushga chiqishga rozi Asterioni fikridan qaytarib, Temurga turmushga chiqishni uplaydi. Ammo Asterio Temurni tuy kechasi o‘ldirish rejasi bilangina unga turmushga chiqayotganini otasiga aytganda, bu sirdan hamma voqif bo‘ladi. Temur avvaliga uni jazolamoqchi bo‘ladi, lekin yana kechiradi. Ikkinchchi marta Temurga tayyorlangan zaharni Asteriodan Boyazid vafot etadi. Androniko va Asterioda turmush qurishadi va Vizantiya taxtiga chiqadi. Temur Ironaga uylanishga rozi. Temur esa tinchlik o‘rnatilganidan mamnun. Temur chigal vaziyatlar zanjiridagi bosh obraz, ammo u shuningdek, hayotiy prinsplariga ega qahramon.

Yuqorida tahlil ostiga olingan uchala asarda ham Temur do‘slikni afzal ko‘rvuchi, tinchlik tarafdoi sifatida ko‘zga tashlanadi, uni mualliflar qahrli va

mehrli, jazolovchi va kechirimli ekanligiga o‘zлari ham ishonishadi va butun tomoshabinni bunga inontiradi.

Tadqiqotchi Ravshanoy Tursunovaning ilmiy izlanishlarining Yevropa adabiyotida Amir Temur obraziga murojaat qilgan musiqiy sahna asarlarni tadqiq etar ekan qo‘yidagi diagrammi keltirishni ma’qul ko‘rdik:



XVII-XX asarlarda jami oltmishdan ziyod musiqiy asar nomini to‘plashni uddalagan tadqiqotchi, o‘z izlanishlarida nafaqat musiqiy balki, teatr sahnalarini bezagan dramatik asarlarni ham tahlil etishga, ilmiy va badiiy, tarixiy va qo‘lyozmalarni ham qiyoslashga harakat qiladi. Bu borada o‘z mushohadalarini berishda, bizga mashhur ellikka yaqin xorij va o‘zbek olimlarining manbalaridan namunalar keltirilgan²⁵⁷. Demak, Mark Antanio, Skarlatti Aleksandro, Ioxan Kristoff, Martin Jonatan, Champi Franchesko, Chelleri, Fortunato, Georg Fridrix, Jovanni Antanio, Georg Filip, Jovanin Battista kabi yuzga yaqin mualliflarining sahna asarlarining deyarli barchasida Temur buyuk fotih, olijanob inson, dunyoning mashhur hukmdorlari orasida o‘z nomini tarix sahifalariga joylay olgan, Yaratgan qo‘llagan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunos olim Bahodir Ermatov Boyazidning qafasga solinish voqealarini Renessans davri, undan keyingi ma’rifatchilik davri adabiyotida uchrashini, bu mavzuning noto‘g‘ri uydurma ekanligi avstriyalik sharqshunos olim Hammer Purgshtal fikrlariga asoslanib berguniga qadar davom etdi, deya fikr

²⁵⁷ Tursunova. R.A. G‘arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. San.fan.falsafa.dok. diss. – T., 2020. – B. 179.

bildiradi²⁵⁸. Aslida, Temurni Boyazidga nisbatan shunday munosabatda bo‘lgan deya tasavvur uyg‘otgan yozuvchilar o‘zlarining bu uydirma badiiy to‘qimalari zamirida Boyazidni jabrdiyda, Temurni qahrli, bosqinchi sifatida tasvirlashni maqsad qilganini sababi, o‘z zamonasi talablaridan kelib chiqqan holda, sharqda mana shunday bosqinchilar o‘tganidan, ular zulm ortidan yarim dunyoni fath etganliklarini, qirollari esa Xudo tarafidan ularga yuborilgan panoh, himoyachi ekanliklarini, bunday qirollarning tug‘ilishi faqat Xudolar tomonidan ularning baxti kamoli uchun yuborilganini va shuning uchun ham ular hech bir istisnosiz itoatda bo‘lishlari darkor ekanliklari g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. Shunga qaramasdan, o‘z zamonasidaning mana shunday yolg‘on aqidalariga qarshi borgan holda, Temur haqida bitilgan Sharqona qo‘lyozmalar bu fikrlarni inkor etishini, aslida uning maqsad muddaolari haqida g‘arb olamida yolg‘on va o‘z qarashlariga moslangan uydirmalarini inkor etgan ochiq fikrli, uzoq solnomalar ilmlaridan xabardor ijodkorlar ham yetishib chiqdi. Ular o‘z diyonati va vijdoni oldida bu yolg‘onlardan hazar qilar, asl manbalarni inkor etuvchi ma’lumotlarni ularishdan qochishar edi. Mana shunday olimlar va yozuvchi Nikolas Pradon “Temur yohud Boyazid vafoti” novellasini 1969-yilda yaratib, uning asari o‘z zamonasi va undan keyingi davrlar uchun yaratilgan asarlarga turki va asos vazifasini o‘tay oldi. U o‘z asari xususida shunday degan edi: “Ba’zi kishilarning xohish istagiga ko‘ra, men Temur obrazini qattiqko‘l va qahrli tarzda emas, uning qahri kuchi temperamentini o‘zi yashagan zamoni talablariga moslagan holda, uning buyukligi va saxovati bilan payvand etib, haqiqatdan ham u dunyoning buyuk insonlaridan biri ekanligini gavdalantirdim. Yana bir xolislikni sevuvchi olim Laonikos Xalkokondileyning o‘zi va arab mualliflari asarlarida “Turk sultonining o‘limi o‘zining asl fojiasining sababi bo‘ldi”²⁵⁹.

XVII asrda ingliz olimi Charlz Sanderzning “Tamerlane the great” (buyuk Temurleyn) va Fransiz Fene tomonidan “The sacrifice” (Qurbanlik) fojealari mavzularida endilikda Temur va Boyazid mavzularidan zerikkan tomoshabinga

²⁵⁸ B.Ermatov.G’arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotida Amir Temur siymosi. Fil.fan.dok.diss. – T., 2019. – B.60.

²⁵⁹ Inze O. Tamerlan und Bajaset in den literature des Abendlandes. – Erlangen., 1912. P-60.

Temur va uning farzandlari o‘rtasidagi ziddiyatlarga bag‘ishlanadi. Bu mavzu asosida Amir Temur va Mironshoh o‘rtasidagi munosabatlar, mayxo‘rlikka qattiq berilgan Mironshox atrofidagi amaldorlari so‘zlariga kirgan holda kunu-tun maishatga berilgani, hokimlik qilib turgan shahar atrofidagi muqaddas qadamjolarni buzdirgani xabari yetib kelganida, g‘azabga mingan Sohibqiron avvalo, uning atrofidagi mulozimlarini o‘limga hukm qilgani, Mironshohning otdan yiqlishi natijasida miyasiga shikast yetishi tashxisi va ayonlarning aralashuvi bilan shaxzodaning jazdan qutulib qolgan voqealari tafsilotlari aftidan yanada fojiaviy ko‘rinishda yetib borgan ko‘rinadi. Yoki, bu tarixiy voqelikdan xabardor yozuvchilarining o‘z tomoshabinni sahnaga mixlab qo‘yish istagi uni yanada bo‘rtirishlar bilan sayqallashga sabab bo‘lgandir²⁶⁰.

IV.3 Amir Temurga bag‘ishlangan she’rlarda til, uslub va obrazlar tizimi

Chet el adabiyotida Amir Temur obrazini dramaturgiyada yaratish bundan ancha ilgari boshlanib ketgan edi. Buni adabiyotshunos Hafiz Abdusamatovning quyidagi fikrlari tasdiqlaydi: “Sohibqiron siymosini sahnada she’riy usulda ko‘rsatishga ham jiddiy urinishlar bo‘lgan. Bunga Fransiz Feynning “Fidokor” (London, 1686), Uilyam Popluning “Saxovatli Tamerlan” (London, 1732), Charlz Sanderzning “Buyuk Temur” “Buyuk Tamerlan” (London, 1681), Nikolos Rouning “Tamerlan” (London, 1702), L.Smitning “Tamerlan” she’riy dramasi (Amsterdam, 1970) va yana boshqa she’riy sahna asarlari ham yaratilgan edi. Eng xarakterli jihat shundaki, san’atning yuksak cho‘qqisi bo‘lmish operaga ham Amir Temur siymosi kirib borgan. Shu mavzudagi birinchi operani Italiyada Mars Anton Ziani 1689 yili yozgan va bu asar “Buyuk Tamerlan” nomi bilan Venetsiyadagi teatrda namoyish etilgan. Bulardan tashqari, ko‘plab operalar ham yaratilganki, ular yuraklarda sevinch tuyg‘ulari mavj urgan ekan. Bu asarlarga E.M. de Shefdevilning “Tamerlan”, M.G.Levisning “Timur”, J.F.Fortshning “Boyazid va Tamerlan” asarlari kiradi.

²⁶⁰ Yaxshiyeva Z.R. Exploration of the linguistic style of novels about Amir Timur. Journal of advanced linguistic studies vol. 10, no. 2, Jul-dec 2023 (issn 2231-4075). –P. 128-137.

Bu davrlarda esa Fitrat kabi jadid namoyondalari yurt qayg‘usi she’rlarida ezilib-talangan, talanib-yiqilgan, yiqilib-yaralangan xalq faryodini eshitgan Sohibqironning sag‘anani yorib chiqib, elni qalqishga, o‘lkani tuzatishga, avlodlarning hur yashashini ta’minalashga da’vat etishini mumkin, deb bilishadi. O‘zining iztirobli dard va alamlarini Yigit obrazi orqali ifodalagan Fitrat uchun shu davrda na tiriklar va na o‘liklar orasida Amir Temur ruhidan bo‘lak biror najotkor yo‘q edi. Shuning uchun ham u o‘z asarida Amir Temur ruhini markaziy obraz darajasiga ko‘targan. Amir Temur va uning ruhi Fitrat uchun najot bayrog‘i bo‘lgan. U vatandoshlarini ana shu bayroq ostida erk va ozodlik uchun kurashga chaqirmoqchi va birlashtirmoqchi bo‘lgan. Ma’lum bo‘lishicha, xorijda nashr etilgan “Milliy Turkiston” jurnalining 1952-yilga oid sonlaridan birida Fitrat haqida M.H.Erturk tahallusli muallifning maqolasi bosilgan va unda, jumladan, bunday ma’lumot berilgan: “Fitrat o‘zining sahna asarlarinda bobolarning qoldirgan meroslarindan bahs etadir. U Turkiston merosini chetlilar har jihatdan yo‘q etayotganligini xalqqa tushuntirish fikrinda bo‘ladir. U “Temur sag‘anasi” asarinda sahnada ko‘k o‘rmon va uni kesilib turilganligini ko‘rsatadir. Shu vaqtida Temur kelib: “Bu o‘rmonlarni kimlar kesayotirlar? Bobolarning meroslari ne holga tushdi?” deb chaqiradir. Fitrat bu usulda bobolar qoldirgan merosni qo‘rumoq lozimligini xalqqa uqdirmoqchi bo‘ladur”²⁶¹. Shuningdek, Fitrat 1917 yili “Hurriyat” gazetasining iyul, avgust, oktyabr va dekabr sonlarida milliy istiqlol g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan “Yurt qayg‘usi” nomli turkum she’rlarini chop etar ekan, ulardan biriga “Temur oldinda” degan izoh bilan berilgan bo‘lib, Fitrat unda Amir Temurning barhayot ruhiga lirik qahramon nomidan murojaat qiladi, “egilgan boshim, qisilgan vijdonom, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim”, deydi. So‘nggi yuz yillikda sodir bo‘lgan voqealar oqibatida xalq va mamlakat boshiga tushgan ko‘rgiliklarda o‘zining ham gunohkor ekanini tan oladi va jumladan, bunday yoniq so‘zlarni aytadi:

²⁶¹ Karimov N. Hurriyat bayrog‘i. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2008 y. 21-sون.

“Men yolg‘iz yoziqlarimni iqror etarg‘a emas
Turanga berilgan zararlarni to‘lamoq uchun keldim, Xoqonim.
Mendan nafrat etma!
Ey, arslonlar arsloni!
Mening yozuqlarimdan o‘t,
Meni qo‘limni tut,
Belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber!
Sening dunyoga sig‘magan g‘ayratingga ont ichamanki,
Turonning eski sharaf va ulug‘ligini qaytarmasdan burun ayog‘laringda
o‘tirmasman”.

Fitratning bu va boshqa Amir Temurga ba’gishlangan nasriy she’rlarida bobolardan saboq va ta’lim xalqning najot bayrog‘i o‘laroq gavdalanadi. 1917-yilgi fevral voqealari mudroq Turkistonni uyg‘otib yubordi. Ilg‘or shoir va yozuvchilar xalqni vatan ozodligi uchun kurashga da’vat etuvchi asarlar yoza boshladilar. Shunday bir sharoitda yozuvchilar o‘tmishda yer yuzini titratgan sarkardalarni najot farishtasi o‘laroq “tiriltirib”, ulardan xalqning hurriyat uchun boshlajak kurashida madad berishni so‘radilar.

Amir Temur obrazini dramaturgiyada yaratish xorijda allaqachonlar boshlanib ketganligi haqida adabiyotshunos H.Abdusamatovning quyidagi fikrlari tasdiq etadi: Tarixchilarning ma’lumotlariga qaraganda, Sohibqiron haqidagi eng mashhur musuqiy asar Nikoli Haym tomonidan yozilgan, sahnaga qo‘yilgan “Tamerlano” operasidir. Bu asarning musiqasini kompozitor G.Gental yaratgan. Bu opera Londonning musiqa akademiyasi teatrida ham bir necha marta namoyish qilingan. Asar nemis tiliga ham o‘girilgan. Quvonarli jihat shundaki, bu opera italyan tilida hanuzgacha qo‘yib kelinmoqda.

Shuningdek, akademik Naim Karimovning yozishicha, Sobiq sho‘rolar davrida ham Maqsud Shayxzoda Sohibqiron Amir Temur nomi tuhmatlarga burkangan bir davrda mana bu misralarni baralla aytal olgandi:

Amir Temur avlodiman, xoh bo‘lsam-da ozari,
Tabarrukdir ziyoratgoh menga uning mozori,

Ulug‘bekning poyin izlab Zarafshondan o‘tganman,
Samarqandning tarixini yuragimga bitganman...²⁶²

“Teatrshunos Sirojiddin Ahmadning izlanishlari, deb yozadi olim Naim Karimov, - “Temur sag‘anasi” dramasining 1919-yil 4-sentyabrda Mannon Uyg‘ur tomonidan Toshkent shahridagi “Rohat bog‘cha” deb ataluvchi saylgoh sahnasida namoyish etilganini tasdiqlaydi”²⁶³.

Shuningdek, Naim Karimov “Temur sag‘anasi” spektakli borasida quyidagilarni ma’lum qiladi: “Rohat bog‘cha” da qo‘yilganligi haqidagi G‘ozi Yunusning xabarida, san’atshunos Sirojiddin Ahmadning ma’lumot berishicha, bunday so‘zlar yozilgan: “Bu pyesada atoqli bobomiz Amir Temur sag‘anasi tasvir etiladi. Amir Temur rolida Uyg‘ur afandi qabr yorilg‘onda qabrdan chiqg‘ondog‘u harakatlani g‘oyat ustaliq birla ado etdi. Yurt, vatanni suyguvchi yigit rolini o‘ynovchi O‘ktam afandi (Qayum Amazon–N.K)ning yig‘lag‘on vaqtida kulgu chehrasi birla ko‘rinishi kelishmadi...” S.Ahmad bu xabar so‘zlariga asoslangan holda “Temur oldinda” sochmasining sahna variantidir, degan taxminni bildiradi²⁶⁴. Sochma matni quyidagicha: “Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk. Sening ziyyoratinga keldim sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o‘rtangan jonim uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, xoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko‘rib, g‘am chekib kelgan turkning ko‘z yoshlarini etaklaringa to‘karga keldim. Qorong‘uliklar ichra yog‘dusiz qolgan o‘zbek ko‘zları uchun tuprog‘ingdan surma olg‘ali keldim. Nomusini bad kishilarning ayog‘lari ostinda ko‘rib, turklik qoni qaynag‘ay, musulmonlik hamiyati toshg‘ay, tamug‘ olovlar kabi sachrag‘ay. Lekin o‘z kuchsizligin anglab qaytib o‘tirgan va qon yig‘lagan turkning holini aytarga keldim, xoqonim! Ulug‘ xoqonim! Turklik sharafi talandi. Turk uchun qo‘ydig‘ing davlat bitdi, turk ostig‘a ko‘rdig‘ing xoqonlik yog‘iygami ketdi. Turkning nomusi, e’tibori, iymoni, vijdoni, zolimlarning ayog‘i ostida qoldi. Turkning yurti, ulog‘i, o‘chog‘i, Turoni yod

²⁶² Кенгер Г. “Унтилмаган ўтмиш тарихга айланади”. – Т., 1987.

²⁶³ N.Karimov. Hurriyat bayrog‘i. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. – 2008, 21-son.

²⁶⁴ O’sha manba.

qo‘llarg‘a tushdi. Turkning bilgisi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘ljasig‘a ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo‘lg‘on turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi. Sening kuching bilan dunyo xo‘jasি bo‘lgan turk qarluq temurlariga kirdi.

Ey arslonlar arsloni! Menim yozuqlarimdan o‘t, Meni qo‘limni tut, Belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber! Sening dunyog‘a sig‘magan g‘ayratinga ont ichamanki, Turonning eski sharaф va ulug‘lig‘ini qaytarmasdan burun ayog‘laringda o‘tmasman”²⁶⁵.

A.Temur jadid ulamolari uchun elni, o‘z ota bobolari merosini asrash da‘vatining eng bosh irmoq edi. Ammo, aynan shu g‘oyaning to‘laligicha aksini inglizzabon she’riyatda uchratdek. Bu nazm namunasida Temur obrazi Fitrat ilgari surgan balolardan qolgan shonli tarixni asrash emas, aksincha tarixiy merosni yo‘q qilish maqsadida yashab o‘tgan qahramon siyratidir.

“Timur, Tamurlane” nomli she’rida Bijay Kant Dubey shunday satrlarni qoralaydi:

What had it been on mind
To devastate and plunge
To loot and destroy
To ravage and raid
Was it all that you learnt from
Rather than love, peace and humanity
Timur
Isn’t it?
Isn’t?
Ma’nosi:
O’ylar o‘g‘ushida nelar mujassam,
Vayronkorlik yoxud qirg‘inbarotlar
Talon tarojlikmi, buzmoq, qulatmoq
Xarobalar aro surgunbarotlar.

²⁶⁵ N.Karimov Hurriyat bayrog‘i. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2008, 21-sон.

Sen olgan tahsillar shularmi bari

Ishqu osudadlik, mehrdan nari,

Temur,

Ayt, shunday edimi,

Nahotki, shunday?²⁶⁶ (tarjima bizniki Z.Y)

Jahon she'riyatiga nazar solar ekanmiz, Bijay Kant Dubey ijodida ham Sohibqiron Amir Temurga bag'ishlangan bir qator she'riy asarlar mavjudligini alohida qayd etamiz. Amir Temurni vayronkorlarning sababchi shaxsi sifatida talqin etishga intiladi, ammo ularning qarashlari, ba'zan tarix haqiqatiga zid ham keladi. Buning asosida esa, bosqinchi shaxs sifatida qarashlari ilgari suriladi, tarix haqiqati esa aksincha, ekanligini unutmasligimiz lozim. Bu Fitratning millatning ongu shuurini uyg'otishda Temurbek buyuk balolar yodi, ruhi madadkor ekanligi haqidagi sochmalarida tamomila zid ma'no kasb etadi. Ammo tarix haqiqatiga nazar solinsa, uning buyuk bunyodkor shaxs sifatidagi faoliyati namoyon bo'ladi.

Edgar Allan Po ham yuqoridagi ziddiyatlarni o'z ijodi ila davom ettirgan. (1809–1849) ning mashhur “Temur” she'rida keltirilganidek:

Kind solace in a dying hour!

Such, father, is not (now) my theme –

I will not madly deem that power

Of Earth may shrive me of the sin

Ma'nosi: O'lim onlarida tasalli taskin!

Padarim, ayni dam bu maqsad ermas –

Men bu - yengilmas, qudrati, shoni beqiyos

Yer mening gunohimla evrildi xolos. (tarjima bizniki Z.Y)

Misralarga nazar solinsa, badiiy mukammalikning o'ziga xos tamoyillarini kuzatamiz. Buning zamirida ma'lum ma'noda, insonni anglash, olamga bo'lgan munosabatlarning teranlashish holatlari yetakchilik qiladi. Umrining so'nggi

²⁶⁶ Izoh. Dissertatsiya muallifi bundan keyin olingan ingliz tilidagi she'riy asarlarni o'zi tarjima qilgan.

lahzalarini badiiy talqin etar ekan, undagi o‘ziga xosliklarning, kechinmalarning badiiy ifodasini kuzatamiz.

Unearthly pride hath revell’d in –

I have no time to dote or dream:

You call it hope – that fire of fire!

It is but agony of desire!

Ma’nosi:

Bu g‘alat faxrdan bahra olgani

Aybimga ko‘z yummoq yoxud orzuga

Menda na toqat bor va na bor fursat!

Buni Umid dersiz- otash, olovli!

Qahramon iqrorida qilgan gunohlari zamiridagi kurashlar, kechinmalar bilan uzviy birlashib ketadi. Tarix sahifasidagi xatoliklarga ko‘z yumish zarurligi uqtiriladi. Barchasining intihosida o’sha achchiq haqiqatning mujassami kuzatiladi.

If I can hope – Oh God! I can –

Its fount is holier – more divine –

I would not call thee fool, old man,

But such is not a gift of thine.

Ma’nosi:

Lek bular istaklar iztirobidir,

Magarkim umidlansamchi-

Yaratgan egam,

Umid chachmasidan bir ko‘z ochsamu,

sipqorsam- ilohiy haqqimni etsammi talab,

Esdan oqqan keksa demasman seni,

Buningdek mukofot sendan ham emas! (tarjima bizniki Z.Y)

Bu istaklarning zamiridagi orzular, umidlar barchasi o‘zaro sinkiritik tarzda berilgan bo‘lib, muallif va lirik qahramon kechinmalarida poetik sintaksisning o‘ziga xosligini kuzatish mumkin.

Bu turfa xillikni namoyon bo‘lishi borasida yozuvchi Pirimqul Qodirov “Xalq tili va realistik proza” asarida elning buyuk siymolarini badiiy asarlarga singdirishda, tarixiy lahjalarni zamon kitobxoniga tushunarli tarzda yetkazish va ayni shu oltin o‘rtalikda o‘sha davr ruhiyatini ochib berishda xalqimizning jonli muloqot tili haqida so‘z yurutadi: “Til odamni hayvonot dunyosidan ajratib, tabiat podshosiga aylantirgan ikkita eng asosiy qudratdan biri ekanligi, avvalo, uning mehnat jarayonida yaratilib, boyib borish xususiyati bilan bog‘liqdir. Odamlar bir ishni ko‘plashib qilganlarida so‘zlar vositasi bilan aloqa qilishga ehtiyoj sezadilar. Bir avlod o‘zining ish tajribasini ikkinchi avlodga so‘zlar vositasi bilan tushuntiradi. Shu tarzda bundan yuzlab, minglab yillar oldin yaratilgan til boyliklari avloddan avlodga o‘tib, kishilarning ma’naviy dunyosini boyitib boradi”²⁶⁷.

Bir tilli, bir madaniyatli avlodlarning zamonlararo robitasi bo‘lmish har bir xalqning jonli muloqot tili asrlar osha shakllanib, rivojlanib kelgan. Xuddi shunday o‘zbek tili ham turli davrlarda xalqimizning jonli muloqot tili bo‘lib vujudga kelgan. Xalq tili asosida asta-sekinlik bilan yozma badiiy asarlar tili shakllangan.

Har bir til o‘z xalqining tarixiga, urf odatlariga, ularning psixologiyasiga chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Shuning uchun yuqorida qayd qilingan asar tarkibida quyidagi tushunchalar ilgari surilgan. “Tarixga nazar tashlar ekanmiz, har bir tilning afzal jihatlari va mazkur xalq vakillarining hayotini, tarixini, millat psixologiyasini aniq, to‘liq va haqqoniy aks ettirish qudrati shu tilning xalq yaratgan asosiy o‘zagida ekanini ko‘ramiz. Bu hol jonli xalq tili bilan realizmning o‘zaro aloqasi, umuman til tabiatidan va realizmning hayotni haqqoniy ko‘rsatish prinsipidan kelib chiqadigan qonuniy aloqa ekaniga bizni ishontiradi. Shu sababli, adabiyot tarixida jonli xalq tilidan eng samarali foydalangan, ayni vaqtda, mazkur adabiy tilning xalq tili bazasiga o‘tib, yagona milliy tilni maydonga keltirishiga hissa qo‘shgan siymolar – realist yozuvchilardir”²⁶⁸.

²⁶⁷ Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: “Фан” нашриёти, 1973. – Б. 11.

²⁶⁸ Shu manba, – B 17.

Bu fikrlarda xalq tili asosida asta sekinlik bilan badiiy til vujudga kelganligini ko‘rsatish mumkin. Badiiy asarda til o‘zining qahramonlar orasida muloqot va aloqa quroli vazifasini to‘la saqlagan tarzda, o‘zining ekspressiv funksiyasini ham namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o‘zaro munosabatda bo‘lsa-da, ulardan turfa va takrorlanmas jihatlariga ham egadir.

Edgar Allan Po (1809 –1849)ning Temurga bag‘ishlangan “Tamerlane” she’ridan tarjimalarni amalga oshirdik va tahlilga tortdik:

Know thou the secret of a spirit
Bow’d from its wild pride into shame.
O! yearning heart! I did inherit
Thy withering portion with the fame,
Ma’nosi:

Bil ruhning sinoatin
Sharmga singigan yovvoyi g‘urur.
O! intizor yurak! Menga merosdir
Ne shon-shavkatingiz, zaif jismingiz.

Anglashiladiki, Edgar Allan Po Temur obrazini yaratishga intiladi, uning kechinmalariga nazar tashlar ekan, inson olamining o‘ziga xosliklarini alohida qayd etadiki, bu ham bejiz emas. Muallif yurakning nolalarini poetik ifoda qilar ekan, buning asosidagi talqinlarga ham nazar soladi:

The searing glory, which hath shone
Amid the jewels of my throne,
Halo of Hell! And with a pain
Not Hell shall make me fear again –
O! Craving heart, for the lost flowers
And sunshine of my summer hours!

Ma’nosi:
Taxtimning lojuvard durlari aro
Jahannamga salom! Og‘riqli mudhish,
Do‘zax ham cho‘chitmas-azobi bilan,

O! intizor yurakning umidi bo‘lgan-
Yo‘qotilgan gullar:
sog‘inchli nurafshon umrim yozida! (tarjima bizniki Z.Y)

Toju taxtning o‘ziga xosligini, hukumdlarning iqrorlarini, kechinmalarini badiiy talqin etar ekan, uning ifoda shakllariga xos tamoyillarni kuzatamiz. Lirik qahramonning o‘ziga ifodasi (tuyg’ulari) ham shu jihatlari bilan ajralib turadi. “Jahannamga salom!” Bu esa iztiroblar namoyishi sifatida yangraydi, ammo bilvosita o‘rganishlar asosida ijod etilgan badiiy qahramon Temurning kechinmalari tarixiy siymoni asli kabi haqqoniy ifodalay olmagandek taassurotni uyg‘otadi.

The undying voice of that dead time,
With its interminable chime,
Rings, in the spirit of a spell,
Upon thy emptiness – a knell.

Ma’nosi:

O‘sha o‘lik damning o‘lmas ovozi,
Uning cheksiz bongi ohi o‘laroq
Sadolari aro ruhim navosi,

Bo‘shliq aro-tiz cho‘kib ibodatdaman. (tarjima bizniki Z.Y)

Kechinmalardagi tuyg‘ularning ta’sirchanligi go‘zal tarzda ifodalangan deb ham bo‘lmaydi, chunki Sohibqiron Amir Temur o‘z davrining buyuk shaxsi, maslak va e’tiqoddagi mustahkam shaxs ekanligini unutmasligimiz kerak. Shuning uchun ham, lirik qahramonning o‘ziga xosliklari bu, anglashning murakkabligidan dalolatdir.

Edgar Allan Po(1809 –1849) ning Temurga bag‘ishlangan “Tamerlane” she’ri jahon nazmida ham Amir Temur obrazini yaratishga bo‘lgan intilish namunasi sifatida baholanadi:

I have not always been as now:
The fever’d diadem on my brow
I claim’d and won usurpingly –

Hath not the same fierce heirdom given

Bu misralarning tarjimasiga nazar tashlaylik, shu asosida tahliliy qarashlarimiz izchilligini ham bayon etib boramiz.

Muntazam, shu palladek emasdym mutloq:

Qoshlarim ustida harorat toji,

Da'voyim ko'klamsiz boqiy g'alaba

Sababki qabohat va zulunning vaji...

Inson yashaydi, ammo bu umrning ham poyoni borligini unutib qo'ymaslikni his etadi. Hattoki, "Qoshlari ustidagi toj" ham uning boqiy yashashini ta'minlay olmaydi. Albatta, bularning barchasi kechinmalarning badiiy ifodasi sifatida shakllanib boradi, misradan misraga qarashlar boyib boradi.

Rome to the Caesar – this to me?

The heritage of a kingly mind,

And a proud spirit which hath striven

Triumphantly with human kind.

Ma'nosi:

Rim Qaysargami-va yoxud menga?

Shohona aqlning merosi,

Va intilgan mag'rur ruh

Inson mehri ila zafarli.

Rim qaysariga Amir Temurning qiyos qilinishi, buyuk shaxs ekanligining, aqli raso insonligidan dalolat berishini, misralar qa'riga singdirganligini alohida qayd etish lozim.

On mountain soil, I first drew life:

The mists of the Taglay have shed

Nightly their dews upon my head,

And, I believe, the winged strife

And tumult of the headlong air

Have nestled in my very hair.

Ma'nosi:

Tog‘ tuprog‘ida men ilk bora hayotni chizib,
Taglay tumanlari uvalgan tunda
Shudringlar sochlarim ho‘llagay
Ishonchim, qanot qoqqan janglarda
Boshim uzra yuksak sado shovqini
Mening sochlarimga joylashgan edi. (tarjima bizniki Z.Y)

Albatta, shoirning lirik qahramoni turli jihatlarga nazar solar ekan, badiiylik qonuniyatlarining ifoda shakllariga inson kechinmalarini, tuyg‘ularini singdirishga intilishi, uning ruhiyatidagi o‘zgarishlarni, hayotga teranroq nazar solishga harakat qilishini qayd etish kerak. Kechinmalarga singdirilgan talqinlarning mazmunan boyib borishi juda yaxshi ifodalanganligidan dalolatdir.

Hayot kabi ijodiy jarayon ham shunchalik poyonsiz, betakror va ko‘p qirraliki, unda har bir o‘quvchining ehtiyojiga, iqtidoriga yarasha o‘rin hamma vaqt topiladi. Har bir yozuvchi o‘ziga “biqiq bir olam” (Belinskiy), alohida bir shaxs bo’lib, uning tuzilishi, ko‘rinishi, eshitishi, anglashi, idroki, hissiyoti, tasavvuri, qalbi, qabul qilishi, anglatishi, ishlash yo‘sini ham o‘zigagina xos bo‘ladi. “O‘zidan o‘zligini topgan”, mustaqil bo‘libgina kashf etishga kirishgandan yozuvchi tug‘iladi.

Lekin har bir yozuvchining ijod tabiatni ikkinchisiga o‘xshamasligidan qat’iy nazar, hamma san’atkorlarga xos bo‘lgan badiiy mehnatning umumiyligi qonun-qoidalari ham bor. Bu, dastavval, hayot va insonning “mag‘zini” – ularning mohiyatidagi haqiqatni aniqlash va uni go‘zal qilib qayta yaratishda, siz-u bizga hayot va inson haqida dars berishida ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Ikkinchidan, har bir yozuvchi uchun ham badiiy adabiyot – mo‘jiza. Bu mo‘jizaga oshno bo‘lganlar, unga muhabbat qo‘yanlar umr bo‘yi sodiq qoladilar, unga bo‘lgan mahliyolik so‘nggi nafasgacha davom etadi. Ijod jarayonining tabiatni, psixologiyasi, sirlari o‘rganilgan, qimmatli fikrlar aytilgan, u yoki bu klassik asarlarning yaratilish tarixi va poetikasida yozuvchi badiiy mahorati chuqur ishlangan.

Ayniqsa, bu sohaga ilk bor qo‘l urgan yozuvchi Pirimqul Qodirovning adabiy “O‘ylar”²⁶⁹ida ijodiy jarayonning qiziqarli daqiqalari kichik-kichik etyudlar tarzida asosli yoritiladi. U. Normatov turli avlodga mansub yozuvchilar bilan bahs-suhbatlari – “Talant tarbiyasi”²⁷⁰ asarida adib va shoirlarning “daxlsiz dunyosini” – ijod laboratoriyasining o‘ziga xos va o‘xshash tomonlarini tahlil etgan. Ularning o‘z ijodlari haqidagi iqrornomalarini, tajribalarini, o‘ziga xos mehnat yo‘sinlarini umumlashtirishga intildi. O‘. Nosirov “Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi”²⁷¹ nomli kitobida tabiiy iste’dod, ijodkor dunyoqarashi, ijodkor va muhit kabi muammolarni badiiy uslubga bog‘liq holda o‘rgandi. Muallif o‘z tadqiqotida ijodiy reja, hayot haqiqati va badiiy haqiqat, avtor, qahramon, kitobxon muammolariga yondashadi²⁷². Bunday nazariy qarashlar M. Alining yigirma besh yillik ilmiy izlanishlari va mehnati samarasi bo‘lgan “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida yana bir bor akslangan. Bularning hammasi – ijod jarayonidek cheksiz va chuqur daryoning irmoqlaridan, yuzlab adabiyotshunoslar hamkorligida o‘rganilishi lozim bo‘lgan sohaning dastlabki umumlashmalaridir.

Ma’lumki, yozuvchi to‘ppa-to‘g‘ri hayotdan nusxa ko‘chirmaydi, balki, unga haqiqatdan o‘xshash qilib, yangi bir dunyo yaratadi, kashf etadi. Boshqacha aytganda, hayotiy haqiqatdan badiiy haqiqat yaratadi; hayotiy fakt va hodisalarni o‘zining ruhiy laboratoriyasida “qaynatishi”, ishlashi, sintezlatirishi, ya’ni tasavvuri, xayoli, orzusi, tajribasi, qalbi, tabiat, dunyoqarashi bilan boyitgan va muayyan g‘oyaga xizmat qiluvchi xarakterli va zaruriy detallarni, fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan (obrazli) badiiy hayotni yaratishi zarur. Yaratganda ham bu hayot kitobxon ko‘z o‘ngida jonli va real, ishonchli va go‘zal, ta’sirchan va yaxlit bo‘lib shakllanishi shart. O‘zbek va jahon, xususan inglizzabon adiblar Temurbek obrazi mana shunday tarixiy shaxs sifatida o‘ziga monand tarzda gavdalantirishi lozim.

²⁶⁹ Кодиров П. Ўйлар. – Т.: F. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 23.

²⁷⁰ Норматов У. Талант тарбияси. – Т.: “Ёш гвардия”, 1980. – Б. 102

²⁷¹ Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Т.: “Фан”, 1981. – Б. 21.

²⁷² Умурров X. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: “Фан”, 1983. – Б. 23.

Xullas, ijodkor sifatida Edgar Allan Poning Amir Temur haqidagi lirik asari uning badiiy xususiyatlarini ochishga keng imkon beradi. Misralar tarkibiga singdirilgan talqinlar ham ba'zan publisistik ruhda ifodalanganidek taassurotni beradi. Lekin turli talqinlardagi Amir Temur siy wholemosiga hamohanglikni, buyuk iste'dod sohibi ekanligini anglash bilan birgalikda, ba'zan taqdirning murakkab o'yinlarini talqin etuvchi shaxsning o'ziga xos kechinmalarini talqin etganligini kuzatish mumkin.

Bob bo'yicha xulosalar:

1. Istiqlol yillarida ijodkorlar Sohibqiron Amir Temurga bag'ishlangan she'rlar yaratish borasida katta ijodiy yutuqlarga erishdilar. Undan avval shu mavzuda yozilgan she'rlarda hukmron mafkura ta'sirida Temur obrazini badiiy talqin qilish masalasida chekhanishlar mavjud bo'lgan bo'lsa, mustaqillik yillarida Sohibqironning ulug'ver shaxsiyatini milliy poezziyada keng ko'lamda tarannum etish imkoniyati paydo bo'ldi.

2. Jahon va o'zbek adabiyotining tarkibiy qismi bo'lgan janrlar taraqqiyotida adabiyot insonni turlicha kashf etish yo'llaridan bordi. Ushbu bobda tarixiy shaxslar qismati, ba'zan esa insonni anglashga imkon bergen bo'lsa, ba'zan esa tarixiylik xususiyatlari yetakchilik qilganligi asoslandi. Kichik lirik janrlarning barchasida Sohibqiron va uning avlodlari obrazining badiiy ifodasida tarixiy davrning murakkab qirralarini ochib berishga, bu esa ijodkor davriga xos poetik xususiyatlarni umumlashtirish imkonini bergenligiga diqqat qilindi.

3. Liro-epik janrlar taraqqiyoti shundan dalolat berdiki, insonning turfa xil kechinmalarini asosli ifodalash yo'lidan borganligini, olamni bilish nazmda ruhiy tomonga, uni chuqur talqin etish yo'lidan borgan bo'lsa, proza tashqi olamni anglashga moyilligi bilan farqlansa-da, liro-epik janrlarda har ikki xususiyatni yaxlitlashtirish sari intilganligi ochib berildi. Ingliz va o'zbek lirkasida sohibqiron siy wholemosi talqinlarini kuzatganda, individual uslub va badiiylikning mukammallashuvi ham kuzatildi. Kichik janrlarda inson obrazining berilishi, uning kechinmalari asosida lirik qaharamonning badiiy ifodasi yuzaga chiqishiga sabab bo'lganligi asoslandi. Bularning barchasi kichik hajmli she'rlardagi obrazlar

galeriyasining o‘ziga xos tamoyillari lirik qahramonning ma’lum bir qirrasini yoritish imkonini bergenligi asoslandi.

4.Liro-epik janrlarda sohibqiron obrazining badiiy mukammallik sari intilishi jahon va o‘zbek she’riyatida ham kuzatildi. Insonni anglashning murakkab tamoyillarida shaxs konsepsiyasiga turlicha yondoshuvlar yuzaga chiqqanligi sababli, Amir Temur va temuriylar obrazi asosida davr ziddiyatlari, inson botinidagi qarama-qarshiliklar ham mahorat bilan ochib berilganligi isbotlandi. Edgar Allan Po qalamiga mansub bo‘lgan Temur haqidagi she’rlar badiiyati ingliz adabiyotida yuqori baholandi. Ayni paytda ingliz shoirlarining Amir Temur obrazini badiiy talqin qilishda o‘ziga xos yondashuvlarni qo‘llaganlarini hisobga olish joiz.

5. Janrlar tadrijida insonni anglashga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ham tarix haqiqati sari ildam qadam tashlaganligi, bu esa kichik hajmli she’rlarda insonning ma’lum bir holatini kechinma va ziddiyatlarini talqin etish asosida lirik qahramon yaratish an’anasiga e’tibor berildi. Shuning uchun badiiylik qonuniyatlariga tayanishda kichik janrlar asosida Amir Temur va temuriyzodalarning obrazini yaratish an’anasiga Iqbol Mirzo, Nodira Ofoqova, Isroil Subhoniy kabi qator ijodkorlarning kichik hajmli asarlarida tuyg‘ular ifodasi va xarakterlar yaratish an’anasiga e’tibor qaratildi.

6.Liro-epik janrlarda obrazlar yaratish an’anasi, uning badiiy ifodasi, shaxs va uning tarixdagi roliga nazar tashlanish asosida, insonni anglash uning qarashlari, liro-epik xarakterlar yaratish jarayonlari bilan uzviyligi asoslandi. Liro-epik asarlarning badiiy xususiyatlaridagi tushunchalarning mohiyati lirklik, epiklik xislatlari, poetik mushohadorlikni yuzaga chiqarish imkonini bergenligi asoslandi. Liro-epik asarlarning mohiyati, uning tarkibidagi qahramon yaratish an’anasining o‘ziga xosliklarini yuzaga chiqarishda dramatik vaziyatlarni shakllantirish, undagi ma’lum bir ifoda shakllarining yangilanishiga asos bo‘lganligi isbotlandi. Lirik asardagi epiklikning mohiyatida ham inson konsepsiysi mavjudligi, ammo uning ma’lum xarakter qirrasining ochilishi bilan uzviyligi qator asarlar misolida ochib berildi.

7. Ingliz she'riyatidagi o'ziga xos talqinlarning badiiy ifodasidagi tushunchalar ijodiy a'analarning uzviyilagini, uning ifoda shaklidagi o'zgarishlarni ham yuzaga chiqishga sabab bo'ldi. Shuning uchun, liro-epik asarlarning mohiyati inson kechinmalarini asosli talqiniga zamin berishi bilan birgalikda dramatik ziddiyatlarni ochish imkonini bergenligi alohida qayd etildi.

8. Badiiy asar tili janr xususiyatlarini ochishga kengroq imkon bergenligi, bu esa inson taqdiridagi ziddiyatlarni, uning tafakkur dunyosidagi evrilishlarning ro'yobga chiqish imkonini bergenligi bilan izohlanadi. Chunki badiiy til asosida tarixiy zamon, buyuk tarixiy siymolar taqdiri va qismat yozuqlari asarda ohib berildiki, bu esa, davr adabiyotining badiiy takomili sari qadam tashlashiga va ijodkorming individual uslubini yuzaga chiqarishga imkon bergenligi alohida qayd etildi. Badiiy obrazlar olamini talqin etishda xalq tilidan unumli foydalanish, badiiylik funksiyasining o'ziga xos tamoyillarini kashf etishga imkon bergenligi asoslandi.

UMUMIY XULOSALAR

Ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan turli janrlarga mansub asarlarni qiyosiy tadqiq qilish muhim ilmiy xulosalarning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi.

1. Ingizzabon va turkiy tilli adabiyotida Amir Temur prototipi asosidagi asarlarning yaratilishida tarixiy manbalar asos vazifasini bajargan. Kristofer Marloning “Buyuk Temur” kabi ingli adabiyoti namunalarida, ilmiy, tarixiy va nasriy va nazmiy asarlarda Sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan salbiy qarashlarning mavjudligiga shunday mazmundagi tarixiy manbalarning ta’siri ushbu ilmiy tadqiqotda asoslandi. Shuningdek, o‘zbek yozuvchi, shoir va dramaturglarini Sohibqiron faoliyati bilan tanishishlarida “Temur tuzuklari”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kabi ko’plab sharq manbalari muhim ahamiyat kasb etganligi ilmiy tahlilga tortildi.

2. Ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan lirik, epik va dramatik asarlarni qiyosiy-tipologik tadqiq qilish jarayonida mualliflarning estetik ideali mazmun-mohiyatini jiddiy e’tiborga olish zarurligi ushbu ishda ilmiy asoslandi. Ingizzabon adabiyotda ijodkorlar o‘z ijodiy niyatlari, dunyoqarashi va muhit ta’sirida Temur obrazining badiiy talqinini yaratishda turli yondashuvlarga asoslanganligi, o‘zbek adabiyotida esa mustaqillik davrida shu mavzuda asar yaratgan mualliflarning ijodiy rejalarida o‘zbek xalqining davlatchiligi tarixidagi yuksalishni badiiy aks ettirish maqsadi ustuvorlik qilishi ikki xalq adiblarining asarlari tahlilida ochib berildi.

3. Ingliz, rus va o‘zbek tarixiy romanichiligining vujudga kelishi hamda rivojlanish omillarini qator misollar asosida qiyosiy asosda o‘rganilishi har ikki xalq prozasiga oid muhim ilmiy xulosalarni yuzaga chiqarish uchun xizmat qildi. O‘zbek romanichiligidagi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinas” romanida ham Sohibqiron Amir Temur faoliyatiga oid badiiy umumlashmalarga keng o‘rin berilganligi, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman tetralogiyasi shu mavzuda yaratilgan yirik hajmdagi asar ekanligi, Nurali Qobulning “Temuriylar

epopeyasi” ruknidagi turkum romanlari so‘nggi yillarda Sohibqiron haqida yozilgan asarlar ichida ajralib turishi ko’rsatib berildi.

4. Amir Temurga bag‘ishlangan romanlarda tarixiy ma’lumotlarning badiiy voqelikka aylantirilishida o‘ziga xosliklar va farqli jihatlar mavjudligi, ingliz va o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazining dramatik talqinlarini yaratish borasida ham muhim ijodiy yutuqlarga erishilganligi makon va zamon talablari asosida tahlilga tortildi. Kristofer Marloning “Buyuk Temur” dramasi ingliz adabiyotida Amir Temur haqida yaratilgan ilk sahna asari bo’lsada, dramaning ayrim o‘rinlarida badiiy mantiqning hayotiy voqelikka muvofiq emasligining sabalari ochiqlanib, uning ulkan shuxrati Nikolas Rou va Charlz Sanders sahna asarlarida davom etganligining sabablari ilmiy tahlilga tortildi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida Fitrat, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubov asarlaridan so’ng, mustaqillik davrida Amir Temurga bag‘ishlangan dramatik asarlar yaratishga alohida e’tibor qaratilganligi ilmiy tadqiq etildi.

5. Ingliz ma’rifatparvarlik va Uyg‘onish davrida yaratilgan dramatik asarlarning mavzu-mundarijasida esa Shekspirdek daho vakillari ijodidagi namunalar, bunday faoliyat Nikolas Rou, Charlz Sanderz kabi ko’plab ijodkorlar ijodida Sohibqiron faoliyatiga turli rakurslardan nazar tashlanganligi, yuqori badiiy saviyaga ega bo‘lgan sahna asarlari, ma’rifatparvarlik g’oyalarini o’zida singdira olgan, yangi zamon kishisi, zamona qahramoni sifatida asrlar davomida Yevropa tomoshabinlariga yozuvchi orzu armonlari singdirilgan salbiydan ijobiylasha boshlagan obraz sifatida inkishof etildi.

6. Mustaqillik yillarida Amir Temurga bag‘ishlangan bir qator dramatik asarlar qatorida Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Sohibqiron hayotida eng murakkab va hal qiluvchi pallalar o‘z aksini topganligi, muallif davlatlar va millatlar taqdiriga aloqador bo‘lgan ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisalarni paydo qilayotgan ulug‘ Sohibqironning o‘y-xayollari, falsafiy mushohadalarini yuzaga chiqarishni maqsad qilganligi ilmiy tahlilga tortildi. Shuningdek, olam va odam, urush va tinchlik,adolat va razolat o‘rtasidagi abadiy qarama-qarshiliklarning

Sohibqiron singari fotihlar faoliyatida u yoki bu tarzda namoyon bo‘lishi kitobxonlarga yetkazilishi zarur bo‘lgan asarni anglash xulosalardandir.

7. Ma’ruf Jalilning “Sohibqiron. Temuriylar qissasi” dramasi tahlilida Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish yo‘lidagi xatti-harakatlari qalamga olinganligi, muallif o‘z asarida shu mavzuda yaratilgan boshqa dramalardan farqli ravishda Sohibqiron hayotida ro‘y bergan voqealarni batafsil aks ettirishga urinishi, epik asarlarga xos bo‘lgan batafsil ifoda hamda, tafsilotlarning ko‘pligi ushbu drama poetikasining xarakterli belgisidir. Dramaturg Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltirgan omillarni va yurtni mo‘g‘ul istilochilaridan ozod qilish yo‘lidagi kurashlarni aks ettirish Asror Samadning Air Temurga bag‘ishlangan dramasida mantiqiy davomi ekanligi bilan izohlandi.

8. Ingliz va o‘zbek lirkasida Amir Temur haqida yaratilgan asarlarni qiyosiy-tipologik aspektida o‘rganish jarayonida mualliflarning individual uslubi va badiiy mahorati hisobga olindi. Ingliz lirkasida Amir Temur siymosini afsonaviy shaxs va xalq og‘zaki ijodi qahramonlari singari romantik qiyofada namoyon qilish an’anasining salbiy jihatlari o‘rganilib, o‘zbek she’riyatida Amir Temurning xalq va millat uchun qilgan xizmatlari, milliy davlatchilikni yuksaltirish yo‘lidagi xatti-harakatlari, uning avlodlarga qoldirgan ulkan faxr bilan birgalikda boy madaniy merosini tahlil qilishga e’tibor qaratildi.

9. Jahon va o‘zbek adabiyotida Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan kichik lirkik janrlar-tahlilida Fitratning “Yurt qayg‘usi” turkumidagi asarlarida Sohibqironning xalq uchun uyg‘onish timsoli bo‘la olishi, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron singari shoirlar qalamiga mansub bo‘lgan she’rlarni zamonaliviy she’riyatimizning Amir Temurga bag‘ishlangan eng sara ijod namunalari sifatida e’tirof etilganligi, zamonaliviy adabiyotimizda esa Amir Temurga bag‘ishlangan kichik lirkik janrga mansub bo‘lgan asarlarni maxsus tadqiq etish adabiyotshunoslar fikrlari asosida tahlilga tortildi.

10. Amir Temurga bag‘ishlangan she’rlarda shaxs va erk muammosi keng ko‘lamda qalamga olingan bo‘lib, Amir Temurning millat tarixidagi ulug‘

qahramon ekanligi u haqida yozilgan she'rlarda ozodlik, hurriyat va inson qadri masalalarini atroflicha ilg'ash fikrlari tahliliy asoslandi. Shu sababdan, mustabid sovet mafkurasi boshqa ijodkorlar qatorida shoirlarni ham bu shaxs haqida asarlar yozishdan to'xtatib kelinganligi, vatan ozodligining qo'lga kiritilishi Amir Temur qahramonliklarini qalamga olish orqali xalqqa o'zligini anglatish imkoniyatini paydo qildi. Mmustaqillik yillarida Amir Temurga bag'ishlangan, inson erki mavzusi qalamga olingan ko'plab lirik asarlardan namunalar keltirildi.

11. Mustaqillik yillarida Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo singari shoirlar Amir Temurga bag'ishlangan yuqori badiiy saviyadagi she'rda Sohibqiron obrazi ozodlik, adolat va el-yurt ravnaqi tushunchalari bilan hamohanglikda badiiy talqin qilindi. Amir Temur haqida she'riy yo'lda yaratilgan dramatik asarlar ham adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshilandi. Ingliz lirikasidagi Edgar Allan Po kabi qator shoirlar she'rlarining mazmun mohiyati o'zbek she'riyatidagi Nodira Ofoqova, Isroil Subhoni kabi shoir va shoiralar ijod namunalari bilan qiyosiy tahlilga tortildi.

12. Liro-epik janrga mansub asarlarda ham Sohibqiron Amir Temur qahramonliklarini madh etish, ularning mukammal tahlilida she'rlarni sintaktik tadqiq etishga ahamiyat qaratildi. Liro-epik janrda ifoda imkoniyatlarining keng bo'lishi tarixiy shaxs haqida ham, u yashagan davr hayotining murakkabliklarini ham keng ko'lamda qalamga olish imkonini paydo qilishi ijodkorlarga yuklangan ijod mas'uliyati sifatida baholanib, Muhammad Alining "Gumbazdagi nur" asari shu janrda yaratilgan, Amir Temur obrazi ulkan mahorat bilan badiiy talqin qilingan asarlardan namuna sifatida e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. Normativ-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. –Тошкент.: “Ўзбекистон”, – 2016. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент.: “Ўзбекистон“, – 2017. – 104 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: “Ўзбекистон”, – 2017. – 448 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, – 2017. – 488 б.
5. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. 2018 йил 7 август.
6. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси // Халқ сўзи. – Тошкент: 2017. 8-февраль.
7. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари билан учрашувдаги маъruzasi. “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”// Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хиёбонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи. 2020 йил 20 май.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni.

11. 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonun.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

13. Адабий тур ва жанрлар. I жилд – Тошкент.: Фан, 1991. – 310 б.
14. Али М. Амир Темур чамани. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2006. – 216 б.
15. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент.: “Ўқитувчи” НМИУ. 2020. – 408 б.
16. Алимов П. Адабиётда тарихий шахслар сиймоси. – Т.: Ўзбекистон, 1987. – 115 б.
17. Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент.: O‘zbekiston, 2019. – 183 б.
18. Арабшоҳ И. Амир Темур тарихи. – Т.: “Info Capital Books”, 2024. – 496 б.
19. Аҳмад А. Улуғбек Муҳаммад Тарағай. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 1994. – 40 б.
20. Аҳмедов Б.Муқаддима ўрнида// Амир темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Т., 2000. 706 б.
21. Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 368 б.
22. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқ лар. – Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1994. 432 б.
23. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш курси бўйича ўқув-методик қўлланма. –Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1979. – 132 б.
24. Жумахўжа Н. Ўзбек адабиёти тарихи. (XVI–XIX аср I ярми).– Тошкент.: Noshir, 2019. – 432 .
25. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Тошкент.: “Шарқ баёзи”, 1993. – 104 б.
26. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2022. – 224 б.
27. Каримов Ҳ. Адабий портретлар. – Т.: Yangi nashr, 2017. – Б.420.

28. Қодиров П. Амир Темур сиймоси. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2007. 140.
29. Қодиров П. Ўйлар. Т.: F. Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 235 б.
30. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. –Т.: “Фан” нашриёти, 1973. – 211б.
31. Қосимов А. Адабиётда типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсир. –Т.: Фан, 2004. – 134б.
32. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент.: “Маънавият”, 2004. 430 б.
33. Қўшжонов М, Мели С. Абдулла Орипов. Т.: Маънавият, 2000. – 124 б.
34. Қўшжонов М. Ҳаёт ва қаҳрамон. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1979. – 366 б.
35. Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. –Тошкент.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –200 б.
36. Лев Толстойнинг тафаккур жавҳарлари. – Т.: “Ijod-press”, 2019. – 72 б.
37. Малик Т. Тош қалбларга зинҳор назар солинмас. – Тошкент.: “Янги аср авлоди”, 2010. – 168 б.
38. Муродов F.Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. Тошкент.: Фан, 2005. –148 б.
39. Муҳаммадамин Б. Замона йигитлари. – Т.: “Navro‘z”, 2016. – 120 б.
40. Насиров А. О.Ёкубов романлари поэтикаси. – Т.: Фан, 2012. – 188 б.
41. Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент.: “Ёшлар матбуоти”, 2023. – 304 б.
42. Норматов У. Қалб инқилоби. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 198 б .
43. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Тошкент.: Маънавият, 2000. – 112 б.
44. Носиров У. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Т.: Фан, 1981. – 199 б.
45. Отажонов М. Психоанализ асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – 144 б.
46. Равшанов П. Амир Темур сулоласи. – Т.: Yoshlar matbuoti, 2023. – 592 б.

47. Равшанов П. Темурийлар силсиласи. – Т.: Янги аср авлоди, 2017. – 480 б.
48. Расулов А. Танқидчилик уфқлари. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 147 б.
49. Расурова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). – Тошкент.: Qamar media, 2020. – 320 б.
50. Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона., 2015. – 308 б.
51. Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. 2-нашр. – Тошкент.: Ўқитувчи, 2011. – 256 б.
52. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент.: Akademnashr, 2016. – 144 б.
53. Сатторий Ҳ. Олтин силсила. – Т.: Шарқ, 2006. – 126 б.
54. Содикова Т. Умр биттадир. – Тошкент.: Davr press НМУ, 2018. – 112 б.
55. Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. – Тошкент.: Адабиёт учқунлари, 2018. – 108 б.
56. Солижонов Й. Мўъжизалар сехри. – Т.: Adib нашриёти, 2013. – 125 б.
57. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farb. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 415 б.
58. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Т.: Фан, 1978. – 152 б.
59. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
60. Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент.: Фан, 1973. – 114 б.
61. Турар У. Тасаввуф тарихи. – Тошкент.: “Истиқлол”, 1999. – 180 б.
62. Улжаева Ш.М. Амир Темур давлат бошқаруви. Т.: Akademnashr, 2017. – 313 б.
63. Улуғ салтанат васфи. – Т.: “Mashhur Press”, 2017. – 337 б.
64. Улугов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 225 б.
65. Улугов А. Қалб қандили. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент.: Akademnashr, 2013. – 288 б.
66. Умаров Б., Сайдов У. Farb ижтимоий тафаккурида эркинлик ғояси такомили. – Тошкент.: “Akademiya”, 2010. – 320 б.

67. Умурев X. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент.: Фан, 1983. – 148 б.
64. Умурев X. Ўзбек романчилигига бадиий психологизм. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1982. – 241 б.
65. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020. – 158 b.
66. Qosimov A va b. Qiyosiy adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Akademnashr, 2019. 155 b.
67. Холмуродов А. Роман ва руҳият. – Тошкент.: Фан, 1999. – 90 б.
68. Худойберганов Н. Ҳақиқат ёғдулари. – Тошкент., 1985. – 288 б.
69. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т: Шарқ, 2008. – 180 б;
70. Ҳошимов Ў. Ярим аср дафтари. – Т.: “Movaraunnahr”, 2014. – 384 б.
71. Чингизхон ясоғи ва Темур тузуклари. – Т.: “Info Capital Books”, 2024. – 192 б.
72. Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Т.: Шарқ, 2004. – 640 б. \
73. Шарафиддинов О. Сардафттар сахифалари. – Т.: Ёзувчи, 1999. – 224 б.
74. Эрматов Б.С. АмирТемур Ғарбий Европа адиллари нигоҳида. – Т.: 2017.
75. Эшонқул Ж. Миф ва бадиий тафаккур. – Тошкент.: Фан, 2019. – 312 б.
76. Сирожиддинов Ш. ва б. Навоийшунослик. Дарслик. – Тошкент.: “Tamaddun”, 2018. – 520 б.
82. Фаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси ва фитратшунослик. – Бухоро.: “Дурдана”, 2024. – 600 б.

2) Xorijiy nashrlar:

83. Ahmad Shirkhani. Colonialist discourse in Marlowe’s Tamburlaine and the Jew Malta. Thesis. Shiraz University, – Shiraz. Iran, 2002.
84. Bartels E. Spectacles of Strangeness: Imperialism, Alienation and Marlowe. – Philadelphia: Pennsylvania, 1993. – 324 p.
85. Basbanes N. Gentle Madness: Bibliophiles, Bibliomanes, and the Eternal Passion for Books. – New York: Macmillan, 1999. – 201 p.
86. Beal N. “Let us march against the fires of heaven”. Tamburlaine, Marlowe and Atheism. –London., 2008.

87. Butterfield H. History and Man's Attitude to the Past: Their Role in the Story of Civilization. – L., 1961.
88. Butterfield H. The Historical Novel. – Cambridge., 1924.
89. Clarke S. The life of Tamerlane the Great. – London Printed by T.R. and E.M. for the underhill, 1653. – 161 p. (Early English books, 1641–1700).
90. Darwin John “After Tamerlane The Rise and Fall of Global Empires, 1400–2000 (Bloomsbury press. – London, 2010, 574 p.
91. Dickinson A. American Historical Fiction. – N. Y., 1958.
92. Ellis F. Christopher Marlowe. – London, 1927. – 413 p.
93. Gibbon E. The history of the decline and fall of the Roman Empire, Vol. VII, ed. by J.B. Bury, Methuen. –London, 1914.
94. Greenblatt S. Marlowe and the Will to absolute play. – Chicago. 1980. – 294 p
95. Healy T. Christopher Marlowe. – Plymouth: Northcote House, 1994. – 251 p.
96. Holder A. The Imagined Past. Portrayals of Our History in Modern American Literature.– Lewisburg, 1980.
97. Hookham H. Timurlaine the concueror. – London., 1962;
98. Howell J. Queen of the desert. –New York.: Atheneum, 2006. – 518 p.
99. Justin M. Tamerlane. Sword of Islam. Conqueror of the world. – Harpercollins., 2005. – 366 p.
100. Kelly M. Christopher Marlowe and Golden age of England. The Marlowe society research journal. № 5, 2008.
101. Maria E. “Timurids in Transition”. – Leiden.: Boston, 2007, 392 p.
102. Marlowe “Tamburlaine and The demise of traditional Elizabethan. – Freeport., 1952.
103. Matthews B. Historical Novel and Other Essays. – Freeport., 1968.
104. Mexia P. Silve de varia leccion. – Madrid., 1673. – 195 p.
105. Michael Sh. “Tamerlane and the Jews”. – London. Routledge., 2002. – 193 p.
106. Monarchy”. Senior Honors Thesis. April 25. 2006.
107. Nicholl Ch. The Reckoning: The Murder of Christopher Marlowe. – London: Jonathan Cape., 1992. – 126 p.

108. Nield J. Guide to the Best Historical Novels and Tales. – L., 1929.
109. Pearce T. “Tamburlaine’s Discipline to his three sonnets”. An interpretation of Tamburlaine. (Part II. Modern language quarterly), 1954. – 237 p.
110. Roux J. “Tamerlan” –Fayard., 1991. – 380 p.
111. Sales R. Christopher Marlowe. – Basingstoke., 1991. – 241 p.
112. Shepherd, Simon. Marlowe and the Politics of Elizabethan Theatre. – Brighton., 1986. – 187 p.
113. Wilson J. Lawrence of Arabia. – New York. Atheneum., 1990. – 678 p.
116. Zunder W. Elizabethan Marlowe. – Hull: Unity P., 1994. – 146 p.
117. Арасту. Ахлоқи кабир. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2018. – 233 б.
118. Аристотель. Поэтика. – Тошкент.: Адабиёт ва санъат, 1980. – 149 б.
119. Аристотель. Поэтика. –Тошкент.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б.
120. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. М.:– 482 б.
121. Бахтин М. Эстетика словесного творчества. –М.: Наука, 1986. – 445 с.
122. Белинский В. Г. Танланган асарлар. –Т.: Ўздавнашр, 1955. – 510 б.
123. Белинский В.Г. Адабий орзулар. – Тошкент.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 169 б.
124. Брехт Б. Пьесы, статьи, высказывания. В пяти томах, т. 5. – М., 1965. – 169 с.
125. Пардаева З. История, историческая действительность, художественная действительность. – Т., 1995. – 124 с.
126. Вамбери X. Бухоро ёхуд Моварауннаҳр тарихи. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 96 б.
127. Вамбери X. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т.: Faafur Fулом НМИУ, 1990. – 296 б.
128. Варфоломеев И. Типологические основы жанров исторической романистики. – Тошкент.: Фан, 1979. – 168 с.
129. Веселовский А. Историческая поэтика.–М.: Высшая школа, 1989.– 406 с.
130. Виноградов В. О теории художественной речи.– М.: Наука, 1971. – 213 с.

131. Виноградов В. О языке художественной прозы.–М.: Наука, 1980. – 124 с.
132. Виноградов В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – 484 с.
133. Винокур Г. Культура языка. – Москва., 1925. – 166 с.
134. Виппер Ю. Творческий судьбы и история. – Москва., 1991. – 720 с.
135. Владимир Череванский “Амир Темур”. Хуршид Дўстмуҳаммад, Амирқул Карим таржимаси, – Т.: Ёзувчи, 1993. – 224 б.
136. Гарольд Л. “Темурлан” Потрясал вселенной. – М.: Вече, 2008.
137. Гаспаров М.Л. Литература Европейской античности. Введение.– История всемирной литературы. В девяти томах. Том первый. – Москва.: Наука, 1983. – 308 с.
138. Гегель В.Ф. Эстетика. В 4-х т. Т. 3. – Москва.: Наука, 1971. – 621 с.
139. Гёте Й. Фарбу шарқ девони. – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти., 2010.– 164 б.
140. Горкий М. Легенда о матери о Тимуре. <http://greylib.align.ru>.
141. Далгат У.Б. Литература и фольклор. – Москва.: Наука, 1981. – 213 с.
142. Дидро Д. Собрание сочинение. – Москва.: Наука, – 107 с.
143. Добин Е. Жизненный материал и художественный сюжет. – Ленинград., 1956. –313 с.
144. Закирова И. Народное творчество периода Золотой Орды: мифологическое и историческое основы. – Казан.АДД, 2011. – 265 с.
145. Лунин Б.В. История культуры и искусства времени тимуридов в советской литературе. М.: Полиграфиздат, 2000. – 321 с.
146. Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. – Т.: Ўзбекистон, 2018.–256 б.
Мароци Ж.Тамерлан. Завоеватель мира. – М.: Полиграфиздат, 2010. – 445 с.
147. Марсель Брион. Мен ким Соҳибқирон – Жаҳонгир Темур. – Т.: F.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2018. – 326 б.
148. Михайловский В. Драматургия М. Горького эпохи первой русской революции. – М., 1987. – 324 с.

149. Молчанов В.В. Время как прием мистификации читателя в современной западной литературе. Ритм пространства и время в литературе и искусстве. – Ленинград: Наука, 1974. – 201 с.
150. Парфенов А.Т. Кристофер Марло и легенды Востока и Запада. М., 1980.
151. Петров С. Русский исторический роман XIX века. – Москва.: Художественная литература, 1964. – 167 с.
152. Петров С. Русский советский исторический роман. М.: Современник, 1980. – 438 с.
153. Пименов Ю. Необыкновенность обыкновенного. – Москва., 1964. – 186 с.
154. Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва.: Советский писатель, 1986. – 480 с.
155. Поспелов А. Введение в литературоведение. – М.: Наука, 1988. – 234 с.
156. Поспелов Г. Проблема литературного стиля. – М.: Наука, 1970. – 240 с.
157. Поспелов Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978. – 247 с.
158. Поспелов Г.Н. Художественная речь. – Москва.: Издательство Московского университета, 1974. – 239 с.
159. Потанин Г. Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе. – Москва., 1989. – 894 с.
160. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва.: Наука, 1976. – 344 с.
161. Путилов Б.Н. Героический эпос и действительность. – Москва: Наука, 1988. – 414 с.
162. Пьер Г. “Читая и перечитывая”. – М., 1985. – 312 с.
163. Сариян С. История. Современность. Личность. – Москва.: Наука, 1980. – 511 с.
164. Тамарченко Н. Тюпа Теория литературы в двух томах. Том 2. –Москва., 2002. – 360 с.
165. Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния. – Москва.: “Гураш”, 1992. – 544 с.
166. Тилман Н. “Тимур завоеватель и исламский мир позднего средневековья”. – Feniks., 1997 г. – 544 с.
167. Уоррен О. Уэллек Р. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978. – 308 с.

168. Фесенко Э.Я. Теория литературы. – М.: Едиториал УРСС, 2005. – 336 с.
169. Фролов В. Судьбы жанров драматургии. – М.: Советский писатель, 1979. – 410 с.
170. Фром Э. Озодликдан қочиш. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2021. – 352 б.
171. Хазегаров Г.Г., Лобанов И.Б. Основы теории литературы. Ростов-на-Дону. – Феникс, 2009. – 316 с.
172. Хализев В. Драма как явление искусства. – Москва., 1978. – 288 с.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar

173. Мансур А. Курони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент.: Тошкент ислом университети, 2004.– 624 б.

IV. Lug'atlar

174. Қуронов Д, Мамажонов, З Шералиева, М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент.: Akademnashr, 2013. – 408 б.
175. Хотамов Н. Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. –Тошкент.: Ўқитувчи, 1979. – 366 б.

V. Badiiy adabiyotlar:

176. Самад А. Соҳибқирон Темур. Драма ва ҳикоялар. – Т.: “Ёзувчи”, 1993.
177. Самарқандий А. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. – Т.: Фан, 1964. – 464 б
178. Али М. “Улуг салтанат” (Жаҳонгир Мирзо) 1- китоб. “Наврӯз” – Тошкент., 2019. 346 б.
179. Навоий А. Садди Искандарий. Тошкент., 1991. – 236 б.
180. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1989. – 68 б.
181. Мирзо И. Агар жаннат кўқда бўлса..., –Т.: “Шарқ”, 1992. – 240 б.
182. Қобул Н. Етти иқлим хоқони. – Т.: Ижод-Пресс, 2015. – 480 б.
183. Қобул Н. Жон ва Шон – Т.: Ижод-Пресс, 2019. – 306 б.
184. Қобул Н. Элдан вафо – заҳардан шифо – Т.: Ижод-Пресс, 2019. – 440 б.
185. Жалил М. Амир Темур қиссаси // Шарқ ўлдузи, 1993. № 5-6, 8-6.

186. Фитрат А. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Тошкент.: «Маънавият», 2000. – 256 б.
187. Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 – 494 б.
188. Марло К. Буюк Темур. Драма. – Бухоро.: Дурдона, 2024. – 254 б.
189. Низомиддин Шомий “Зафарнома” (нашрга тайёрловчи Ўринбоев А.) – Т.: Ўзбекистон., 1996. – 500 б.
190. Charles Saunders. Tamerlane the Great. London.1681.
191. Christopher Marlowe. Tamburlaine the Great. – Moscow., 2010. – 354 p
192. Nicholas Rowe. Tamerlane. Introductory remarks by Mrs. Inchbald. William Savage print. – Dublin.,1750. – 325 p.
193. Эдгар А. Буюк Темур. Достон // Жаҳон адабиёти, 2006, №4. – Б. 40.

VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar

194. Юсупова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадиий талқини. Фил. фан. номз. дисс. Автореф. – Т., 2005.– 26 б.
195. Дадабоев О. Фарб ва шарқ адабий контекстида Амир Темур шахси талқини. Фил. фан. док... дисс. автореф – Тошкент., 2019. – 43 б.
196. Каримов Б. XX аср ўзбек адабиётшунослигига талқин муаммоси (қодирийшунослик мисолида): Филол.фан.д-ри...дисс. – Т., 2002. – 304 б.
197. Барашковская Ю.А. История и вымысел в английском романе 1980-х-1990-х гг.: Автореф.дисс...канд.фил.наук. – Москва., 2006. – 32 б.
198. Вышкин А.В. Поэтика романов А.Дюма “Королева Марго”, “Графиня де Монсоро”, “Сорок пять”: Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Самара., 2009. – 23 с.
199. Дониярова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент., 2012. – 257 б.
200. Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик: Фил.фан. номз.дисс. – Тошкент., 1994. – 139 б.
201. Икромхонова Ф.И. Ўзбек ва инглиззабон насрда тарихий асар поэтикаси(композиция ва образ): Фил.фан.док...дисс. –Т., 2021. – 256 б.

202. Каминская Е.М. Поэтика прозы С.П.Бородина: Дисс...док.фил.наук. – Ташкент., 2022. – 276 с.
203. Каминская Е.М. С.П.Бородин насри поэтикаси: Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент., 2022. – 80 б.
204. Макарова П.А. Французский исторический роман 1840-1850-х гг.и становление популярной беллетристики: Дисс.канд.фил.наук. – Москва., 2014. – 197 с.
205. Милиев С. Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси: Филол. фан. док... дисс. –Тошкент., 2019. – 220 б.
206. Парфёнов А. Т. Трагедия Кристафор Марло: Автореф. Дисс.канд. филл.наук. –Москва.,1965. – 40 с.
207. Эрматов Б. С. Ғарбий Европа мамлакатлари адабиётларида Амир Темур сиймоси (сарчашмалар, тасаввур ва талқинлар) фил. фан. доктори дис. – Тошкент., 2019. – 254 б.
208. Яхшиева З. “М.Алининг “Улуг салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг ифодаси”, Фил. фан. фал.док. дисс. – Қарши., 2021. – 128 б.

VII. Ilmiy to‘plam jurnal va gazetalardagi maqolalar

209. Samia Sh . In search of James II. Bajaset’s figurative presence in Nikolas Rowe’s Tamerlane. Diraset, Human and social science, №36. 1, 2009.
210. Pearce T. Tamburlaine’s “Discipline to his Three Sonnets”: An Interpretation of “Tamburlaine”, Part II. – Modern Language Quarterly., 1954. 13-27 p;
211. Норматов У. Тарих ҳақиқатига садоқат. – Гулистан.,1996 й, 2-сон. – 85 б.
212. Теракопян Л. Ўтмиш ва бутуннинг ибратли сабоқлари // О.Ёқубов. Сайланма. Уч жилдлик. З-жилд. Роман, қиссалар, ҳикоялар, этюдлар. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.– 525 б.
213. Шарафиддинов О. Миллатни уйғотган адид // Қаранг:Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 191 б.
214. Ғуломов Д. Ретроспектив сюжет хусусида айрим мулоҳазалар // ФарДУ. Илмий хабарлар. – 2021, 4-сон. – 233 б.

215. Тўраев Д. Улуғ салтанатнинг ёрқин саҳифалари//. “Улуғ салтанат васфи” номли тўплам. – Тошкент.: Машҳур Пресс, 2017. – 125 б.
216. Тоҳир Қаҳҳор. Эътироф. // Қобул Нурали. Жон ва шон талвасаси. Тарихий роман VI. – Т.:“Ijod press”, 2016. – 410 б.
217. Назаров Б. Юксак тарихий эътиқодга муносиб бадиий самара//. “Улуғ салтанат васфи” номли тўплам. – Тошкент.: Машҳур Пресс, 2017. – 156 б.
218. Қурунов Д. Роман ҳақида айрим мулоҳазаларлар // Завқимдан бир шингил. – Тошкент.: Академнашр, 2013. – 64 б.
219. Муҳаммад Али. “Улуғ салтанат”ни ёзишда изланишларим // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2021 й. 20 февраль. № 9 (4616).
220. Эргашев А. Бадиий асар композициясида ривоятларнинг тутган ўрни // Адабий мерос., 1992 йил, 3-сон. –72 б.
221. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – Москва.: Наука, 1990. – 289 с.
222. Бренер А.Д. Время и пространство в повестях Ф.М.Достоевского 1870-х годов /Ритм, пространство, время в художественном произведении. Алма-Ата., 1984. – 74-81 с.
223. Голсуорси Жон. Адабиётда характер яратиш // Жаҳон адиллари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). –Тошкент.: Маънавият, 2010. – 392 б.
224. Абдуллаёрова М. Истебдодни кашф этиш санъати (Танқидчи У.Норматов билан сұхбат) // Гулистон. –1999 йил, 3-сон. – 235 б.
225. Зарифов Х.Т. Аршақ – Шарқ қаҳрамони / XX аср ўзбек фольклоршунослиги. Антология / Тузувчилар: О.Тўлабоев ва бошқалар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 356 б.
226. Крист Карл. Эдуард Гиббон. //Эдуард Гиббон. История упадка и разрушения Римской империи. – 608 б.
227. Каримов Н. Тарих ва адабий жараён / Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар. –Тошкент.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 189 б.

228. Каримов Ф. Прозамизда тарихий тематика // Шарқ юлдузи, – Тошкент., 1979 й, 3-сон. –279 б.
229. Қўшжонов М. Ёзувчи камолотидан дарак//. “Ўзбекистон овози” газетаси, 2002 йил, 15 июнь.
230. Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент.: Фан, 1991. – 382 б.
231. Солижонов Й. Диалог ва унинг бадиий асардаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. –2002, 3-сон. –11 б.
232. Manz B. “Tamerlane’s career and its uses”, journal of world history.13, №1. (2002), –1-25.
233. Библиографический указатель // Общественные науки в Узбекистане. – Т., 1969. № 8 -9. –145 с.
234. Aikins, Janet E. To Know Jane Shore, “Think on all time backward” Text. / Janet E. Aikins // PLL. Summer 1982. – Vol. 18. – 277 p.
235. Kocher P. H. Marlowe's Art of War // Studies in Philology. – 1942. – 237 p.
236. Попова И. Литературная мистификация и поэтика имени // Филологические науки. –1992, –№1. – 122 с.

VIII. Internet saytlari

237. [хттпс://лех.уз/уз/досс/-5841063](https://lex.uz/uz/dosc/-5841063)
238. [хттпс://www.britannica.com/arp/ҳисторисал-новел](https://www.britannica.com/arp/ҳисторисал-новел);
239. [хттпс:// simple.википедиа.орг/вики/Ҳисторисал_новел](https://simple.wikipedia.org/wiki/Ҳисторисал_новел);
240. [хттп://www.dissersat.com/сторического-романа-вкиргизской-литературе](https://www.dissersat.com/сторического-романа-вкиргизской-литературе);
241. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfi_Saroyi.
242. <https://wikipedia.info.com>.
243. <http://ziyouz.com/>
244. <https://kitob.uz/>
245. <http://adab/uz>
246. <http://ilm-marifat/uz>

247. www.lex.uz

248. <http://www.dissercat.com/content.poetiqa>

249. www.birsafda.uz

250. <http://wikipedia.org/wiki>

251. <http://linguistics.conspects.com>

252. www.dic.academic.ru

253. [http://xreferat/com](http://xreferat.com)

254. <http://www.academia.edu>

255. <http://www.faylasuf.uz>

256. <https://iscience.in.ua>